PS Public Safety
Salvation is in education

Issue 1 06.2024

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy elektron jurnali



№1, 2024

“JAMOAT XAVFSIZLIGI”
ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich

TAHRIR HAY’ATI

SAIDOV Akmal Xolmatovich,
yu.f.d., professor, akademik;

DJURAYEV Rustam Mirzayevich,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yu.f.f.d., dotsent, general-mayor;

RUSTAMBAYEV Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yu.f.d., professor polkovnik (bosh muharrir);

TURG‘UNOV Oybek Karimovich,
yu.f.d., professor, podpolkovnik (mas‘ul muharrir);

XO‘JAMBERDIYEV Farrux Komilovich,
yu.f.f.d (PhD), kapitan

MAS’UL MUHARRIR

TURG‘UNOV Oybek Karimovich

MAS’UL KOTIB

XO‘JAMBERDIYEV Farrux Komilovich

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy elektron jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2022-yil 25-yanvar kunidagi №1507-sonli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan.

100211, Toshkent viloyati, Chorsu qo‘rg‘oni.
Tel: (71) 230-32-71 Faks: (71) 230-32-50
E-mail: mg_hti@umail.uz

MUNDARIJA
CONTENTS

Usmanova M.A., Nurmuxammedova G.B Raqamlashtirish sharoitida mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligini takomillashtirish 4

Alimov M.I. Harbiy jinoyat protsessini yaratishda konstitutsion asoslarining ahamiyati va ijtimoiy zaruriyati 9

Ataniyazov J.K. Bezorilik jinoyati: noaniq jumlalarning qo‘llanilishi va diskretsion vakolatlar 15

Qo‘shayev N.M. Dastlabki ayblovni o‘zgartishning protsessual jihatlari 28

Ikanov A.A. Transportda xavfsizlikni ta’minlashda profayling texnologiyasidan foydalanishning huquqiy asoslari tahlili 37

Abdullayev F.A. Ichki ishlar organlari tomonidan ma’muriy yo‘l bilan ushlab keltirish va ushlab turish tarzidagi ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash tartibi, shartlari va asoslari 43

Azizov Q. Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holatlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish 48

Nuraliyev M.M. Ishni sudga qadar yuritishda dalillarni qayd etishning protsessual tartibi 55

Abdumutalibov A.I. The criminal aspects of private military companies: a global perspective 63

Jo‘rayev A.A. “Dron” so‘zining fanga kirib kelishi tarixi 67

Shermuxamedov A. Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning turlari va dinamikasi: kriminologik tahlil 72

Ashurova N.O‘. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari muhofazasining xalqaro-huquqiy asoslari 78

Kulliyev I.M. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining harbiy sohadagi xalqaro hamkorlik faoliyatini o‘rganish zarurati 85

Kattaqulov M.Q. Voyaga yetmaganlarning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishga oid xorijiy davlatlar tajribasi tahlili 90

Qodirov T.T. Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish sohasidagi milliy manfaatlar 98

Olimjonov X.M. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini ijtimoiy zarurati 102

Valiboyev I.T. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan bezorilik jinoyatlarining jinoiy-huquqiy tavsifi 106

Turdaliyev Sh. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari 110

Xomidov E.O. Oliy ta’lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini huquqiy asoslarini nazariy tahlili 113

I

I. IJTIMOIY SIYOSAT, MA’NAVIY TARAQQIYOT VA MADANIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

1.1. TOLIPOV Abdug‘affor Abdunabi o‘g‘li, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i, dotsent, polkovnik;
1.2. MAXMUDOV Rozmet Muratovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta‘minlash kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori, professor;
1.3. YARASHEV Bobomurod Chalgashevich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta‘minlash kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik;
1.4. RASULOVA Nodira Sardorovna, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlar nomzodi, dotsent;
1.5. MIRZAYEV Gulom Rizoqulovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kapitan;
1.6. XURSANDOV Alisher Suyunovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rgatish kafedrasi boshlig‘i, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik.

II

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH

2.1. URMONOV Jahongir Jaloldinovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, iqtisod fanlar doktori, professor, podpolkovnik;
2.2. BOZOROV Akmal Amonovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, dotsent, mayor;
2.3. SHADMANOV Erkin Sherkulovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, professor;
2.4. VALIYEV Bobur Batirovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori, iqtisod fanlar doktori, dotsent;
2.5. MATYAKUBOV Bekzod Matnazarovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti O‘quv jarayonini nazorat qilish bo‘limi o‘qituvchi-uslubchisi, fizika fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), leytenant.

III

SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

3.1. TAXIROV Farxod, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
3.2. NURMATOV Mirgolib Mirzayevich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
3.3. USMANOVA Muborak Akmaldjanovna, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
3.4. GAZIYEV Shaxrux Murodaliyevich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, dotsent, kapitan;
3.5. MAXSADOV Maxsatullo Ismatovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik.
3.6. BABAYEV Akmal Abdukarimovich, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik.

IV

QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH

4.1. ZULFIQOROV Sherzod Xurramovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
4.2. CHORIYEV Murod Shokirjonovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, mayor;
4.3. AXMEDOVA Muqaddasxon Tursunovna, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;
4.4. YULDASHEV Sodiq Oqboyevich, Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi professori, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);
4.5. NIZOMIDDINXODJAYEV Ulug'bek Ruslanovich, Universitet kotibiyat boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik;
4.6. G'IYOSOV Bahriddin Hasan o'g'li, Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), kapitan.

V XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSAT YURITISH

5.1. ISMOILOV Isomiddin, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor;
5.2. TASHMANOV Yerjan Baymatovich, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi boshlig'i, texnika fanlari doktori, professor, podpolkovnik;
5.3. AZIZOV Sanjar Xanjarovich, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti boshlig'i, harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik;
5.4. RAXMONOV Farruh Erkinovich, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Maxsus taktik tayyorgarlik va jangovar qo'llash" kafedrasi dotsenti, harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik;
5.5. MAMARASULOV Davronbek Xasanovich, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xorijiy harbiy kadrlar bilan ishlash fakulteti boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), mayor;
5.6. TURSUNOVA Sabina Ravshanovna, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrasi katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), kapitan.



Usmanova Muborak Akmaldjanovna,
Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor


Nurmuxammedova Go‘zalxon Baxadirovna,
Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MEHNAT MUNOSABATLARI VA MEHNAT QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Maqolada raqamlashtirish jarayonining mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligiga ta’siri hamda ushbu jarayonni takomillashtirish zarurati tahlil qilingan. Mehnat qonunchiligini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishning asosiy jihatlari, elektron hujjat aylanishi, mehnat shartnomalarining onlayn tartibda tuzilishi, masofadan ishlash sharoitida mehnat huquqlari va majburiyatlarini aniq belgilash masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, yangi mehnat formatlari, masalan, frilanserlik va kiberxavfsizlik masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, mehnat qonunchiligi, mehnat munosabatlari, masofadan ishlash, elektron hujjat aylanishi, frilanserlik, kiberxavfsizlik.

So‘nggi yillarda jahonda globallashuv jarayonlarining tez suratlar bilan rivojlanishi, axborot texnologiyalarining va raqamli innovatsiyalarning keng joriy etilishi, barcha mamlakatlar aholisi hayotining turli jabhalarida tub o‘zgarishlar qilinishini taqozo etmoqda. O‘zbekistonda



raqamlashtirish jarayonlarining mehnat sohasini qamrab olishi munosabati bilan yollanma mehnat amaliyotida yangicha yondoshuv va mexanizmlar, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun sharoit yaratish, shuningdek, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilishning zamonaviy muammolari mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni davr talabiga moslashtirish vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Shu sababli bir qator muhim vazifalarni hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ish vaqti va mehnat me’yorlari bo‘yicha qonunchilikni qayta ko‘rib chiqish, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga oid samarali mexanizmlarni ishlab chiqish[1] kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi.» Biz ushbu strategiyada yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini eng oliy qadriyat etib belgiladik”[2].

Raqamlashtirish sharoitida mehnat qonunchiligini samarali isloh qilish masalasi hozirgi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Bu jarayon xodimlar huquqlarini himoya qilish, mehnat munosabatlarini avtomatlashtirish va yangi raqamli texnologiyalarga moslashuvchanlikni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Avvalo, mehnatni avtomatlashtirish va axborot texnologiyalarining integratsiyasi yangi ish formatlarini vujudga keltirmoqda, bu esa mehnat qonunchiligining yangilanishini tabiiy ravishda talab qilmoqda. Buning uchun mamlakatimiz xayotiga innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo‘yicha davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlarining uzviy hamkorligini ta’minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish orqali, mamlakatda “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratish ob’ektiv zaruratdir. Bunday jiddiy o‘zgarishlar sharoitida xodimlar huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash masalalari dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqadi. Amaldagi qonunchiligimizni esa raqamli iqtisodiyot sharoitida bu kelib chiqayotgan muammoli masalalarni hal qilish bo‘yicha yetarli darajada samarali ishlamoqda deb bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, mehnat qonunchiligini takomillashtirish masalasi bugungi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, mehnat migratsiyasi, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy etilishi mehnat munosabatlarini yanada kengroq tartibga solishga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Ushbu ehtiyoj bir necha asosiy sabablar bilan bog‘liq bo‘lib, bular:

- birinchidan, mehnat qonunchiligi fuqarolarning mehnat huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasiga muvofiq,[3] har bir inson mehnat qilish, adolatli va qulay mehnat sharoitlariga ega bo‘lish huquqiga egadir. Shu nuqtai nazardan, milliy qonunchilik xalqaro mehnat standartlariga muvofiq ravishda yangilanishi zarur. Mehnat shartnomalarining shaffofligi va ish beruvchi hamda xodim o‘rtasidagi munosabatlarning

qonuniy asosda rivojlanishi mehnat huquqlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega;

- ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashuvi va raqamlashuvi mehnat bozorida yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitlarda xodimlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab berish uchun qonunchilikning aniq va tushunarli bo‘lishi muhimdir. Shuningdek, mehnat huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish mehnat munosabatlarini tartibga solishga yordam beradi;

- uchinchidan, O‘zbekiston mehnat migratsiyasi jarayonlarida faol ishtirok etayotgan davlatlardan biri sifatida xalqaro mehnat huquqlarini amalga oshirishga katta e’tibor qaratishi lozim. Bu nafaqat milliy mehnat qonunchiligini mustahkamlash, balki mehnat migrantlarining xorijdagi huquqlarini himoya qilish uchun ham zarur. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyalariga qo‘shilish va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishning samarali usullaridan biridir;

- to‘rtinchidan, mehnat qonunchiligi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Aholi bandligi, ish haqi kafolati, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi ijtimoiy adolat tamoyillarini ro‘yobga chiqaradi. Shu sababli, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish va mehnat qonunchiligini yanada takomillashtirish zarur;

- beshinchidan, kuchli mehnat qonunchiligi ish beruvchilar uchun xalqaro bozorda ishonchlilik va barqarorlikni ta’minlaydi. Huquqiy tartibga solingan mehnat munosabatlari xorijiy investorlar uchun ham qulay muhit yaratadi, bu esa mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamlashtirish mehnat munosabatlari tizimiga quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi:

Mehnat munosabatlarini zamonaviy sharoitlarda samarali tashkil etish uchun avtomatlashtirish, masofaviy ishlash amaliyotini tartibga solish va elektron axborot tizimlaridan foydalanish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ish jarayonlarini avtomatlashtirish mehnat munosabatlarini shakllantirishda muhim qadam hisoblanadi, chunki bu jarayon mehnat shartnomalarini onlayn shaklda tuzish imkonini yaratadi. Avtomatlashtirilgan jarayonlar orqali ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi munosabatlarni tezkor va samarali tashkil qilish, shuningdek, hujjatlar aylanishini osonlashtirish mumkin.

Shuningdek, pandemiya davrida keng tarqalgan masofaviy ishlash amaliyoti mehnat qonunchiligida yangi yondashuvlarni talab qildi. Masofadan ishlash sharoitida ish vaqti va dam olish vaqtiga doir qoidalarni aniq belgilash zarur. Ish o‘rinlarining xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, xodimlarning ish yuklamasini adolatli taqsimlash masalalari ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonlarni me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solish ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mehnat munosabatlarida elektron axborot tizimlaridan keng foydalanish , raqamli platformalar orqali hujjat aylanishini tashkil etish ish yuritishni osonlashtirish, vaqtni tejash va jarayonlar shaffofligini ta’minlash imkonini beradi. Bunday tizimlar orqali ish jarayonlari haqidagi ma’lumotlarni avtomatik ravishda saqlash va kuzatish mumkin, bu esa nazoratni yaxshilaydi va suiiste’mol holatlarini kamaytiradi. Shu tariqa, raqamli texnologiyalar mehnat munosabatlarining samaradorligini oshirish va ish jarayonlarini zamonaviy standartlarga muvofiqlashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Mehnat qonunchiligini raqamlashtirish talablariga moslashtirishda quyidagi asosiy jihatlarga e’tibor qaratilishi lozim:

Mehnat munosabatlarini raqamlashtirish jarayonida elektron mehnat shartnomalari, raqamli imzo va elektron reestrlardan foydalanish huquqiy jihatdan to‘liq ta’minlanishi lozim. Bunday mexanizmlar mehnat shartnomalarini oson va tezkor tuzish imkonini berish bilan birga, ularning huquqiy kuchga ega bo‘lishini kafolatlaydi. Raqamli imzo mehnat shartnomalarini tasdiqlash jarayonini soddalashtiradi va ish beruvchi bilan xodim o‘rtasidagi kelishuvlarning aniq va shaffof bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, elektron reestrlar orqali mehnat shartnomalari, ish haqi va ish vaqtiga oid ma’lumotlarni avtomatik ravishda saqlash va kuzatish imkoni yaratiladi, bu esa hisobot berish jarayonlarini yengillashtiradi.

Xodimlar va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni samarali nazorat qilish uchun mehnat bozori ma’lumotlarini



raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirilgan ma'lumotlar tizimi orqali ishsizlik darajasini tahlil qilish, mehnat resurslari taqsimotini kuzatish va mehnat bozorining talab va taklifini aniqlash mumkin. Bunday tizim mehnat munosabatlarini tartibga solishda asosiy omil sifatida xizmat qilib, ish beruvchi va xodim o'rtasidagi potensial muammolarni oldindan prognoz qilishga yordam beradi.

Raqamlashtirish jarayonida yangidan paydo bo'layotgan kasblar va frilanserlik kabi yangi ish formatlari uchun huquqiy kafolatlarni yaratish ham muhim. Zamonaviy iqtisodiyotda mehnat bozoridagi talab va taklif tez o'zgarib, yangi kasblar va ishlash formatlari shakllanmoqda. Bunday sharoitda huquqiy hujjatlarning yangi realliklarga moslashuvchan bo'lishi kerak. Yangidan paydo bo'layotgan kasblarning huquqiy maqomini belgilash, ularning mehnat shartlarini aniqlash va frilanserlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun ijtimoiy kafolatlar yaratish bu yo'nalishdagi muhim vazifalardandir.

Shuningdek, elektron tizimlarda xodimlar haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Maxfiylikni ta'minlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish, ma'lumotlar bazalarini himoyalash va kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish lozim. Xodimlarga oid ma'lumotlar, jumladan, shaxsiy ma'lumotlar va ish faoliyatiga oid ma'lumotlar, noqonuniy tarzda tarqalishi yoki suiiste'mol qilinishi ehtimoliga qarshi maksimal darajada himoyalanishi kerak. Bu borada huquqiy normalarni takomillashtirish, axborot xavfsizligi standartlarini joriy etish va axborot tizimlari operatorlari uchun aniq majburiyatlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, mehnat munosabatlarining raqamlashtirilishi jarayonida huquqiy kafolatlarni yaratish, ma'lumotlarni shaffof va xavfsiz tarzda boshqarish hamda yangi mehnat formatlariga moslashuvchan mexanizmlarni ishlab chiqish mehnat bozorini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Shaffoflikni ta'minlash va mehnat munosabatlarini yanada aniq, qonunchilikka muvofiq tashkil etishda elektron tizimlarni joriy etishning ahamiyati juda katta. Barcha mehnat munosabatlarining elektron tizimlarda qayd etilishi nafaqat qonunbuzarliklarni aniqlashni osonlashtiradi, balki ularning oldini olishga ham ko'mak beradi. Bu borada barcha ma'lumotlarning markazlashtirilgan elektron bazada saqlanishi muhim o'rin tutadi. Mehnat shartnomalari, ish vaqtini qayd etish, ish haqini hisob-kitob qilish, xodimlarning mehnat staji haqidagi ma'lumotlarning to'liq va aniq holda saqlanishi qonunbuzarliklar yoki noaniqliklar kelib chiqish ehtimolini minimallashtiradi. Bunday tizimlar orqali inspeksiyalar qonunchilikka zid holatlarni tezda aniqlab, zarur choralarni ko'rishlari mumkin. Shu orqali shaffof va samarali mehnat bozori shakllanadi.

Raqamli platformalarning joriy etilishi ish jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Hujjatlarni yuritishni avtomatlashtirish mehnat resurslarini tejabgina qolmay, vaqt tejashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ishga qabul qilish yoki ishdan bo'shash jarayonlarida elektron platforma orqali barcha zarur hujjatlar tayyorlanib, markazlashtirilgan tizimda saqlanadi. Bu jarayonlarni tezlashtiribgina qolmay, hujjatlardagi xatoliklarni kamaytiradi va inson omili ta'sirini minimallashtiradi.

Fuqarolar uchun qulaylik masalasi ham raqamli texnologiyalar joriy etilishida alohida ahamiyatga ega. Xodimlar endi o'zlariga tegishli ma'lumotlarni olish uchun turli idoralarga murojaat qilishga yoki vaqt va mablag' sarflashga majbur bo'lmaydilar. Masalan, mehnat shartnomasining nusxasini olish yoki mehnat staji haqidagi ma'lumotlarni talab qilish fuqarolar tomonidan onlayn tarzda amalga oshiriladi. Bunday imkoniyat xodimlar uchun yangi qulayliklar yaratib, ularning o'z mehnat huquqlarini himoya qilishda yanada ishonchli mexanizmga ega

bo‘lishlarini ta’minlaydi. Bundan tashqari, bunday onlayn ma’lumotlar orqali ish beruvchilar ham xodimlarning tajribasini, stajini yoki mehnat huquqlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni osonlik bilan tekshirib olishlari mumkin.

Shu tariqa, mehnat munosabatlarida elektron tizimlardan foydalanish nafaqat shaffoflik va ish samaradorligini oshiradi, balki fuqarolarga qulaylik yaratish orqali umumiy mehnat bozorini takomillashtiradi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mehnat sohasidagi munosabatlarni yanada samarali, ochiq va qulay shaklga keltirishda muhim omil hisoblanadi.

Mehnat qonunchiligini raqamlashtirish sharoitida yanada samarali bo‘lishini ta’minlash uchun:

1. Elektron hukumat va mehnat munosabatlari sohasidagi raqamli platformalarni rivojlantirish: Elektron hukumat va mehnat munosabatlari sohasidagi raqamli platformalarni rivojlantirish nafaqat davlat boshqaruvidagi samaradorlikni oshiradi, balki mehnat munosabatlarini zamonaviylashtirib, ularni shaffof, samarali va fuqarolar uchun qulay qilishga ko‘maklashadi. Bu mehnat bozorining rivojlanishiga, ish joylarida qonunbuzarliklarning oldini olishga va umumiy iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Xodim va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni raqamli vositalar orqali tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni takomillashtirish: huquqiy hujjatlarni takomillashtirish nafaqat mehnat munosabatlarini raqamlashtirish jarayonini huquqiy asos bilan ta’minlaydi, balki mehnat bozoridagi shaffoflikni oshirish, qonunbuzarliklarning oldini olish va xodimlar huquqlarini yanada samarali himoya qilishga yordam beradi. Shu tariqa, xodim va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy kafolatlari mustahkamlanadi hamda mehnat munosabatlari sohasida raqamli transformatsiya jarayoni samarali tarzda amalga oshiriladi.

3. Yangi texnologiyalar bo‘yicha kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish: mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, ish joylarini saqlab qolish va iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlar nafaqat o‘z kasblarida yuksak muvaffaqiyatga erishadilar, balki yangi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shadilar.

4. Raqamli iqtisodiyotga mos kasblar uchun yangi standartlar va normalarni joriy etish: mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, ishchi kuchining global bozorga integratsiyasini ta’minlash va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur. Bu jarayonda innovatsiyalarni joriy etish, ta’lim va huquqiy tizimlar o‘rtasidagi hamkorlikning kuchaytirilishi o‘ta muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, mehnat huquqi sohasida raqamlashtirishni keng yo‘lga qo‘yilishi, mehnat munosabatlarini takomillashtirishda, bu orqali fuqarolarimizning mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash hamda mamlakatimizning o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadi – Yangi O‘zbekistonni[4] barpo etishda muhim omildir. Zero, bu jarayonda barqarorlik va innovatsion yondashuv orqali samarali islohotlarni amalga oshirish kelgusi rivojlanishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B.31.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг инаугурация маросимидаги нутқи (6 ноябрь 2021 йил). // https://president.uz/uz/lists/view/
3. Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. //Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. –Т.:Адолат, 2002, 48-54-бетлар
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. www.xs.uz расмий сайти. 20.12.2022

Alimov Muhammadjon Islomiddin o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotsenti yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

HARBIY JINOYAT PROTSESSINI YARATISHDA KONSTITUTSION ASOSLARINING AHAMIYATI VA IJTIMOIY ZARURIYATI

Mazkur maqolada harbiy jinoyat protsessining dunyo mamlakatlari tajribasining yuridik tahlili, mazkur tahlil asosida ushbu turdagi jinoyatlar yuzasidan sudga qadar ish yurituvda harbiy xizmatchini jinoyat protsessining alohida sub’ekti sifatida belgilash yuzasidan asoslantirilgan takliflar berilgan.

Kalit so‘lar: Jinoyat, harbiy jinoyat protsessi, konstitutsiya, jinoiy javobgarlik, harbiy jinoyat, harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar.

В данной статье проводится правовой анализ опыта стран мира в области военно-уголовного процесса, на основе этого анализа выдвигаются предложения по результатам досудебного производства по данному виду преступлений выделить военнослужащего в качестве отдельного субъекта уголовного процесса.

Ключевые слова: преступления, военно-уголовный процесс, конституции, уголовная ответственность, воинские преступления, преступления против порядка прохождения военной службы.

This article provides a legal analysis of the experience of countries around the world in the field of military criminal procedure, based on this analysis, proposals are put forward based on the results of pre-trial proceedings for this type of crime to single out a serviceman as a separate subject of criminal proceedings.

Keywords: crimes, military criminal procedure, constitutions, criminal liability, military crimes, crimes against the order of military service.



Amaldagi yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi” belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarning subekti sifatida jinoyat protsessual huquqida harbiy xizmatchilarni tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov bosqichlarida huquqlari va manfaatlarini davlat xizmatining alohida turini bajarganligi sababli jinoyat protsessining alohida subekti sifatida e’tirov etish va alohida ish yurituvga olishning ijtimoiy zaruriyati mavjud.

Hozirda dunyo mamlakatlarida olib borilayotgan harbiy harakatlar va harbiy xavflar shuni ko‘rsatmoqdaki harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi va boshqa turdagi jinoyatlarni sodir etilishi va ularing jamiyat va davlat hayoti, xavfsizligi uchun ahamiyati borgan sari ortib bormoqda.

Harbiy xizmatchilar tomonidan jinoyat sodir etilishining salbiy oqibatlari to‘g‘risida bir qator qarashlar mavjud. bir guruh olimlar tomonidan harbiy xizmatchilarning noqonuniy xatti-harakatlari xavfi ob’ektiv ravishda mamlakatda harbiy intizomning zaiflashishi, harbiy xizmatni jamoatchilik oldida obro‘sizlanishiga, jangovar tayyorgarlikni pasayishiga va natijada qo‘shinlarning o‘z konstitutsiyaviy vazifalarini to‘g‘ri bajara olmasligiga va davlatning tinchlik davrida mudofaa doktrinasini amalga oshirishi bilan bog‘liq jangovar tayyorgarlik va mudofaa qobiliyati nafaqat tashqi tahdidlardan himoya qilish qobilyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida baholangan holda, balki mazkur omillar milliy harbiy barqarorlik va mamlakat ichki barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qilishi aytiladi[1].

Shu bilan birgalikda, yana bir qator olimlar tomonidan harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyat sodir etilishi harbiy xizmat sohasidagi ijtimoiy muhitni salbiy tomonga murakkablashishi va harbiy xizmatga jinoyatlarga jinoiy-huquqiy vositalari rolining sezilarli darajada pasayishiga, tarbiyaviy va profilaktik ishlarining keskin zaiflashishiga, qo‘shinlarda ruhiy holat, harbiy intizomning pasayishiga va harbiy xizmat obro‘sining tushishi bilan parallel ravishda armiyani shartnoma asosida professional tarzdagi harbiy xizmatga o‘tkazishga olib keladi va natijada davlatning armiyaga bo‘lgan xarajatlarini oshirishga sabab bo‘lishini ta’killashadi[2].

Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni qonuniy tartibga solishning xalqaro tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki ushbu jinoyatlarni tinchlik davrida sodir etilishi urush davrida sodir etish fakti kabi malakalanishi tartibida belgilanishi zarurligini tasdiqlaydi. Bu xulosa quyidagi holatlarga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi:

birinchidan, harbiy jinoyat qonuni harbiy xavfsizlikni ta’minlash zarurligini ro‘yobga chiqarish davlat tomonidan ma’lum vaqt davomida hal qilinadigan vazifalarning ustuvorligiga bog‘liqligidan kelib chiqadi. Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar xavfi ularning sodir etilgan vaqtiga qarab ortishi yoki kamayishi mumkin. Shu ma’noda urush vaqtida sodir etilgan jinoyatlar eng katta xavf sifatida baholangan holda mazkur jinoyatlarni jazolanishi tinchlik davrida harbiy xizmatchilar tomonidan jinoyat sodir etilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jinoiy-huquqiy oqibatlar bilan taqqoslanadi.

ikkinchidan, harbiy xizmat o‘tash tartibiga jinoyat qonunchiligi an’anaviy ravishda urush davri uchun mo‘ljallangan normalar hatto jangovar operatsiyalarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda ham shaxsiy tarkibga nostandart vaziyatlarda noto‘g‘ri qaror qabul qilish fazilatlarini shakllantirishiga sabab bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Harbiy xizmatchilar nafaqat qurolli kurash vositalari haqida professional bilimga ega bo‘lishlari, balki ekstremal sharoitlarda harakat qilishga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishlari, o‘z huquq va majburiyatlarini, balki urush paytida yoki jangovar vaziyatda jinoiy harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlikni belgilovchi huquqiy normalarni ham bilishlari kerak ekanligini hisobga olgan holda harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni jinoiy huquqiy tartibga solishini muhim sanaladi[3].

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda harbiy xizmatchilarni jinoyat sodir etishi nafaqat tinchlik davrida sodir etilgan qilmish uchun o‘zining jinoiy ta’qibga uchrashida, balki o‘zining harakat yoki harakatsizligi orqali Qurolli Kuchlarning

jangovar shayligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishiga shuningdek, davlatning mudofaa qobilyatini susayishiga sabab bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Shu nuqta'i nazardan, harbiy xizmat o'tash tartibiga qarshi jinoyat subektlari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar nafaqat harbiy xizmat o'tash tartibiga, balki davlatning mudofaa qobilyatiga susayishiga sabab bo'lishi bilan bir qatorda harbiy xizmatchi mazkur sodir etgan harbiy xizmat o'tash tartibiga qarshi jinoyati bevosita davlat xizmatining alohida turi ekanligini hisobga olgan holda mazkur toifadagi jinoyatlar yuzasidan alohida ish yuritish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, rus olimi Gubko A.A.ning fikriga ko'ra davlatda harbiy jinoyatlarni sodir etish ko'lamini oshib borishi jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatgan tizimli inqirozga olib kelishi, iqtisodiyotda-ishlab chiqarishning keskin pasayishi, o'rnatilgan o'zaro tashqi aloqalarining uzilishi, yagona milliy iqtisodiy kompleksning yo'q qilinishi va milliy iqtisodiyotni boshqarish tizimining buzilishi, ijtimoiy-siyosiy sohalarda tabaqalanish va jamiyatning ijtimoiy va sinfiy tuzilishidagi sifat o'zgarishi, ijtimoiy qarama-qarshilikning kuchayishi va ma'naviy sohada-ijtimoiy sohadagi qarama-qarshiliklarning kuchayishiga sabab bo'lishini aytgan[4].

Shunigdek, rus olimlari Israilov I.I. va Zatelepin O.K., Morgulenko Ye.A., Xomyakov A.I.[5] lar harbiy xizmat o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etilishi yuqorida keltirilgan salbiy oqibatlarni ta'kidlagan holda, mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etilishiga jamiyatdagi ijtimoiy muhit va ijtimoiy muammolarni yechilganligi ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Mazkur keltirilgan olimlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki harbiy xizmatchilarning jangovar va xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq vaziyatlar va holatlar nafaqat ularning ruhiy va fiziologik holatlariga, balki mazkur bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni o'z vaqtida bajarilmasligiga, mazkur vazifalarni bajarilmasligi yoki sifatsiz bajarilishi nafaqat jangovar shaylikka balki davlat va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligini tadqiqotlarimiz ko'rsatmoqda.

Shu sababli, harbiy xizmat o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar jinoyatni sodir etgan subektning xizmat o'tash bilan bog'liq psixologik va fiziologik holatlarini, harbiy xizmat o'tash tartibi bilan bog'lik holatlar va amalga oshirilish mumkin bo'lgan protsessual harakatlarni mazkur jinoyatning o'ziga xosligini (harbiy va xizmat sirlari, harbiy qism va muassasaning joylashgan joyi va rejasini va b.x.) inobatga olgan holda harbiy xizmatchilar ishtirokida va harbiy xizmat o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar yuzasidan alohida tartibda ish yurituvni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birgalikda, rus olimi V.I.Nikonenkoning fikriga ko'ra harbiy oliy ta'lim bilim yurtlaridagi kursantlar tomonidan jinoyat sodir etilishi, ularning ta'lim davrida (ayniqsa bitiruvchi kurslarda) intizomsizlik sodir etishi yoki o'quv dasturlarini past yoki sust o'zlashtirishi natijasida bilim yurtlaridan chetlashtirilishi Qurolli Kuchlar tizimidagi kadrlarni zahirasini shakllantirishga, shuningdek davlat byudjetiga zarar keltirilishi bilan xarakterli hisoblanishi ta'kidlangan. Shu o'rinda aytishimiz lozimki mamlakatimizda oldin muddatli harbiy xizmatni o'tagan oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantini o'qitish uchun sarflangan byudjet mablag'lari va undiriladigan mablag'lar hajmi 5 yillik o'qish uchun — zaxiraga bo'shatilgan vaqtida O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining 430 baravari, 4 yil uchun — 350 baravarida, oldin muddatli harbiy xizmatni o'tamagan oliy-harbiy ta'lim muassasasi kursantidan 5 yillik o'qish muddati uchun — zaxiraga bo'shatilgan vaqtida O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining 350 baravari, 4 yil uchun — 270 baravariga teng hajmda mablag'lar undirilishi belgilangan[7].

Mazkur sarf etilgan pul mablag'lari evaziga davlat harbiy oliy ta'lim muassasasini bitirgan yosh ofitser uchun majburiy tarzda 5 yil mobaynida davlat uchun ishlab berish majburiyatini yuklaydi. Lekin, amaliyotda keyinchalik boshqa har qanday sababga ko'ra mazkur besh yillik ishlab berish majburiyatini bajarmagan kursantga sarflangan xarajatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar sifatida baholangan holda sud tartibi undirish choralari ko'rilishi belgilangan.

Lekin, hozirda masalaning ikkinchi tarafini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. Mazkur holatda davlatning 4 yil davomidagi huquqni muhofaza qilish yoki mudofaa sohasidagi kadrlar zaxirasini saqlash va uni tartibga solish sohasidagi

davlat rejasi talablarini buzilishini va mazkur o‘qish davrida o‘qishdan chetlatilgan kursantning o‘rniga mazkur davrga teng ravishda kursantni qabul qilish imkoni yo‘qligini inobatga olish zarur. Bu degani, davlatni yaqin kelajakdagi mudofaa qobilyati yoki huquqni muhofaza qilish sohasidagi imkoniyatlariga (kadrlar bilan ta’minlash sohasida) salbiy ta’sir ko‘rsatishi yoki ochiq qolgan mazkur lavozim majburiyatlari boshqa harbiy xizmatchiga qo‘shimcha yuklama sifatida yuklanishiga olib keladi.

Mazkur yuqorida keltirilgan holatni tahlil etadigan bo‘lsak harbiy oliy ta’lim muasasalarida tahsil olgan bir dona kursantni tahsil olish jarayonida yoki ofitserlik lavozimda xizmat o‘tash davrida jinoyat sodir etishi yoki boshqa o‘ziga bog‘liq holda xizmatdan bo‘shatilishi natijasida nafaqat o‘zining moddiy javobgarlikka tortilishini, hattoki jamiyat va davlat, shuningdek mamlakatning mudofaa qobilyati zarar ko‘rishini ko‘rishimiz mumkin.

Shu sababli, mazkur holatlarni oldini olish va harbiy xizmatni davlatning alohida turdagi xizmati ekanligini, shuningdek, harbiy xizmatchini alohida toifadagi davlatning maxsus vazifasini bajarish bilan bog‘liq harbiy xizmatni o‘tashini inobatga olgan holda harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan alohida ish yurituv tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birgalikda, “Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar” tushunchasi amaldagi JKning VIII bobida nazarda tutilgani kabi “Harbiy xizmatchilar, shuningdek harbiy mashqni o‘tash davrida harbiy xizmatga majbur shaxslar tomonidan harbiy xizmatni o‘tashning belgilangan tartibiga qarshi qilingan jinoyatlar”ni tushunish maqsadga muvofiq.

Lekin, mazkur tushunchalar bir-biridan farqli o‘laroq O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 noyabrdagi №29-sonli Qarori bilan tartibga solingan “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining kirish qismining 2-3-xatboshilarida “Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar” termini o‘rniga “Harbiy jinoyatlar” termini qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur qaror matniga ahamiyat beradigan bo‘lsak mazmunan “Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar” yuzasidan fikr bildirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli mazkur qaror matnidagi “Harbiy jinoyatlar” jumlasini “harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar” tariqasidagi jumlalar bilan almashtirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan fikrlar va tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan sudga qadar ish yurituv va sud muhokamasini protsessual va tashkiliy tartibini takomillashtirishga ijtimoiy zaruriyati mavjud. Mazkur tarbiblarni takomillashtirish yuzasidan quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

1. Harbiy xizmatchilarni davlat xizmatining alohida turi bilan shug‘ullanganligini, ularni xizmat o‘tash davrida dalat, xizmat va harbiy sirlar bilan tanishganligini, shuningdek, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni jamiyatdagi fuqarolar orasida umumiy asosda muhokama qilinishi harakatdagi armiyani obro‘sizlantirilishiga yoki fuqarolarni Qurolli Kuchlarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotilishiga sabab bo‘lishini oldini olish maqsadida ular tomonidan sodir etilan jinoyatlar yuzasidan alohida tartibda ish yurituvni joriy etish maqsadga muvofiq. Shu asosga ko‘ra amaldagi JPKga yangi bob sifatida 601-modda (Harbiy xizmatchilarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish)ni kirtish maqsadga muvofiq;

2. Harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etilgan harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi va boshqa jinoyatlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv davrida yuzaga kelayotgan bir qator muammolarni yechish maqsadida tergovga qadar tekshiruv davrida kriminalistik tadqiqot natijalaridan foydalanish tartibini jariy etish, harbiy qism hududida yoki harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etilgan jinoyat yuzasidan darhol harbiy prokuraturaga xabar berish bo‘yicha komandir va boshliqlarga immunitet hosil qilish, harbiy qismda olib borilayotgan tergovga qadar tekshiruvni sifatli olib borish maqsadida mazkur protsessual va noprotsessual harakatlarni olib borish uchun alohida shtat lavozimida harbiy qism tergovga qadar tekshirukv mansabdor shaxsi lavozimini joriy etish maqsadga muvofiq;

3. Hozirda “Harbiy jinoyatlar” va “Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar” tushunchalariga aniqlik kiritgan holda amaldagi JKning 8-bo‘limida keltirilgan

“Harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar” tushunchasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 noyabrdagi №29-sonli Qarori bilan tartibga solingan “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining kirish qismining 2-3-xatboshilarida keltirilgan “Harbiy jinoyatlar” terminini o‘zgartirish maqsadga muvofiq.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Шулепов Н.А. Теоретические основы реализации уголовной ответственности военнослужащих: автореф. дис. ... док. юрид. наук. Москва, 2001. С. 4; Безнасюк А.С., Толкаченко А.А. Уголовные наказания военнослужащих: теория, законодательство, практика. М., 1999. С. 7; Иншаков С.М. Преступность в армии: иллюзии и реальность // В кн.: Преступность и законодательство. М., 1996. С. 331-334; Карпов Н.Н. Преступность в войсках и правовая политика государства // Там же. С. 316-331; Эминов В.Е., Мацкевич И.М. Преступность военнослужащих: исторический, криминологический, социально-правовой анализ. М., 1999; Эминов В.Е., Мацкевич И.М. Неосторожная преступность военнослужащих. М., 2000.

2. Жарких В. Насилие в воинской среде: некоторые социальные и правовые аспекты // Социальный порядок -гуманистическому развитию общества: Материалы II Всероссийской научной конференции (25-26 октября 2001г.). Краснодар, 2001 С. 5; Акоев К.Л., Кауфман М.А. и др. Объективная сторона преступления (факультативные признаки). М. 1995; Алексеев А.И., Герасимов С.И., Сухарев А.Л. Криминологическая профилактика: теория, опыт, проблемы. М 2001; Антонян Ю.М. Изучение личности преступника. М., 1982; Белявский В.Т. Правовые основы укрепления воинской дисциплины и предупреждения правонарушений в ВС. СССР. М., 1983; Иванов В .Д., Мазуков С.Л. Субъективная сторона преступления. Ростов-на-Дону, 1999; Корецкий Д.А. Уголовно-правовой режим средств самообороны. М., 2003.

3. Жарких В.А. Насильственные преступления против военной службы: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Краснодар, 2005.

4. Губко А.А. Объект воинского преступления: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Санкт-Петербург, 2004.

5. Исраилов И.И. Преступления против порядка подчиненности и воинских уставных взаимоотношений (уголовно-правовой аспект): автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 2011., Зателепин О.К. Объект преступления против военной службы: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 1999., Моргуленко Е.А. Причины и меры предупреждения нарушений уставных правил взаимоотношений военнослужащих при отсутствии между ними отношений подчиненности: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 2003., Хомяков А.И. Преступления против порядка подчиненности и воинских уставных взаимоотношений: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 2002.

6. Никоненко В.И. Раная профилактика преступлений курсантов высших военно-учебных заведений: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Иркутск, 2003.

7. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати, Давлат божхона қўмитаси, Ўзбекистон алоқа ва ахборотлаштириш агентлигининг 2009 йил 16 октябрдаги 10, 12, 281, 100, 90, 01-02/5-27 ва 325-сонли қўшма Қарори. www.lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan)

6. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent: Adolat.2013. - 552 b.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” gi O‘RQ-269- II-son Qonuni

8. https://parliament.gov.uz/articles/372

9. https://yuz.uz/uz/news/vstuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata.mirzi-yoeva-na-konferentsii-organizatsii-obedinyonnx-natsiy-po-izmeneniyu-klimata.cop28

10. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2019.,

11. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-soliq-va-yigimlar-adolatli-bolishi konstitutsi-yada-huquqiy-mustahkamlanmoqda_465809

12. Davlat va huquq asoslari: O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar muassasalari uchun darslik / N.Ismatova, O.Karimova. - Birinchi nashr. - Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. - 144 b.

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD)

BEZORILIK JINOYATI: NOANIQ JUMLALARNING QO‘LLANILISHI VA DISKRETSION VAKOLATLAR

Ushbu maqolada bugungi kunda bezorilik jinoyatlari bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergov o‘tkazishda uchrayotgan kvalifikatsion muammolar va mavzuga doir boshqa masalalar tadqiq etilgan. Maqolada bezorilik jinoyatining dispozitsion sharhi, unda berilgan ayrim jumlalarni qo‘llashda mavjud muammolar huquqiy sharh qilinib, ularning huquqiy ta’rifi qonunchilikda aks etishi lozimligi borasidagi takliflar berilgan. Shuningdek, bezorilik jinoyatining dispozitsiyasi va og‘irlashtiruvchi holat hisoblangan “umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik” jumlasi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonunining 13-moddasiga muvofiq, noaniq jumla sifatida qayd etilganligi hamda uni amaliyotda diskretsion vakolatlarga sabab bo‘layotganligi huquqiy, tahliliy yoritilib, muammoning huquqiy yechimi sifatida mazkur jumlaga ilmiy-huquqiy ta’rif ishlab chiqilib, uni Jinoyat kodeksining 8-bo‘limiga atamalarning izohli sharhiga qayd etilishi lozimligi borasidagi xulosaga kelingan.

Kalit so‘zlar: bezorilik, jamoat joyi, kvalifikatsiya, o‘taketgan behayolik, jinoyat, kvalifikatsion chegara, kibermakondagi bezorilik, virtual bezorilik.



Mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi asosiy sa’y-harakatlar – bu mahallada va oilalarni tinchlik va totuvlikni ta’minlashga qaratilgandir. Bu jarayonlarda mahallani xavfsiz hududga aylantirish, ko‘cha va jamoat joylarida jinoyat sodir etish kabi salbiy holatlarni oldini olish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Jamiyatda jinoyatchilikka murosasiz munosabatni shakllantirishning eng samarali usullaridan biri bu – jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “.... ayni vaqtda hozirgi murakkab zamon tinch osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta’minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda”

Jinoiy javobgarlikka sabab bo‘luvchi bezorilik jinoyati O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 277-moddasida keltirib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra, “Bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilsa,” deya belgilangan.

Z.Abdimuratovning fikricha, “Jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik deganda, qonunlarga, axloq-odob normalariga, jamiyatda mavjud bo‘lgan urf-odat va an’analarga hurmatsizlik tushuniladi”[1].

Z.Abdimuratovning fikriga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, jamiyatda yurish-turish qoidalari nisbatan keng tushuncha ekanligi, uning ma’lum mezonlar asosida belgilanmaganligi bois, ularning aynan nimalarda aks etishini normani o‘zida asoslash mushkul. Biroq qonunchilik va norma ijodkorligida mavxum va turli xilda talqin etilishi mumkin bo‘lgan so‘zlar hamda jumlalardan foydalanish taqiqlanadi.

A.A.Xudoyberdiyevning fikriga ko‘ra, jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik bilan bog‘liq harakatlarning batafsil va qat’iy ro‘yxatini berish mushkul bo‘lib, bu ishning xususiyatidan kelib chiqib baholashni talab etadigan jarayon hisoblanadi[2, 145-151-b].

Mazkur fikrlarga qo‘shilish mumkin, chunki huquqni qo‘llash amaliyotida ma’lumki, bu ro‘yxat belgilanib qo‘yilishiga muhtoj emas, ya’ni ba’zan ko‘chada shaxsning kiyimsiz holati bunday ahloq qoidalariga zid bo‘lsa, boshqa holatda jamiyat xurmat bilan bo‘ladigan munosabatga bexurmatlik qilish (masalan shaxidlar xotirasi uchun qo‘yilgan sag‘anaga bavl qilish) jamiyatdagi yurish-turish qoidalariga zid hisoblanadi.



Jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik deganda, normativ-huquqiy hujjatlar, odob va axloq normalari, urf-odat, an'analar bilan belgilangan jamoat tartibini (odamlararo munosabatlar, yurish-turish qoidalari, shakllangan ijtimoiy turmush tarzini) qo'pol tarzda buzish tushuniladi.

Yuqorida tahlili amalga oshirilgan mayda bezorilik huquqbuzarligi va jinoiy bezorilik ishlar ma'muriy preyuditsa ishlariga taaluqli emasligini unutmaslik lozim. Shu bois ma'muriy javobgarlikka sabab bo'luvchi huquqbuzarlik takroriyligidan qat'iy nazar, bezorilik jinoyati Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan harakat chegarasidan chetga chiqqan yoki faol harakat yoxud ancha miqdordagi zarar keltirib chiqargan taqdirdagina kelib chiqadi.

Aynan ushbu chegarani aniqlash va uni isbotlash huquqni qo'llovchi amaliyotchilar uchun muhim vazifa hisoblanadi. Bu chegara shaxs tomonidan buzilmas ekan bu harakatlar takroriyligi qanchani tashkil etilishidan qat'iy nazar jinoyat sifatida baholanishi mumkin emas.

Biroq amaliyotda o'zgacharoq uslubda huquqni qo'llash shakllanib ulgurdi. Bugungi kunda amaliyotchilarni bezorilik harakatlariga huquqiy baho berishda mavjud eng katta muammo sifatida mazkur aniq tahlilning mavjud emasligidir. Sababi mayda bezorilik huquqbuzarligi va bezorilik jinoyatlari o'zaro o'xshash harakatlarni nazarda tutadi hamda qilmishga huquqiy baho berishda mazkur o'hshashlik kvalifikatsion adashishlarni keltirib chiqaradi.

J.A.Djavkashevning fikriga ko'ra mayda bezorilikni to'g'ri huquqiy baholash uchun aynan normada keltirilgan harakatlarni qasddan sodir etilishini zaruriy shart deya baholab, unda uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish, jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakatlar sodir etish, fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlar sodir etilishi kabi harakatlarni nazarda tutadi deydi, hamda mazkur harakatlarni barchasini bir vaqtda emas, balki ulardan birortasi sodir etilishi huquqbuzarlik deb topish uchun yetarli hisoblanadi[3, 540-b].

A.A.Xudayberdiyev va Y.B.Iskandarovlar bezorilik jinoyatiga tavsif berib unda, jamiyatda yurish turish qoidalarini qasddan mensimaslik yo'li bilan sodir etiladigan bezorilikni jinoyat sifatida baholash uchun qilmishda quyidagi belgilardan biri mavjud bo'lishi shart: urish-do'pposlash bilan bog'liq xatti-harakatlar; badanga yengil shikast yetkazish; ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda o'zganing mulkiga shikast yetkazish; ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda o'zganing mulkini nobud qilish[4, 35-41-b].

Yuqoridagi fikrlariga qo'shilish mumkin, sababi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 9-sonli qaroriga ko'ra, bezorilik qilmishini jinoyat sifatida baholash uchun yuqorida ko'rsatilganlarning (urish-do'pposlash; badanga yengil shikast yetkazish; ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda o'zganing mulkiga shikast yetkazish; ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda o'zganing mulkini nobud qilish) barchasining bir vaqtda mavjud bo'lishi talab etilmaydi.

O'z navbatida jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, yengil tan jarohati yetkazish yoki mulkka ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud nobud qilish deganda nimani tushunish lozimligini bilib olishimiz zarur.

Jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik deganda, normativ-huquqiy hujjatlar, odob va axloq normalari, urf-odat, an'analar bilan belgilangan jamoat tartibini (odamlararo munosabatlar, yurish-turish qoidalari, shakllangan ijtimoiy turmush tarzini) qo'pol tarzda buzish tushuniladi.

Jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik bilan bog'liq harakatlarning batafsil va qat'iy ro'yxatini berish mushkul bo'lib, bu ishning xususiyatidan kelib chiqib baholashni talab etadigan jarayon hisoblanadi.

Urish-do'pposlash deganda, aybdor tomonidan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan buzib, shaxsning badaniga shikast yetkazmagan holda bir necha zarba berish tushuniladi.

Mazkur turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda eng ko'p duch kelinayotgan xatolardan biri – bu amaliyotchilar nuqtai nazarida mayda bezorilik huquqbuzarligida ham shaxs urish-do'pposlash kabi harakatlarini sodir etishi mumkin degan tushunchaning mavjudligidir. Ya'ni, shaxs bezorilik harakatlarini sodir eta turib, jabrlanuvchining badaniga sud tibbiy nuqtai

nazardan baholanishi mumkin bo‘lmagan tan jarohatini yetkazishi yoki sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazgan hollarda qilmishni mayda bezorilik huquqbuzarligi sifatida baholash amaliyotda ko‘plab uchraydi.

Xususan, Jinoyat ishlari bo‘yicha Yakkabog‘ tuman sudining 2023-yil

27-maydagi qaroriga ko‘ra E.O. (muqaddam ma’muriy javobgarlikka tortilgan) jamiyatda yuurish-turish qoidalarini qasddan mensimasdan shu yerda bo‘lgan O.D.ni bir necha marotaba urib tan jarohati yetkazigan bo‘lsa-da, unga nisbatan MJtKning 183-moddasi (mayda bezorilik) va 198-moddasi (hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaslik yoki xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilish) 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir qilgan deb topilib, unga 15 sutka ma’muriy qamoq jazosi tayinlangan[5].

Bunga bir qancha omillar sabab, xususan tadqiqot ishi doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar davomida bir guruh amaliyotchilar buni jinoyatlar statistikasini oshib ketishini oldini olish zarurati ekanligi bilan bog‘liqligini bildirgan bo‘lsa(31%), boshqa guruh amaliyotchilar huquqni qo‘llovchilarni bu boradagi bilimlari yetarli emasligi bilan izohlaydilar(29%)[6].

B.Berdialiyev o‘zgacharoq fikr bildirib, “bezorilikka oid Oliy sud plenumida Qarorida shaxsga yengil tan jarohati yetkazish deganda qanday darajadagi (ma’muriy yoki jinoiy) yengil tan jarohat nazarda tutilmaganli gi, shu bois, ushbu qoidaga aynan qasddan yengil tan jarohati yetkazish jinoyatini sodir etsa, degan qo‘shimcha kiritishni taklif etgan”[7, 255-260-b].

Ushbu fikrlarga qo‘shilish imkonsiz, sababi keltirib o‘tilgan Oliy sud plenumi Qarorida JKning 277-moddasida keltirilgan jinoyat va MJtKning

183-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikning chegarasini tavsiflash uchun sog‘liqning qisqa muddatga buzilishiga sabab bo‘lgan bo‘lmaganligidan qat’iy nazar badanga yengil shikast yetishi bilan bog‘liq barcha holatlar inobatga olinishini unutmasligimiz lozim.

Shuningdek, amaliyotchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar davomida, bezorilik jinoyatining sub’ekti tomonidan jabrlanuvchiga yuqorida bayon etilgan og‘irlikda yetkazilgan tan jarohati bilan bog‘liq hollarda qilmishni mayda bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi asosiy sababi sifatida isbotlash bilan bog‘liq hollarda uchraydigan to‘siqlar yoki jabrlanuvchi ayblanuvchi bilan o‘rtalarida oldindan ixtilof bo‘lganini bildirib o‘zining ko‘rsatmasidan qaytishi hollari sabab bo‘layotganligini bildirishdi[6].

JKning 277-moddasi ikkinchi qismi “g” bandidagi “umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik” jumlalari bo‘yicha qayd etish lozimki, bezorilik bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv va dastlabi tergov harakatlarini olib borayotgan tergovchi hamda surishtiruvchilar orasida mazkur asosni qo‘llashda ham disreksion vakolatlar seziladi.

S.Avezovning fikriga ko‘ra, ahloqiy munosabatlarning ham chegarasi mavjud bo‘lib, ular jamiyatdagi barqaror ijtimoiy muhitni ta’minlash uchun juda zarur hisoblanadi. Bezorilik harakatlarini o‘taketgan behayolik bilan sodir etilgan deb topishda ishning muayyan holatlari majmuidan kelib chiqiladi hamda sodir etilgan jinoyatning xususiyati, vaqti, joyi va shart-sharoitlarini inobatga olinadi[8].

Muallif o‘zining fikrlarini ko‘p kvartirali uyning balkonida namoyishkorona, ya’ni boshqalarga ochiqdan-ochiq ko‘rinib turgan holatda (devorlar va oynalar bilan o‘ralmaganligi, ko‘chaning barcha uchun ko‘rishi mumkin bo‘lgan tarafiga qaraganligi va boshqa) jinsiy aloqa qilish sud tomonidan fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik deb baholanishi bilan asoslagan holda keltirgan.

Biroq ushbu holatda, ayrim ekspertlar balkon jamoat joyi toifasiga kirmasligi, u xususiy mulkning bir bo‘lagi bo‘lganligi uchun uning hududida amalga oshirilgan jinsiy aloqa qonunchilikni buzmagan hisoblanadi, talqinida fikrlar bildiradilar. Albatta, ushbu fikrlar aholini chalg‘itadi va turar joylarning balkonida shunday harakatlarni bemalol qilish mumkin degan noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin.

V.S.Yegorovning fikricha axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik belgilari qonunchilikda aniq qayd etilishi, boshqa

jinoyatning belgilaridan farqlash uchun xizmat qiladi[9, 28-b].

Shu kabi fikrlarni V.I.Zarubin[10, 24-b], T.Gore, C.Maundy[11, 342-b] va A.V.Kudelnich[12, 44-b] singari olimlar ham bildirib o‘tgan bo‘lib, bezorilikning eng muhim belgisi sifatida aynan jamiyatda o‘rnatilgan ahloq qoidalarni namoyishkorona mensimaslikni chegara deb bildiradilar.

Olimlar o‘z milliy qonunchiligi nuqtai nazardan bildirgan fikrlarida haq ekanligini, biroq O‘zbekiston Jinoyat kodeksida bu og‘irlashtiruvchi holat sifatida ikkinchi qismda nazarda tutganligi uni aniq ifodalash zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida” 9-son Qarori 5-bandida “Bezorilik harakatlarini Jinoyat kodeksi 277-moddasi 2-qismining «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda sud aybdorning aynan qaysi harakatlari o‘taketgan behayolik, deb baholanayotganligini hukmda ko‘rsatishi shartligi” shuningdek, “Bezorilik harakatlari o‘taketgan behayolik bilan sodir etilgan deb topish masalasini hal etish chog‘ida sud ishning muayyan holatlari majmuidan kelib chiqishi hamda sodir etilgan jinoyatning xususiyati, vaqti, joyi va shart-sharoitlarini inobatga olishi lozim”ligi qayd etilgan.

Ma’lum bo‘ladiki, JKning 277-moddasi 2-qismining «g» bandida nazarda tutilgan “umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik” deganda aynan qanday holat tushunilishi lozimligi normativ hujjatlarda aniq qayd etilmagan. Xatto yuqoridagi Oliy sud plenumi ham bunda sudning ishning muayyan holatlari majmuidan kelib chiqib ishga baho berishini tavsiya etmoqda.

Ba’zi qonunshunos olimlar mazkur bandni yosh bolalar, qariyalar va xotin-qizlardan iborat omma oldida shaxsning butunlay yalang‘och holatda yurishini misol qilib ko‘rsatsalar[13, 15-19-b], boshqa bir guruh olimlar xuddi shunday omma ichida yalag‘och holatda jinsiy aloqa qilishni shunday misol o‘laroq e’tirof etishadi[14, 179-b]. Ammo shu sohada tadqiqot olib borgan olimlarning barchasi shu turdagi qilmishlarni barchasini omma oldida, jamoat tartibiga o‘ta xurmatsiz shaklda amalga oshirilishini zaruriy shart sifatida baholaydilar.

Bizningcha, surishtiruvchi va tergovchilarning moddaning ushbu bandini turlicha sharh qilish va qo‘llashidagi tafovvut undagi ma’noning turli xilda mazmun kasb etishi bilan bog‘liq.

Xususan, 2020-yilning 9-iyun kuni taxminan soat 22:40 da Qo‘shko‘pir tumani Ittifoq mahallasida yashovchi 20 yoshli H.O., dugonalari D.A., L.M., M.M., D.K.,lar bilan birgalikda yashash uyiga kelayotganida, oldidan 31 yoshli S.D.,ning boshqaruvidagi “Nexia” rusumli avtomashina kelib to‘xtaganida, avtomashinadan shu mahallada yashovchi K.D., R.D, va O.D.,lar tushib, “Sen nima uchun o‘g‘lim va kelinimni turmushini buzib, buzg‘unchilik qilib yuribsan” deb har xil so‘zlar bilan haqorat qilib, urib tan jarohati yetkazgan hamda ushbu holatni shu yerda bo‘lgan S.D. o‘zining uyali telefon apparatiga videotasvirga olib turgan.

Sud tibbiy ekspretiza xulosasida, X.O. chap bilak, chap-o‘ng yelka, boldir, chap son va ko‘krak qafasini qontalashlari bo‘lib, yengil tan jarohati olganligi aniqlangan.

Mazkur holat yuzasidan Qo‘shko‘pir tumani bo‘yicha IIO FMB xuzuridagi tergov bo‘linmasi tomonidan K.D., R.D., O.D. va N.R.,larga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasi 2-qismi “b,g” bandlari (bir guruh shaxslar tomonidan, o‘z mazmuniga ko‘ra umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik bilan bezorilik sodir etilsa) bilan qo‘zg‘atilgan va ish mazmunan ko‘rib chiqilgan[15].

Biroq, Samarqand shahrining Sartepa massivida kechasi omma oldida yalang‘och holda yurgan 44 yoshli J.N va 28 yoshli O‘.T.ga nisbatan Samarqand shahar sudining 2020-yil 2-mart kunidagi qaroriga asosan[16], Xorazm viloyatining Urganch shahri markazida yalang‘och holatda yurgan 1994-yilda tug‘ilgan J.M. nisbatan Urganch shaxar sudi tomonidan[17], Surxondaryo viloyati Denov tumani 2022-yil 5-noyabr kuni soat 22:00lar atrofida yalang‘och holda ko‘chada harakatlangan fuqaro Denov tumanida yashovchi 1999-yilda tug‘ilgan S.M.ga nisbatan Denov tumani sudi tomonidan[18], yoki Toshkent shaxar Chilonzor tumanining Muqimiy ko‘chasida 2020-yil 10-avgust kuni soat 16.30 larda 22 yoshli yigit yalang‘och holda aylanib yurganligi holati bo‘yicha[19] va shunday yana o‘nlab holatlar bo‘yicha sudlar tomonidan MJtKning 183-moddasi bilan

huquqiy baholanib ularga nisbatan ma’muriy qamoq tarzidagi jazolar qo‘llanligan.

Mazkur holatlarda jamoat tartibining buzilishi, ommaning osoyishtaligiga putur yetishi bilan bir vaqtda holat bevosita yoki bilvosita videoyozuvga olingan hamda ijtimoiy tarmoqlarga tarqatilganligi, bu kabi holatlar tez-tez takrorlanib borayotganligi sababli uning ijtimoiy xavflilik darajasini oshirmoqda. Biroq yuqorida qarindosh-urug‘chilik munosabatlarida kelib chiqqan ixtilof sababli jamoat joyida o‘zaro janjallashgan fuqarolarga nisbatan JKning 277-moddasi 2-qismi “g”bandi qo‘shimcha kvalifikatsiya qilingan va huquqiy baholangan mazkur holatda shaxslarning aynan qaysi harakati shu band bilan kvalifikatsiya qilinganligi mavxumligicha qolgan.

Bu borada “faqatgina omma oldida jinsiy aloqa qilinishi shu band bilan huquqiy baholanishi yoki bu band bilan kvalifikatsiya qilish uchun JKning 277-moddasi 1-qismida keltirilgan harakatlar sodir etilishi lozimmi?” degan haqli savol tug‘iladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida” 9-son Qarori 2-bandida faqatgina JK 277-moddasi 2-qismining «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilishdagi ya’ni bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bezorilikda JKning 277-moddasining 1-qismi alomatlari bo‘lsagina ushbu band bilan javobgarlik kelib chiqishi qayd etilgan, demak JKning 277-moddasi 2-qismi “g” bandida nazarda tutilgan qilmish sodir etilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Germaniyada bu borada jinsiy aloqa qilayotgan shaxslar boshqa fuqarolar ularni ko‘rmasligi yoki eshitmasligi uchun barcha ehtiyot choralarini ko‘rishlari kerak. Aks holda, ular nafaqat jamoat tartibini buzganlik uchun ming yevrogacha miqdorda jarima, balki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan ham jazolanishi mumkin (GFR Jinoyat kodeksining 183-moddasi)[20].

AQShda ko‘pgina shtatlarda jamoat joylarida jinsiy aloqa qilishni taqiqlovchi qonunlar mavjud. Biroq, har bir holatda qilmish sodir etilgan joyni jamoat joyi hisoblanishi yoki hisoblanmasligi sud tomonidan individual yondashuv asosida hal qilinadi. Agar shaxs kunduzgi vaqtda ko‘chada mashinada jinsiy aloqa bilan shug‘ullansa va bu yo‘lovchilarga aniq ko‘rinadigan bo‘lsa, unda mashina saloni jamoat joyi sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, Nyu-York sudi tomonidan People v. McNamara, 585 N.E.2nd 788 (1991) ishi bo‘yicha qilmish boshqa shaxslarga ko‘rinmaganligi sababli mashinadagi jinsiy aloqa holatini, aynan boshqalarga ko‘rinmagani uchun jamoat joyidagi jinsiy aloqa deb topmagan[21].

Shuningdek, AQShda jamoat joyi va binolaridagi jinsiy aloqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiq faqatgina ushbu hududlardagi hojatxonalarga nisbatan belgilangan. Bunda, balkon yoki boshqa joyning jamoat joyi hisoblanishi yoki hisoblanmasligi masalasi holatga, jamoatchilik nigohiga osonlik bilan tashlanishiga qarab, sud pretsedentlari asosida hal qilinadi. AQShning Kaliforniya (Jinoyat kodeksining 314 va 647 (a)-moddalari) [22] va Texas (Jinoyat kodeksining § 21.07 (a)-moddasi) [23] shtatlarida jamoat joyida jinsiy aloqa qilish, agar ushbu aloqa jarayonini atrofdagi shaxslar ko‘rib qolishi ehtimoli mavjud bo‘lsa, jinsiy aloqa qaerda sodir bo‘lganidan qat’iy nazar, bu holat jinsiy aloqaga kirishgan shaxslarni javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi. Jamoat joyi deyilganda, ushbu tushunchaga xattoki o‘zining garajida turgan shaxsiy mashinasida jinsiy aloqaga kirishganda hamda bunda agar garaj eshiklari ochiq qolgan bo‘lsa ham atrofdagi insonlar ko‘rib qolish ehtimoli mavjud bo‘lganligi sababli, jamoat joyida jinsiy aloqa qilish deb talqin qilinadi. Jamoat joyi deb talqin qilinmasligining sharti bo‘lib, garaj va mashina eshiklarining to‘liq yopilganligi va garajda oynalarning mavjud emasligi belgilangan.

Ushbu mazmundagi qonunchilik Avstraliyaning Kvinslend va Yangi Janubiy Uels shtatlarida ham mavjud bo‘lib, bir guruh shaxslar hordiq chiqarayotgan plyajda, agar shaxs jinsiy aloqaga kirishsa va ushbu jarayon atrofdagi shaxslar tomonidan ko‘rilishi ehtimoli mavjud bo‘lsa, jinsiy aloqaga kirishgan shaxs jamoat tartibini buzgan hisoblanadi va ushbu holat huquqbuzarga nisbatan jarima yoki qisqa muddatli qamoq jazosini qo‘llash bilan jazolanadi[24].

Buyuk Britaniyada ham xuddi AQShdagiday qoidalar amal qiladi. Shu bilan birga, jamoat joyidagi jinsiy aloqa uchun javobgarlikka tortishda ikki qonun normalari ham inobatga olinadi. Bular:

Jamoat tartibi to‘g‘risidagi Qonunning (1986) 5-moddasiga muvofiq, bunday xatti-harakat boshqalarning eshitish qobiliyati

yoki ko‘rishi doirasida sodir etilgan bo‘lsa[25];

Jinsiy jinoyatlar to‘g‘risidagi Qonunga (2003) ko‘ra, xatti-harakatni jinoyat deb topish uchun shaxs o‘zining jinsiy organlari qasddan ko‘rsatilgan bo‘lsa javobgarlikka sabab bo‘ladi[26].

Kanadada jamoat joyidagi jinsiy aloqa jazoga tortilishi uchun bu bir yoki bir nechta boshqa shaxslar ko‘z oldida amalga oshirilishi kerak. Agar bu bir yoki bir nechta boshqa shaxslar ko‘z oldida amalga oshirilsa yoki bir yoki bir nechta boshqa shaxslar buni ko‘rish ehtimoli bo‘lsa, unda juftlik Kanada Jinoyat kodeksining 173-moddasiga uyatsiz qilmish sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilishi (maksimal jazo 18 oylik qamoq) mumkin[27].

Xorvatiya qonunchiligiga binoan, xatto fuqarolarning yashash xonadoni balkoni jamoat joyi sifatida talqin etilib, bunday joylarda jinsiy aloqa qilish javobgarlikka tortishga asos bo‘lib xizmat qilib, 3-7 ming xorvat kunasigacha (tahminan 450-1100 AQSh dollari) miqdorda jarimaga sabab bo‘ladi[28].

Mazkur tushuntirish insonlar hayotining axloqiy-huquqiy jihatlariga ta’sir etuvchi ijtimoiy masalalarga taalluqli bo‘lganligi bois, jumlaga qonuniy izoh berish hamda uni normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yish zarurati mavjud.

Shu bois bu borada JKning 8-bo‘limida atamalarning izohli sharhiga aynan umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik jumlasiga huquqiy sharh qayd etish maqsadga muvofiq.

Bezorilik jinoyatlariga huquqiy baho berishda yana bir e’tibor berish lozim bo‘lgan jihat mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasi uchinchi qism “g”bandida bezorilik: jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko‘rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko‘rsatib sodir etilgan bo‘lsa uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi nazarda tutilgan.

Amaliyotda bezorilik jinoyatlarini tergov qilish jarayonida holatga yuqoridagi band bilan huquqiy baho berish kelib chiqayotgan bir qator xatoliklar uchraydi.

Jumladan: Sirdaryo viloyati Yangiyer shaxar A.Jomiy MFY A.Jomiy ko‘chasida joylashgan do‘kondan A. ismli shaxs bir baklashka pivo olib do‘kon egasiga pulini to‘lamasdan do‘konni tark etishga harakat qiladi va unga qarshilik qilgan B. ismli sotuvchiga hech bir sababsiz qo‘llari bilan bir necha zarba beradi. Bu vaqtda do‘konda bo‘lgan V. ismli shaxs ularni ajratishga harakat qiladi, biroq A.ismli shaxs V. ismli shaxsga hech qanday tan jarohati yetkazmasdan B. ismli sotuvchiga yana bir necha zarba berib voqea joyidan yashirinadi. Shunday bo‘lsa-da, Yangiyer shaxar IIB huzuridagi tergov guruhi tergovchisi mazkur holatni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasi uchinchi qism “g” bandi bilan malakalaydi[29].

Yuqoridagi holatdan ma’lum bo‘lmoqdaki, amaliyot bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko‘rgan shaxsga “qarshilik ishlatish”ni noto‘g‘ri talqin qilmoqda.

“Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining Qarori 10-bandida Bezorilik harakatlari davomida aybdor jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish (to‘xtatish) chorasini ko‘rgan boshqa fuqarolarga faol qarshilik ko‘rsatsa, shu jumladan, ularga nisbatan o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish darajasida zo‘rlik ishlatsa, bunday qilmish Jinoyat kodeksi 277-moddasi 3-qismining «g» bandi bilan to‘liq qamrab olinadi va Jinoyat kodeksining boshqa moddalari bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.” deya belgilangan[30].

M.X.Rustambayev bu borada “Hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish – qasddan urish, yengil yoki og‘ir tan jarohati, jismoniy og‘riq yetkazishda ifodalanadigan faol harakatlardir. Jamoat tartibini qo‘riqlash vazifasini bajaruvchi hokimiyat vakili yoki jamoatchilik yoxud bezorilik harakatiga qarshilik qilgan fuqaro badaniga o‘rtacha shikast yetkazishni keltirib chiqargan qarshilik ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.” deb ta’kidlaydi[31, 272-b].

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda shuni e’tirof etish lozimki, amaliyotda jinoyatlarni malakalash bilan bog‘liq uchrayotgan aksariyat xatoliklar aynan normada ishlatilgan mavxum so‘zlar yoki turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lgan jumlalarni qo‘llanganligi bilan bog‘liq degan

fikrdamiz. Shu sababli bezorilik jinoyati nazarda tutilgan mazkur bandda “qarshilik qilish” degan jumlalarni “urib-do‘pposlab” yoki “yengil tan jarohati yetkazib” degan jumlalar bilan almashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi Plenum qarorida urish-do‘pposlashga tushuntirish berilgan bo‘lib, unga ko‘ra – aybdor tomonidan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan buzib, shaxsning badaniga shikast yetkazmagan holda bir necha zarba berish tushuniladi.

Yuqorida nomi keltirilgan Oliy Sudi Plenumining 9-son Qaroriga muvofiq, mayda bezorilik harakatlari davom etib, aybdorning keyingi harakatlari shaxsni urish-do‘pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki mulkka ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud nobud qilish bilan sodir etilgan bo‘lsa, shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilmasdan, faqat jinoiy javobgarlikka tortiladi deb belgilab qo‘yilgan.

Ya’ni, Oliy sud shaxs bezorilik harakatlarini sodir eta turib, jabrlanuvchining badaniga sud tibbiy nuqtai nazardan baxolanishi mumkin bo‘lgan aynan qanday tan jarohatini yetkazishi javobgarlikni keltirib chiqarishi borasida tushuntirish bermagan.

Bu esa o‘z navbatida huquqni qo‘llovchi amaliyotchilar o‘rtasida turli xildagi tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Bu borada o‘tkazilgan so‘rovnomalar davomida, respondentlarning ko‘pchiligi (44%) bunday hollarda jabrlanuvchiga sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelgan qasddan badanga yengil shikast yetkazgan hollardagina bezorilik jinoyatini tarkibini berishini bildirgan bo‘lsa, 29 % respondentlar bunda og‘irlik darajasidan qat’iy nazar yetkazilgan tan jarohati bilan bog‘liq hollarda qilmishni bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozimligini bildirishdi[6].

Yuqoridagi so‘rovnoma natijalaridan ham ma’lum bo‘lmoqdaki, amaliyotchilar bu borada yakdil fikrga ega emas. Shu sababli, Sudlar mayda bezorilik hisoblangan ma’muriy huquqbuzarlikni bezorilik jinoyatidan farqlovchi Plenum qarori qayta qabul qilishi va bu borada barcha nazariya va amaliyotda mavjud muammolar bo‘yicha tushuntirishlar berib o‘tishlari maqsadga muvofiq. Qolaversa “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 9-son Qarori 2002-yil 14-iyundan buyon amalda ekanligi va o‘tkan davr mobaynida mazkur holatlarga oid ijtimoiy munosabatlar o‘zgarganligi hamda yangicha vaziyatlar bu borada ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etishini unutmaslik lozim.

Shu bilan birga, bugungi kunda virtual makon va virtual jarayonlar kabi tushunchalar paydo bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar va ulardagi kontentlarga nisbatan haqorat yoki uyatli so‘zlar, jumlalar va turli tasvirlar bilan haqoratlar yoki uyatli so‘zlar ishlatilish holatlari kuzatilmoqda. Bunday hollarda javobgarlikning turi va jazo choralari borasida qanday yo‘l tutilishi lozim?, degan tabiiy savol tug‘iladi.

F.Qurbonboyevning fikriga ko‘ra “qonunchilikka “raqamli jamoat joyi” tushunchasini kiritish lozimligini bildirib, unda e’lon qilinayotgan har bir munosabatni tartibga solish, bunday tartibga bo‘ysunmaganligi uchun esa maxmuriy tartibda javobgarlik qilish lozimligini” ta’kidlaydi[32].

Bu borada yangi avlod olimlaridan S.Turemuratovning fikricha “Agar internet tarmog‘i orqali hech kim o‘qish imkoniga ega bo‘lmaydigan, faqatgina foydalanuvchi o‘zi o‘qishi mumkin bo‘lgan “chat”larda uyatli so‘zlar bilan so‘kinishlar ishlatilsa yoki shaxsni kamsituvchi so‘zlar ishlatilib haqorat qilishsa bu – haqorat qilish deb topilishi, agar barcha o‘qish imkoni mavjud bo‘lgan joylarda huddi shunday harakatlar sodir etilsa, bu mayda bezorilik deb topilishi lozim”[33, 36-b]ligi to‘g‘risidagi xulosalarga kelgan.

Ushbu fikrlarga qisman qo‘shilgan holda shuni e’tirof etish lozimki, haqiqattan ham shaxsning virtual makonda faqatgina dialog ko‘rinishida ifodalangan suhbatida bir shaxsning 2-shaxsga nisbatan uning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi haqoratli so‘zlar ishlatilishida “haqorat qilish” nomli MJtKning 41-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikning tarkibini tashkil etadi. Sababi mazkur ma’muriy huquqbuzarlik normasining dispozitsiyasida “haqorat qilish, ya’ni shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish” deya belgilab qo‘yilgan. Demak qanday usul yoki vosita yordamida bu amalga oshirilishidan qat’iy nazar shaxsning o‘zga shaxs sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish qasdi bilan harakat amalga oshirilsa huquqbuzarlik tugallangan

hisoblanadi.

Biroq S.Turemuratovning barcha o‘qish imkoni mavjud bo‘lgan joylarda huddi shunday harakatlar sodir etilsa, bu mayda bezorilik deb topilishi lozimligi borasidagi fikrlariga qo‘shilmaymiz, sababi bunda agar aybdorning qasdi aynan o‘zga shaxsning qadr-qimmatini kamsitishda ifodalangan bo‘lsa, bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqorat nomli jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Fikrimizga asos sifatida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 140-moddasi ikkinchi qismida keltirilgan dipozitsiyani keltirish lozim, ya’ni bunda “Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko‘paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida joylashtirish orqali haqorat qilish”, deya belgilangan. Demak haqoratning mazmuni shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitilishi ko‘pchilikka ayon bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarzda sodir etilishi, shu jumladan OAVda, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida joylashtirish orqali sodir etilishi o‘z-o‘zidan bir shaxsga ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lgan haqoratdan ijtimoiy xavfliligi yuqori hisoblanadi. Shu sababli qonun chiqaruvchi uni og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlikni nazarda tutgan.

Boshqa tomondan uyatli va haqoratli so‘zlarni virtual makonda biror-bir shaxsni (aniq shaxsni, uydirma yoki ommaning ma’lum toifasini emas) qadr-qimmatini kamsitishni ko‘zlamasdan uyatli so‘zlarni ishlatilishini mayda bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim, degan fikrdamiz. Sababi bunda biror-bir shaxsning emas balki shu virtual makonda bo‘lgan ommaning osoyishtaligini buzuvchi, tarmoq foydalanuvchilarini behuzur qiluvchi hamda ahloq qoidalariga zid xatti-harakat sifatida baholanadi.

Misol uchun: Yakkabog‘ tumani IIBga “Madaniyat” mahallasida yashovchi fuqaro B.M., “Yangihayot” mahallasida yashovchi S.S., va “To‘qboy” mahallasida yashovchi M.Sh. ariza bilan murojaat qilib, unda Yakkabog‘ tumani, “Madaniyat” mahallasida yashovchi fuqaro Q.N ijtimoiy tarmoqning telegram kanali orqali ularni sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma’lumotlar tarqatib, ish faoliyatiga to‘sqinlik qilgan holda haqorat qilib kelayotganligini ma’lum qilib chora ko‘rishni so‘ragan.

Mazkur holat yuzasidan Yakkabog‘ tuman IIB xodimlari tomonidan olib borilgan surishtiruv ishlari davomida, fuqaro Q.N. ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolar B.M., S.S. va M.Sh.larni sha’ni va qadr-qimmatini kasmituvchi so‘zlar bilan haqoratlagan. Holat yuzasidan daliliy-ashyolar tegishli tartibda protsessual rasmiylashtirilib olingan.

Holat bo‘yicha Yakkabog‘ tumani IIB huzuridagi Tergov bo‘linmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi JKning 140-moddasi 3-qismi “a” bandi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan[34].

Shunday bo‘lsa-da, huquqni qo‘llash amaliyotida ijtimoiy tarmoqlarda ko‘pchilikka ma’lum tarzda aynan aniq shaxsni sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi haqoratli so‘zlar ishlatilgan hollarni sud mayda bezorilik sifatida baholash hollari uchraydi.

Jumladan, 2023-yilda aktrisa S.F.ni instagram ijtimoiy tarmog‘ida haqorat qilgan A.I.ning harakatlari MJtKning 183-moddasi bilan malakalanib, unga uzil-kesil 15 sutka muddatga ma’muriy qamoq tariqasida jazo qo‘llangan[35].

Bu borada xorij olimlaridan Y.S.Yefimova va A.S.Zinsovalarning fikriga ko‘ra, raqamlashtirish rivojlangani sari yoshlarning virtual makonda agressiya, haqorat, zo‘ravonlik va bezorilik harakatlari kuzatilmoqda. Kiberbulling tushunchasi fanga kirib kelib, uni – texnologiya yordamida o‘zganing sha’ni va qadr-qimmatini sababsiz kamsitish yoki uni ko‘pchilik oldida behurmat qilish bilan kechuvchi harakat sifatida baholash ekanligini ta’kidlaydi[36, 65-66-b].

Birinchi bor kiberbulling tushunchasini fanga Bil Belsi (Bil Belsey) olib kirgan bo‘lib, u kiberbullinga axborot texnologiyalardan foydalangan holda o‘zga shaxslar yoki shaxslar guruhini kamsitish sifatida ta’rif bergan[37, 12-17-b].

Shu bilan birga 2007-yilda AQShda ta’lim vazirligi tashabbusiga ko‘ra, dunyoga mashhur bo‘lgan MySpace, Facebook, Bebo, YouTube singari ijtimoiy tarmoqlarda kiberbullingga qarshi kurash tadbirlariga doirasida virtual bezorilikni amalga oshiruvchi kanallarni bloklash kampaniyalarni tashkil etilgan[38].

Albatta bir qarashda kiberbulling faqatgina yoshlar va maktab o‘quvchilari orasida keng tarqalganday tuyuladi, biroq bugungi kunda ijtimoiy tarmoqda hammaga birday ta’sir etuvchi (ayniqsa ayollarga

nisbatan) ahloq qoidalariga zid kiberbulling ko‘rinishlari avj oldi. Bugungi kunda kiberbulling turlari sifatida trolling, xeyting, freyping, dissing, auting, ketfishing, stalking, griffing, seksting singari ko‘rinishda aks etmoqda[39].

Rossiya Federatsiyasida kiberbulling ko‘rinishida sodir etilgan huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilanishi borasidagi tashabbus ilgari surilgan bo‘lib, unga ko‘ra virtual makonda internet xizmat (servis)lar elektron xat-xabar (soobщeniya)lar bilan haqorat qilish, tahdid qilish, qo‘rqitish, bezorilik harakatlari uchun ham ma’muriy ham jinoiy javobgarlik belgilanishi ko‘zda tutilmoqda[40, 272-b].

Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning aksariyatida virtual makonda sodir etilgan bezorilik jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lsa[41], Yangi Zelandiya davlati birinchilardan bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlarda haqorat qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilagan[42].

Amerika Qo‘shma Shtatlarining 44 ta Shtatida kibermakondagi bezorilik, haqorat va obro‘sizlantirish uchun jinoiy javobgarlik qayd etilgan[43, 1-20-b]. Germaniya Federativ Respublikasida kiberbulling va virtual bezorilik mazmuniga ko‘ra fuqarolik yoki jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin. GFRda bunday turdagi jinoyat xususiy ayblov qatoriga kiritilgan bo‘lib, javobgarlik sanksiyasida 10 yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilganligi bilan e’tiborga sazovor[44, 298-314-b].

Bundan tashqari Janubiy Koreya va Fransiya davlatlarida ham internet tarmoqlarida bezorilik hamda tahdidlar uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda[45].

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, virtual makonda bo‘lgan ommaning osoyishtaligini buzuvchi, tarmoq foydalanuvchilarini behuzur qiluvchi hamda ahloq qoidalariga zid xatti-harakat sifatida baholanishi lozim bo‘lgan huquqbuzarlik turini belgilab qo‘yish zarurati mavjud. Sababi O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasida keltirilgan harakatlar mazkur turdagi huquqbuzarlikning tarkibini qamrab olmagan va bu o‘z-o‘zidan huquqni qo‘llovchi amaliyotchilarni normani turli xilda talqin qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Yuqoridagi amaliy misollar bunga asos bo‘la oladi.

Yuqoridagi bezorilik jinoyatiga oid tadqiqotlar natijasida quyidagi muammolarni bayon etishimiz mumkin. Jumladan:

birinchi, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik deganda, normativ-huquqiy hujjatlar, odob va axloq normalari, urf-odat, an’analar bilan belgilangan jamoat tartibini (odamlararo munosabatlar, yurish-turish qoidalari, shakllangan ijtimoiy turmush tarzini) qo‘pol tarzda buzish tushuniladi;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 2-qismi “g” bandida nazarda tutilgan “umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik” jumlasi insonlar hayotining axloqiy-huquqiy jihatlariga ta’sir etuvchi ijtimoiy masalalarga taalluqli bo‘lganligi bois, ushbu jumlaga qonuniy izoh berish hamda uni normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yish zarurati mavjud;

uchinchidan, Bezorilik jinoyatlariga huquqiy baho berishda O‘zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi uchinchi qism “g” bandida bezorilik: “jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko‘rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko‘rsatib sodir etilgan bo‘lsa” bandidagi “qarshilik qilish” degan jumlalarni “urib-do‘pposlab” yoki “yengil tan jarohati yetkazib” degan jumlalar bilan almashtirishni maqsadga muvofiq;

to‘rtinchidan, bugungi kunda virtual makon va virtual jarayonlar kabi tushunchalar paydo bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar va ulardagi kontentlarga nisbatan haqorat yoki uyatli so‘zlar, jumlalar va turli tasvirlar bilan haqoratlar yoki uyatli so‘zlar ishlatilish holatlari kuzatilayotganligi bois, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hamda Jinoyat kodeksiga ushbu ijtimoiy xavfli qilmishni belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tahlillar natijasida O‘zbekiston Respublikasi JKning 8-bo‘limida atamalarning izohli sharhiga aynan umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik jumlasiga quyidagi mazmunda huquqiy sharh qayd etish maqsadga muvofiq.

Umum e’tirof etgan axloq qoidalarini

namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik – jamoat joylarida ommaga namoyishkorona tarzda behayolik bilan munosabatda bo‘lish ya’ni shaxslarning jinsiy a’zolarini berkitishi lozim bo‘lgan kiyimlarini kiymasdan yoki butunlay kiyimsiz yoxud fuqarolarning nazari tushishi mumkin bo‘lgan joylarda jinsiy aloqa qilish.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 1831-moddasini kodeksga kiritish va uni quyidagicha belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq.

1831-modda. Virtual mayda bezorilik

Virtual mayda bezorilik, ya’ni ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘idagi foydalanuvchi ommaning osoyishtaligini buzuvchi, tarmoq foydalanuvchilarini behuzur qiluvchi yoki ahloq qoidalariga zid mazmundagi xat-xabarlar, rasmlar yoki boshqa video-foto materiallar joylash —

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga

2771-moddasini quyidagi tahrirda kiritish maqsadga muvofiq.

2771-modda. Virtual makondagi bezorilik

Virtual makondagi bezorilik, ya’ni ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘idagi foydalanuvchi ommaning osoyishtaligini buzuvchi, tarmoq foydalanuvchilarini behuzur qiluvchi yoki ahloq qoidalariga zid mazmundagi xat-xabarlar, rasmlar yoki boshqa video-foto materiallar joylash, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilsa;

b) jabrlanuvchini o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bog‘liq holda;

v) xavfli residivist tomonidan yoki haqorat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan qilingan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligi qonunlar bilan kafolatlangan, biroq bu jamiyatda umum qabul qilingan axloq normalarini toptashga izn bermaydi, ya’ni xatto xususiy mulk hududida ham muayyan qoidalarga rioya qilish lozim. Shundagina jamiyatdagi sog‘lom muhit barqaror bo‘lib, uning asrlar davomida shakllangan axloqiy qadriyatlari bus-butunligiga putur yetmaydi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Z.Abdimuratov Jinoyat ishlari bo‘yicha Sho‘rchi tuman sudining devonxona mudiri // Bezorilik jinoyati tushunchasi [The concept of the crime of bullying] // https://nor.uz/?p=16101
2. Xudayberdiyev A.A. Jamoat joylarida sodir etiladigan bezorilik huquqbuzarliklarining kriminologik tavsifi [Criminological description of bullying offenses committed in public places] // Development of pedagogical technologies in modern sciences International scientific-online conference – T.,– 2022
3. Djavkashev J.A. Bezorlik jinoyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari. [The crime of bullying and its peculiarities] Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). 2022-y. p 540
4. Xudayberdiyev A.A., Iskandarov Y.B. Jamoat joylarida sodir etiladigan bezorilik huquqbuzarliklarining kriminologik tavsifi. [Criminological description of bullying offenses committed in public places] // https://doi.org/10.5281/zenodo.7432078
5. Article on the official pages of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan https://t.me/oliysuduz шунингдек, https://t.me/s/AzizAbidov?q=15+Расмий ахборот
6. Results of questionnaire surveys conducted as part of the research work.
7. Bakhtiyor Berdiyaliyev Bezorilik tushunchasi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning turi sifatida [The concept of bullying as a type of crime against public order] // Jamiyat va innovatsiyalar – Obshhestvo i innovatsii – Society and innovations Journal home page: DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-

iss6/S-pp255-260
8. Avezov S., Jamiyatdagi axloqiy munosabatlarning chegaralari ham qonunlar bilan belgilanadi [The boundaries of moral relations in society are also determined by laws] // Available at: https://darakchi.uz/uz/128466
9. Egorov, Vladimir Sergeevich Ugolovnaja otvetstvennost' za huliganstvo [The boundaries of moral relations in society are also determined by laws] // abstract. dis. .cand. Legal sciences. – Moscow: – 2000. p. 28.
10. Zarubin, Vladimir Ivanovich Ugolovnaja otvetstvennost' za huliganstvo [Criminal liability for hooliganism] Author's abstract. dis. .cand. Legal sciences. Moscow: 2001. p. 24
11. Gore T., Maundy C. Criminal Law. 1977. 342p.
12. Kudelnch A.V. Ugolovno pravovaja ohrana obshhestvennogo porjadka v sovremennoj Rossii [Criminal law protection of public order in modern Russia] The author's abstract. diss. for the degree of Doctor of Law. Sciences. -M., 2000. – P 44
13. Borisov, S.V. Huliganstvo: ugolovno-pravovoj i kriminologicheskij aspekty [Hooliganism: criminal law and criminological aspects] Author's abstract. dis. .cand. Legal sciences. M.: 2005. p. 18. W. Hauptmann, Mediales Gewalt-Bombardement (Mediengewalt gegen Kinder und Jugendliche//Medien. 1993. № 11. pp. 15-19.
14. Zhih Ju.I. Ugolovnaja otvetstvennost' za gruppovoe huliganstvo: [Criminal liability' for group hooliganism] Zarubin, Vladimir Ivanovich Ugolovnaja otvetstvennost' za huliganstvo [Criminal liability for hooliganism] dis. .cand. Legal sciences. Moscow: 2001. p. 179
15. 03.02.2022 reference of the Department of Investigation under the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan
16. Samarqandda ko'chani yalang'och kezgan yigitlar 15 sutkaga qamaldi [In Samarkand, the guys who walked the street naked were imprisoned for 15 days] // Available at: https://kun.uz/48801775 https://samviib.uz/uz/guide
17. Internetda Urganch shahrining markaziy ko'chasi bo'ylab yalang'och holda ketayotgan erkak videosi tarqaldi [A video of a man walking naked along the Central Street of Urgench City went viral on the internet]// Available at: https://daryo.uz/k/2020/10/21/internetda-urganch-shahrining-markaziy-kochasi-boylab-yalangoch-holda-ketayotgan-erkak-videosi-tarqaldi
18. Denovda 23 yoshli yigit ko'chada yalang'och holda harakatlandi [In denov, the 23-year-old moved naked on the street]// Available at: https://bugun.uz/denovda-23-yoshli-yigit-kochada-yalangoch-holda-harakatlandi-video
19. Toshkentda qiz tanishi bilan janjallashib qolgan yigit ko'chani yalang'och holda sayr qildi [In Tashkent, a guy with whom the girl quarreled with an acquaintance wandered the street naked]// Available at: https://everyday.uz/incidents/4795-news.html
20. The Criminal Code of the Federal Republic of Germany as amended on November 13, 1998 as of May 15, 2003 // D. A. Shestakov. "The Criminal Code of the Federal Republic of Germany"
21. What You Need To Know Before You Have Sex Outside // Available at: https://www.bustle.com/articles/163640-how-to-have-sex-outside-because-having-an-escape-route-is-key
22. California Penal Code - California Penal Code // adopted by the Legislature of California in February 1872 https://leginfo.legislature.ca.gov/faces/codes
23. TEXAS PENAL CODE // Available at: https://txpenalcode.com/
24. CRIMINAL CODE 1899 - As at 1 December 2023 - Act 9 of 1899 // Available at: http://www8.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdb/au/legis/qld/consol_act/cc189994/
25. Public Order Act 1986 // Available at: https://www.legislation.gov.uk
26. Sexual Offences Act 2003 // Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2003/42/contents
27. The Criminal Code of Canada // Available at: https://www.justice.gc.ca/eng/csj-sjc/ccc/index.html
28. Overview of judicial practice in criminal cases. Matters of criminal qualification. 5-348-18. https://sud.uz / date of application 25.12.2022
29. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi [Criminal Law]. General part. Tashkent, 2006, p. 272.
30. Qurbonboyev F., Raqamli jamoat joyida bo'lish qoidalarini belgilash vaqti keldi... Kech qolmaylik! [It's time to set the rules for being in a digital public place... Let's not be late!]. // Available at: https://gazeta.norma.uz/publish/doc/text174539_raqamli_jamoat_joyida_bulish_qoidalarini_belgilash_vaqti_keldi_kech_qolmaylik
31. Salamat Turemuratov, Haqorat qilish va so'kinish: nima farqi bor? [Insult and slaughter: what's the

difference?]. // scientific article – Available at: https://hudud24.uz/news/khakorat-kilish-va-sukinish-nima-farki-bor

32. Fuqarolarni ijtimoiy tarmoq orqali haqorat qilganlik uchun jinoyat ishi qo'zg'atildi [A criminal case was filed for insulting citizens through the social network] // Available at: https://qviib.uz/uz/news/fuqarolarni-ijtimoiy-tarmoq-orqali-haqorat-qilganlik-uchun-jinoyat-ishi-qozgatildi

33. "O'ldirib, uying eshigiga osib ketaman, kafanlikni tayyorlab qo'yaveringlar, dedi". Aktrisa Sitora Farmonova hayotiga tahdid qilayotgan muxlisi haqida gapirdi ["I will kill and hang on the door of your house, and let you prepare the shroud,"he said. Actress Sitora Farmanova spoke about her fan who threatens her life] // Available at: https://daryo.uz/k/2024/01/23/

34. Efimova E. S. Kiberbulling kak problema psihopedagogiki virtual'nyh sred [Cyberbullying as a problem of psychopedagogy of virtual environments] scientific article // Advances in chemistry and chemical technology. VOLUME XXVIII. 2014. No. 7 –M., - PP.65-66

35. D.K. Amirova, Ju.V. Kunicyna K voprosu ob ustanovlenii ugolovnoj otvetstvennosti za kiberbulling [On the issue of establishing criminal liability for cyberbullying] Scientific article UDC 343.3/.7 Scientific notes of the Kazan Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia 2022 Volume 7 No. 1 (13) – Kazan., – pp.12-17

36. Belsey B. Cyberbullying: An Emerging Threat to the «Always On» Generation // Available at: http://www.cyberbullying. ca/pdf/Cyberbullying_Article_by_Bill_Belsey.pdf

37. Zincova A. S. Vlijanie kiberbullinga na lichnost' podrostka [The impact of cyberbullying on a teenager's personality] Available at: URL: http://www.sworld.com.ua/konfer31/350.pdf

38. Kameneva A. vebinar Marii Afoninoj i Anny Kopylovoj Pravovye aspekty kiberbullinga [Webinar by Maria Afonina and Anna Kopylova Legal aspects of cyberbullying] // Available at: https://xn--80aidamjr3akke.xn--p1ai/articles/pravovye-aspekty-kiberbullinga

39. Methodological recommendations on the placement on information stands, official Internet sites and other information resources of educational organizations and bodies responsible for managing education, information on safe behavior and use of the Internet: Letter of the Ministry of Education and Science dated 05/14/2018 No. 08-1184// Available at: http://www.consultant.ru/ document/cons_doc_LAW_298618/.

40. European Union European Parliament // Available at: https://www.europarl.europa.eu/portal/en

41. S. Avganov, Kiberbulling. Ili nemnogo ob internet-travle (Rukovoditel' otdela po informatsionnomu obespecheniju Almatinskogo oblastnogo suda) [Cyberbullying. Or a little bit about Internet harassment (S. Avganov, Head of the Information Support Department of the Almaty Regional Court)] Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=37000746

42. Raphael Cohen-Almagor // Bullying, Cyberbullying and Parental Responsibility International Journal of Smart Security Technologies (IJSST), Vol. 8(2) (2021): 1-20.

43. Julia Riebel, Reinhold S. Jäger & uwe c. Fischer // Cyberbullying in Germany – an exploration of prevalence, overlapping with real life bullying and coping strategies // Psychology Science Quarterly, Volume 51, 2009 (3), pp. 298-314

Qo‘shayev Nurali Maxmudovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

DASTLABKI AYBLOVNI O‘ZGARTISHNING PROTSESSUAL JIHATLARI



Mazkur maqolada jinoyat-protsessual huquqda ayblovni o‘zgartirish masalasi ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ayblovni o‘zgartirishga asos bo‘luvchi omillar, ularning huquqiy talqini hamda tergov amaliyotidagi qo‘llanilishi o‘rganiladi. Ayblov tushunchasi, uning faktik va yuridik tomonlarini tahlil qilish orqali ayblovni tor va keng ma’noda o‘zgartirish yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va xorijiy davlatlarning qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilib, tergovda ayblovni o‘zgartirish bo‘yicha muammolar va taklif etilayotgan huquqiy yechimlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ayblovni o‘zgartirish, jinoyat-protsessual huquq, tergov amaliyoti, kvalifikatsiya, huquqiy tahlil.

В данной статье рассматривается изменение обвинения в уголовно-процессуальном праве с научно-теоретической точки зрения. Анализируются факторы, являющиеся основанием для изменения обвинения, их юридическая интерпретация и применение в следственной практике. Исследуется понятие обвинения, его фактические и юридические аспекты, а также подходы к узкому и широкому пониманию изменения обвинения. Кроме того, проводится сравнительный анализ законодательства Узбекистана и зарубежных стран, обсуждаются проблемы изменения обвинения на стадии расследования и предлагаемые юридические решения.

Ключевые слова: Изменение обвинения, уголовно-процессуальное право, следственная практика, квалификация, юридический анализ.

This article examines the issue of modifying charges in criminal procedural law from a theoretical and legal perspective. It analyzes the factors that justify the modification of charges, their legal interpretation, and their application in investigative practice. The concept of charges, their factual and legal aspects, and approaches to their modification in both narrow and broad senses are explored. Additionally, a comparative analysis of Uzbekistan’s Criminal Procedure Code with foreign legislation is conducted, discussing problems related to modifying charges during investigations and proposing legal solutions.

Keywords: Modification of charges, criminal procedural law, investigative practice, qualification, legal analysis.

Ayblov jinoyat ishi bo‘yicha isbotlangan faktlarga asoslanishi uchun sodir qilingan jinoiy hodisani tadqiq qilish - isbot qilish natijasida ifodalanadi. Isbot qilish sub’ektiv bilish faoliyati bo‘lganligi uchun, undagi xulosalarga kelgusida sharoit taqozosi bilan o‘zgartirilishi mumkin. Dastlabki tergovdagi ayblov uning “muallifi” bo‘lgan tergovchining o‘zi uchun ham, protsessga rahbarlik qiladigan va qarorlar qabul qilishda bevosita ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslar uchun ham qat’iy hisoblanmaydi, asoslar mavjud bo‘lganida o‘zgartiriladi.

JPK 362-moddasi birinchi qismida “Basharti tergov o‘tkazish chog‘ida dastlabki ayblovni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadigan yangi dalillar to‘plangan bo‘lsa yoki dastlabki ayblovning noaniqligi yoxud yuridik tavsifi noto‘g‘riligi ma’lum bo‘lib qolsa, dastlabki ayblov o‘zgartirilishi, qisman tugatilishi yoki to‘ldirilishi lozim” deyilgan. Qonun chiqaruvchi mazkur qoidada faqat dastlabki tergovda ayblovni o‘zgartishning asoslari va turlarini ko‘rsatgan.

Bundan ayblovni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etuvchi yangi dalillar to‘planganda ayblov o‘zgartiriladi, degan ma’no anglanadi. Aslida esa, bunday emas. Yangi dalil ayblovni ko‘rib chiqishni talab qilsa-da, lekin uni o‘zgartishni talab qilmasa, ayblov asl holicha qolaveradi. Ayblovni o‘zgartishda ham shaxsni javobgarlikka tortish uchun lozim bo‘lgan holatlar ishonchli tarzda isbot qilinishi kerak. Jinoyat ishlarini yuritishda shaxsga ayb qilish va so‘roq qilish protsessual harakatlarini o‘z vaqtida amalga oshirish qanchalik muhim bo‘lsa, ayblovni o‘zgartish ham shunchalik ahamiyat kasb etadi. Faqat ayblovni o‘zgartishdan oldin himoya tarafining e’tirozlari, ko‘rsatuvlarni, taqdim qilingan dalillarni tekshirish imkoni bo‘ladi. Tergovchi dastlabki ayblovni ifodalash vaqtida yo‘l qo‘yilgan xatolarni uni o‘zgartish bilan bartaraf qiladi.

Ayblovni o‘zgartishni nazarda tutuvchi JPK 362-moddasi birinchi qismida “dastlabki ayblov” atamasi qo‘llanilgan. Bundan faqat ayblanuvchi tariqasida jalb qilish to‘g‘risidagi qarorda ifodalangan ayblov o‘zgartirilishi mumkin degan noto‘g‘ri ma’no kelib chiqadi. Sababi dastlabki ayblov deyilganda ayblanuvchi tariqasida jalb qilish to‘g‘risidagi qarorda ifodalangan ayblovni tushuniladi. Vaholanki o‘zgartirilgan ayblov «dastlabki» degan sifatdan xoli bo‘ladi. Ayblov jinoyat sodir etganlikda shaxsni ayblash uchun barcha ahamiyatli belgilarni o‘zida to‘liq aks ettirgunga qadar dastlabki tergov bosqichining o‘zidayoq ko‘p marotaba o‘zgartirilishi mumkin. Uning chegaralanib qo‘yilishi mumkin emas. Nafaqat ayblanuvchi tariqasida jalb qilish to‘g‘risidagi qarorda ifodalangan ayblov, ayblovni o‘zgartish to‘g‘risidagi qarorda ifodalangan ayblov ham o‘zgartiriladi. Shuning uchun ayblovni o‘zgartishga doir qonun normasidan ayblovning “dastlabki” ligi sifatini chiqarib tashlash kerak.

Fanda ayrim mualliflar ayblovni o‘zgartishning asoslarini tizimlashtiradilar. Bundan yarim asr ilgari protsessualist olim M. I. Bajanov tomonidan dastlabki tergov bosqichida ayblovni o‘zgartishning ko‘yidagi asoslari ko‘rsatilgan edi. Bular: 1) ayblovni qismlarini chiqarilishi (bekor qilinishi); 2) ayblanuvchi tomonidan sodir etilgan yangi jinoyatning aniqlanishi; 3) ayblanuvchi tomonidan sodir qilingan jinoyat kvalifikatsiyasining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan hollar. U. O. Ochilov esa, bularga kvalifikatsiyaga ta’sir etish-etmasligidan qat’i nazar yangi faktik holatlarning aniqlanishini qo‘shib qo‘ydi[1]. Ayblovni o‘zgartishning asoslarini bunday tasniflash o‘sha davr jinoyat-protsessual adabiyotlar “ayblov” kategoriyasining ko‘p bora chuqur tadqiq qilinganiligi, ayblilik tasdig‘i sifatida ayblovning turlari, qismlari va bandlari xususida ustuvor g‘oyalarning mavjudligi bilan bog‘liq.

Keyingi davr adabiyotlarida asosiy e’tibor ayblovning tarkibiy elementlariga berilmasdan, tashqi ifodasiga berilmoqda. Ayblovni o‘zgartish haqida so‘z yuritilganda ayblanuvchi (sudlanuvchi) ahvolini og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi tomonga o‘zgartish yoki yangi ayblov bilan almashtirish haqida so‘z yuritiladi. Bu albatta, taraqqiyot natijasida huquq normalaridagi qoidalarning mazmuniga berilgan e’tibordan dalolat beradi.

A. V. Fedotchenko ayblovni o‘zgartishning turidan kelib chiqib, har birining asoslarini quyidagicha tasniflaydi.

1) Og‘irlik darajasini saqlagan holda aylov mazmunining o‘zgarishi:

a) ayblovning yuridik ifodasi saqlangan holda ayblov asosiga qo‘yilgan faktik holatlarning yoki ayblov faktik tomonining o‘zgarishi;

b) ayblanuvchi tariqasida jalb qilinganning shaxsi bilan bog‘liq o‘zgarishlar

(ismi, familiyasi, otasining ismi, tug‘ilgan joyi, vaqti va boshqa ma’lumotlardagi xatolarni tuzatish).

2) Ayblovning og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi tomonga o‘zgartishiga:

a) ayblovni og‘irlashtiruvchi tomonga o‘zgartish ayblov hajmini kengaytirish (unga qo‘shimcha kiritish), ya’ni jinoyatning qo‘shimcha epizodlari, belgilarini qo‘shish, qilmishni og‘irroq jinoyat bilan qayta kvalifikatsiya qilish, kvalifikatsiya belgilarining qo‘shilishi;

b) ayblovning yengillashtiruvchi tomonga o‘zgartish ayblov hajmini kichraytirish ya’ni undan ayrim epizodlar, jinoyatlarning tarkibini chiqarish; qilmishni yengilroq jinoyat bilan qayta kvalifikatsiya qilish, kvalifikatsiya belgilarini chiqarib tashlash zaruriyatini asos sifatida ko‘rsatadi[2].

Lekin bularni qonunda to‘la ko‘rsatishning imkoni bo‘lmaydi. Ayblovni o‘zgartish asoslari qonunda barchaga tushunarli tarzda bo‘lishi uchun ayblovga ta’sir etadigan yangi holatning yoki ayblovning noaniqligi yoxud yuridik tavsifi noto‘g‘riligi aniqlanishining o‘zi asos bo‘lishi ko‘rsatilishi kerak.

Tergov amaliyotida deyarli ko‘pchilik jinoyat ishlarida dastlabki tergovning o‘zidayoq ayblovni o‘zgartish hollari tez-tez uchrab turadi. Jinoyat ishi qanchalik murakkab, ya’ni jinoyat epizodlari va ishtirokchilari qanchalik ko‘p bo‘lsa va jinoyat qay darajada og‘ir bo‘lsa, ayblovni o‘zgartish ehtimoli ham shu qadar yuqori bo‘ladi.

F. N. Fatkullin ayblovga ta’sir etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillarni ko‘rsatadi[3]. Ob’ektiv omillarga ilgari noma’lum bo‘lgan holatlarning aniqlanishi, amaldagi qonunchilikning o‘zgarishi va amaliyotda tatbiq etilishini kiritgan. Sub’ektiv omillar sifatida tergovning to‘liq emasligi yoki bir tomonlama o‘tkazilganligi, ishonchlilik yoki huquqiy kvalifikatsiya nuqtai nazaridan faktlarga berilgan noto‘g‘ri baho, ifodadagi xatolar ko‘rsatilgan. Ayblovni o‘zgartish omillarini bunday turlarga ajratish tergovchining mas’uliyatini oshirish va javobgarligini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki tergovda ayblovni o‘zgartish, qanday omillar ta’sirida yoki qanday asoslarga ko‘ra o‘zgartirilishidan qat’i nazar, ayblovning mohiyatiga ta’sir etadi.

Ayblanuvchi tariqasida jalb qilish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan ayblovni keyingi protsessual hujjatlarda boshqacharoq mazmunda ifodalash nazariyada, amaliyotda va qonunchilikda turlicha nomlanadi: «ayblovni o‘zgartish», «ayblovni to‘ldirish», «ayblovni qisman tugatish», «tasdig‘ini topmagan (shu) ayblov bo‘yicha jinoyat ishini (jinoiy ta’qibni) tugatish» va boshqalar.

Bular orasida «ayblovni o‘zgartish» eng ko‘p qo‘llaniladigan va umumiylik kasb etadigan tushuncha hisoblanadi.

«Ayblovni o‘zgartish» tushunchasi bo‘yicha ikki xildagi nuqtai nazar mavjud. Ular ayblovni o‘zgartishning tor ma’noda va keng ma’nodagi talqin qilishdir. Ayblovni o‘zgartishni keng talqin qilishda, ayblovga nisbatan amalga oshirilagan har qanday o‘zgarishlar: ya’ni unga ayrim bandlarning kiritilganligi, ayrimlarining chiqarilganligi, ayblovni yangi ayblov bilan almashtirish ham tushuniladi.

Tor ma’nodagi ayblovni o‘zgartish esa, ayblov ifodasida bayon qilingan ma’lumotlar xarakterini o‘zgarganligini anglatadi. Jumladan, ayblovdagi oldingi faktik holatlar, ya’ni qilmishning sodir etilish vaqti, joyi, usuli va mulkiy ziyonning hajmi xususidagi ma’lumotlarning o‘zgarganligi, oldingi xato va noaniqliklar tuzatilishi, dalillarga boshqacha baho berish natijasida kvalifikatsiyaning o‘zgarishi tor ma’nodagi ayblovning o‘zgarishi hisoblanadi[4]. Ayrim mualliflarning ta’kidlashicha, ayblovni o‘zgartish faktik holatlarning ifodasida yoki yuridik bahosida yo‘l qo‘yilgan noaniqliklar yoki xatolarni tuzatish bilan bog‘liq bo‘ladi va ular ayblovni to‘ldirishga aloqasi bo‘lmasligi ham mumkin[5].

JPKda ayblovni o‘zgartishning har ikkala talqini mavjud. JPKning 362-moddasining nomlanishi «Ayblovni o‘zgartirish, tugatish va to‘ldirish» deb nomlanib, mazkur moddaning birinchi jumlasida ham «ayblovni o‘zgartirilishi, qisman tugatilishsh va to‘ldirilishi» so‘zlari qo‘llaniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ayblovni o‘zgartish tushunchasi ayblovni qisqartishni anglatadigan «qisman tugatish» va ayblovni kengaytirishni anglatadigan «ayblovni to‘ldirish» tushunchalaridan ajratilgan va ayblovni o‘zgartish deyilganda yangi ayblovni ifodalash nazarda tutilgan.

JPKning 385-moddasida ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokurorning vakolatlari orasida ayblov mazmunidan ayrim bandlarni chiqarib tashlash, yengilroq jinoyatni nazarda

tutuvchi qonunni qo‘llash va shu o‘zgartishlar bilan ayblov xulosasini tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkinligi bayon etilgan. Mazkur qoidada «shu o‘zgartirishlar» iborasi ayblovni o‘zgartish tushunchasining keng ma’nodagi talqiniga mos keladi. Xuddi shuningdek, JPKning 409-moddasining uchinchi qismidagi, 415-moddasidagi sud tomonidan ayblovni o‘zgartish bilan bog‘liq qoidalarda, 467-moddasining birinchi qismidagi «ayblovni o‘zgartirish» atamalari orqali ayblovning og‘irrog‘i bilan almashtirish yoki dastlabki ayblovga nisbatan faktik holatlari jiddiy farq qiladigan ayblov bilan o‘zgartirilishidan tashqari har qanday o‘zgartish, to‘ldirish va ayrim bandlarni chiqarishlar xususida so‘z yuritilgan.

Tabiiyki, savol tug‘iladi: ayblovni o‘zgartishni unga har qanday faktik va yuridik holatlarni kiritish yoki ularni chiqarish, o‘zagartirish deb talqin qilgan to‘g‘riroqmi yoyinki faqat oldingi ayblovning yangi mazmundagi ayblov bilan almashtirilishi deb tushunish to‘g‘riroqmi?

Nazarimizda, yuridik muomalada ayblovni o‘zgartishni odatda, keng ma’noda tushunish kerak. Chunki ayblovni o‘zgartishning mohiyati oldingisini xoh qisman bo‘lsin, xoh to‘laligicha bo‘lsin, noto‘g‘ri deb topib, uni tuzatishdan iborat. Dastlabki ayblovdan ayrim tarkibiy kismlarining chiqarilishi ham yoki ayrim ma’lumotlarning kiritilishi yoxud yangi ayblov bilan almashtirilishi ham uning qisman bo‘lsa-da, o‘zgarganligini anglatadi.

Qolaversa, ayblovni o‘zgartishni keng ma’noda talqin qilishni inkor qiladigan bo‘lsak, dastlabki tergovdagi ayblov jinoyat ishlarini yuritishning keyingi bosqichi uchun o‘zgarmasdir, degan noto‘g‘ri fikr shakllanadi. Sababi tor ma’noda ayblovni o‘zgartish faktik holatlari jiddiy farq qiladigan ayblovni ifodalashni anglatganligi bois, amaldagi qoidalarga ko‘ra, dastlabki tergovdan keyingi bosqichlarda bunga yo‘l qo‘yilmaydi.

Lekin bu bilan ayblovni o‘zgartishni tor ma’noda talqin qilinishini inkor etib bo‘lmaydi. Ayblovni hajmga ko‘ra o‘zgartishni tasniflashda tor ma’noda o‘zgartish bilan birga ayblovni to‘ldirish, ayblov qismini bekor qilish yoki chiqarish kabi turlari ham ko‘rsatiladi.

Yuridik adabiyotlarda ayblovni o‘zgartishning bunday tasniflashga boshqacharoq nomlar ham beriladi. Bular: 1) ayblovni qisqartirish - undan ayrim faktlar, yuridik belgilar yoki jinoyat-huquqiy normalarni (qismlarni, bandlarni) chiqarish; 2) ayblovni kengaytirish - qo‘shimcha faktlar, yuridik belgilar yoki jinoyat-huquqiy normalarni (qismlarni, bandlarni) kiritish; 3) ayblov shaklini o‘zgartish - faktik holatlar, yuridik belgilar yoki jinoyat-huquqiy normalarni boshqasi bilan almashtirish usilida amalga oshiriladi[6]. A. V. Fedotchenko ayblovni o‘zgartishning turlari sifatida ayblovni to‘ldirish, kvalifikatsiyani o‘zgartish, ayblovning hajmi qisqarganligi natijasida jinoiy ta’qibni qisman tugatishlarni ko‘rsatadi[7]. Bu bilan mualliflar ayblovni tor ma’nodagi o‘zgarishini «kvalifikatsiyani o‘zgartish» yoki «ayblov shaklini o‘zgartish»deb nomlagan. Lekin kvalifikatsiya o‘zgartirmagan holda ayblov tor ma’noda o‘zgarishi mumkin. Misol uchun jinoyat quroli yoki ayblanuvchining haqiqiy ismi boshqa bo‘lib chiqqan hollarda ham kvalifikatsiyaga dahl qilmagan holda ayblov o‘zgartirilishi kerak bo‘ladi.

Bulardan tashqari, ayblovning tarkibiga ko‘ra o‘zgartishning ikki turi haqida gapiriladi: a) ayblovning faktik tomonini o‘zgartish va to‘ldirish; b) ayblovning yuridik tomonini o‘zgartish va to‘ldirish[8].

Ayblov mazmuniga ko‘ra javobgarlikni og‘irlashtiruvchi tomonga va javobgarlikni yengillashtiruvchi tomonga o‘zgartishi ham yuridik atamashunoslikda oddiy tushunchalarga aylangan. Bularni bilish ayblanuvchini himoyaga bo‘lgan huquqini ta’minlash uchun, unga nisbatan majburlov choralarini tanlash, o‘zgartish, jinoyatning mulkiy oqibatlarini bartaraf etishni ta’minlash choralarini ko‘rish uchun muhim.

Ayblovni to‘ldirish dastlabki tergovda ayblanuvchi tariqasida jalb qilinganidan keyin ayblanuvchining jinoiy faoliyatida yangi faktlar (muayyan harakatlar, epizodlar, kvalifikatsiya belgilari, mustaqil qilmishlar) aniqlanishi bilan bog‘lanadi. Ayblovning hajmini kengaytiruvchi bunday faktlar jinoyatning kvalifikatsiyasini qonunning og‘irroq jazoni nazarda tutuvchi moddasiga o‘zgarishiga olib kelishi yoki qilmishning yuridik kvalifikatsiyasiga ta’sir etmasligi ham mumkin[9].

Ayblovni to‘ldirish javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar, jinoyatning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi, jinoyatdan kelib chiqqan ziyon hajmining oshishi aniqlanganda ham amalga oshiriladi, degan fikrlar ham mavjud[10]. Albatta shaxsni jinoyatga aloqadorligini ko‘rsatuvchi



yangi holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning aniqlanishi, faktik holatlar o‘zgarmasdan oldingi kvalifikatsiya moddalariga yangisining qo‘shilishi ham ayblovning to‘ldirilanligini anglatadi.

Ayblovning bir qismini tugatish esa, muayyan epizod (epizodlar) yoki mustaqil qilmishlar bo‘yicha ayblovning tasdig‘ini topmaganligini, kvalifikatsiya belgisi (belgilari) bekor qilinganligini, muayyan epizod yoki qilmish tuzilishdagi u yoki bu harakat (harakatlar) tasdig‘ini topmaganligi yoki jinoyatlar jami bo‘yicha qilmishnig ortiqcha kvalifikatsiya qilinganligini anglatadi[11].

Ayblovning bir qismini bekor qilish yoki chiqarish kvalifikatsiyaga ta’sir etishi ham mumkin. Ayblovning bir qismini bekor qilish va ayblovni tor ma’noda o‘zgartish tushunchalari bir-biriga nihoyatda o‘xshab ketadi. Ularni farqlash uchun ayblovning o‘z tasdig‘ini topmagan qismi bo‘yicha mustaqil tartibda jinoyat ishi yuritish mumkinligi mezon qilib olinadi. Agar ayblovning o‘z tasdig‘ini topmagan qismi, u bo‘yicha mustaqil tartibda jinoyat ishi yuritish mumkin bo‘lsa, ya’ni jinoyat tarkibini bersa, ayblovning shu qismi bekor qilinadi. Aks holda ayblov tor a’noda o‘zgartirilgan hisoblanadi.

Ayblovni o‘zgartish tor ma’nodagi o‘zgartishni, uni yangi shakldagi ayblov bilan almashtirishni, to‘ldirish yoki kengaytirishni, ayrim qismlarni chiqarib tashlash yoki qisqartirishlarni ham qamrab oladi.

Ayblovning o‘zgarganligini rasmiylashtirish faqat dastlabki tergov tergov bosqichida mavjud. Protsessning keyingi bosqichlarida esa, bevosida shu bosqichning yakunlovchi hujjatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgargan shaklda bayon qilinishi mumkin.

Ayblovni o‘zgartishni rasmiylashtirish borasida turli xil fikrlar ilgari suriladi. Belorus Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikalarining jinoyat-protsessual qonunlariga ko‘ra, ayblov o‘zgartirilganda (bir qismini bekor qilish bundan mustasno) ayblanuvchi tariqasida jalb qilish to‘g‘risida yangi qaror chiqariladi. Bizningcha, bu to‘g‘ri emas. Chunki, protsessual qarorning nomlanishinidan uning mazmuni oydinlashishi kerak. Jalb qilingan shaxsni protsessdan chetlashtirmay turib, yana jalb qilish mantiqqa zid. Ayblov o‘zgarishi bilan ayblanuvchining nimada ayblanayotganligi o‘zgaradi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida masala to‘g‘ri hal etilgan. Ayblov o‘zgartirilganda

ayblanuvchi tariqasida jalb qilish uchun yangi qaror chiqarilmaydi. Ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risida qaror faqat jinoyat ishi uchun ayblanuvchi sifatida yangi bo‘lgan shaxsni jalb qilish uchun chiqariladi.

Ayblovni bir qismini bekor qilishni yoki olib tashlashni rasmiylashtirish qarori jinoyat-protsessual qonunlarda turlicha nomlanadi. Qiyosiy tahlil misolida aytib o‘tish mumkinki, Ukraina, Qirg‘iziston Respublikalarining amaldagi JPKlarida ayblovning shu qismi bo‘yicha jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida, Belarus, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiya davlatlarining JPKlarida ayblovning shu qismi bo‘yicha jinoiy ta’qibni tugatish to‘g‘risida, Moldova JPKda ayblovning shu qismi bo‘yicha shaxsni jinoiy ta’qib ostidan chiqarish to‘g‘risida, Armeniya JPKda ayblovning shu qismini bekor qilish to‘g‘risida, Estoniya JPKda ish yuritishni tugatish to‘g‘risida qarorlar qabul qilinishi qayd etilgan. O‘zbekistonning amaldagi JPKga ko‘ra, ayblovni bir qismini bekor qilishda ayblovni qisman tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Yuridik adabiyotlarda murakkab ayblov faktik holatlarning qisqartirilishi, undagi ayblanuvchi sodir etganlikda ayblanayotgan uzoqqa cho‘zilgan, takroran jinoyatlarning tarkibi bo‘lgan muayyan qilmishlar va epizodlar chiqarilganda, tasdig‘ini topmagan ayblovni chiqarish to‘g‘risida, ayblanuvchi jinoiy qilmishlarining qolgan qismini qayta kvalifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qarorlarni chiqarish ham taklif qilingan[12]. Bunday qarorlarni qabul qilish bilan bevosita ayblovni o‘zgarganligini yoddan chiqarmaslik kerak. Mazkur qarorlarni chiqarishga asos bo‘lgan holatlar ayblovni o‘zgartishning boshqa holatlari bilan birga mavjud bo‘lgan vaziyatlar bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ayblilik masalasi bo‘yicha bir necha qarorlar qabul qilinishiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun taklif qilingan qarorlarni qabul qilishning hech ham zaruriyati yo‘q.

Ayblovning bir qismini bekor qilish tarzida amalga oshiriladigan ayblovni o‘zgartishni rasmiylashtirish bo‘yicha tergovchilarimiz faoliyatida xatoliklar uchratiladi. O‘rganilgan jinoyat ishlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, qonunda mavjud bo‘lgan ayblovni qisman tugatish (yoki aylovni tugatish) protsessual harakatlari amaliyotda o‘z o‘rnini topmay kelmoqda. Tergov amaliyotida ayblovni qisman tugatish to‘g‘risida qaror o‘rniga ayblovni o‘zgartish va e’lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Tergov amaliyotida bunday qarorlar o‘rnida jinoyat ishining bir qismini tugatish yoki jinoyat ishining bir qismini harakatdan tugatish kabi qarorlar ham chiqarilishini kuzatish mumkin.

Bu azaldan shakllangan tergov an’anasidirki, qonun buzilish ekanligiga e’tibor ham berilmaydi. O‘zbekistonning 1959 yilgi Jinoyat-protsessual kodeksi 131-moddasida ayblovni o‘zgartishning turi sifatida uning bir qismini tugatish o‘rniga jinoyat ishining shu (ya’ni isbotini topmagan) ayb ko‘rsatilgan qismini yotqizish (ya’ni tugatish) iborasi qo‘llanilgan. Hozirgi tergov amaliyotida shu holat yuzasidan chiqariladigan qarorlar ham nusxa ko‘chirish tarzida, yangi qonunga moslashmasdan kelmoqda. Aslida qonunga ko‘ra, ayblovni qisman tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi kerak.

Nazariyada ayblovni o‘zgartishni taqozo etadigan faktlarning mazmuni ham muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki ayblovda bayon qilingan holatlardan o‘zgacharoq bo‘lganligi xususidagi ma’lumotning topilishi hamma vaqt ham ayblovni o‘zgartish alohida qaror bilan rasmiylashtirishga asos bo‘ladimi yoki yo‘qmi, degan savol xususida ilmiy tortishuvlar boradi.

Jinoyat ishi bo‘yicha tergov qilish ayblovning faktik holati o‘zgarmasdan ayblanuvchi qilmishining kvalifikatsiyasini JKning yengilroq jazoni nazarda tutuvchi normasiga o‘zgartish to‘g‘risidagi xulosaga kelsa, uni ayblanuvchiga e’lon qilmasdan, bevosita ayblov xulosasida ko‘rsatishi kifoya mazmunidagi fikrlar ham bildirilgan[13]. Bu fikrning noto‘g‘ri ekanligi A. Ya. Dubinskiy va V. A. Serbulov tomonidan asoslab berildi. Ularning fikricha, qonunda tergovchiga bunday huquqning berilmaganligi hamda ayblovning garchand, ayblanuvchi ahvolini yaxshilaydigan tomonga o‘zgarishi ham, mohiyatiga ko‘ra, o‘zgarish hisoblanishi bois alohida qaror chiqarilishi lozim[14].

Ayblanuvchining nimada ayblanayotganligini bilish huquqi tergovchi tomonidan o‘z vaqtida ta’minlanishi va ko‘rsatuv berish imkonining berilishi alohida qaror chiqarilishini talab qiladi. Mazkur qaror chiqarilgandan keyin u bilan ayblanuvchi qayta tanishtiriladi, huquq va majburiyatlari tushuntiriladi[15] hamda ayblov yuzasidan uning ko‘rsatuvlarini

olishga harakat qilinadi.

Nazariyada dastlabki tergovda ayblovni o‘zgartishni alohida qarorda yoki ayblov xulosasida rasmiylashtirilishida ayblovga ta’sir etadigan holatlarning jiddiyligi mezon qilib olinadi. Ayblovni o‘zgartish jiddiy bo‘lganda alohida qaror chiqarilishi, jiddiy bo‘lmagan o‘zgarish bevosita ayblov xulosasi yoki boshqa hujjatlarda bayon qilinishi xususida ham olimlar bahslashadilar. Ayblovni o‘zgartishning jiddiyligini belgilashda, olimlar turlicha fikr yuritadilar. Ayrimlari ayblanuvining himoyaga bo‘lgan huquqiga ta’sir etishi mumkinligini jiddiy o‘zgarish desalar[16], boshqalari jinoyatni sodir etish vaqti, joyi va usulining o‘zgarganligi ayblovni o‘zgartish aktida aks ettirilishi kerak, degan fikrni ilgari suradilar[17]. Haqiqatan ham, ayblanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqiga ta’sir etadigan o‘zgarishlar ayblanuvchiga ma’lum qilinishi uchun ham alohida protsessual hujjatda bayon qilinadi. Jinoyatni sodir etish joyi va vaqti o‘zgarganda ayblanuvchining alibi keltirish imkoniyatlarini inobatga olib, alohida qaror chiqarilishi talab qilinadi. Jinoyatni sodir etish usuli o‘zgarganda ham ayblanuvchi tomonidan tergovga ma’lum vaziyatlarda sodir etish ehtimolini hal etish uchun alohida qaror chiqarilishi ahamiyatli.

Tergov amaliyotida jiddiy o‘zgarishlarga qilmishning tarkibiga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘zgarishlar kiritiladi. Ayblovni o‘zgartish xususidagi alohida protsessual hujjatni rasmiylashtirishda bunday mezon xatolikka ham olib kelishi mumkin. Ayblanuvchining sodir etgan deb hisoblanayotgan jinoyat tarkibining asosiy belgilarini va oldin e’lon qilingan ayblovning asosiy mazmunini saqlagan holda amalga oshirilayotgan o‘zgartish ham ayblanuvchi o‘z himoyasi uchun bilishi zarur bo‘lgan holat bo‘lishi mumkin. Misol uchun iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilishda jinoyat tarkibining belgilari jumladan, kvalifikatsiya o‘zgarmagan holda keltirilgan zararning qiymati qayta yuqoriroq narxda baholanishi mumkin. Mulkiy ziyon qiymatining oshishi ayblanuvchining e’lon qilingan ayblovdan himoyalanish huquqi nuqtai nazaridan jiddiy o‘zgarish hisoblanadi.

Nazarimizda, faqat ayblovni o‘zgartishni taqazo qiladigan holatlar jiddiy bo‘lganida uni o‘zgartish to‘g‘risida qaror chiqariladi, degan fikr noto‘g‘ri. Chunki ayblovni o‘zgartishni talab qiladigan yangi holatlarning jiddiyligiga baho berish nihoyatda mushkul. Hattoki, tergovda hech ahamiyatsiz bo‘lgan holatlar tufayli ham ayblovning alohida qaror bilan o‘zgartirilmasligi e’tirozlarga, rad qilishlarga sabab bo‘ladi. Ularning jiddiyligi ish yakuniga yetgandan keyin ham aniqlanishi mumkin. Shuning uchun ham ayblovdagi holatlarning boshqacharoqligi xususidagi haqiqiy ma’lumotlar aniqlanganda ayblov o‘zgartirilishi kerak. Dastlabki tergovda ayblovni o‘zgartishni yagona usuli bu- qaror chiqarishdir.

JPKga binoan ayblovni o‘zgartish protsessual harakati ayblovni to‘ldirish to‘g‘risidagi, ayblovni o‘zgartish to‘g‘risidagi va ayblovni qisman tugatish to‘g‘risidagi qarorolar bilan rasmiylashtiriladi. Protsessual hujjatning nomlanishida o‘zgartishning bevosita turini aytib o‘tish to‘g‘ri. Jinoyat ishlarini yuritishda ayblovni o‘zgartishni talab qiladigan shunday vaziyatlar vujudga keladiki, uni tor mo’nodagi o‘zgartish, to‘ldirish yoki ayrim qismlarini chiqarib tashlash, deb hisoblash juda qiyin.

Bir tergov harakat natijasida yoki bir vaqtning o‘zida ayblovga yangi faktlarni kiritish, mavjud faktlardan ayrimlarini chiqarish, jinoyatning kvalifikatsiyasidagi ayrim moddalarni og‘irlashtiruvchi qismiga almashtirish, ayrimlarini chiqarib tashlashga zarurat tug‘ilishi mumkin. Bu payda ayblovni o‘zgartishni rasmiiylashtirishda qanday nomdagi qarorning chiqarilishi mavhum bo‘lib qoladi. Bu esa, tergovchilarni ham qiyin ahvolga solib qo‘yadi. Bizningcha ayblovni har qanday o‘zgartishda yagona qaror - ayblovni o‘zgartish to‘g‘risidagi qaror tuzilishi kerak.

JPKning 362-moddasiga muvofiq, ayblovni o‘zgartishni nazarda tutuvchi qarorda ayblovning yangi mazmuni bayon qilinadi.

Ayblovni o‘zgartish yangi jinoyat bo‘yicha ayblash yoki bir qancha jinoyatlardan ayrimlarini chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda ayblovni o‘zgartish to‘g‘risidagi qaror aynan o‘zgartishga bag‘ishlanishi to‘g‘riroqqa o‘xshaydi. Lekin bunday emas. Ayblovni o‘zgartish to‘g‘risidagi qarorda o‘zgartish tufayli yuzaga kelgan ayblov, jumladan o‘zgarishni boshdan kechirmagan va bekor qilinmagan ayblovning bandlari ham keltiriladi. Chunki bir jinoyat ishi bo‘yicha aybovni ifodalovchi bir necha qarorlarning mavjud bo‘lishi ayblanuvchining nimada ayblanayotganligini anglab olishi va undan himoyalanishini qiyinlashtirishi, shuningdek

ish materiallari bilan tanishib chiquvchi va sohani nazorat qiluvchi shaxslarni chalg‘itishi mumkin. Shuning uchun ham ayblovni o‘zgartish to‘g‘risidagi qaror ayblanuvchi ayblanayotgan barcha faktlarni qamrab olishi va dastlabki ayblov e’lon qilinadigan tartibda e’lon qilinishi shart.

Nazariyada ayblov o‘zgartirilgandan so‘ng ayblanuvchini u bilan tanishtirish ham munozarali masalasiga aylangan.

Ayblovni o‘zgartishning jiddiy va nojiddiy turlarini ajratishga urinish natijada ayblov yengillashtiruvchi tomonga o‘zgartirilganda «soddalashtirilgan» tartibni taklif qiladilar. Ayrim olimlar bunday holatlarda qonunda ayblovni o‘zgartish to‘g‘risida qaror chiqarish va ayblanuvchiga taqdim qilish bilan chegaralanish xususida fikr bildiradilar[18]. Bunday fikrning asosiga ortiqcha xarajatlarni oldini olish va vaqtdan tejash qo‘yiladi. Lekin ayblovni o‘zgartishni rasmiylashtirishning mazkur tartibini salbiy oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki ayblanuvchi nimada ayblanayotganini biladi, biroq oxirgi ayblov bo‘yicha tushuntirish berish imkoniyatidan mahrum bo‘lishi mumkin. Qolaversa, tergovchi tomonidan ayblanuvchiga oxirgi ayblov bo‘yicha so‘roq qilish tashabbusining berilmasligi chiqarib tashlangan ayblov qismlari xususida ahamiyatli ma’lumotlarning olinmasdan qolinishiga olib kelishi mumkin. Yangi ayblovni e’lon qilishning har qanday soddalashtirilgan tartibi ayblanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqiga putur yetkazadi[19].

Ayblov o‘zgartirilganda dastlabki ayblovni ifodalagandan so‘ng qanday protsessual shartlarga amal qilingan bo‘lsa, shularning hammasi takrorlanishi kerak.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Очилов У.О. Привлечение к уголовной ответственности по уголовно-процессуальному праву УзССР. – Тошкент: Фан, 1976. – 51-52 с.
2. Федотченко А.В. Привлечение лица в качестве обвиняемого.: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Российская таможенная академия. 2006 . – 22 с.
3. Фаткуллин Ф.Н. Изменение обвинения. - М.: Юридическая литература, 1971. – 35-42 с.
4. Дубинский А.Я. Сербулов В.А. Привлечение в качестве обвиняемого. Учебное пособие. – Киев: НИиРИО КВШ МВД СССР им. Ф.З. Дзержинского 4-я военная типография, 1989. – 40, 45-46 с.
5. Статкус В.Ф., Цоколов И.А., Жидких А.А. Предъявление обвинения и составление обвинительного заключения / Под ред. И.А. Попова. – Москва: Книжная находка, 2002. – 68 с.
6. Тетерин Б.С., Трошкин Е. З. Возбуждение и расследование уголовных дел. – М.: Спарк, 1997. –111 с.
7. Федотченко А.В. Привлечение лица в качестве обвиняемого.: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Российская таможенная академия. 2006 . – 10, 26-27 с.
8. Смирнов А.В., Калиновский К.Б. Уголовный процесс: Учебник для вузов / Под. общ. ред. А.В. Смирнова – СПб.: Питер, 2004. – 439-440 с.
9. Дубинский А. Я. Сербулов В.А. Привлечение в качестве обвиняемого. Учебное пособие. – Киев: НИиРИО КВШ МВД СССР им. Ф.З. Дзержинского 4-я военная типография, 1989. – 45 с.
10. Еникеев З. Д. Уголовное преследование: Учебное пособие. – Уфа: Издательство БашГУ, 2000.– 69 с.
11. Шимановский В. В. Привлечение в качестве обвиняемого / Учебное пособие. – Л.: ЛГУ, 1983. – 42 с.
12. Жогин Н.В., Фаткуллин Ф.Н. Предварительное следствие в советском уголовном процессе. – М.: Юридическая литература, 1965. –244-246 с.
13. Бажанов М. И. Изменение обвинения в советстком уголовном процессе. – М: Госюриздат, 1954. – 13, 18-19 с.
14. Дубинский А. Я. Сербулов В. А. Привлечение в качестве обвиняемого. Киев: НИиРИО КВШ. 1989. – 41-42 с.
15. Миренский Б.А., Рахманкулов А.Х., и др. Уголовный процесс Республики Узбекистан. Учебник. –Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 2004. – 297 с.
16. Шимановский В.В. Привлечение в качестве обвиняемого / Учебное пособие. – Л.: ЛГУ, 1983. – 38-39 с.; Фаткуллин Ф.Н. Изменение обвинения. – М.: Юридическая литература, 1971. – 66-67 с.

17. Советский уголовный процесс: Учебник / Под ред. С.В.Бородина. – М.: Акад. МВД СССР, 1982. – 324-325 с.
18. Фаткуллин Ф.Н. Изменение обвинения. - М.: Юридическая литература, 1971. – 66-67 с.
19. Башкатов Л.Н., Безлепкин Б.Т. и др. Комментарий к Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации (постатейный) / Отв. ред. Петрухина. – 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2003. – 276 с.

IKANOV AZAMAT AGZAMOVICh
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i, yu.f.b.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

TRANSPORTDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA PROFAYLING TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlashda, xususan transportda xavfsizlikni ta’minlashda profayling texnologiyasidan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Alohida e’tibor transportda xavfsizlikni ta’minlashda profayling texnologiyasi qo‘llashning huquqiy asoslarini tizimlashtirish va tadqiq etishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligini ta’minlash, profayling, profayler, transportda xavfsizlikni ta’minlash, kuzatish, so‘rov, shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish, shubhali shaxslar ko‘zdan kechirish.

В данной статье рассматриваются вопросы использования технологии профайлинга в обеспечении общественной безопасности, в частности, в обеспечении безопасности на транспорте. Особое внимание уделяется систематизации и исследованию правовых основ применения технологии профайлинга в обеспечении безопасности на транспорте.

Ключевые слова: Обеспечение общественной безопасности, профайлинг, профайлер, обеспечение безопасности на транспорте, наблюдение, опрос, личный досмотр, досмотр подозрительных лиц.

This article examines the use of profiling technology in ensuring public safety, particularly in ensuring transportation safety. Particular attention is paid to the systematization and study of the legal foundations of using profiling technology in ensuring transport safety.

Keywords: Ensuring public safety, profiling, profiler, ensuring safety in transport, observation, questioning, personal inspection, inspection of suspicious persons.



O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlari tizimida mamlakatning milliy xavfsizligini ta’minlash asosiy masalalardan biri hisoblanib, transportda xavfsizlikni ta’minlash manfaati ham dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etish mumkin.

Transport sohasi har qanday jamiyatning muhim tizimini tashkil etuvchi omillardan biri bo‘lib, uning iqtisodiy, siyosiy, mudofaa hamda boshqa qismlariga faol ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi “Transport to‘g‘risida”gi Qonunida qayd etilishicha, transport xavfsizligi – transport majmuining qonunga xilof aralashuvdan himoyalanganlik holati hamda uning odatdagi rejimda va favqulodda vaziyatlar hollarida barqaror ishlashining ta’minlanganligidir [1].

Toshkent shahrining geografik joylashuvi va uning yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi, shaharga chegara hududning yaqinligi, rivojlangan transport infratuzilmasi, xalqaro aeroport, yirik xalqaro temiryo‘l, metropoliten ob’ektlari mavjudligi unda transport xavfsizligini ta’minlashning dolzarbligini, ushbu hududda ilmiy tadqiqotlar natijalarini sinab ko‘rish va ijobiy yutuqlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga joriy qilish imkonini beradi.

Bunday sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat uni barvaqt aniqlash va oldini olish usularini sifat jihatidan yaxshilash asosida amalga oshirish mumkin. Bunday usullardan biri sifatida profayling texnologiyasini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Profayling – kuzatish va so‘rov qilish orqali g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarga moyil ehtimoliy xavfli yo‘lovchilarni aniqlash uchun qo‘llaniladigan maxsus chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi [2].

Ayrim mutaxassislar profaylingni faqat havo transportida xavfsizlik sifatini oshirish usuli deb hisoblashadi.

O‘zbekistonda profaylingga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar nisbatan kechroq boshlangan hisoblanib, M.X. Rustambayev, N.I. Xalilova, O.Q. Amirova, B.N. Sirliev, M.S. Qodirov, D.A. O‘rmonov, D.M. Mirazov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘pchilik orasida qattiqo‘llik bilan amalga oshiriladigan shaxsiy ko‘rik va tintuv transportda xavfsizlikni ta’minlashi mumkin deb hisoblaydi.

Profaylingtexnologiyasiningkonsepsiyasi yo‘lovchining xulq-atvorini tahlil qilish orqali uning psixologik portretini yaratishga asoslangan.

Davriylik asosida ilmiy-amaliy tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, transportda xavfsizlikni ta’minlashda profayling texnologiyasidan foydalanish masalalari quyidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida tartibga solingan:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrdagi 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi”da [3]:

“Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish ichki ishlar organlarining, harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalarining, havo transportining, bojxona organlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari va chegara qo‘shinlarining vakolatli shaxslari, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, shunga vakolati bo‘lgan boshqa organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin” (289-modda. Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish).

2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2012-yil 23-apreldagi “Avtovokzallar va avtostansiyalar hududiga yo‘lovchilar va boshqa shaxslarni kiritish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 13/2-son qarori [4] bilan tasdiqlangan “Avtovokzallar va avtostansiyalar hududiga yo‘lovchilar va boshqa shaxslarni kiritish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”da:

“qidiruvdagi shaxslarni aniqlash va ushlash maqsadida ko‘zdan kechirilayotganlarning pasportga oid ma’lumotlari tanlab tekshiriladi, shuningdek shubhali shaxslar shaxsan ko‘zdan kechiriladi” (6-band Yo‘lovchilar va boshqa shaxslarning qo‘l yukini, bagajini va o‘zini nazoratdan o‘tkazish tartibi, 4-xatboshi);

“nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan shaxsan kuzatish yo‘li bilan ko‘zdan kechirilayotgan shaxsning shubhali o‘zini tutishi va xatti-harakatlari belgilari, balkim uning jinoiy niyatlaridan dalolat beruvchi yoki unda yo‘lovchilar va boshqa shaxslarga avtotransport vositalarida qo‘l yuki va bagaj

shaklida tashish taqiqlangan xavfli moddalar va buyumlar bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida shubha tug‘diruvchi belgilar aniqlangan hollarda amalga oshiriladi” (11-band shaxslarni tanlab shaxsiy ko‘zdan kechirish buning uchun maxsus jihozlangan xonalarda, 4-xatboshi);

“zaruriyat bo‘lganda, noqonuniy aralashish harakatini yoki boshqa jinoiy harakatlarni sodir etish niyatidagi shaxslar uchun xarakterli bo‘lgan bir qancha o‘zini tutish belgilari bo‘yicha potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida nazoratdan o‘tkazilayotganlarni psixologik so‘rov o‘tkazish” (13-band Nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar, 3-xatboshi) kabilar belgilab o‘tilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida aviatsiya xavfsizligi ko‘zdan kechiruvini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 183-son qarori[7] bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida aviatsiya xavfsizligi ko‘zdan kechiruvini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”da:

“Yo‘lovchilarni aviatsiya xavfsizligi bo‘yicha shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish quyidagi hollarda maxsus jihozlangan xonalarda majburiydir:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari va fuqaro aviatsiyasi xodimlarining shaxsiy kuzatuvi natijasida yo‘lovchining shubhali xatti-harakati va harakatlarining alomatlarini aniqlash, ehtimol uning jinoiy niyatidan dalolat beruvchi yoki samolyotda tashish taqiqlangan buyumlar va moddalar mavjudligiga shubha uyg‘otishi” (56-band, 4-xatboshi) – deb ko‘rsatib o‘tilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi “Transport to‘g‘risida”gi Qonunida[8]:

“yo‘lovchilarning va boshqa shaxslarning hayoti hamda sog‘lig‘ini muhofaza qilish, tashishlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida vakolatli organlar vokzalga, aerovokzalga, aeroportga, metropolitenga va avtostansiyaga kirish joyida transport vositasini, bagajni, yuk bagajini va yukni ko‘zdan kechirishdan hamda yo‘lovchilarni va boshqa shaxslarni shaxsan ko‘zdan kechirishdan o‘tkazishi mumkin. Yo‘lovchilar va boshqa shaxslar ko‘zdan kechirishdan o‘tishni rad etgan taqdirda vokzalga, aerovokzalga, aeroportga, metropolitenga va avtostansiyaga kirish taqiqlanadi.

Transport vositasini, bagajni, yuk bagajini va yukni ko‘zdan kechirishni, yo‘lovchilarni hamda boshqa shaxslarni shaxsan ko‘zdan kechirishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan vakolatli organlarning ro‘yxati, ko‘zdan kechirishni o‘tkazish tartibi, shuningdek vokzallarda, aerovokzallarda, avtostansiyalarda, aeroportlarda va metropolitenda yo‘lovchilarning hamda boshqa shaxslarning bo‘lishi qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” (35-modda. Transport infratuzilmasi ob’ektlarida ko‘zdan kechirish) – deb qayd etib o‘tilgan.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-son Farmoni[9] bilan tasdiqlangan “2022-2023 yillarda bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»”da:

2022-yil iyul oyiga qadar “Xalqaro aeroportlarning uchib ketish yo‘nalishida «masofaviy bojxona nazorati» (maxsus ajratilgan joylarda vizual kuzatuvni amalga oshirish orqali) tizimini joriy etish. Bunda:

1. Yo‘lovchilar va ularning yuklari to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlar (API/PNR) hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma’lumotlar bazasi asosida xavflarni baholash orqali davlat nazoratini tashkil etishni nazarda tutuvchi Idoralararo xavflarni boshqarish axborot platformasini yaratish;

3. Barcha xalqaro aeroportlarni yo‘lovchilarning yuzini aniqlash tizimi (videokameralar, videoserverlar), kommunikatsiya qurilmalari, 3D rentgen tomograflari, yo‘lovchilar va ularning yuklaridagi shtrix kodlarni avtomatlashtirilgan tartibda o‘qish qurilmalari bilan jihozlash va monitoring markazlarini yaratish” chora-tadbirlarini amalga oshirish belgilangan (35-band).

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-aprelidagi “Aerovokzal, temir yo‘l va avtobus vokzallarida xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 159-son qarori[11] bilan tasdiqlangan “Temir yo‘l vokzallarida

(stansiyalarida) yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning qo‘l yuki va bagajini ko‘zdan kechirish, ularning temir yo‘l vokzallarida (stansiyalarida) bo‘lish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda:

“ko‘zdan kechirish — maxsus texnik vositalarni qo‘llagan holda, tashrif buyuruvchilar hamda yo‘lovchilar uchun yo‘lovchi tashish poezdlarida qo‘l yuki va bagaj shaklida tashish taqiqlangan, noqonuniy aralashish harakatini sodir etish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan xavfli moddalar va buyumlarni aniqlashga qaratilgan tadbirlar majmuasi” (2-band);

“ko‘zdan kechirilgan va nazorat hududiga qo‘yilgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning ko‘zdan kechirishdan o‘tmagan uchinchi shaxslar bilan muomala qilishini cheklash (4-band (ko‘zdan kechirishning umumiy qoidalari quyidagilarni nazarda tutadi), g) xatboshi);

“yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni verifikatsiya qilish imkonini beradigan uskunalardan foydalanish” (6-band (ko‘zdan kechirish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar), b) xatboshi);

“noqonuniy aralashish harakatini yoki boshqa jinoiy harakatlarni sodir etish niyatidagi shaxslarga xos bo‘lgan bir qancha o‘zini tutish belgilari bo‘yicha potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilar bilan psixologik so‘rov shaklida (qisqa savollar yordamida) suhbat o‘tkazish” (6-band ko‘zdan kechirish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar, g) xatboshi);

“ko‘zdan kechirilayotgan shaxslarga nisbatan hushyor, e’tiborli va iltifotli munosabatda bo‘lishga hamda ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlarga yo‘l qo‘ymaslikka” (7-band ko‘zdan kechirish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar, b) xatboshi);

“...ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning kiyimidagi mavjud metall buyumlarni (portsigar, kalitlar, folgali pachkalardagi sigaretlar, tangalar va shu kabilarni) belgilangan idishga qo‘yish va yo‘lovchilarning to‘planib qolishiga yo‘l qo‘ymay, ularga navbati bilan turg‘un metall detektor orqali o‘tish taklif etiladi, metall buyumlar mavjudligi to‘g‘risida signal tushgan taqdirda, qo‘lda ishlatiladigan metall detektor qo‘llaniladi, u bo‘lmaganda esa — belgilangan tartibda shaxsiy ko‘rikdan o‘tkaziladi” (12-bandi shaxslarni va ularning qo‘l yuki, bagajini ko‘zdan kechirish quyidagi ketma-ketlikda o‘tkaziladi, b) xatboshi);

“... qidiruvdagi shaxslar deb gumon qilingan yoki ko‘zdan kechirishdan o‘tkazish jarayonida o‘zini shubhali tutayotgan shaxslarni aniqlik kiritish maqsadida pasportga oid ma’lumotlari ham tekshiriladi va shaxsiy ko‘zdan kechirish ko‘rigidan o‘tkaziladi” (12-bandi shaxslarni va ularning qo‘l yuki, bagajini ko‘zdan kechirish quyidagi ketma-ketlikda o‘tkaziladi, d) xatboshi);

“ko‘zdan kechirish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan shaxsan kuzatish yo‘li bilan ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning o‘zini shubhali tutishi va xatti-harakatlari belgilari, uning g‘arazli niyatlaridan dalolat beruvchi yoki yo‘lovchi tashish poezdlarida yo‘lovchilar tomonidan qo‘l yuki va bagaj shaklida tashishi taqiqlangan xavfli moddalar va buyumlar bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida shubha tug‘diruvchi belgilar aniqlanganda” (23-band (qidiruvdagi shaxslar deb gumon qilingan yoki ko‘zdan kechirish jarayonida o‘zini shubhali tutayotgan shaxslar maxsus jihozlangan xonalarda ikkita xolis ishtirokida quyidagi hollarda shaxsiy ko‘zdan kechiriladi:) g) xatboshi).

“Avtovokzallarda (avtostansiyalarda) yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning qo‘l yuki va bagajini ko‘zdan kechirish, ularning avtovokzallarda (avtostansiyalarda) bo‘lish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda:

“qidiruvdagi shaxslarni aniqlash va ushlash maqsadida nazoratdan o‘tkazilayotganlarning pasportga oid ma’lumotlarini tanlab tekshirish, shuningdek, shubhali shaxslarni shaxsan nazoratdan o‘tkazish” (7-band nazoratdan o‘tkazishning umumiy qoidalari quyidagilarni nazarda tutadi:) 7-xatboshi);

“noqonuniy aralashish harakatini sodir etish niyatidagi shaxslarga xos bo‘lgan bir qancha o‘zini tutish belgilari bo‘yicha potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilar bilan so‘rov shaklida (qisqa psixologik savollar yordamida) suhbat o‘tkazish” (12-band nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar xizmatni o‘tash vaqtida quyidagi huquqlarga ega: 5-xatboshi);

“nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan shaxsan

kuzatish yo‘li bilan ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchi va tashrif buyuruvchilarning o‘zini shubhali tutishi va xatti-harakatlari belgilari, uning g‘arazli niyatlaridan dalolat beruvchi yoki yo‘lovchi tashish avtobuslarida yo‘lovchilar qo‘l yuki va bagaj shaklida tashishi taqiqlangan xavfli moddalar va buyumlar bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida shubha tug‘diruvchi belgilar aniqlanganda” (23-band (qidiruvdagi shaxslarga gumon qilingan yoki nazoratdan o‘tish jarayonida o‘zini shubhali tutayotgan shaxslarni shaxsiy ko‘zdan kechirish, maxsus jihozlangan xonalarda ikkita xolis kishi ishtirokida quyidagi hollarda amalga oshiriladi:) 4-xatboshi) kabilar ko‘rsatib o‘tilgan.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 10 oktyabrdagi “Metropolitenda yo‘lovchilar hamda boshqa shaxslarning bo‘lish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 535-son qarori[12] bilan tasdiqlangan “Metropolitenda yo‘lovchilar hamda boshqa shaxslarning bo‘lishi qoidalari”da:

“...qidiruvdagi shaxslar deb gumon qilingan yoki ko‘zdan kechirish jarayonida o‘zini shubhali tutayotgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsiy ko‘zdan kechirilishi mumkin” (8-band 2-xatboshi).

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida[13]:

“... Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni,aholiningsog‘lig‘ini,ijtimoiyaxloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin” (21-modda.) kabi norma belgilangan.

Qayd etilgan qonunchilik hujjatlari tahlili asosida transportda xavfsizlikni ta’minlashda profayling texnologiyasini qo‘llashni huquqiy tartibga solish borasida quyidagi tizimli kamchilik va muammolar borligi aniqlandi:

1) profayling texnologiyasi tushunchasi huquqiy ta’rifi ishlab chiqilmagan;

2) transportda xavfsizlikni ta’minlashda profayling texnologiyasini qo‘llash mexanizmlari to‘liq ishlab chiqilmagan;

3) transportda xavfsizlikni ta’minlashda profayling texnologiyasini qo‘llash vazifalarini amalga oshiruvchi “mutaxassis – profayler” kadrlarni tayyorlash tizimi joriy etilmagan;

4) profayler kadrlarning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, vazifa va funksiyalari, hisobdorligi va javobgarligi ishlab chiqilmagan;

5) shubhali va g‘ayrioddiy xatti-harakatlarni aniqlash usullari keng joriy etilmagan (masalan, aeroportdagi bagajsiz inson, yo‘nalishni tez-tez o‘zgartiradigan yoki hech qanday sababsiz bir xil joylarga qaytadigan odamlar, maqsadsiz ravishda xavfsizlik bilan bog‘liq zonalarda g‘ayrioddiy ko‘p vaqt sarflaydigan odamlar, sumkasini qoldirib ketadiganlar, boshqalar bilan shubhali muloqot qilayotganlar);

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, huquqni muhofaza qilish faoliyatining ushbu sohasi, ya’ni transportda xavfsizlikni ta’minlashda profayling texnologiyasini qo‘llash hali ham mukammal holatda emas va texnologiyani amaliyotda samarali qo‘llanilishi uchun qo‘shimcha, batafsil va chuqur izlanishlar talab etiladi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 9 avgustdagi “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/5563039

2. Pelyux Ye.I. Profayling kak odno iz sovremennыx napravleniy obespecheniya transportnoy bezopasnosti: postanovka problemы (na primere Belgorodskoy oblasti // Nauka. Teoriya. Praktika, 2013, №2, S.82

3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. https://old.lex.uz/docs/97664)

4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2012 yil 23 apreldagi “Avtovokzallar va avtostansiyalar hududiga yo‘lovchilar va boshqa shaxslarni kiritish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 13/2-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/2022632?otherlang=1

5. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrdagi “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. https://www.lex.uz/acts/2107763

6. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi https://www.lex.uz/acts/2876354

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida aviatsiya xavfsizligi ko‘zdan kechiruvini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 183-son qarori https://lex.uz/docs/2971699
8. O‘sha qarang.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 apreldagi “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-son Farmoni. https://lex.uz/docs/5998615
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 noyabrdagi “Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 630-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/6266410
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 17 aprelidagi “Aerovokzal, temir yo‘l va avtobus vokzallarida xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 159-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/6435331
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 10 oktyabrdagi “Metropolitenda yo‘lovchilar hamda boshqa shaxslarning bo‘lish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 535-son qarori. https://lex.uz/docs/6631523
13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145

Abdullayev Fayzulla Abdikodir o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Ma’muriy huquq kafedrasi o‘qituvchisi

Ushbu maqolada Ichki ishlar organlari tomonidan ma’muriy yo‘l bilan ushlab keltirish va ushlab turish tarzidagi ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash tartibi, shartlari, asoslari va ushbu sohadagi muammolar o‘rganilgan bo‘lib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’muriy yo‘l bilan ushlab keltirish, ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish, shaxsiy daxlsizlik.

В данной статье рассмотрены порядок, условия, основания применения органами внутренних дел мер административное пресечение в виде административных задержаний и задержаний и проблемы в этой области, разработаны научные выводы, направленные на их устранение.

Ключевые слова: Административное удержание, административное удержание, личная неприкосновенность.

This article explores the procedure, conditions, fundamentals and problems in this area of application of administrative restraining measures in the manner of detention and detention by the internal affairs bodies in an administrative way, and develops scientific conclusions aimed at their elimination.

Key words: Capture by administrative means, capture by administrative means, personal immunity.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TOMONIDAN MA’MURIY YO‘L BILAN USHLAB KELTIRISH VA USHLAB TURISH TARZIDAGI MA’MURIY CHEKLASH CHORALARINI QO‘LLASH TARTIBI, SHARTLARI VA ASOSLARI



IIO tomonidan har bir ma’muriy cheklash chorasini qo‘llash ma’lum bir tartibda, tegishlicha shartlar va asoslar mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi. Jumladan, IIO tomonidan umumiy ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash amaliyoti nafaqat ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash borasidagi jismoniy ta’sir ko‘rsatish usullaridan foydalanishni, balki ushbu usullarni qo‘llaganlik bo‘yicha ma’lum bir hujjatlashtirish va tegishli organlarni xabardor qilish ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga dahl qilganligi hamda ularni cheklaganligi bois ham ushbu choralarni qo‘llashga doir talablar hamda hujjatlashtirish-xabardor qilish mexanizmiga benuqson tarzda amal qilinishi talab etiladi.

IIO tomonidan ma’muriy yo‘l bilan ushlab keltirish va ushlab turish tarzidagi ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash amaliyoti ko‘plab qonun hujjatlari bilan tartibga solinsa ham ushbu qonun hujjatlarida belgilangan normalarni tushunib yetishda bir qator tushunmovchiliklar va chalkashliklar kelib chiqayotganligi IIO tomonidan umumiy ma’muriy cheklash choralarini qo‘llashning tartibi, shartlari va asoslarini chuqur tadqiq qilish zaruratini taqazo etadi.

IIO tomonidan ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash talab etiladigan holatning xususiyatlaridan kelib chiqib ma’lum bir ketma-ketlikda, ko‘p hollarda bir necha ma’muriy cheklash choralari birgalikda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, IIOga ma’muriy yo‘l bilan ushlab keltirilgan shaxs, tintuv qilinib uning ashyo va hujjatlari olib qo‘yilishi hamda ma’muriy yo‘l bilan ushlab turilishi mumkin.

Shu boisdan, IIO tomonidan ma’muriy yo‘l bilan ushlab keltirish va ushlab turish tarzidagi ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash tartibi, shartlari va asoslarini ilmiy tadqiq qilishni ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash uchun asos va sabab bo‘luvchi harakatlardan boshlab o‘rganish maqsadga muvofiq.

IIO ma’muriy faoliyati yuzasidan vakolatlari doirasida zarur bo‘lgan hollarda, transport vositalarini to‘xtatish hamda uni boshqarish va undan foydalanish huquqini beruvchi hujjatlarni, transport vositasiga, shuningdek tashilayotgan yuklarga oid hujjatlarni tekshirish, haydovchi yoki yukni kuzatib borayotgan shaxs bilan birgalikda transport vositasini va yuklarni tashqi ko‘zdan kechirish (17-modda), qonunga rioya etish, hujjatlarni, tekshiruvlar materiallarini va boshqa ma’lumotlarni taqdim etish, IIOga kelish qoidabuzarliklarni, shuningdek ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish kabi qonuniy talablarini barcha davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan talablarni qo‘yish huquqiga ega hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, IIO xodimlarining hujjatlarni so‘rab olish borasidagi qonuniy vakolatlarni amalga oshirishda bir muncha tushunmovchiliklar va qiyinchiliklar kelib chiqmoqda.

IIO xodimlari MJtKning 284-moddasiga (Huquqbuzarni ushlab keltirish) muvofiq huquqbuzarni bayonnoma tuzish maqsadida, agar bayonnoma tuzish shart bo‘lib, uni joyning o‘zida tuzishning imkoni bo‘lmagan, ayrim holatlarda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar va u haqda zarur ma’lumotlar berishi mumkin bo‘lgan guvohlar bo‘lmagan taqdirda huquqbuzarni IIOga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga ushlab keltirishlari mumkinligi[1], IIO to‘g‘risidagi qonunga muvofiq esa, IIO xodimlari tayinlangan tibbiy va tarbiyaviy yo‘sindagi majburlov choralarini o‘tashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni ushlash va maxsus muassasalarga olib borish kabi holatlarda ushlab keltirishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

IIO to‘g‘risidagi qonunning 17-moddasiga muvofiq “Ichki ishlar organlarining huquqlari” jinoyatlar yoki ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni ularning organizmida alkogol, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar mavjudligini aniqlash uchun tekshirishni amalga oshirish, jamoat joylarida alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta’sirida mastlik holatida bo‘lgan va mustaqil ravishda harakatlanish yoki adashmay yo‘l topish qobiliyatini yo‘qotgan fuqarolarni SSVning reabilitatsiya va tibbiy yordam ko‘rsatish punktlariga olib borish huquqiga ega hisoblanadi[2].

Qonunchilikka ko‘ra ushlab turish bir qancha asoslar mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi. Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishdan boshqa ta’sir ko‘rsatish choralari qo‘llanib bo‘linganidan keyin huquqbuzarni quyidagi

maqsadlarda ushlab turish mumkin:

– ma'muriy huquqbuzarlikni to'xtatish;

– huquqbuzarning shaxsini aniqlash;

– bayonnoma tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida tuzish imkoni bo'lmagan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish;

– ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish.

Huquqbuzar shaxs IIO binosi yoki Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga ushlab keltirilishi mumkin. Ushbu holatda IIO xodimi tomonidan ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnoma tuziladi. Ushbu bayonnomada bayonnoma tuzilgan sana va joy, bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; ushlab turilgan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uni ushlab turish vaqti, joyi va uning asoslari ko'rsatiladi. Bayonnoma IIO xodimi hamda ushlab turiluvchi shaxslar tomonidan imzolanishi kerak. Agar, ushlab turiluvchi shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortsa, bayonnomaga shu haqda yozib qo'yiladi.

Ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilib qo'yiladi. Voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddatining belgilangan chegarasi 3 soatgacha, maksimal chegarasi esa 24 soatgacha[3], komendantlik soati vaqtlarida esa, komendantlik soati qoidalarini buzgan shaxslar komandantlik soati yakunigacha, ushbu vaqtda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz harakatlanayotgan yoki o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni yashirayotgan shaxslar IIO boshlig'ining qaroriga muvofiq 24 soatgacha, xavfli yuqumli kasalliklar tarqalganligi tufayli cheklovchi tadbirlar joriy qilingan hududda favqulodda holat rejimini buzgan, shu yerda istiqomad qilmaydigan va ushbu hududdan tashqarga chiqarilib yuborilishi kerak bo'lgan shaxslar ularning ustidan o'rnatilgan tibbiy kuzatuv muddati tugagunicha ushlab turilishi belgilab qo'yilgan[4] bo'lsa-da, huquqbuzarni ushlab turish vaqti huquqbuzarni ushlab kelish (keltirilgan) vaqtidan boshlab hisoblanishi (MJtK 288-modda 4-qism) belgilangani natijasida ushlab turilgan shaxsning amalda erkinligi cheklangan ya'ni ushlab keltirish boshlanganidan to ushlab turish boshlanguniga qadar muddat (ushlab keltirish jarayoni) yuzasidan hech qanday hujjatlar rasmiylashtirilmasligi natijasida fuqarolarning huquqlari poymol bo'lishiga olib kelmoqda. Bu xususda huquqshunos olim J.Parmonov ham huquqbuzarni ushlab keltirish alohida ta'sir chorasi hisoblanadimi yoki ma'muriy yo'l bilan ushlab turishning tarkibiga kiradimi, degan savolga kodeksdan javob topib bo'lmaydi. Natijada huquqni qo'llash amaliyotida ayrim hollarda huquqbuzarni ushlab keltirish alohida huquqiy ta'sir chorasi sifatida qo'llanilib, u to ichki ishlar organlariga olib kelingunga qadar bo'lgan jarayonda qo'llaniladi deb hisoblanmoqda. Yana boshqa hollarda esa huquqbuzarni ushlab keltirish uni ma'muriy yo'l bilan ushlab turishning tarkibiy qismi sifatida tushunilmoqda. Masalaning shaxs huquqlari taalluqli jihati shundaki, agar huquqbuzarni ushlab keltirish alohida huquqiy ta'sir chorasi sifatida qo'llanilsa, unda uni ushlab turish muddati u IIOga olib kelingandan so'ng boshlanadi. Natijada u amalda ushlangan va erkinligi cheklangan paytning bir qismi bu muddat ichiga kirmay qolmoqda[5,33-B] degan fikrlarni bildirgan.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turilayotgan 18 yoshga to'lgan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxsning shaxsga doir ma'lumotlari, doimiy yoki vaqtincha turgan joyi aniqlanmagan taqdirda, jinoyat ishlari bo'yicha sudning qaroriga muvofiq ushbu shaxslarning shaxsiga aniqlik kiritish, ularni ijtimoiy jihatdan reabilitatsiya qilish maqsadida IIOning muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlariga 30 sutkaga qadar joylashtirilishi mumkin. Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning shaxsini o'ttiz sutka muddat davomida aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda reabilitatsiya markazi boshlig'ining taqdimnomasiga muvofiq reabilitatsiya markaziga qayta joylashtiriladi[6]. Muayyaan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning shaxsiga aniqlik kiritish esa IIO MvaFRB tomonidan amalga oshiriladi hamda ularni ma'muriy javobgarlikdan ozod etish va identifikatsiya ID-kartasini rasmiylashtirishda davlat bojidan ozod etish masalasi ko'rib chiqiladi[7]. Muayyan yashash joyiga ega

bo‘lmagan shaxslarning ID-karta olishi, doimiy yoki vaqtinchalik turar joy bilan ta’minlanishi sodir etgan huquqbuzarliklari uchun ma’muriy javobgarlikdan ozod etish uchun asos bo‘lmaydi.

IIO tomonidan ma’muriy yo‘l bilan ushlab keltirish va ushlab turish tarzidagi ma’muriy cheklash choralarini qo‘llashning huquqiy mexanizmi doimiy ravishda takomillashtirib turilsada, huquqni qo‘llash amaliyotida quyidagi muammolar kelib chiqmoqda:

1. Konstitutsiyasining 27-modda 4-qismiga muvofiq shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi to‘g‘risidagi tamoyil mavjud. Ma’muriy huquqbuzarlikka tortilayotgan shaxs MJtKning 294-moddasida ko‘rsatilgan huquqlari mazmun jihatidan tushuntirish uchun murakkab bo‘lganligi sababli huquqbuzarni ushlash vaqtida unga uning xaq-huquqlari qisqacha va tushunarli tarzda tushuntirilishi shart. Bundan tashqari, Respublikada xizmat qilayotgan 45 nafar profilaktika inspektorining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ish yurituv hujjatlari o‘rganilganida ish yurituvida qatnashuvchi shaxslar tomonidan yozilgan tushuntirish xatlarining blankalari amaliyot xodimlarining barchasida turlicha ekanligi, 90% holatlarda ushbu tushuntirish xatlarining mazmuni noto‘g‘ri bayon etilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirish xatlarida Jinoyat kodeksining 237 va 238-moddalari bilan ogohlantirilganligi to‘g‘risidagi bandlarni uchratish mumkin. Huquqiy jihatdan hech qanaqasiga jinoiy javobgarlikning alomatlari yo‘q bo‘lgan huquqbuzarliklar yuzasidan bunday mazmundagi tushuntirish xatining olinishi, ayrim tushunmovchiliklarni va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin hisoblanadi.

Conclusion. Shu boisdan, qonunchilikka quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritishni taklif qilamiz:

MJtKning 284-moddasiga quyidagicha qo‘shimcha qo‘shish lozim:

“Huquqbuzarni ushlash vaqtida unga uning xaq-huquqlari qisqacha va tushunarli tarzda tushuntirilishi shart”;

Bundan tashqari MJtKga noqonuniy ushlab turish sababalarini bartaraf etish maqsadida quyidagicha prinsipni o‘zida mujassamlashtiruvchi modda 11.1.-modda kiritilishi zarur:

11.1.-modda. “Shaxsiy daxlsizlik”

Hech kim asossiz ravishda ma’muriy yo‘l bilan ushlab turilishi, shaxsni va narsalarni ko‘zdan kechirish uchun vakolatli organga keltirilishi

mumkin emas.

“Ichki ishlar organlari navbatchilik qismida ma’muriy yo‘l bilan ushlangan shaxslarni ushlab turish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma bayon etilgan yangi buyruq qabul qilish (ilova, buyruq loyihasi ishlab chiqilgan);

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘riidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar tomonidan yoziladigan tushuntirish xatining universal namunasini tasdiqlash;

«Huquqbuzarni ushlab keltirish bayonnomasi”ni tasdiqlash (ilova).

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (murojaat vaqti: 01.08.2023) elektron manba: https://lex.uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi Kodeksi 284-modda (murojaat vaqti: 01.08.2023) elektron manba: https://lex.uz/docs/97664

3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni (murojaat vaqti: 01.08.2023) elektron manba: https://lex.uz/docs/3027843#3028055

4. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-dekabrdagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi 737-sonli Konstitutsiyaviy qonuni (murojaat vaqti: 03.10.2023) elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/5774840

5. Пармонов Ж. Некоторые вопросы дальнейшего совершенствования производства по делам об административной ответственности //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 1/S. – С. 30-36.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi “Ichki ishlar organlarining muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 309-son qarori (murojaat vaqti: 03.03.2024) elektron manba: https://lex.uz/docs/3711913

7. Ichki ishlar vazirining 2019-yil 19-iyundagi “Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni

ma’muriy javobgarlikdan ozod etish va identifikatsiya ID-kartasini rasmiylashtirishda davlat bojini qoplash uchun tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish hamda sudlarga va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i. ro‘yxat raqami 3168 buyruqning nomi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 19 apreldagi 111-sonli buyrug‘i (мурожаат вақти: 31.08.2023) электрон манба: https://lex.uz/docs/4380381

Qambarali Azizov
Jamoat xavfsizligi universiteti Harbiy-vatanparvarlik,
ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi
katta o'qituvchisi

HARBIY XIZMATCHILAR O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLARGA OID NIZOM QOIDALARINI BUZISH HOLATLARI BO'YICHA TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV O'TKAZISH

Maqolada harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holatlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazish tartibi bayon qilingan.
Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, harbiy prokuror, surishtiruvchi, tergovchi, o'zaro munosabatlar, nizomga zid munosabatlar, guvohlantirish, ekspertiza, qaror.
В данной научной работе представлен порядок проведения дослественной проверки при неуставных взаимоотношениях среди военнослужащих.
Ключевые слова: военнослужащие, военный прокурор, дознаватель, следователь, взаимоотношение, неуставные взаимоотношения, освидетельствование, экспертиза, постановление.
This scientific paper presents the procedure for conducting a preliminary investigation in cases of continuous interpersonal relationships among military personnel.
Key words: military serviceman, military prosecutor, investigator, mutual relationship, non-charter mutual relationship, certification, expert examination, decree.



Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda nizom qoidalarining buzilishi, ziddiyatlar kelib chiqishi va avj olishi chuqur ijtimoiy-ruxiy negizga ega. Ular Umuharbiy nizomlarida ko‘zda tutilgan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlar tartibi va qoidalarining buzilishida aks etib, inson qadrini ma’naviy va jismoniy toptash (kamsitish), xaddan ziyod hurmatsizlik va qo‘pol muomala qilish orqali namoyon bo‘ladi.

O‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish deganda, xizmatdoshlarini o‘ziga bo‘ysundirishni ta’minlash, xizmatni o‘tash chog‘ida o‘zi uchun imtiyozli sharoitlar yaratish maqsadida bir harbiy xizmatchining boshqasiga nisbatan turli xil zo‘rliklar ishlatishi, uning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitilishini tushuniladi.

Nizomga oid munosabatlar deganda, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlarida belgilangan tartib va qoidalarning buzilishi natijasida sodir etilgan nojo‘ya xatti-harakatlar, huquqbuzarlik va jinoyatlar tushuniladi.

Nizomga oid o‘zaro munosabatlar negizida sodir etilgan huquqbuzarliklar (jinoyatlar)ning o‘ta xavfliligini etiborga olgan holda tergovga qadar tekshiruv shaxsan harbiy qism komandiri, harbiy muassasa yoki harbiy bilim yurti boshlig‘i yoki uning o‘rinbosarlari tomonidan o‘tkaziladi.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom (ustav) qoidalarining buzish holatlari bir guruh shaxslar tomonidan qurol ishlatilgan holda va og‘ir oqibatlarga olib kelgan (o‘lim, og‘ir yaralanish va boshqa holatlar) hollarda tergovga qadar tekshiruv Milliy gvardiya Markaziy devoni Surishtiruvni muvofiqlashtirish boshqarmasi surishtiruvchilari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi xodimlari ishtirokida, zarur bo‘lgan mutaxassislarni jalb etgan holda amalga oshiriladi.

Tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazishda harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom (ustav) qoidalarining buzish holatlarini har tomonlama to‘liq va xolis tekshirish uchun qonunchilikda nazarda tutilgan barcha choralar ko‘rilishi lozim.

Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish barcha hollarda harbiy intizomni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarni nizomda belgilangan tartib va qoidalarga aniq va so‘zsiz rioya etish ruhida tarbiyalash va harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holatlariga chek qo‘yishga imkon berish bilan bir qatorda, kelgusida harbiy xizmatchilar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyat sodir etish holatlarini oldini olishga ham xizmat qilishi lozim.

Ammo amaliyotda bu turdagi jinoyatlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning aniq mexanizmi ishlab chiqilmagan.

O‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holatlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish, harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarining buzish holatlarini tekshirish uchun nimalar asos bo‘lishi va qanday tartibda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilishi, tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazayotgan mansabdor shaxs nimalarni amalga oshirishi kerakligi kabi masala bugungi kunga qadar o‘z yechimini topmagan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holatlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish bo‘yicha mansabdor shaxsning nimalarga e’tibor berishi, qanday asoslarga ko‘ra tekshiruvni boshlashi va nima ishlarni amalga oshirishi kerakligi bo‘yicha aniq mexanizm ishlab chiqishga zaruriyat mavjudligini inobatga olgan holda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holatlari bo‘yicha quyidagi holatlarda tergovga qadar tekshiruv o‘tkaziladi:

– harbiy xizmatchilarni ma’nan va jismonan tahqirlash;

– muntazam xo‘rlash, azob berish;

– badanga shikast yetkazish;

– komandirlar (boshliqlar) va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan intizom amaliyotining buzilishi;

– noqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish;

– muddatli harbiy xizmatchi tomonidan o‘z sog‘lig‘iga zarar yetkazish;

– harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarining buzish holatlari negizida o‘zining biror azosini jarohatlash va o‘z joniga qasd qilish;

– harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarining

buzish holatlari natijasida muddatli xarbiy xizmat oddiy askari yoki kontrakt bo‘yicha xarbiy xizmatni serjantlar tarkibida o‘tayotgan serjantning harbiy kism yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketishi;

– boshqa jinoyatlar.

2. Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish uchun quyidagilar asos bo‘lib xizmat qiladi:

a) bo‘ysunuvchilarning (harbiy xizmatchilar) og‘zaki yoki yozma ravishdagi bildirgisi va xabarlari;

b) yuqori turuvchi komandir va boshliqlarning farmoyishlari (buyruqlari);

v) jabrlanuvchilar, ularning ota-onalari, qarindosh urug‘lari va guvohlarning ariza va xabarlari;

g) nojo‘ya xatti - harakatlar sodir etgan va intizomni buzgan shaxslarning xabar va arizalari;

d) ichki ishlar organlari, DXX, harbiy komendatura, davolash muassasalari mansabdor shaxslarining xabarlari;

ye) malakali lavozim egalarining, boshliq oldida tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish lozimligi to‘g‘risidagi takliflari (masalan, inspektor – taftishchi (revizor) taftish o‘tkazish jarayonida aniqlangan kamomat yuzasidan, agarda taftish vaqti kamomatni kelib chiqish sabablari, keltirilgan zarar miqdorini aniqlash) agarda ushbu kamchiliklarni taftish (reviziya) o‘tkazish jarayonida aniqlash imkoni bo‘lmasa;

j) muddatli harbiy xizmatchilarni sog‘ligini kunlik tekshirish va tibbiy tekshiruv natijalari;

z) ommaviy axborot vositalarining xabarlari;

i) bevosita boshliq tomonidan topilgan jinoiy holatlar

k) prokuror tekshiruvi materiallari va boshqalar.

3. Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarining buzish holatlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Harbiy qism va muassasalarda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish komandir (boshliq) tomonidan uni o‘tkazish to‘g‘risida chiqargan harbiy qism (bo‘linma) bo‘yicha yozma buyrug‘i, og‘zaki buyrug‘i, bildirgi yoki arizadagi yozma ko‘rsatmasi va boshqa holatlar asosida o‘tkaziladi.

Harbiy qismda o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holati bo‘yicha jinoyat sodir etilganida ushbu holat “Jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni ro‘yxatga olish (Shakl-1) kitobi” hamda “E-material” tizimi orqali ro‘yxatga olinadi.

Shundan so‘ng, harbiy qism komandiri yoki muassasa boshlig‘i tergovga qadar tekshiruvni shaxsan o‘zi o‘tkazishi yoki tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazishni qo‘l ostidagi tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish uchun maxsus vakolat berilgan ya’ni harbiy qism komandirining buyrug‘iga asosan bir yil muddatga tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish bo‘yicha ro‘yxatda bo‘lgan mansabdor shaxslardan biriga topshirishi mumkin.

Ammo, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxsni tanlashda harbiy qism komandi yoki muassasa boshlig‘i tergovga qadar tekshiruv natijalaridan manfaatdor bo‘lmagan shaxslar jalb qilinishiga alohida e’tibor berishi kerak. Chunki, tergovga qadar tekshiruvdan manfaatdor bo‘lgan harbiy xizmatchi (mansabdor shaxs) tomonidan o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holatlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirilishi, jinoyatni yashirish yoki uni boshqacha mazmunda talqin etilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu sababli tergovga qadar tekshiruv tayinlashda shu ishdan manfaatdor bo‘lmagan harbiy xizmatchini (mansabdor shaxsni) tayinlash ishni ob’ektiv ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi.



4. Tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazayotgan mansabdor shaxs quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

– Tergovga qadar tekshiruvni o‘z ish yurituviga olishi;

– Tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazish rejasini tuzishi;

– Tergovga qadar tekshiruvni 10 sutka davomida o‘tkazishi

(prokurorning roziligi bilan muddatni bir oyga uzaytirilmagan bo‘lsa);

– jabrlanuvchi, guvohlar va gumon qilinuvchini aniqlashi;

– jabrlanuvchi, guvoh va jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslardan tushuntirish xatlarini olishi;

– sodir etilgan jinoyatning mohiyati, vaqti, joyi, usullarini aniqlashi;

– jinoyatlarni sodir etgan shaxslar doirasini aniqlab olishi;

– jinoyatlarning zararli asoratlari, ularning xarakteri, yetkazilgan zararning miqdori (o‘lchami)ni bilishi;

– jinoyatni sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shart-sharoitlarni o‘rganishi;

– harbiy qism (bo‘linma) komandiri, uning o‘rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslarning harbiy qism (bo‘linma)da sog‘lom muhitni yaratishda tutgan o‘rni va harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarining buzish holatlarini profilaktika qilish bo‘yicha choralar ko‘rganini o‘rganib chiqishi;

– boshqa hollarni aniqlashi lozim.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarining buzish holatlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni umumiy asoslarga ko‘ra o‘tkazadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi yuqorida bayon qilingan barcha holatlarni shaxsan o‘rganib chiqishi, o‘tkazilgan protsessual harakatlarni bayonnomalarda aks ettirishi, zarurat bo‘lgan taqdirda holislar va mutaxasislarni bu ishlarga jalb qilishi lozim.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan holislar ishtirokida harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga toid nizom qoidalarini buzish xolatlari sodir etilgan joy ya’ni hodisa sodir bo‘lgan joy o‘rganib chiqiladi.

O‘rganish natijasida topilgan jinoyat quroli yoki qon izlari yoxud jinoyatga aloqador boshqa narsalar olinadi va o‘rnatilgan tartibda o‘ralib tergovga qadar tekshiruv ishlariga qo‘shib qo‘yiladi.

Bundan tashqari, jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchilar harbiy qism hududidan chiqib ketmasligi, yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish choralari ko‘riladi.

Agarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi gumon qilinuvchi harbiy qism hududini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketishi yoki yashirini mumkinligi xaqida fikirda bo‘lsa harbiy xizmatchiga nisbatan ushlab turish to‘g‘risidagi majburlov chorasini qo‘llashi yoki uni intizomiy tartibda garnizon gauptvaxtasiga joylashtirish chorasini ko‘rishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi garnizon gauptvaxtasiga joylashtirilayotgan gumon qilinuvchining yonida jinoyat quroli borligiga ishon xosil qilgan taqdirda gumon qilunuvchini shaxsiy tintuv va olib qo‘yish bilan bog‘liq protsessual harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Shaxsiy tintuv va olib qo‘yishni alohida qaror asosida yoki garnizon gauptvaxtasiga joylashtirishdan oldin bayonnoma orqali xam amalga oshirishga xaqlidir.

Agarda harbiy xizmatchilarning o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzilishi natijasida harbiy xizmatchi tan jaroxati olgan bo‘lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, tan jaroxatining mavjudligini, uning og‘irlik darajasini va boshqa holatlarni aniqlashi lozim bo‘ladi.

Tan jaroxatini aniqlash guvohlantirish yoki sud tibbiyot ekspertizasi o‘tkazish orqali aniqlanadi.

Biroq, harbiy ximzmatchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidlarini buzish holatlari natijasida jabrlangan shaxslar aksariyat hollarda tan jaroxati olish bilan bog‘liq bo‘ladi, ammo tilinish, shilinish, qizarish, qontalash va shunga o‘xshash holatlar sud tibbiyot ekspertizasi o‘tkazish uchun asos bo‘la olmaydi. Shundan holatda ularni guvohlantirish o‘tkazish orqali jabrlanuvchining tanasidagi jaroxatlarni qayd etsa bo‘ladi.

Ammo amaldagi JPKda guvohlantirish surishtiruv va dastlabki tergov organlarining vakolatlari bo‘lganligi hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirinuvchi organning vakolatlariga kirmasligi sababli bu tergov harakatlari o‘tkazilmaydi.

Eng asosiysi shundaki, o‘z vaqtida guvohlantirish o‘tkazilmasligi, jabrlanuvchining tanasidagi shilinish, qontalash yoki shunga o‘xshash jaroxatlarning izlari yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu sababli guvohlantirish tergov

harakatlarini tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi vakolatiga kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxs sud tibbiyot ekspertizasi tayinlash uchun qaror chiqaradi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig‘i (harbiy qism komandiri yoki muassasa boshlig‘i)ga tasdiqlatadi.

Tan jaroxati olgan harbiy xizmatchini sud tibbiyot ekspertizasi muassasasiga yuborishdan oldin tan jaroxati olib davolanishga yuborilgan harbiy xizmatchining kasallik tarixini olish uchun tibbiyot muassasasiga ya’ni harbiy gospital boshlig‘i nomiga tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ rahbari yoki mansabdor shaxsi nomidan so‘rovnoma yuboriladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ rahbari yoki mansabdor shaxsi nomidan yuborilgan so‘rovnomaga harbiy gospital boshlig‘i tomonidan ijobiy javob berilishi shart. Chunki, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ rahbari yoki mansabdor shaxsi nomidan yuborilgan so‘rovnoma majburiy harakterga ega hisoblanadi.

Sud tibbiyot ekspertizasi tayinlanganligi to‘g‘risidagi qaror, jabrlanuvchining o‘zi hamda uning kasallik tarixi sud tibbiyot ekspertizasiga kuzatuv xati orqali yuboriladi.

Sud tibbiyot ekspertizasi qaror ijrosi yuzasidan jabrlanuvchining tan jaroxatini og‘irlik darajasini hamda qarorda maxsus bilim talab qilishi mumkin bo‘lgan barcha savollarga javob bergan holda o‘zining xulosasini tuzadi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ rahbari nomiga yuboradi.

Sud tibbiyot ekspertizasi o‘tkazish jarayoni bir muncha vaqt talab qilishini inobatga olgan holda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tergovga qadar tekshiruv muddatini bir oygacha uzaytirish to‘g‘risida qaror chiqaradi va qarorni kelishish uchun harbiy prokurorga taqdim etadi. Harbiy prokuror tomonidan tergovga qadar tekshiruv muddatini bir oygacha uzaytirish to‘g‘risidagi qaror o‘rganib chiqiladi va muddatni uzaytirish asosli deb topilgan taqdirda harbiy prokuror tergovga qadar tekshiruv muddatini bir oygacha uzaytirib beradi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi belgilangan muddat ichida tergovga qadar tekshiruv jarayonida o‘tkazilishi lozim bo‘lgan barcha protsessual va tergov harakatlarini o‘tkazadi.

Biroq, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsiga berilgan vakolatlar yetarli bo‘lmaganligi sababli tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish jarayonida ayrim muammo va kamchiliklar yuzaga kelmoqda.

Jumladan, Jinoyat-protsessida ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan so‘ng o‘tkazish belgilangan bo‘lib, tergovga qadar tekshiruv jarayonida ushbu faoliyat amalga oshirilmayotganligi amaliyotda ko‘plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

JPK talablariga ko‘ra Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tirik odamning, murdaning, hayvonning, o‘simlikning, buyumning, materialning yoki moddaning xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi namunalar olishga, basharti ularning ekspert tekshiruvi ekspert oldiga qo‘yilgan savollarni hal qilish uchun zarur bo‘lsa haqli ekanligi, namuna olish to‘g‘risida surishtiruvchi tergovchi qaror sud esa ajrim chiqarishi belgilangan.

Ammo amaliyotda sudga oid ekspertizalarning aksariyati tergovga qadar tekshiruv harakatlari davomida tayinlanishi va o‘tkazilishi, ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish zarurati ham eng ko‘p tergovga qadar tekshiruv bosqichida yuzaga kelayotganligi bois, ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakatini JPKning 329-moddasiga kiritish, ekspertiza tekshiruvi uchun namuna olish vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar qatoriga esa tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarni kiritish orqali amaliyotda yuzaga kelayotgan bu muammolarni bartaraf etish lozim. Keltirilgan muammolar tahlil qilingan holda amaldagi JPKga tegishlicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi, bir tomondan huquqni qo‘llash amaliyotda yuzaga kelayotgan tushunmovchiliklarni bartaraf etib, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari to‘liq ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Har bir o‘tkazilgan tergovga qadar tekshiruv yakuniga ko‘ra JPKning 330-moddasida belgilangan qarorlardan birini qabul qilishi shart.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish, aybdorlar harbiy xizmatning maxsus turlari bo‘yicha majburiyatlarni bajarayotgan paytda sodir etilishi mumkin (qorovullik, ichki xizmat, jangovar navbatchilik va x.k.lar). Agar aybdor tomonidan ayni paytda maxsus xizmat qoidalari ham buzilsa, bu harakatlar JKning 265-moddasi va u yoki bu xizmat turini buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar majmui bilan belgalanadi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish jabrlanuvchining oziq-ovqati, harbiy kiym-kechak ashyolari va moddiy boyliklarini olib qo‘yish yo‘li bilan sodir etilishi mumkin. Agar bunda jabrlanuvchiga tegishli bo‘lgan shaxsiy mulk ashyolar olib qo‘yilsa, aybdorning harakatlari JKning 285-moddasidan tashqari, mulkka qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi boshqa moddalari bilan qo‘shimcha tavsiflanadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan holatlarni chuqur o‘rganib chiqilishi tergovga qadar tekshiruvni protsessual tartib va muddatlarda o‘tkazish bilan cheklanib qolmay sodir etilgan jinoyatni JKning aynan qaysi moddasi bilan to‘g‘ri kvallifikatsiya qilinishiga ham imkon beradi.

Jinoyat belgilari mavjudligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asos bo‘ladi.

Jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo‘lgan barcha hollarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Tergovga qadar tekshiruv organi yoki uning mansabdor shaxsi jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishdan oldin quyidagi sabab va asoslarning mavjudligiga alohida e’tibor qaratishi zarur:

– tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi xabarlar jinoyat ishini qo‘zg‘atishga sabab bo‘lishiga;

– jinoyat, uning belgilari haqidagi xabarlardan olingan ma’lumotlar dalillarga asoslanganliga;

– mazkur jinoyat, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qaysi moddasiga oidligiga;

– jinoyatning qachon, qaerda, qanday usul bilan sodir etilganligiga;

– jinoyat sodir etilishi qaysi usuli, uni sodir etishda qanday vositalar qo‘llanilganligiga;

– kimga, qanday shakldagi va qancha miqdordagi zarar yetkazilganligiga;

– jinoyatning kim tomonidan sodir etilganligi, jinoyatning maqsadi va sabablariga;

– jinoyat sodir etilgan joylarni ko‘zdan kechirish zaruriyatiga;

– tergovga qadar tekshiruv zarurati bormi, bo‘lsa qanday tekshiruv ishlari (harakatlari)ni o‘tkazish kerakligiga;

– organ yoki mansabdor shaxs jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasini yechish huquqiga egami yoki uni tergovga tegishligiga ko‘ra yuborish kerakliligiga;

– jinoyat ishini qo‘zg‘atishga to‘sqinlik qiladigan holatlar mavjudligiga;

– jinoyat ishi materiallarini ma’muriy, intizomiy choralar qo‘llash uchun jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish asoslari yo‘qligiga;

– jinoyat ishini qo‘zg‘atishda surishtiruv va dastlabki tergovni qaysi organ yoki mansabdor shaxs yuritishi kerakliligiga;

– jinoyatning oldini olish va to‘xtatish, jinoyat izlarini mustahkamlash va saqlash uchun qanday choralar ko‘rilishi kerakligiga.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan quyidagi savollarga javob olishi jinoyat ishini qo‘zg‘atishda o‘ta muhim hisoblanadi:

– sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyatmi?;

– unda jinoyat tarkibining barcha elementlari mavjudmi?;

– jinoyat ob’ekti nima?;

– uning moddiy, jismoniy va ma’naviy qiymati qanday?;

– jinoyatning ob’ektiv tomonining qanday belilari mavjud?;

– ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs ma’lum bo‘lganida – u jinoyatning sub’ekti bo‘la oladimi?;

– u shu turdagi jinoyat uchun javobgarlikka tortish yoshiga yetganmi?;

– aqli rasomi?;

– jinoyat sub’ektiv tomondan qaysi belgilar asosida sodir etilganligi.

Odatda, bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish ko‘p hollarda bir-biriga tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi tergovga

qadar tekshiruv jarayonida harbiy qismda harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzilishi oqibatida tan jarohati olishi hamda muntazam ravishda xo‘rlash va kamsitishlarga chidolmay harbiy qism yoki xizmat joyini tashlab ketish holatlarining mavjudligi harbiy qism komandirlari, massasalar boshliqlari, tan jarohati va boshqa ko‘ngilsiz hodisalarni oldini olish komissiyasi a’zolari va tan jarohati olganlik fakti yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish uchun tayinlangan boshqa mansabdor shaxslarning faoliyatiga ham huquqiy baho berib ketishi lozim.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zararo munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish jinoyati bo‘yicha javobgarlik faqatgina jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan javobgarlik belgilash bilan cheklanib qolmay harbiy qismda o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish holatlariga yo‘l qo‘ygan komandirlarga nisbatan ham javobgarlik belgilanishi bilan qolgan jinoyatlardan farq qiladi.

Bo‘linmada nizomga zid munosabatlarni oldini olish va unga yo‘l qo‘ymaslik, nizomga zid munosabatlarni yashirganligi, komandir yoki boshliqning tobe shaxslarga nisbatan ularning nizomga zid harakatlariga barham berish uchun chora ko‘rmasligi, hokimiyatni suiiste’mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi, shuningdek xizmatga sovuqqonlik bilan qarash kabi jinoyatlardan birini sodir etganlik bo‘yicha javobgarlik masalasi ko‘rib chiqiladi.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nizom qoidalarini buzish jinoyati sodir etilganida bo‘linma (seksiya, raschyot) komandiridan boshlab harbiy qism, qo‘shilmalar komandiri (muassasa boshlig‘i), ularning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha (harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ahloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha) o‘rinbosarlari bo‘lgan mansabdor shaxslarga quyidagi tartibda javobgarliklar belgilanadi:

1. Nizomga zid o‘zaro munosabatlar holatlarini yashirganligi va ularni sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarga chora ko‘rmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortiladilar;

2. Qo‘l ostidagi bo‘linma, qism va muassasalarda nizomga zid o‘zaro munosabatlar va harbiy intizom buzilishini oldini olish bo‘yicha tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni past darajada olib borganligi uchun intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar yoki harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha javobgarlikni belgilashda nafaqat jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchining harakatlariga, balkim o‘z xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan qaragan, shaxsiy tarkib ustidan yetarlicha nazorat o‘rnatmagan, bo‘linmada jinoyat sodir etilishini oldini olish bo‘yicha samarali ishlarni tashkil etmagan komandir va boshqa mansabdor shaxslarning ham faoliyatiga huquqiy baho berish orqali ularni intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortish masalasi ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

Nuraliyev Murod Ma’rufovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA DALILLARNI QAYD ETISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

Maqolada ishni sudga qadar yuritishda dalillarni qayd etishning protsessual tartibi asoslantirib berilgan. Amaldagi qonunchilik hamda tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini ilmiy tahlil qilish asosida ishni sudga qadar yuritishda dalillarni qayd etishning protsessual tartibiga oid xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: dalillarni qayd etish, jinoyat protsessi, ma’lumotlar, dalillarni shakl va usuli, raqamli axborot.

В статье обоснован процессуальный порядок закрепления доказательств в досудебном производстве. На основе научного анализа действующего законодательства и мнений исследователей разработаны выводы и предложения о процессуальном порядке закрепления доказательств в досудебном производстве.

Ключевые слова: закрепления доказательств, уголовный процесс, сведения, форма и способ доказательств, цифровая информация.

The article substantiates the procedural protocol for securing evidence in pre-trial proceedings. Based on a scientific analysis of current legislation and the opinions of researchers, conclusions and proposals have been developed regarding the procedural protocol for securing evidence in pre-trial proceedings.

Key words: consolidation of evidence, criminal proceedings, information, form and method of evidence, digital information.



Jinoyat-protsessual qonunchiligi normalariga qat’iy amal qilgan holda dalillarni to‘plash, tekshirish, baholash va ularni belgilangan talablar asosida protsessual qayd etish orqali jinoyatlarni tez va to‘la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo tayinlash hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs hukm qilinmasligi va javobgarlikka tortilmasligi uchun aybdorlarni fosh etish, qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlashni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 90-moddasi[1]da, ma’lumotlar va narsalardan, ular tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etilganidan keyingina dalil sifatida foydalanish mumkin. Bayonnomalar yuritish uchun mas’uliyat surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi va tergovchi, sudda esa, raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Bayonnomalarga: tergov yoki sud harakatining ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, bu shaxslarga ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilgani; tergov yoki sud harakatining o‘tkazilish joyi va vaqti, shart-sharoitlari, jarayoni va natijalari, bunda topilgan moddiy ob’ektlar tavsifi va ularning ish uchun ahamiyatli bo‘lgan belgilari; tergov harakatlari yoki sud muhokamasi ishtirokchilari tasdiqlashni so‘ragan faktlar; ularning yuz berayotgan hodisa sabablari xususidagi ko‘rsatuvlari, tushuntirishlari, mulohazalari; ular tomonidan berilgan iltimosnomalar, shikoyatlar, rad etishlar; tergov harakatini olib borish yoki sud muhokamasi jarayonidagi tartibbuzarlik hollari, shuningdek bu tartibbuzarliklarni bartaraf etish va oldini olish uchun ko‘rilgan chora-tadbirlar kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

Bizning fikrimizcha, dalillarni qayd etish deganda ularni mustahkamlash, ya’ni qonunda ko‘rsatilgan tartibda ish bo‘yicha bu kabi harakatdan keyin ularni dalil deb e’tirof etish uchun aniq ma’lumotlarni aks ettirish tushuniladi.

Boshqa bir adabiyotlarda, protsessual qayd etishni ko‘p hollarda “dalillarni mustahkamlash” tarzida ifodalagan. Bunda dalillarni mustahkamlash “tergovchi tomonidan aniqlangan faktik ma’lumotlarni protsessual hujjatlarda aks ettirish”, “to‘plangan dalillarni hujjatlashtirish va protsessual tasdiqlash” kabi shakllarda talqin qilinadi.[2] Kriminalistik adabiyotlarda qayd etish ob’ekti sifatida asosan qayd etishning usuli, vositasi va moddiy vujudga kelishiga urg‘u beriladi.[3]

N.N.Lьisov yozishicha, daliliy ma’lumotlarning qayd etish tushunchasi asosini quyidagi muhim belgilar tashkil etadi: qayd etishning bevosita vazifasi (turli manbalarda mavjud daliliy ma’lumotlarning saqlanishi); qayd etishning predmeti (voqea-hodisa haqidagi ma’lumotlar: narsalar, harakatsiz ob’ekt va sub’ektlarning sur’atlari, jinoiy faoliyat rivojlanish jarayoni dinamikasi, harakatlar va boshqalar); qayd etish usullari (jinoyatlarni aniqlash va ochish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlar tomonidan qo‘llaniladigan taktik usul va ilmiy-texnikaviy vositalari); qayd etishning yakuniy maqsadi (ish hujjatlarini ko‘rib chiqish va hal etish uchun zarur bo‘lgan protsessual qayd etilgan faktik ma’lumotlarni olish).[4]

N.Egorov va boshqalarni ta’kidlashicha, dalillarni qayd etishning mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) moddiy ifodalovchisida mavjud daliliy ma’lumotlarni sharhlash va isbotlash vositasiga o‘tkazish;

b) isbotlash jarayonida bir necha marotaba foydalanish maqsadida daliliy ma’lumotlarni saqlanishini ta’minlash; v) qayd etilgan daliliy ma’lumotlarning saqlanishi natijasida ularning ishga taalluqli bo‘lganlarini to‘plab borish va isbotlashni to‘liq amalga oshirishida foydalanish; g) isbotlashni amalga oshiruvchi sub’ektga qonuniy tartibga solingan va isbotlash predmeti nuqtai nazaridan kelib tushgan ma’lumotlar to‘liq rasmiylashtirilmasdan, balki ishga taalluqli bo‘lgan holatlargina saralab olinib, isbotlash jarayonida foydalanishi; d) isbotlovchi ma’lumotlar nafaqat qayd etiladi, balki ma’lumot olishning yullari, usul va vositalari ham uning ishga taalluqliligining zaruriy sharti sifatida qayd etiladi.[5]

Qayd etish lozimki, isbotlash davrida daliliy ma’lumotlarning taalluqliligi va maqbulligi birlamchi xarakterga ega bo‘ladi. Protsessual nuqtai nazardan daliliy ma’lumotlarni qayd etish o‘z navbatida isbotlash sub’ekti faoliyatini tasdiqlaydi. Isbotlash sub’ekti faoliyatining tasdig‘i deganda ma’lumotlarning daliliy kuchga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida qonunda belgilangan tartibda ularni qayd etilishi nazarda tutiladi.

Dalillarni qayd etish ish buyicha ma’lum bir faktlarni tasdiqlash bilan birga faktik

ma’lumotlarni qayd etish maqsadi ham ko‘zlanadi. Protsessual jihatdan qaraganda, dalillarni qayd etish protsessual shaklda tasdiqlanishi va qayd qilinishi natijasida kelib chiqqan holda rasmiy jihatdan to‘g‘ri ekanligini e’tirof etish lozim.[6]

Bu o‘rinda shu narsa ayon bo‘ladiki, daliliy ma’lumotlar qonunda belgilangan tartibda va usulda qayd etilishi bilan qonuniy shaklga ega bo‘ladi. “Daliliy ma’lumotlarni qayd etish” tushunchasi, protsessual jihatdan farqli o‘laroq, kriminalistik jihatdan kengroq mazmunga ega. Bunda asosan daliliy ma’lumotlarni qayd etish bilan bog‘liq harakatlar va ushbu xarakatlarni amalga oshirish vositalariga tayaniladi.

Shu o‘rinda A.R.Belkinning quyidagi fikrini ham keltirib o‘tish mumkin: “Dalillarni qayd etish tushunchasining mazmunan tahlili jinoyat ishlarini yuritish jarayonida ushbu tushunchaning quyidagi ko‘rinishda tavsiflanishini taqozo etadi: dalillarni qayd etish - bu jinoyat ishlarini to‘g‘ri hal etish uchun haqiqiy ma’lumotlarni qonunda belgilangan shakllar, shartlar, usullar va vositalar yordamida aniqlash hamda mustahkamlash bilan bog‘liq harakatlar majmuidir.[7]

Bizningcha, yuqoridagi fikrni qo‘llab-quvvatlagan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin: 1) dalillarni qayd etish ham fikrlash bilan bajariladigan, ham tom ma’nodagi jismoniy harakatlar majmuidir; 2) qayd etishning ob’ekti barcha haqiqiy ma’lumotlar emas, balki isbotlashni amalga oshiruvchi sub’ektlar tomonidan amaldagi JPKning 85-moddasida ko‘rsatilgan tartibda ini konuniy, asoslangan va adolatli xal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida to‘plangan ma’lumotlardir; 3) ushbu faoliyat qayd etish ob’ektini protsessual shaklda aks ettirishga yo‘naltirilgan, tegishli talablarga javob berishi bilan birga protsessual qonun talablariga rioya qilingan faoliyatdir; 4) dalillarni qayd etishda nafaqat ma’lumotlarni protsessual shaklga keltirgan holda qayd etish, balki ushbu dalillarni aniqlanishi, olinishi, qayd etilishi va saqlanishi bilan bog‘liq jarayonlar ham ko‘rsatgan holda aks ettirish lozim.

Yuqorida ko‘rsatganlardan dalillarni qayd etishning ob’ekti quyidagicha bo‘lishi haqida xulosa kilish mumkin: a) haqiqiy ma’lumotlarning aynan o‘zi; b) ularni aniqlash va qayd etish bilan bog‘liq maqsad va usullar; v) haqiqiy ma’lumotlarni aniqlash hamda qayd etish usul va vositalari.

Bundan tashqari, dalillarni protsessual shakllarda qayd etish, o‘z navbatida, qayd etishning sub’ektlariga ham yo‘l-yo‘riq talab qilishini qayd etish lozim.

Daliliy axborot, ularni olish va qayd etish bilan bog‘lik ma’lumotlar - bu isbotlash jarayonidagi qayd etishning asosiy ob’ektidir. Isbotlash jarayonida asosiy ma’lumotlar bilan bir qatorda ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlardan ham foydalaniladi.

Mazkur qo‘shimcha ma’lumotlarga: 1) surishtiruv organlari tomonidan tezkor-qidiruv faoliyati natijasida olingan, shuningdek, tergovchining tashkiliy-texnik va izlash faoliyati bilan bog‘liq harakatlari yoki mutaxassis bilan maslaxatlashuvi natijasidagi taxminiy ma’lumotlar[8];

2) kriminalistik tadqiq etish, qiyoslash va tekshirish uchuy taqqoslash hamda izlash faoliyatiga xizmat qiladigan yordamchi ma’lumotlar.[9]

Bugungi kunda daliliy ma’lumotlarni kuyidagi shakllarda qayd etish amaliyotda keng qo‘llanilib kelinmoqda: 1) og‘zaki (verbal) shaklda; 2) grafik shaklda; 3) ko‘rgazmali shaklda; 4) yaqqol ko‘rish shaklda.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan og‘zaki (verbal), grafikli, ko‘rgazmali va yaqqol ko‘rish shakllarni turli o‘zaro uyg‘un birikmalari ham bo‘lishi mumkin. Misol uchun, og‘zaki va grafikli, yaqqol ko‘rish va og‘zaki kabilar. Shu bilan birga, dalillarni qayd etishda o‘lchash, tavsiflash, modellashtirish, kuzatish, qiyoslash, eksperiment, fizikaviy, kimyoviy va kriminalistik usullardan foydalanib kelinmokda.[10]

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan metodlarni amalga oshirishga quyidagilar ko‘rsatish mumkin a) verbal shaklda qayd etish - bayonnoma tuzish, tovushni (ovozni) yozib olish; b) grafik shaklda qayd etish - grafik shaklda aks ettirish (sxematik va masshtabli chizmalar, tasvir, xomaki chizmalar, rasmlar, shuningdek, chizilgan suratlar); v) ko‘rgazmali shaklda qayd etish - narsalarni tabiiy holdagi ko‘rinishida olinishi (qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash); g) yaqqol obrazli shaklda qayd etish - videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish.[11]

Ayrim hollarda qayd etishning texnik shakl va usullaridan foydalangan

holda kompleks tarzda yondashish ham mumkin[12]. Misol uchun, bayonnoma tuzish, videotasvir yoki fotosuratga tushirish, nusxa olish va boshq. Har qanday qayd etish shakllaridan foydalanishda, uning uslub va texnik usullarini qo‘llash uchun protsessual talablar qo‘yilgan, chunki gap aynan protsessual isbotlash haqida ketmoqda.

Jinoyat-protsessual huquqida dalillarni qayd etish shakllarining uch turi mavjud: bayonnoma tuzish, ashyoviy dalillarni ishga qo‘shib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilish, boshqa hujjatlarni ishga qo‘shib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilish. Ushbu shakllarga nisbatan asosiy va ko‘pimcha, ixtiyoriy va majburiy kayd etish usullari mavjud.[13] Dalillarni qayd etishning asosiy usuli sifatida bayonnoma tuzish, yordamchi usullari sifatida esa videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, koliplar tayyorlash va izlardan nusxalar olish tushuniladi. Bunday bo‘linish bayonnoma tuzishdan tashqari boshqa qayd etish shakllarining natijalari dalil manbalarining qiymatiga ega bo‘lmasligidan kelib chiqqan.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida dalil vositalari sifatida ilmiy-texnika vositalaridan foydalanish emas, balki guvohning ko‘rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ko‘zdan kechirish bayonnomalari va boshqa yozma hujjatlar hamda ayblanuvchining shaxsiy tushuntirishlaridan foydalanish ko‘rsatib o‘tilgan, lekin ilmiy-texnika vositalari (videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash va izlardan nusxalar olish)dan foydalanish taqiqlanmagan. Bu masala bo‘yicha keng munozaralar bunday qarashlarning nomutanosibligini ko‘rsatib, qonunda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish masalasini kun tartibiga qo‘ydi va ushbu kamchiliklar amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida bartaraf etildi. Lekin JPKning 87-moddasi birinchi qismida dalillar tergov va sud xarakatlarini yuritish yuli bilan to‘planishi, shuningdek, mazkur kodeksning 91-moddasining birinchi qismida dalillarni qayd etish uchun bayonnoma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan xolos.

Nazarimizda, protsessual dalillarni qayd etish usullarini asosiy va qo‘shimcha usullarga emas, balki majburiy (qonundagi qat’iy tartibga muvofiq) va majburiy bo‘lmagan (ixtiyoriy), ya’ni qayd etishni amalga oshiruvchi sub’ektning ixtiyori bilan qo‘llaniladigan usullarga taqsimlash maqsadga muvofiq. Xususan, dalillarni qayd etishning majburiy usullariga bayonnomada qayd etishni kiritib o‘tish mumkin; dalillarni qayd etishning majburiy bo‘lmagan usullariga audio-videoyozuv vositalar yordamida qayd etish, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa qayd etish usullarini kiritish maqsadga muvofiq.

JPKning 91-moddasi to‘rtinchi qismida o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tarzidagi tintuv, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, tergov eksperimenti tarzidagi protsessual harakatlar videoyozuv vositalaridan foydalangan holda qayd etilishi shartligi belgilab qo‘yilgan. Nega aynan o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha videoyozuv vositalaridan foydalanish shartli belgilab qo‘yilgan xolos?

JPKning 951-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan dalillarning maqbul emas deb topilishiga asos bo‘ladigan holatlarning kelib chikishini oldini olish, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash hamda isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqilishini ta’minlash maqsadida ayrim tergov va protsessual harakatlar videoyozuv vositalaridan foydalangan holda qayd etilishi yuzasidan majburiy qoida kiritilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, dalillarni qayd etishning texnik vositalarini tavsiflab, ularni kuyidagi guruxlarga bulish mumkin: 1) ogzaki ma’lumotlarni kayd etish vositalari (bayonnomalarni tuzish vositasi, ovoz yozish kurilmalari); 2) modellar yaratish vositalari - rejalar, chizmalar, rasmlar, sxemalar; 3) moddiy modellarni yaratish vositalari (koliplar mikdori, foto va kino kurilmalar, video yozuvchi vositalar, sintetik portret tayyorlash uchun rasmlar to‘plami va h. k.).[14]

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, dalillarni qayd etishning eng ko‘p qo‘llaniladigan verbal shaklining keng tarqalganligini bir necha sabablari mavjud. Jumladan:

1) bu qonun chiqaruvchining talabi sifatida tergov va boshqa bir necha

protsessual harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi;

2) verbal qayd etishning keng tarqalganligi verbal ta'rifning kiritilishi mumkin bo'lgan qayd etish ob'ektlarining xilma-xilligi bilan bog'liq. Bular:

a) arizalar, ko'rsatmalar va shikoyatlar;

b) harakat va jarayonlar;

v) moddiy shakllar, ularning sifati, xolati va tuzilishi - odamlar, murdalar, hayvonlar, narsalar, hujjatlar, tevarak-atrof, transport vositalari va boshkalar.[15] Ushbu dalillarni qayd etish shakli tarixiy jihatdan eng qadimiy va nisbatan soddaligi bois umumruxsat berilgan shakl hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek ushbu shaklni amalga oshirishning texnik usuli bu bayonnoma tuzish va ovoz yozishda ifodalandi.

Dalillarni qayd etish amaldagi JPKda ko'rsatilgan talablar asosida bajarilmasa dalil nomaqbul deb topiladi. Bizning jamiyatimizda insonning qadr-qimmati, uning qonuniy huquq va manfaatlari eng yuqori o'rinda turadi. JPKning 17-moddasida[16] inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlar tarqalib ketishiga olib keladigan, sog'lig'ini xavf ostita qo'yadigan, asossiz ravishda o'nta jismoniy va ma'naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish yoki qarorlar chiqarish ta'qiqlanishi ta'kidlangan. Isbotlash jarayonining maqsadi haqiqatni aniqlash bo'lgani tufayli, unga erishishda shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari muhofazasiga katta e'tibor berish lozim. Dalillar nafaqat tegishli protsessual bo'lmagan manbalardan olinganida, balki fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari jiddiy ravishda buzilgan hollarda ham nomaqbul deb topiladi.[17]

Shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini buzish bilan bog'liq bo'lmagan dalillarni mustahkamlash nuqsonlari hamda haqiqiy ma'lumotlar noqonuniyligiga nisbatan boshqacha yondashuv zarur.[18] Axborotlarni olish va ularni qayd etish qoidalari dalillar ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan, shuning uchun ham ularni baholash ushbu umumiy vazifani hal qilishning tarkibiy qismidir.[19] Agar yo'l qo'yilgan qoida buzilishlarini boshqa protsessual harakatlar o'tkazish orqali bartaraf etish mumkin bo'lsa, ular jiddiy emas deb hisoblanishi, ya'ni har tomonlama, to'la va xolisona tergov qilishga ta'sir etmagan deb e'tirof etilishi, ushbu dalillar esa kelgusida tekshirilishi va baholanishi mumkin. Ko'pincha bu amaliyot qonunda belgilangan dalillarni qayd etishning protsessual shakliga tegishlidir. Masalan, guvoh so'roq qilish bayonnomasiga tergovchining aybi bilan imzo chekmagan bo'lsa, tergovda bergan ko'rsatuvlarining to'g'ri yozilganligini sudda tasdiqlashi, xolis esa ko'zdan kechirish o'tkazilganda ishdagi o'z ishtirokini tergov harakatini o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslarni so'roq qilish orqali tasdiqlanishi mumkin. Mazkur amaliyot dalillarni mustahkamlashda protsessual shaklga rioya etmaslik yoki ularni mensimaslik deb baholanishi kerak emas. Protsessual shaklga rioya etmaslik oqibatlari xususida qo'shimcha qilib aytish mumkinki, bunday hollarda prokuror JPKning 385-moddasi talablariga binoan qo'shimcha tergov o'tkazish uchun ishni o'z ko'rsatmalari bilan surishtiruvchi yoki tergovchiga qaytarish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 95-moddasi uchinchi kismida dalillarning makbulligi sharti sifatida protsessual shaklga, ya'ni JPKning 92-94-moddalariga rioya etish ko'rsatilgan.[20] Shuning uchun protsessual qaror va bayonnomalar morfologik, stilistik va qonun tili jihatidan aniq, ravshan yozilgan, tegishli hujjatda bayon etilgan bo'lishi kerak. Ular huquqiy me'yorlarni qo'llashning shaxsiy-huquqiy hujjatlari bo'lgani uchun hamma vaqt qonuniy, asoslangan, sabablari ko'rsatilgan, ishonchli, mantiqiy, savodli va madaniyatli, shuningdek yaxlit holda yuqori saviyada qayd etilgan bo'lishi shart.

Dastlabki tergov protsessual hujjatlariga qo'yiladigan talablar nafaqat bunday hujjatlarning tasdiqlovchi, rasmiy tomoniga, balki ularning mazmuniga (protsessual harakatning o'zini haqiqatda bajarish shart- sharoitlari va tartibiga) xam bir xilda taalluqlidir. Bunday talablarga protsessual hujjatning qonuniyligi, asoslanganligi, o'z vaqtidaligi, har tomonlamaligi, to'liqligi va aniqligi hamda ularni tuzishning yuqori saviyadaligi va hujjat sifatida qayd etishning savodliligi kiradi. Ushbu talablarga protsessual harakatlar ham, protsessual hujjatlar ham javob berishi kerak. Biroq ayrim talablar o'z yo'nalishiga qarab jinoyat-protsessual hujjatning mazmuni yoki shakli uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. [21]

Dalillarni to'plashda ularning protsessual jihatdan to'g'ri qayd etilishi isbotlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ish uchun ahamiyatli bo'lgan haqiqiy

ma’lumotlarni har bir dalil turining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda qayd etish jinoyat-protsessual qonunida faqatgina so‘roq qilish tergov harakatida tartibga solingan xolos, xususan, qayd etish natijalari mujassamlashtirilgan protsessual shakl, barcha rekvizitlar, ketma-ketlik, qayd etish natijalarini ishga qo‘shish usullari, ularni tasdiqlash usullari, ulardan isbotlash jarayonida foydalanish tartibi nazarda tutilgan.

Dalillarni qayd etishning bu kabi qoidalari joriy etilishi ish hujjatlarida dalillarning aniq aks etishi, ishonchli dalillar olinishi va dalillarni qayd etishning yagona yondashuviga erishish hamda olingan ma’lumotlarni saqlash sharoitlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu kabi qoidalar, avvalambor, shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlaydi. Dalillarni to‘plash jarayonida qonunni buzilishi esa olingan ma’lumotlarning yuridik kuchi yo‘qolishiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, dalillarni qayd etish – jinoyat-protsessual faoliyat jarayonida protsessual va tergov harakatlarii o‘tkazish natijasida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan biror-bir xodisa to‘g‘risidagi muayyan ma’lumotlarni hamda shunday ma’lumotlarga ega narsa va hujjatlarni qonunda belgilangan tartibda to‘plash, tekshirish, baholashga qaratilgan protsessual harakatlarni yozma va elektron hujjatlarda, shuningdek boshqa qayd etish vositalari yordamida aks ettirishdir.

Yuridik adabiyotlarda, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalariga doir quyidagi asosli fikr mavjuddir, ya’ni “jinoyat hodisalarini o‘z vaqtida ochish surishtiruv, tergov va prokuratura organlari faoliyatini darhol, izlar bosilmasdan turib, ya’ni “issiq izlar” asosida tashkil etishni talab qiladi.[22] Bu tergov qilish ishlarini aniq maqsadga yo‘naltirish hamda faol ravishda olib borishga, sodir etilishi mumkin bo‘lgan boshqa jinoyatlarning oldini olish, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish vazifalarini bajarishga ko‘maklashadi. Jinoyatlarni ochish jarayonining o‘zi ish bo‘yicha to‘plangan dalillarni to‘la-to‘kis tahlil etishdan, isbotlash predmetiga daxldor holatlarni har tomonlama tekshirishdan, barcha aybdorlarni aniqlash va fosh etishdan iborat.

Bugungi kunga kelib zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyatimizning har bir jabhasiga, xususan, sud-tergov organlari faoliyatiga kirib kelishi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jumladan, raqamli texnika vositalari yordamida tergov va protsessual harakatlarning foto va video tasvirga qayd etilishi, raqamli ma’lumot hamda hujjatlar aylanmasining keng joriy etilayotganligi va boshqalar.

Jinoyat ishlarini yuritish, tergov va protsessual xarakatlarini amalga oshirishda raqamli ma’lumotlar va elektron dalillarni aniqlash, olish va qayd etish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq masalalar keng muhokamalarga sabab bo‘lmoqda.[23]

Sud-tergov organlariga qiyinchilik to‘g‘dirayotgan asosiy masalalardan biri dalillarning yangi turi – “elektron dalillar” hamda ushbu elektron dalillarni aniklash, ularni olish va qayd etish bilan bog‘liq muammolarga duch kelinayotganligidir. Amaldagi qonun hujjatlarida “elektron dalillar” atamasining keng qo‘llanilishiga qaramay, mutaxassislar bunday dalillarni alohida dalil turi sifatida ajratib ko‘rsatish va jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlash zarurligi yuzasidan ilmiy qarashlar mavjud.

B.A.Rajabov fikricha, “elektron axborot” yoki “elektron dalil” tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlarini keltirib, jinoyat-protsessual qonunchilikda “elektron jinoyat ishi”, “elektron dalil”, “raqamli axborot tashuvchisi”, “elektron ma’lumot”, “elektron axborotdan nusxa ko‘chirish” va “elektron hujjat” kabi atamalarga aniqlik kiritilishi hamda mavjud bo‘shliqlarning bartaraf etilishi dalillarni to‘plash tartibini takomillashtirishga xizmat qiladi.[24]

R.I.Okonenko esa, “elektron ma’lumot”, “elektron axborotdan nusxa ko‘chirish», “elektron hujjat” va “elektron dalillar” bilan bog‘liq boshqa tushunchalarni kirib kelishiga oid qarashlarini bayon etgan.[25]

P.S.Pastuxovning yozishicha, jinoyat-protsessual qonunchilikda dalillarning yangi turi (elektron dalillar) yoki yangi dalil manbalarini (raqamli axborot tashuvchi) kiritilishi shart emasligini, aksincha “ma’lumotlar” elektron ma’lumotlar shaklida bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatuvchi an’anaviy dalillardan biri, ya’ni ashyoviy yoki hujjat shaklidagi dalillar sifatida qabul qilinishi mumkin. [26]

Ye.I.Galyapshna fikricha, binar shaklda keltirilgan raqamli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan fayllarni qidirish, aniqlash, olish, qayd etish, o'rganish va saqlashda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (YuSE) tomonidan belgilangan tamoyillarga amal qilish zarur.[27]

Albatta, jinoyat protsessida elektron dalillarni joriy etish ushbu turdagi dalillarning mazmunini, shuningdek ularni aniqlash, olish, to'g'ri qayd etish va baholash bilan bog'liq faoliyatni to'liq tartibini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bizningcha, mazkur yo'nalishda tadqiqot o'tkazib o'zining takliflarini ilgari surgan olimlarning ilmiy karashlari, amaliyotdagi mavjud muammolarni o'rganish va ularning yechimini topish maqsadida O'zbekiston Respublikasi JPKning 81-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish o'rinli bo'lardi:

"Bu ma'lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, elektron ma'lumotlar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi».

Xulosa o'rnida aytish kerakki, bunday ta'rifdagi norma tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov va sud muhokamasida dalil va dalil manbalari bilan ishlashda ijobiy ta'sirini ko'rsatib, ko'pgina muammoli holatlarni hal etishga yordam beradi. Qolaversa, ularning o'z vaqtida jinoyat-protsessual qonuniga joriy etilishi bevosita amaliyot hamda nazariya uchun katta foyda keltiradi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. (www.lex.uz)
2. Saveleva N.V. Problemы dokazatelstv i dokazыvaniya v ugolovnom protsesse: Uchebnie posobie / N.V.Saveleva. - Krasnodar: KubGAU, 2019. - S. 56; Kolesov O.M. Pismennыe dokazatelstva v ugolovnom protsesse Rossii: Avtoref. kand. yurid. nauk. - Nijniy Novgorod, 2006. - S. 12; Bitokova M.J. Pravo sobiraniya dokazatelstv zaщitnikom i yego osuщestvlenie v ugolovnom sudoproizvodstve: Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - M., 2008. - S. 15; Belousov N.V. Predmet dokazыvaniya po delam o prestupleniyax, sovershennыx v souchastii: Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - Voronej, 2003. - S. 22.
3. Popova T.V. Kriminalisticheskie i protsessualnыe voprosы ispolzovaniya mikrosledov v dokazыvanii: Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - Chelyabinsk, 2005. - S. 15; Novik V.V. Kriminalisticheskoe obespechenie dokazыvaniya po ugolovnыm delam: Problemы teorii i praktiki: Avtoref. dis... d-ra. yur. nauk. - M., 2009. - S. 28; Dementev A.Yu. Kriminalisticheskoe prognozirovanie v protsesse sobiraniya i fiksatsii dokazatelstv po ugolovnomu delu: Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - Yekaterinburg, 2003. - S. 16.
4. Lыsov N.N. Fiksatsiya dokazatelstv v ugolovnom protsesse. Ch. I: Metodologicheskie problemы. - N.Novgorod: YuI MVD Rossii, 1998. - S. 70.
5. Yegorov N.N. Teoreticheskie i prikladnыe problemы ucheniya o veщestvennыx dokazatelstvax: Avtoref. dis... d-ra. yurid. nauk. - Irkutsk, 2005. - S. 16; Smorgunova M.E. Teoreticheskie osnovы i praktika proverki dosudebnыx dokazatelstv v ugolovnom protsesse: Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - Nijniy Novgorod, 2004. - S. 12.
6. Tatarov L.A. Metodicheskie i metodologicheskie problemы dokazыvaniya obstoyatelstv prestupleniya: Avtoreferat diss... kand. yurid. nauk. - Rostov-na-Donu, 2006. - S. 19.
7. Belkin A.R. Teoriya dokazыvaniya v ugolovnom sudoproizvodstve. - M.: Norma, 2005. - S. 192.
8. Kotuxov M.P. Perevod rezultatov operativno-rozыsknoy deyatelnosti v dokazatelstva: Avtoref. dne... kand. yurid. nauk. - M., 2002. — S. 20.
9. Yalыshev S.A. Kriminalisticheskaya registratsiya: problemы, tendensii, perspektivы. - M., 1999. -S. 59.
10. Lopatkin D.A. Veщestvennыe dokazatelstva: Protsessualnыe i kriminalisticheskie aspektы: Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - Krasnodar, 2003. - S. 21.
11. Belkin R.S. Kriminalistika. 2001, [Elektronnыy resurs] URL: https://be5.biz/pravo/k023/ll.html; Vinberg A.I. Kriminalistika. Vыp. 1. vvedenie v kriminalistiku. - M., 1950. - S. 168.
12. Rossiyskiy S.B. Konseptualnыe osnovы formirovaniya rezultatov «neverbalnыx» sledstvennыx i sudebnыx deystviy v dokazыvanii po ugolovnomu delu: Avtoref. dis... d-ra. yurid. nauk. - M., 2015. - S. 31.

13. Popova N.A. Вещestvennыe dokazatelstva: Sobiranie, predstavlenie i ispolzovanie ix v dokazыvanii: Avtoreferat diss... kand. yurid. nauk. - Saratov, 2007. - S. 14.
14. Milenin Yu.N. Audio - i videodokumentы kak dokazatelstva v ugolovnom protsesse: Avtoref. dis... kayd. yurid. nauk. — M., 2009. — S. 24; Korotkiy S.A. Audio — i videozapisi kak sredstva dokazыvaniya v grajdanskom protsesse: Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - M., 2010. - S. 18.
15. Veselova Yu.A. Protokolirovanie i dopolnitelnыe metodы fiksatsii dokazatelstv v ugolovnom protsesse: Dis... kand. yurid. nauk. - SPb, 2005. - S. 21;
16. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. (www.lex.uz)
17. Lupinskaya P.A. Osnovaniya i poryadok prinyatiya resheniy o nedopustimosti dokazatelstv // Rossiyskaya yustitsiya, — 1994. - № 11. - S. 2-5; Lupinskaya P.A. Ugolovno-protsessualnoe pravo Rossiyskoy Federatsii / otv. red. 2-ye izd., pererab. i dop. - M., 2011. - S. 32
18. Saidov B.A. Ishni sudga qadar yuritishda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash: Monografiya. - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. - B. 34; Umarxanov A.Sh. Odil sudlovga ko‘maklashuvchi shaxslar xavfsizligini ta’minlashning huquqiy choralari: O‘quv qo‘llanma. - T., 2005. - B.76; Bulatov V.A. Obespechenie sledovatelem prav i zakonnыx interesov i bezopasnosti poterpevshix i svideteley: Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - Volgograd, 1999. - S. 22.
19. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh / M.Yu.Abdusalomov, B.T.Akramxodjaev, X.R.Alimov va boshq. - T., 2001. - B. 476-477.
20. Inog‘omjonova Z.F., To‘laganova G.Z. Jinoyat protsessi muammolari: O‘quv qo‘llanma - T., 2006. – B. 98.
21. Raxmonqulov A.X., Mirazov D.M. Dastlabki tergov: Darslik (to‘ldirilgan va o‘zgartirilgan ikkinchi nashri). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. - B. 150.
22. Petruxin I.L. Teoreticheskie osnovы reformы ugolovnogo protsessa v Rossii. - M.: Prospekt, 2008. Ch. 2. - S. 84.
23. Ovsyannikov D.V. Kopirovanie elektronnoy informatsii kak sredstvo ugolovno-¬protsessualnogo dokazыvaniya: Avtoref dne... kand. yurid. nauk. - Yekaterinburg, 2015. - S. 16.
24. Rajabov B.A. Jinoyat protsessida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash: Monografiya. - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. - B. 246.
25. Okonenko R.I. «Elektronnыe dokazatelstva» i problemы obespecheniya prav grajdan na zaщitu taynы lichnoy jizni v ugolovnom protsesse: sravnitelnыy analiz zakonodatelstva Soedinennыx Shtatov Ameriki i Rossiyskoy Federatsii: Dne. ... kand. yurid. nauk. - M., 2016. - S. 14-15; Kalitin S.V. Dokazatelstva elektronnыe i sifrovыe. [Elekronnыy resurs]. Rejim dostupa: https://e-koncept.ru/2014/54981 .htm
26. Pastuxov P.S. O razvitii ugolovno-protsessualnogo dokazыvaniya s ispolzovaniem elektronnыx dokazatelstv // SPS «KonsultantPlyus», 2016. - S. 6.
27. Galyashina Ye.I. Otsenka dostovernosti sifrovыx fonogramm v ugolovnom protsesse // Dokazыvanie i prinyatie resheniy v sovremennom ugolovnom sudoproizvodstve: materialы Mejdunar. nauch.-prakt. konferensii, posvyaщ. pamyati d-ra yurid. nauk, prof. Polinы Abramovnы Lupinskoy: sbornik nauch. trudov. - M.: Elit, 2011. - S. 140.



Abdumutalibov Abdulkhay Ikromjon o'gli,
Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

THE CRIMINAL ASPECTS OF PRIVATE MILITARY COMPANIES: A GLOBAL PERSPECTIVE

Private Military Companies (PMCs) have emerged as significant actors in contemporary global security. While PMCs offer cost-effective and specialized services, their operations are often cloaked in legal and ethical ambiguity. This article examines the criminal aspects of PMCs, focusing on human rights abuses, violations of international law, regulatory shortcomings, and challenges in holding such entities accountable. Drawing on case studies, legal frameworks, and policy analysis, we explore the implications of PMC activities on global governance and recommend strategies to mitigate their potential for criminality. With the globalization of the economy, in the 1980s, governments are increasingly outsourcing to the private sector security and a number of functions considered as the prerogative of the State. The United Nations has defined the use of mercenaries "as a means of violating human rights and impeding the exercise of the right of peoples to self-determination." In order to control this phenomenon, it adopted, in 1989, the International Convention against the Recruitment, Use, Financing and Training of Mercenaries. The UN Convention, however, as well as other international instruments adopted in the mid-twentieth century have become obsolete to deal with the new forms of mercenarism.

Key words: PMSC, International armed conflict, mercenerism, noncombotants, Blackwater, The Montreux Document

Частные военные компании (ЧВК) стали значимыми игроками в современной глобальной безопасности. Хотя ЧВК предлагают экономически эффективные и специализированные услуги, их операции часто скрыты за юридической и этической двусмысленностью. В этой статье рассматриваются уголовные аспекты ЧВК, уделяя особое внимание нарушениям прав человека, нарушениям международного права, недостаткам регулирования и проблемам привлечения таких организаций к ответственности. Опираясь на тематические исследования, правовые рамки и анализ политики, мы изучаем последствия деятельности ЧВК для глобального управления и рекомендуем стратегии по снижению их преступного потенциала. С глобализацией экономики в 1980-х годах правительства все чаще передают частному сектору безопасность и ряд функций, считающихся прерогативой государства. Организация Объединенных Наций определила использование наемников «как средство нарушения прав человека и воспрепятствования осуществлению права народов на самоопределение». Для контроля этого явления в 1989 году была принята Международная конвенция о борьбе с вербовкой, использованием, финансированием и обучением наемников. Однако Конвенция ООН, как и другие международные документы, принятые в середине двадцатого века, устарели для борьбы с новыми формами наемничества.

Ключевые слова: ЧВК, международный вооруженный конфликт, наемничество, некомботанты, Blackwater, Документ Монтрё.

Introduction. The world is facing today new forms of mercenarism. Non-State armed groups, such as foreign fighters and private military and security companies (PMSCs), operate with impunity in armed conflicts. In the 1960s, colonial powers recruited mercenaries, particularly in Africa, to crush liberation movements fighting for their independence. Private military and security companies closely linked to the economic interests of the international mining sector have replaced these soldiers of fortune, or dogs of war. The turning of the century has seen PMSCs increasingly taking part in hostilities and armed conflicts. The revolving door phenomenon between governments and PMSCs, particularly in Western countries, has largely contributed to this phenomenon. [1] Private Military Companies (PMCs) have become integral to modern warfare and security operations, providing services ranging from combat support and logistical aid to security consulting and training. Their rapid proliferation stems from the increasing privatization of war and security, driven by governments and corporations seeking cost-effective alternatives to traditional military forces. Since the end of the Cold War, there has been a marked increase in the sale of military services by private security companies (PSCs). These companies sell anything from combat support for government military operations to military training and assistance, logistical support and more conventional security protection services. They have undertaken operations in countries as diverse as Sierra Leone, Croatia, and Columbia and now Iraq and Afghanistan. The presence of these companies on the international stage raises fundamental questions about the way war is now being fought. Unfortunately, the legal issues raised by their presence in conflicts have not yet been properly addressed. This article sets out to examine the suitability of international law in defining and controlling the activities of PSCs on the battlefield.[2]

However, the rise of PMCs also introduces a plethora of legal, ethical, and criminal concerns. PMCs operate in a legal gray zone, often straddling the boundaries of domestic and international law, making it difficult to hold them accountable for illicit activities.

This article explores the criminal dimensions of PMCs by analyzing their involvement in human rights abuses, corruption, illegal arms trading, and other transgressions. It also highlights the regulatory and legal challenges associated with monitoring and prosecuting their crimes. The discussion is grounded in real-world examples and legal principles, offering a comprehensive view of this pressing issue.

Historical Context and Evolution of PMCs. The concept of privatized military services is not new. Mercenaries have been a part of warfare for centuries, from ancient Greek hoplites to the condottieri of Renaissance Italy. However, the modern PMC emerged in the late 20th century, driven by the downsizing of national militaries and the increasing complexity of global conflicts. Companies like Executive Outcomes and Sandline International pioneered the industry in the 1990s, providing services to governments and private entities in conflict zones.

The 21st century has seen an exponential growth in the PMC industry, with major players like Blackwater (now Academi), DynCorp, and G4S dominating the market. These companies operate in a variety of environments, including Iraq, Afghanistan, and sub-Saharan Africa, often blurring the lines between public and private military functions. The privatization of security has raised critical questions about oversight, accountability, and the potential for criminal conduct.

When people think of private military contractors, they imagine Blackwater Security Consulting in Iraq circa 2007. However, the market for force has moved on. Firms like Blackwater are quaint compared to the Wagner Group and other contemporary mercenaries. Curiously, this trend is overlooked by scholars, the mainstream media, and the Intelligence Community.[3] Private force has become big business, and global in scope. No one truly knows how many billions of dollars slosh around this illicit market. All we know is that business is booming. Recent years have seen major mercenary activity in Yemen, Nigeria, Ukraine, Syria, and Iraq. Many of these for-profit warriors outclass local militaries, and a few can even stand up to America’s most elite forces, as the battle in Syria shows. The Middle East is awash in mercenaries. Kurdistan is a haven for soldiers of fortune looking for work with the Kurdish militia,

oil companies defending their oil fields, or those who want terrorists dead. Some are just adventure seekers, while others are American veterans who found civilian life meaningless.[4] The capital of Kurdistan, Irbil, has become an unofficial marketplace of mercenary services, reminiscent of the Tatooine bar in the movie Star Wars—full of smugglers and guns for hire.

Criminal Aspects of PMCs

1. Human Rights Abuses. PMCs have been implicated in numerous human rights violations, including extrajudicial killings, torture, and abuse of civilian populations. The 2007 Nisour Square massacre in Baghdad, involving Blackwater contractors, is a prominent example. In this incident, PMC personnel killed 17 civilians and injured dozens more, leading to widespread condemnation and highlighting the lack of accountability in their operations. The government of Iraq suspended the private security firm Blackwater from operating in the country after some of its employees opened fire on and killed 17 civilians in Baghdad in September 2007. The incident came against the backdrop of a conflict in which between 25,000 and 50,000 mercenaries from several companies, the biggest of which is Blackwater, are employed by the US. These companies operate beyond the reach of international law, with little accountability to either the occupying force or the Iraqi government.[5] PMCs often operate in conflict zones with weak legal systems, creating opportunities for abuse without fear of prosecution. Reports from Afghanistan, Iraq, and Africa reveal patterns of misconduct, including sexual exploitation, forced labor, and the use of excessive force.

2. Violation of International Law. The activities of PMCs frequently contravene international laws, including the Geneva Conventions and the International Criminal Court's statutes. Many PMCs engage in direct combat roles, which may violate prohibitions against mercenary activity under international law. The Montreux Document, a non-binding agreement outlining best practices for PMCs, lacks enforcement mechanisms, leaving a regulatory vacuum. Although it does not create any legal obligations, and only recalls existing ones, it is the first intergovernmental document to address international obligations in respect to the activities of PMSCs. It can thus be seen as a first step toward the establishment of a better regulative framework of PMSCs' activities in conflict zones. This article provides an overview of the process that led to the endorsement of this document and an analysis of its content. It also addresses some of the questions left unanswered by the Montreux Document.[6]

3. Illegal Arms Trading. PMCs are often linked to the illicit arms trade, either directly or through subcontractors. In conflict zones, the lack of oversight allows these companies to acquire and distribute weapons without proper authorization, fueling violence and instability. For example, investigations have revealed cases where PMCs supplied arms to non-state actors, exacerbating regional conflicts.

4. Corruption and Bribery. Corruption is another significant issue in the PMC industry. Contracts awarded to PMCs often lack transparency, leading to allegations of bribery and fraud. Governments and corporations may collude with PMCs to bypass legal restrictions, undermining the rule of law. In some cases, PMCs have been accused of paying off local officials or armed groups to secure contracts or ensure safe passage.

5. Undermining Sovereignty. The presence of PMCs in fragile states can undermine national sovereignty and governance. By providing security services to multinational corporations or foreign governments, PMCs may prioritize the interests of their clients over those of the host nation. This dynamic often leads to tensions, exploitation of local populations, and the erosion of state authority.

Regulatory Challenges

1. Lack of International Oversight

One of the primary challenges in addressing the criminal aspects of PMCs is the absence of robust international oversight mechanisms. While the United Nations and regional bodies have attempted to regulate PMC activities, their efforts are often hampered by jurisdictional issues and political resistance from powerful states.

2. Ambiguity in Legal Status

PMCs occupy a legal gray area, often falling outside the scope of existing laws. Domestic laws may not apply to contractors operating overseas, and international laws governing mercenaries are outdated and difficult to enforce. This ambiguity allows

PMCs to operate with relative impunity.

3. Corporate Shielding

Many PMCs are registered as private corporations, shielding them from direct liability for criminal acts committed by their employees. This corporate structure complicates efforts to hold individuals or organizations accountable, as legal proceedings must navigate complex layers of corporate law.

4. Weak National Frameworks

In many countries, domestic legal frameworks are ill-equipped to regulate PMCs. Weak institutions, corruption, and lack of technical expertise often result in inadequate monitoring and enforcement of laws governing PMC activities. This is particularly problematic in conflict-affected states, where PMCs are most active.

The international community has already made attempts to control traditional mercenary activities.Their modern counterparts, private military companies, present new challenges to policymakers to which there is still controversy and no agreed response. The salient need to improve currently lacking accountability is a useful foundation upon which governments can take appropriate steps towards drafting legislation.[7]

Conclusion. Private Military Companies are powerful actors in global security, but their activities often raise serious legal and ethical concerns. The criminal aspects of PMCs, including human rights abuses, corruption, and violations of international law, highlight the urgent need for robust regulatory frameworks and accountability mechanisms. By addressing these challenges, the international community can ensure that PMCs operate within the bounds of law and contribute positively to global security.

The complexities surrounding PMCs demand a coordinated effort from governments, international organizations, and civil society to mitigate their potential for criminality while harnessing their capabilities for lawful and ethical purposes. Failure to act risks perpetuating a system where profit overrides principles, undermining global peace and justice.


◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. The Ineffectiveness of the Current Definition of a “Mercenary” in International Humanitarian and Criminal Law, José L. Gómez del Prad, Public International Law and Human Rights Violations by Private Military and Security Companies: pp 59–81
2. Challenging international law: a dilemma of private security companies, Christopher Kinsey, Conflict, Security & Development ; Pages 269-293
3. A notable exception is the Private Security Monitor project at the Sié Chéou-Kang Center for International Security and Diplomacy at the University of Denver’s Josef Korbel School of International Studies. The project is under the direction of Deborah Avant, a longtime expert in this issue. Details are available at <http://psm.du.edu/index.html>.
4. Mercenaries and W cenaries and War: Understanding Priv ar: Understanding Private Armies T ate Armies Today, Sean McFare, https://digitalcommons.ndu.edu/
5. Blackwater: mercenaries and international law, Joana Abrisketa Professor of International Law, University of Deusto
6. SOME COMMENTS AND OBSERVATIONS ON THE MONTREUX DOCUMENT, Marie-Louise Tougas, Yearbook of International Humanitarian Law, Published online by Cambridge University Press: 02 November 2010
7. Regulating private military companies options for the UK Government, Chaloka Beyani and Damian Lilly, Inernational Alert

A.A Jo‘rayev,
Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi yetakchi ilmiy xodimi

“DRON” SO‘ZINING FANGA KIRIB KELISHI TARIXI

Mazkur maqolada dron so‘zining fanga kirib kelishi tarixi, unga olimlar tamonidan berilgan ta’riflardan kelib chiqib mualliflik tarifi, bu so‘zning ma’nosidan tortib, qurilma turlarigacha bo‘lgan ma’lumotlar haqida yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: UUA, Biplan, dron, kvadrokopter, dron ta’rifi, texnologiya, olimlar.
В этой статье освещается история введения в науку слова dron, авторское определение на основе определений, данных учеными, информация о значении этого слова до типов устройств.
Ключевые слова: БПЛА, Биплан, дрон, квадрокоптер, описание дрона, технология, ученые.
This article covers the history of the introduction of the word “drone” into science, the author’s definition based on the definitions given to it by scientists, information about the meaning of this word to the types of devices.
Keywords: unmanned aerial vehicle, biplane, drone, quadcopter, drone description, technology, scientists.





Bugungi kunda dronlar texnologiyalarining rivojlanishi juda dolzarb bo‘lib kelmoqda va keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. Dronlarning dolzarbligi bir nechta sohalarda yaqqol namoyon bo‘lib, ularning o‘zgaruvchan va tez rivojlanayotgan xususiyatlari zamonaviy jamiyatda alohida ahamiyatga ega qilishga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, dronlar tufayli hatto yangi sport turi paydo bo‘ldi. Biz hozir dron inqilobining boshida turibmiz, shuning uchun bu qurilmalar haqida barcha ma’lumotlarni bilib olishimiz muhim hisoblanadi.

Qolaversa, hozirgi kunda uchuvchisiz uchish apparatlarini masofadan boshqariladigan deyarli har qanday kichik mexanizmlarni dron deb atash odatiy holga aylangan. Shu sababli biz buning kelib chiqishi, bu nima ekanligi, bu so‘zning ma’nosidan tortib, qurilma turlarigacha tanishib olishimiz zarur hisoblanadi.

Hozirda butun dunyoda Uchuvchisiz uchadigan apparatlar va dron so‘zlari bir ma’noni anglatib, ko‘plab olimlar tomonidan o‘zlarining bu borada turli hil qarashlari mavjud.

“Dron” so‘zining kelib chiqishidan oldin, bu so‘z samolyotni tasvirlash uchun ishlatilgan bo‘lib, u ikki ma’noga ega edi. Birinchisi - zerikarli shovqin, ikkinchisi - erkak ari.

Birinchi bo‘lib, “Dron” atamasini, 1936-yil Amerika dengiz floti uchunchi rang kapitani Delmar Farni o‘z hisobotida ilk bor ishlatgan va ushbu ibora keyinchalik ommalashib ketgan deyiladi[1].

Shuningdek, tilshunos va leksikograf Ben Zimmerning 2013-yildagi Wall Street Journaldagi maqolasida “Dron” so‘zining ta’rifi 1935-yillarga borib taqalalishi haqida yozib o‘tgan[2].

Maqolada aytilishicha, “dron” so‘zi De Havillandning malika arisidan olingan. Keyin etimologiya[3] (qiyosiy tarixiy tilshunoslik) Ikkinchi Jahon urushidan ko‘p o‘tmay chop etilgan boshqa maqolalarda ham takrorlanadi.

O‘sha yillari, AQSH admirali Uilyam G. Standli Britaniyaning Qirollik dengiz floti uchun o‘q otish mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan yangi uchuvchisiz samolyot namoyishini o‘tkazatadi. Bu samalyotlar De Havilland Tiger Moth “Biplan”iga asoslangan bo‘lib, u jahon urushlar orasida juda ko‘p sonda qurilgan va keyin “Queen Bee” deb nomlangan. Biplan - bu ikkita asosiy qanoti bir-birining ustiga joylashgan qo‘zg‘almas qanotli samolyot[4].

Texnika fanlari bo‘yicha expert Gleb Kochetov o‘zining “Что такое дрон” deb nomlangan maqolasida “Ingliz tilidagi “drone” so‘zi “Bumblebee, dron” degan ma’noni anglatadi. Bu qurilmaning o‘zini juda yaxshi tavsiflaydigan kichik o‘lchamlari, uchish qobiliyatini ifodalaydi. Ammo dronlarning aynan shunday nomlanishining asosiy sababi bu o‘ziga xos shovqin, parvoz paytida qurilma chiqaradigan shovqin – bu asalarilar yoki dronlar to‘dasi kabi. To‘g‘ri, dastlab bu shovqinli qurilmalar uchun ko‘proq hazil tariqasida laqabi edi. Bugungi kunda har qanday uchuvchisiz samolyot, uning maqsadi va hajmiga qaramay, dron deb nomlab kelinmoqda deb yozgan[5].

“Dron” so‘zining yanada qisqaroq tarixi va uning himoyasi “Dron” so‘zi birinchi marta 1934-yil oxiri1935-yil boshida UUAlarni tasvirlash uchun ishlatilgan, chunki pastda uchadigan “Biplan”lar asalarilar bulutiga o‘xshardi. 25 yil davomida bu so‘z faqat nishon sifatida ishlatiladigan samolyotlarga nisbatan ishlatilgan.

Dron qobiliyatlarining tavsiflari suv osti kemalariga qarshi urush, harbiy kuzatuv va klassik nishon amaliyotiga taalluqlidir. 1960-yillarda dronlar kameralarni olib yurishni o‘rgandilar, shu bilan birga, birinchi hujumchi dron ham paydo bo‘ldi. O‘sha paytda SSSR suv osti kemalariga qarshi kurashish uchun Qo‘shma Shtatlar fregat(dengiz kemasining turi)larni[6] qurishda orqada qolayotgan edi. Qadimgi kemalar to‘liq o‘lchamli vertolyotlarni tashish uchun mos emas edi. Yechim esa palubadan uchib, radardagi shubhali nuqtaga bir necha kilometr uchib, dushman suv osti kemalariga qarshi kurashish uchun boshqariladigan torpedalarni okeanga tushirishga qodir bo‘lgan “dron” edi. Bu nisbatan kichik koaksiyal (umumiy o‘qga ega) masofadan boshqariladigan vertolyot edi. U bitta torpedani kemadan 30 km masofaga sudrab borishi mumkin edi va u hamma narsani hal qiladi.

1950-yillarning oxiridan 1960-yillarning boshigacha “dron” ta’rifi qanotli raketalardan tortib kosmik kemalargacha bo‘lgan barcha uchuvchisiz uchish apparatlarini qamrab olgan holda kengaytirildi. Taxminan 1965-yilda UUA, RPV qisqartmalari paydo bo‘la boshladi. 1990-yillarning oxirida AQSh Harbiy-havo kuchlari va Markaziy razvedka

boshqarmasi Predator UUA va Hellfire raketalari bilan tajriba o‘tkazishni boshladi.

Ushbu qurilmalardan birinchi marta foydalanish 11-sentabr hujumlaridan bir necha hafta o‘tib qayd etilgan. Platforma 2001-yilda Bob Vudvord tufayli “Predator drone” nomi bilan tanilgan.

Dronlar bo‘yicha maqolalarni chop etadigan “Мир кадрокоптер” deb nomlangan saytda “Dron – bu uchuvchisiz uchish samolyotlar (UUA) yoki uchuvchisiz aviatsiya tizimlari bilan barqaror bog‘langan texnik qurilma deb ta’riflab o‘tgan. Shuningdek, u masofadan boshqariladigan yoki avtomatik parvozlarni amalga oshirishga qodir (GPS/GLONASS rejasiga asosan) bo‘lib, parvoz davomida turli xil uchastkalarni yoki obyektlarni suratga olish, balandlikdagi havo massalarining holati parametrlarini to‘plash, yerdagi vaziyatni tahlil qilish, yuklarni ma’lum bir joyga yetkazib berish, qidiruv ishlari, yuqori sifatli fotosuratlar, video materiallar va ko‘ngilochar maqsadlar uchun (kvadrokopter poygalari) va bir qator foydali harakatlar amalga oshirish imkoniyatlariga ega ekanligini keltirib o‘tilgan[7].

“Blog Elbrus Bootcamp” bosh muharriri Sofiya Pirogova o‘zining “Беспилотники и Data Science: техника и программирование искусство полета дрон и IT технологии” deb nomlangan maqolasida, “Dron-bu radio signal orqali masofadan boshqariladigan yoki ma’lum bir algoritm bo‘yicha avtonom boshqariladigan uchuvchisiz samolyot deb ta’rif bergan[8].

Texnika fanlari doktori, Akademik, Oleg Figovskiy o‘zining “Дроны – мировые направления развития” deb nomlangan maqolasida, Uchuvchisiz uchish apparati (UUA; so‘zlashuvda ishlatilishi bo‘yicha “uchuvchisiz uchish apparati” yoki “dron”, inglizcha drone so‘zidan) - bortida ekipaji bo‘lmagan samolyot deb ta’rif bergan[9].

Shuningdek, Marshall kosmik parvozlar markazi (Marshall Space Flight Center MSFC) ning akademik tadqiqotchisi R.C. McDonald o‘zining “Drones: The New Frontier in Aviation” deb nomlangan maqolasida dronlarni masofadan boshqariladigan havo apparatlari sifatida ta’riflaydi.

Amerikalik John D. Anderson aerokosmik muhandislik va aerodinamika sohalarida nufuzli, mashhur professor va tadqiqotchi o‘zining “Introduction to Flight” deb nomlangan maqolasida dronlarni havoda harakatlanadigan avtomatlashtirilgan apparatlar sifatida ta’riflaydi.

Radiotexnika va elektronika sohasidagi sovet va rus olimi, texnika fanlari doktori, Smolensk universiteti professori Vladimir Pavlovich Dyakonov o‘zining “Беспилотные летателные аппараты: военное и гражданское применение” deb nomlangan maqolasida dronlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari bilan ta’minlangan apparatlar sifatida ko‘rsatib o‘tgan.

Yuqoridagilarga, hamda, turli olimlarning qarashlarini inobatga olib, fikr mulohazalarini tahlilari natijasida dron so‘ziga mualliflik tarifimizni keltirib o‘tsak.

“Dron — bu masofadan boshqariladigan, yuqori darajada avtomatlashtirilgan, turli maqsadlarda havo, yer va suv yuzasi kabi turli muhitlarda qo‘llaniladigan robotlashtirilgan mexanizm”.

Ular odatda masofadan boshqarish, avtomatik rejimda ishlash va sensorlar orqali ma’lumot yig‘ish imkoniyatiga ega. Dronlar havo, yer va suv yuzasi kabi turli muhitlarda qo‘llaniladi va harbiy, tijorat, ilmiy tadqiqotlar, qishloq xo‘jaligi va hatto ko‘ngilochar sohalarda keng qo‘llaniladi. Ularning asosiy afzalliklari — tezlik, xarajatlar samaradorligi va inson xavfsizligini oshirishdir. Dronlar, shuningdek, yuqori aniqlikda ma’lumot yig‘ish va transportni amalga oshirish uchun zaruriy texnologiyalar bilan jihozlangan bo‘lishi mumkin.

Biz “dronlar” deb ataydigan qurilmalar aslida ikki toifaga bo‘linadi. Ba’zilari butunlay avtonom qurilma bo‘lib, u hech qanday inson aralashuvisiz uchadi. Boshqalar masofadan boshqarish pultida ishlaydi-uchuvchi yerda turib, dronning harakatlarini kuzatadi yoki xonada bo‘ladi va uni ekrandan yoki maxsus ko‘zoynaklar yordamida kuzatadi. Ikkala tur ham turli xil texnologiyalardan foydalanadi va turli xil potentsial imkoniyatlarga ega, ammo bir xil darajadagi dronlar hisoblanadi[10].


Dronlarni turli mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin: hajmi, dizayn turi, boshqarish usuli va maqsadi bo‘yicha xilma-xilligi bo‘yicha dronlarning 4 ta asosiy turi mavjud (1-rasm):

Ko‘p rotorli dronlar — bu bir nechta rotorli uchuvchi apparatlar bo‘lib, ular havoda barqarorlik va harakatchanlikni ta’minlaydi. Odatda, ular to‘rtta (kvadrokopter), oltita (geksakopter) yoki sakkizta rotorga (oktakopter) ega bo‘ladi. Harakatlar har bir dvigatelda tortishni o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Ko‘p rotorli dronlarga

Ko‘p rotorli



Samolyot ko‘rinishidagi



Bir rotorli



Gibrid



1-rasm. Dronlarning turlari

misollar: DJI Mavic, Parrot Bebop, Syma X5C;

Samolyot ko‘rinishidagi — uchish va ko‘tarish uchun oddiy samolyotlar singari qanotdan foydalanadigan dronlar. Ular tortishish kuchi bilan kurashayotganda havoda bir joyda turolmaydilar, lekin energiya manbai hisobiga, belgilangan yo‘nalishda oldinga siljishlari mumkin. Ko‘pincha samolyot bortida bo‘lgan uchuvchi tomonidan boshqariladi, ammo ba’zilari masofadan boshqarish uchun mo‘ljallangan yoki kompyuter tomonidan boshqariladi. Samolyot ko‘rinishidagi dronlarga misollar: General Atomics MQ-9 Reaper, AeroVironment rq-11 Raven, Zephyr;

Bir rotorli dron — Dizayni bo‘yicha haqiqiy vertolyotlarga o‘xshash. Ko‘p rotorli drondan farqli o‘laroq, kursni nazorat qilish uchun 1 ta katta yetakchi vint va quyruqda kichik o‘lchamli vint mavjud. Ko‘p rotorli dvigatellarga qaraganda samaraliroq: ular yuqori parvoz vaqtiga ega va ichki yonish dvigatellari tomonidan quvvatlanishi mumkin. Ammo murakkab dizayni tufayli ular yuqori narx va operatsion xarajatlarga ega. Bir rotorli dronlarga misollar: Sikorsky Cypher, Schiebel Camcopter s-100, yamaha Rmax;

Gibrid dronlar — statsionar qanotli modellarning afzalliklarini (yuqori parvoz vaqtlari) vintga asoslangan modellarning afzalliklari (uchish qobiliyati) bilan birlashtirgan uchuvchisiz samolyotlar. Uchish apparatlarining gibrid konstruksiyalari 1960 yillardan boshlab loyihalashtirilgan, ammo keyinchalik katta muvaffaqiyatga erishmagan. Biroq, yangi avlod sensorlari (giroskoplar va akselerometrlar) paydo bo‘lishi bilan strukturaning gibridligi yangi hayot va rivojlanish yo‘nalishiga ega bo‘ldi[11].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunga kelib ommaviy tarzda, dron endi harbiy uchuvchisiz uchuvchi samolyotlardan tortib kaftingizga sig‘adigan kvadrokopterlargacha bo‘lgan hamma qurilmani anglatishini ko‘rishimiz mumkin.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. История беспилотников, как летательного оружия. 9.03.2022 г. https://dzen.ru/a/Yii_3knvQBz_nToV.
2. Леонард Позолотин. Дроны-кто придумал. краткая история. https://proza.ru/2023/12/11/874.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/.
4. https://bigenc.ru/c/biplan-b5e4fc.
5. Глеб Кочетов Техно-Эксперт. Что такое дрон. 15.06.2017 г. https://dronreview.ru/chto-takoe-dron/.
6. https://kartaslov.ru.
7. https://mirquadrocopterov.ru/blog/obshhie-voprosy/chto-takoe-dron.
8. Софья Пирогова. Беспилотники и Data Science: техника и программирование искусство полета дрон и IT технологии. https://elbrusboot.camp/blog/biespilotniki-i-data-science-tiekhnika-i-proghramnie/.
9. Олег Фиговский Доктор технических наук, академик Ассоциация изобретателей Израиля, Департамент науки, технологий и образования Альянса Народов Мира. Дроны – мировые направления развития. http://figovsky.iri-as.org/%D0%94%D1%80%D0.pdf.
10. Вероника Елкина. Ex-Редактор "Историй" https://rb.ru/story/all-about-drones/.
11. https://neftegaz.ru/tech-library/aviatekhnika/676518-bespilotnye-letatelnye-apparaty-bpla-/

A.Shermuxamedov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

MAKTAB O‘QUVCHILARI TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING TURLARI VA DINAMIKASI: KRIMINOLOGIK TAHLIL

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikning turlari, dinamikasi va ularning oldini olish bo‘yicha mexanizmlarni chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqot doirasida maktab o‘quvchilari jinoyatchiligining ijtimoiy, psixologik va huquqiy omillari o‘rganilgan, shuningdek, jinoyatchilikni kamaytirish uchun maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Yoshlar o‘rtasidagi zo‘ravonlik va deviant xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarning ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: maktab o‘quvchilari, jinoyatchilik, profilaktika, ijtimoiy omillar, kriminologik tahlil, tarbiya, huquqiy savodxonlik.

Данное исследование посвящено анализу видов и динамики преступности, совершаемой школьниками в Узбекистане, а также разработке механизмов их предупреждения. В рамках работы изучены социальные, психологические и правовые факторы подростковой преступности, а также предложены рекомендации по совершенствованию механизмов взаимодействия между школой и семьёй для снижения уровня преступности. Особое внимание уделено значению воспитательных и профилактических мер, направленных на предотвращение насилия и девиантного поведения среди молодёжи.

Ключевые слова: школьники, преступность, профилактика, социальные факторы, криминологический анализ, воспитание, правовая грамотность.

This study explores the types and dynamics of crime committed by school students in Uzbekistan and develops mechanisms for its prevention. The research examines the social, psychological, and legal factors influencing juvenile delinquency and provides recommendations for enhancing collaboration between schools and families to reduce crime rates. Special emphasis is placed on the importance of educational and preventive measures aimed at curbing violence and deviant behavior among youth.

Keywords: school students, juvenile delinquency, prevention, social factors, criminological analysis, education, legal literacy.



Jahonda maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlikka oid xavf-xatarlarni baholash hamda ularga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, aniq indikatorlarni o‘zida aks ettiruvchi yoshlarmaktab o‘quvchilari o‘rtasida huquqbuzarlikka qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, maktablar va ta’lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, maktab o‘quvchilari o‘rtasida qonunbuzilishlarga va boshqa ko‘rinishdagi xulq og‘ishlarga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar bilan ishlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish, maktab o‘quvchilari o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etishning barvaqt oldini olish bo‘yicha ta’sirchan mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da «fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tarbiyasida muammolari bo‘lgan o‘quvchilarning ota-onalari bilan tushuntirish ishlarini olib borish; rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida zo‘ravonlik (buling)ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish»[1] kabi muhim vazifalar belgilangan.

Professor V.A.Lelekov zo‘ravonlikka moyillikni yuzaga keltirishda ijtimoiy muhit va oilaviy tarbiyaning yetishmovchiliklarini ta’kidlaydi. U ko‘plab maktab o‘quvchilari jinoyatchilarning ijtimoiy tartibsizlik sharoitlarida va kattalardan munosib yordam olmasdan ulg‘ayganligini ko‘rsatadi, bu deviant xatti-harakatlarning rivojlanishiga olib keladi[2].

K.E.Igoshev maktab o‘quvchilari jinoyatchining ichki dunyosini murakkab xususiyatlar va fazilatlar majmuasi sifatida tasvirlaydi, bular aniq, ko‘pincha ziddiyatli vaziyatlarda namoyon bo‘ladi va jamiyatga zid xatti-harakatlarni tanlashni belgilaydi. Uning fikricha, jinoyat shaxsning ichki psixologik sohalarining tashqi in’ikosi hisoblanadi[3].

Professor V.A.Lelekovning tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, ijtimoiy muhit va oilaviy tarbiyaning nomukammalliklari maktab o‘quvchilarining zo‘ravonlikka moyilligini kuchaytirishi mumkin. V.A.Lelekovning ko‘rsatishicha, ko‘plab yosh jinoyatchilar ijtimoiy beqarorlik sharoitlarida ulg‘ayadi va ular kattalardan yetarli qo‘llab-quvvatlovchi yordam olmaydi, bu esa ularni deviant xatti-harakatlarni qabul qilishga moyil qiladi.

Boshqa tomondan, K.E.Igoshevning tadqiqotlari maktab o‘quvchilari jinoyatchilarning ichki dunyosini murakkab xususiyatlar va fazilatlar majmuasi sifatida ko‘rsatadi, bu xususiyatlar aniq va ko‘p hollarda ziddiyatli vaziyatlarda namoyon bo‘lib, jamiyatga zid harakatlarni tanlashni belgilaydi. K.E.Igoshevga ko‘ra, jinoyat shaxsning ichki psixologik sohalarining tashqi realizatsiyasi hisoblanadi.

Ushbu ikki qarash orasidagi farq shundaki, V.A.Lelekov asosan tashqi omillarga e’tibor qaratgan bo‘lsa, K.E.Igoshev shaxsning ichki dunyosi va uning psixologik dinamiklariga ko‘proq urg‘u beradi. V.A.Lelekovning tadqiqotlarida oilaviy va ijtimoiy muhitning roli ta’kidlanadi, K.E.Igoshev esa shaxsiy xususiyatlar va ularning jinoyat qilishga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini urganadi.

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan zo‘ravonlik jinoyatlari turlari va ularning xarakterli xususiyatlari haqida A.I.Osinsev shunday ta’kidlaydi: «Zo‘ravonlik jinoyatlari yoshlar jinoyatchiligi tuzilmasining asosiy turlaridan biri hisoblanib, ular ko‘p hollarda iqtisodiy manfaatga ega va guruhli xarakterda bo‘ladi»[4] . Zo‘ravonlik jinoyatlarining kelib chiqish omillari to‘g‘risida qatori mualliflar shunday deydi: «Iqtisodiy nobarqarorlik, oilaviy muhitning salbiyligi, ta’lim tizimidagi kamchiliklar va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan salbiy ma’lumotlar yoshlar tomonidan zo‘ravonlik sodir etilishiga asosiy sabablardan biri bo‘lib qolmoqda»[5]. Shu bilan birga, ayrim hollarda, zo‘ravonlik yoshlar o‘rtasidagi shaxsiy nizolar, psixologik bosim yoki o‘zaro raqobat tufayli ham sodir etilishi mumkin. Demak, yoshlar jinoyatchiligida iqtisodiy omillardan tashqari, jamiyatdagi psixologik,

ijtimoiy va madaniy muammolar ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2023 yilda deyarli 3600 nafarni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich besh yil ichida 4,4 barobarga oshgan. Bu o‘sish dinamikasi, ayniqsa turli jinoiy harakatlarning ko‘payishi bilan birga kelganini ko‘rsatadi. Bir yil davomida talon-taroj jinoyatlarida 70% ga oshish, bezorilikda 60% ga, ataylab og‘ir tan jarohati yetkazishda 40% ga va zo‘rlash hamda zo‘rlashga urinish jinoyatlarida 20% ga oshish kuzatilgan. Bu ma’lumotlar voyaga yetmaganlar orasida zo‘ravonlik va jiddiy jinoiy harakatlarning ortib borayotganini ko‘rsatadi[6].

O‘zbekistonda 13-15 yoshli o‘smirlar o‘rtasidagi jinoyatchilik dinamikasi jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu yoshdagi jinoyatchilarning umumiy jinoyatchilar soniga nisbatan ulushi ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Masalan, 2010 yilda 13-15 yoshli jinoyatchilarning umumiy jinoyatchilar soniga nisbati 0,5% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich 0,8% ga yetgan. Bu o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilik darajasining oshishiga ishora qilib, yoshlar orasidagi jinoyatchilikning umumiy jinoyatchilikka bo‘lgan salmog‘i ortganini ko‘rsatadi.

Tendensiyalar tahlil qilinganda, 2010-2017 yillar davomida ushbu ko‘rsatkich asosan barqaror qolib, 0,5% atrofida bo‘lgan. Biroq, 2018 yilda ushbu ulush kamayib, 0,4% ga tushgan, bu esa yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning vaqtinchalik pasayishiga ishora qiladi. Shu bilan birga, 2021 yildan boshlab, bu ko‘rsatkich qaytadan o‘sishga yuz tutgan va 2022-2023 yillarda 0,8% ni tashkil etgan [7].

Ushbu o‘zgarishlar o‘smirlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish uchun tarbiyaviy, profilaktik va ma’naviy yordam choralarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Jamiyatda o‘smirlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, o‘quv muassasalarida tartib-intizomni yaxshilash va jinoyatchilikka qarshi kompleks choralar qabul qilish, shuningdek, profilaktika dasturlarini ishlab chiqishga ehtiyoj borligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikning umumiy jinoyatchilikka nisbati oxirgi yillarda ortib bormoqda. Bu holat jinoyatchilikning oldini olish va profilaktik chora-tadbirlar kuchaytirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu ma’lumotlar kelgusida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni kamaytirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilish uchun muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda 16-17 yoshli o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilik darajasining umumiy jinoyatchilikka nisbatan ulushi ortib borishi kuzatilmoqda. 2010 yilda 16-17 yoshli jinoyatchilar umumiy jinoyatchilar soniga nisbatan 2,3% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 3,2% ga yetgan. Bu o‘smirlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning ulushi va umumiy jinoyatchilikdagi salmog‘i keskin ortib borayotganligini tasdiqlaydi.

Tendensiyalarni tahlil qilsak, 2010–2017 yillar davomida 16-17 yoshli jinoyatchilarning umumiy jinoyatchilar soniga nisbatan ulushi barqaror bo‘lib, 1,7% atrofida saqlangan. Bu davrda yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning nisbatan past darajada bo‘lgani kuzatilgan. Ammo, 2020 yildan boshlab, ushbu ko‘rsatkich oshishga yuz tutgan, 2023 yilda esa eng yuqori ko‘rsatkich — 3,2% qayd etilgan[7].

Ushbu holat yoshlar tarbiyasidagi muammolar, ijtimoiy omillar va psixologik bosimlar yoki ta’limdagi tartib-intizomning susayishi kabi omillarning o‘smirlar o‘rtasidagi jinoyatchilikka ta’sirini chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashishda o‘smirlarning ijtimoiy munosabatlarini yaxshilash, ularni jinoiy yo‘lga kirib qolishdan asrash maqsadida profilaktika ishlarini kuchaytirish zarur. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi maqsadli chora-tadbirlar qabul qilish, ularning ma’naviy va axloqiy tarbiyasini kuchaytirish hamda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Yosh guruhlariga ko‘ra, 13–15 yosh oralig‘idagi voyaga yetmaganlar soni 744 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 16–17 yoshlilar soni ancha yuqori bo‘lib, 2855 kishiga yetgan. Bu katta yoshdagi o‘smirlar orasida jinoiy xatti-harakatlarning ko‘proq uchrashi muammoning yoshga bog‘liq jihatlarini ko‘rsatadi. Umumiy miqdordan 744 kishi 13–15 yosh oralig‘ida, 2855 kishi esa 16–17 yoshda edi. Qizlar ulushi 8,7% ni tashkil etdi — 314 kishi.

Yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, 13–15 yoshdagi bolalar orasida jinoyatchilik darajasi

kamroq, bu ularning jinoyatga moilliklari nisbatan past bo‘lishi bilan bog‘liq. Biroq, 16–17 yoshlilar orasida jinoyat sodir etish holatlari ko‘proq bo‘lib, bu yoshlar o‘rtasidagi jinoiy faoliyatning o‘sishini anglatadi. Bu ma’lumotlar kelgusida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni kamaytirish uchun strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar va o‘rganishlarimizga ko‘ra yoshlar jinoyatlarining hudud kesimida asosiy salmog‘i, ya’ni (61,8 foiz) respublikaning besh hududi, ya’ni Farg‘ona (4 125 ta), Toshkent shahar (3 562 ta), Toshkent (2 215 ta), Surxondaryo (1 489 ta), Namangan (1 539 ta) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar tahlili, maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar so‘nggi besh yil 4,4 barobarga o‘sganligini ko‘rsatmoqda. 2023 yilda 13 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan 3599 ta jinoyat qayd etilgan. Ma’lumotlar tahlili O‘zbekistonning barcha hududlarida maktab o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilik o‘sishi kuzatilgan. Eng ko‘p jinoyatlar Farg‘ona viloyatida (700 kishi), Toshkent shahrida (545 kishi), Namangan viloyatida (451 kishi) va Toshkent viloyatida (345 kishi) sodir etilmoqda. Eng past ko‘rsatkichlar Jizzax viloyati (54 kishi), Navoiy viloyati (62 kishi) va Xorazm viloyati (66 kishi)da kuzatilmoqda[8].

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan eng ko‘p uchraydigan jinoyat turlariga quyidagilar kiradi:

• O‘g‘rilik: 2023 yilda 1602 nafar voyaga yetmaganlar o‘g‘rilik sodir etgan, bu 2022 yilga nisbatan 1,3% ko‘proq.

• Bezorilik: 453 ta holati qayd etilgan, bu 2022 yilga nisbatan 60% ko‘proq.

• Firibgarlik: 135 nafar voyaga yetmaganlar firibgarlik sodir etgan, bu 2022 yilga deyarli mos keladi.

• Talonchilik va bosqinchilik: 2023 yilda 181 ta holati qayd etilgan, bu 2022 yilga nisbatan 11% ko‘proq.

• Qasddan og‘ir tan jarohati yetkazish: Bu turdagi jinoyatlar 2022 yilga nisbatan 40% ga o‘sgan, 104 ta holat qayd etilgan.

• Nomusga tegish va nomusga tegishga suiqasd: 2023 yilda 54 ta shunday jinoyat qayd etilgan, bu 2022 yilga nisbatan 20% ko‘proq.

• Tovlamachilik: 2023 yilda 27 nafar voyaga yetmaganlar jinoyatni sodir etgan, bu 2022 yilga nisbatan 70% ko‘proq.

• Qasddan odam o‘ldirish va odam o‘ldirishga suiqasd qilish: Bu turdagi jinoyatlar 2022 yilga nisbatan 20% ga o‘sgan, 12 ta holat qayd etilgan.

Jinoyat turlari bo‘yicha eng ko‘p voyaga yetmaganlar, ya’ni 1602 kishi o‘g‘irlik jinoyatini sodir etgan, o‘tgan yili — 1581 nafar voyaga yetmagan. (Bu holat jamiyatda yoshlar o‘rtasidagi iqtisodiy muammolar va ijtimoiy nazoratning yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi). Ikkinchi o‘rinda bezorilik jinoyati (453 nafar) bo‘lib, u o‘tgan yilga nisbatan 60% ga oshgan. (Bezorilikning bunday keskin o‘sishi yoshlar o‘rtasidagi agressivlik va jamoat joylarida tartibsizlikning ko‘payishi bilan bog‘liq. Bu holatda tarbiyaviy tadbirlar va ijtimoiy ishlarga ko‘proq e’tibor berish zarur). Keyingi o‘rinda - firibgarlik 135 kishi (134), talonchilik va bosqinchilik sodir etganlar soni 181 nafarga yetgan, bu esa o‘tgan yilga nisbatan 11% ga oshgan. (Bunday jinoyatlarning o‘sishi voyaga yetmaganlarning jinoiy guruhlarga qo‘shilishi va zo‘ravonlikning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatishi mumkin). 104 kishi qasddan og‘ir tan jarohati yetkazish jinyaotini sodir etgan (74, +40%). (Bu holat yoshlar o‘rtasidagi agressiya va ziddiyatlarning kuchayishi bilan bog‘liq). Shuningdek, 54 kishi nomusga tegish va nomusga tegishga urinish (46, +20%), 27 voyaga yetmagan tovlamachilik (16,+70%) 12 voyaga yetmagan qasddan odam o‘ldirish va unga suiqasd (10, +20%) sodir etgan. Shuningdek, 57 nafar voyaga yetmaganlar giyovandlik vositalarini tayyorlash yoki o‘tkazish, 121 kishi o‘limsiz YTH kabi jinoyatlar sodir etgan[8].

Keltirilgan ma’lumotlar tahlilidan kelib chiqib, O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari orasida jinoyatchilik ortib borayotganligini ko‘rish mumkin. Xususan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 4,4 barobarga o‘sgani juda tashvishli holat. Bu o‘sishning turli hududlarda kuzatilishi maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi jinoyatchilik muammosi jamiyatda keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Xususan,

Hududiy tafovutlar: Farg‘ona viloyati, Toshkent shahri, Namangan viloyati va Toshkent viloyatida jinoyatlar soni eng yuqori bo‘lib, bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, aholining zichligi va nazorat masalalariga e’tibor qaratish zarur. Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida esa

jinoyatchilik ko‘rsatkichlari ancha past. Bu hududlardagi axloqiy-tarbiyaviy ishlar samarali bo‘lishi mumkin.

Jinoyat turlari: O‘g‘rilik, bezorilik, firibgarlik, talonchilik, qasddan tan jarohati yetkazish kabi jinoyatlar yoshlar orasida eng ko‘p uchraydigan jinoyat turlari hisoblanadi. 2023 yilda o‘g‘rilik 1 602 ta holat qayd etilgan bo‘lib, bu turdagi jinoyatlar yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Jinoyat turlari o‘sishi: Bezorilikning 60% ga, qasddan tan jarohati yetkazishning 40% ga va zo‘rlashning 20% ga oshganligi yoshlar orasidagi zo‘ravonlik holatlarining ham ortib borayotganligini anglatadi. Bunda yoshlar o‘rtasida axloqiy qadriyatlar yetishmasligi va ularga nisbatan nazoratning kuchsizligi katta rol o‘ynashi mumkin.

Nosog‘lom muhit va ijtimoiy omillar: Maktab o‘quvchilari tomonidan jinoyat sodir etishning asosiy sabablaridan biri oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va ta’lim tizimidagi kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yoshlar orasidagi bunday jinoyatlarning oldini olish uchun jamiyatdagi nazorat va tarbiyaviy ishlarga e’tibor berish muhimdir.

Ushbu tahlillar yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashda ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordam dasturlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu jarayonda maktab, oila va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jinoyatlarning 60 foizi (1 367) mulkiy turdagi jinoyatlarni tashkil etib, deyarli har ikkinchi jinoyat (971) ko‘cha va jamoat joylarida sodir etilgan.

Jinoyatlarning ko‘pchiligi mulkiy turdagi jinoyatlardan iborat bo‘lib, ularning katta qismi ko‘cha va jamoat joylarida sodir etilgan. Bunday vaziyat jamoat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, voyaga yetmaganlar orasida jinoiy faollikning o‘sishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yoshlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, profilaktik tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, afsuski, voyaga yetmaganlar orasida o‘ta og‘ir jinoyatlar, jumladan, qotillik, og‘ir tan jarohati yetkazish, zo‘rlash, talonchilik, qo‘rqitish, bezorilik, o‘g‘rilik, giyohvand moddalar iste’mol qilish yoki sotish kabi holatlar tez-tez uchrab turadi.

Tahlildan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Darslardan keyingi nazorat yetishmasligi – maktab o‘quvchilari darslardan keyin va kechki paytlarda nazoratsiz qolgan vaqtda ko‘proq jinoyat sodir etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun ta’lim muassasalari va ota-onalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik kuchaytirilishi kerak. Yoshlar uchun mazmunli va tarbiyaviy samarali bo‘sh vaqt faoliyatlarini tashkil etish muhim.

2. Notinch oilalarning ta’siri – oilaviy muhitning salbiy ta’siri yoshlarning xulq-atvoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Oilaviy muammolar, ota-ona o‘rtasidagi nizolar, tarbiyadagi kamchiliklar yoshlarning jinoyatga moyilligini oshiradi. Bunday oilalarda yoshlar uchun psixologik va ijtimoiy yordam dasturlarini tashkil etish zarur.

3. Profilaktika va tarbiya ishlarini kuchaytirish – maktabdan tashqari vaqtlarda jinoyatchilikning oldini olish uchun qo‘shimcha tarbiyaviy choralar ko‘rish zarur. Buning uchun yoshlarni ijtimoiy va sport faoliyatlariga jalb etish, ularni jamiyatga foydali ishlar bilan band qilish lozim.

Tahlillarga ko‘ra, maktab o‘quvchilari orasidagi jinoyatlarning oldini olish uchun tarbiyaviy ishlarga, oilaviy qo‘llab-quvvatlashga va ta’lim muassasalari bilan ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikka jiddiy e’tibor berish kerak.

Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning dinamikasi va ko‘lami aholining ijtimoiy ahvoli, ta’lim muassasalaridagi vaziyat va umumiy qonunbuzarliklar profilaktikasidagi kamchiliklar bilan bog‘liq. Bu vaziyatni yaxshilash uchun tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish va jamoat xavfsizligi yo‘nalishidagi siyosatni kuchaytirish lozim.

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar:

1. Maktab o‘quvchilarini ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish, jinoyatchilikdan uzoqlashtirish va ularga ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga yordam berish maqsadida maktab o‘quvchilari uchun ijtimoiy mehnat dasturlarini joriy etish. Yoshlar uchun maxsus tashkil etilgan mehnat dasturlari doirasida ularga ekologik, ijtimoiy va madaniy loyihalarda ishtirok

etish imkoniyatini yaratish. Masalan, parklar va bog‘larni tozalash, mahalliy jamoatchilik markazlarida ko‘ngilli ishlar, yoshlar va keksalar bilan ishlash kabi faoliyatlar orqali yoshlar ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanadi. Har bir loyihaga yoshlarning qiziqishlariga mos ravishda turli faoliyatlar kiritish. Masalan, san’atga qiziquvchi yoshlar uchun ijodiy ustaxonalar, sportga qiziquvchilar uchun sport tadbirlarini tashkil etish. Dasturda ishtirok etgan yoshlarni rag‘batlantirish maqsadida ularga turli sertifikatlar va mukofotlar berish. Bu yoshlarning dasturlarda ishtirok etishga qiziqishini oshiradi va ularning ijtimoiy mehnatga bo‘lgan munosabatini yaxshilaydi. Ishtirokchilarni dasturdagi faolligiga qarab ijtimoiy foydali mehnat sohasidagi muvaffaqiyatlarini ta’kidlash va ularni jamoatchilikka tanitish.

2. Maktab o‘quvchilarini internetda uchraydigan xavflardan himoya qilish, ularning kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish, va ularning raqamli dunyodagi mas’uliyatini shakllantirish maqsadida maktab o‘quvchilari uchun internet xavfsizligi bo‘yicha maxsus dasturlarni joriy etish:

a) maktablarda va o‘quv yurtlarida internet xavfsizligi bo‘yicha majburiy ta’limiy dasturlarni joriy etish. Bu dasturlar orqali yoshlarga internetdagi xavflar, kiberbuling, fishing, zararli dasturlar va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha ma’lumot berish mumkin;

b) pedagoglar, psixologlar va kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar ishtirokida yoshlar uchun maxsus treninglar tashkil etish. Bu treninglar yoshlarga internetda qanday xavflar mavjudligini tushuntirish va ulardan himoyalanish usullarini o‘rgatishga qaratilgan bo‘ladi.

v) yoshlar va ularning ota-onalari uchun internet xavfsizligi bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan veb-saytlar va mobil ilovalar yaratish. Bu resurslar orqali yoshlar kiberxavfsizlik qoidalari haqida ma’lumot olishlari va xavfli vaziyatlarda qanday yo‘l tutish kerakligi haqida maslahatlar olishlari mumkin;

g) veb-saytlar va ilovalarda interaktiv o‘yinlar va viktorinalar orqali yoshlarning internet xavfsizligi haqidagi bilimlarini sinovdan o‘tkazish va ularni mustahkamlash;

d) maktablarda va o‘quv yurtlarida internet filtrlari va monitoring dasturlarini joriy etish. Bu yoshlarni zararli kontentdan himoya qilish va ularning internet faoliyatini nazorat qilish imkonini yaratadi. Ota-onalarga farzandlarining internet faoliyatini nazorat qilishga yordam beradigan maxsus dasturlar va vositalar taklif qilish.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // https://lex.uz/docs/4312785

2. Lelekov V.A. Mexanizm formirovaniya i kriminologicheskie osobennosti lichnosti nesovershennoletnix, sovershivshix prestupleniya korыstno-nasilstvennoy napravlennosti // https://cyberleninka.ru/article/n/mehanizm-formirovaniya-i-kriminologicheskie-osobennosti-lichnosti-nesovershennoletnih-sovershivshih-prestupleniya-korystno/viewer

3. Igoshev K.E. Tipologiya lichnosti pre stupnika i motivatsiya prestupnogo povedeniya. — Gorkiy, 1974. — 124 s.

4. Osinsev A.I. Kriminologicheskoe obespechenie profilaktiki prestupnosti nesovershennoletnix: dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk. — Krasnodar: Kubanskiy gosudarstvennыy universitet, 2000. — 182 s. https://www.dissercat.com/content/kriminologicheskoe-obespechenie-profilaktiki-prestupnosti-nesovershennoletnikh

5. Titova O.N. Kriminologicheskie aspektы minimizatsii sotsialnыx posledstviy prestupnosti nesovershennoletnix: dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk. — Moskva: Moskovskiy universitet MVD Rossii, 2005. — 199 s

6. https://stat.uz/ru/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=425&id=3142&Itemid=1000000000000

7. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3440.pdf

8. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2

Ashurova Nilufar O‘ktamovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, yu.f.f.d. (PhD)

VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA MANFAATLARI MUHOFAZASINING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Muallif xalqaro himoya mexanizmining asosiy yo‘nalishlari, bolalarning huquqiy maqomi va ularning himoyasi mexanizmlarini yaratish zaruratini ko‘rsatib o‘tgan. Bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Bolalar huquqlari, xalqaro himoya, huquqiy mexanizmlar, milliy qonunchilik, xalqaro standartlar.

В статье анализируются международно-правовые основы защиты прав и интересов несовершеннолетних. Автор рассматривает ключевые направления международной защиты, необходимость разработки механизмов правовой защиты детей и их правового статуса. Особое внимание уделяется обеспечению согласованности между национальным законодательством и международными стандартами в защите прав детей.

Ключевые слова: Права ребенка, международная защита, правовые механизмы, национальное законодательство, международные стандарты.

This article analyzes the international legal foundations for the protection of the rights and interests of minors. The author examines key aspects of international protection, the necessity of developing legal protection mechanisms, and the legal status of children. Special emphasis is placed on ensuring coherence between national legislation and international standards in the protection of children’s rights.

Keywords: Children’s rights, international protection, legal mechanisms, national legislation, international standards.



Voyaga etmaganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish inson huquqlari sohasidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy xalqaro huquq voyaga etmaganlar huquqlarini himoya qilish uchun bir qator huquqiy mexanizmlar, xalqaro shartnomalar va boshqa normativ hujjatlarni shakllantirgan.

Bolalar o‘zlarining jismoniy va aqliy rivojlanmaganligi sababli maxsus himoya va g‘amxo‘rlikka, shuningdek, tegishli huquqiy himoyaga muhtoj. Ushbu prinsip shaxsning to‘liq va uyg‘un rivojlanishini ta’minlash maqsadida 1959 yildagi Bolalar huquqlari deklaratsiyasida mustahkamlangan. Bunda milliy va xalqaro darajada chora-tadbirlar ko‘riladi. Birinchi navbatda, bu choralar huquqning tartibga soluvchi va muhofaza qiluvchi normalarida o‘z aksini topadi.

Bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilashda xalqaro hamkorlikning ahamiyatini tan olgan holda, davlatlar xalqaro hujjatlarni qabul qiladilar va ratifikatsiya qiladilar. Bular qatoriga 1989 yildagi Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya, 1993 yildagi Xalqaro farzandlikka olish bo‘yicha bolalarni himoya qilish va hamkorlik to‘g‘risidagi konvensiya, 2000 yildagi Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga bolalar savdosi, bolalar fohishaligi va bolalar pornografiyasiga oid Fakultativ protokol va boshqalar kiradi.

Zamonaviy xalqaro bolalar huquqlarini himoya qilish tizimi (inson huquqlarini xalqaro himoya qilishning tarkibiy qismi sifatida) Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida shakllangan bo‘lib, uning asosiy tamoyillaridan biri har qanday diskriminatsiyasiz inson huquqlari va erkinliklariga hurmat ko‘rsatishni e’lon qilish bo‘ldi.

1945 yildan boshlab inson huquqlarini xalqaro himoya qilish evolyusiyasi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oldi. Bu bo‘linish professor S.V.Chernichenkoning «Xalqaro huquq nazariyasi»[1] asarida bayon qilingan tasnif asosida shakllangan.

Birinchi bosqich (1945 yildan 1980-yillarning boshigacha). Bu davr inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni yig‘ish jarayoni bilan xarakterlanadi.

BMT Ustavining qabul qilinishi (1945 y.). BMT Ustavi inson huquqlariga hurmat qilish prinsipini umumiy tarzda mustahkamladi. Ustavga ko‘ra, tashkilotning maqsadlaridan biri «inson huquqlari va asosiy erkinliklarga hurmatni rasa, jins, til va din farqisiz rag‘batlantirish va rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish»dan iborat (1-modda, 3-b.).

Inson huquqlarini tizimli mustahkamlash. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosiy inson huquqlari ro‘yxatini va ularning mazmunini belgilab berdi. Ushbu huquqlar 1966 yildagi Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlarda huquqiy mustahkamlashga ega bo‘ldi. Ushbu hujjatlar bilan birgalikda deklaratsiya Inson huquqlari deklaratsiyalar majmuasini (Bill o pravax cheloveka) tashkil qildi.

Hujjatlarni detallashtirish va konkretlashtirish. 1980-yillarga kelib, inson huquqlarini qo‘llashning muhim sohalarini qamrab olgan 80 dan ortiq xalqaro shartnomalar ishlab chiqildi. Bu jarayon asosiy xalqaro standartlar tizimi shakllanganligini ko‘rsatadi[2]. Biroq, inson huquqlarini xalqaro himoya qilishning to‘liq shakllanishi jarayoni yakunlanmagan.

Ikkinchi bosqich (1980-yillardan boshlab). Bu bosqich inson huquqlari sohasida to‘plangan standartlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan xalqaro nazorat mexanizmlari va protseduralarning o‘sishi bilan xarakterlanadi.

Nazorat mexanizmlari va protseduralarining shakllanishi. Ilgari ham nazorat mexanizmlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, ularning tizimli ravishda yaratilishi tendensiyasi aynan 1980-yillarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Professor Chernichenko ta’kidlaganidek, bu holat davlatlararo munosabatlarni institutsionallashtirishga intilishni aks ettiradi[2].

Institutsional rivojlanish. Bu bosqichda inson huquqlarini xalqaro himoya qilish tizimidagi turli institutlar va mexanizmlar samaradorligini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar yanada faollashdi.

Ushbu jarayonlar inson huquqlarini xalqaro himoya qilish tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. Shunday bo‘lsa-da, bu jarayon to‘liq yakunlanmagan va hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Xalqaro bolalar huquqlarini himoya qilish inson huquqlarini xalqaro himoya qilishning tarkibiy qismi hisoblanadi, shuning uchun unga mazkur sohaning deyarli barcha qoidalari tatbiq etiladi. Shu bilan birga, bolalar huquqlariga doir masalalarni inson huquqlarini himoya qilish

doirasida mustaqil predmet sifatida ajratish ob’ektiv sabablar bilan bog‘liq. Birinchidan, bir qator tarixiy shart-sharoitlar natijasida bolalarning ijtimoiy maqomi kattalarga nisbatan past bo‘lib, bolalar huquqlarini xalqaro himoya qilish ularga kattalar bilan teng huquqlar va imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Ikkinchidan, jismoniy va aqliy etilishmaganligi tufayli bolalarga maxsus huquqlar va qo‘shimcha himoya taqdim etilishi zarur[3].

Bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonun chiqaruvchilik faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan:

1. Inson huquqlari bo‘yicha universal deklaratsiyalar va konvensiyalarda bolalar huquqlarini mustahkamlash.

Bu yo‘nalishda bolalar huquqlari umumiy inson huquqlari tizimidagi hujjatlarda aks ettirilgan, jumladan:

o 1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi,

o 1966 yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt,

o 1966 yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi pakt.

2. Bolalar bilan bog‘liq ayrim ijtimoiy guruhlarning huquqlarini yoki muayyan munosabatlar sohasini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarda bolalar huquqlarini mustahkamlash.

Bunda bolalar huquqlari yoki ular bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy guruhlar (masalan, ayollar, qochqinlar) yoki muayyan sohalar (oilaviy huquq, mehnat huquqi, ta’lim) bo‘yicha xalqaro shartnomalar orqali mustahkamlangan:

o 1954 yildagi Apatridlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya,

o 1979 yildagi Ayollarga nisbatan barcha turdagi diskriminatsiyani tugatish to‘g‘risidagi konvensiya,

o 1962 yildagi Nikohga rozilik, nikoh yoshi va nikohlarni ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi konvensiya,

o 1999 yildagi XMTning Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularni zudlik bilan bartaraf etish bo‘yicha harakat to‘g‘risidagi konvensiyasi.

3. Faqat bolalar huquqlarini tartibga soluvchi deklaratsiyalar va konvensiyalarni ishlab chiqish.

Bu yo‘nalishda bolalar huquqlari maxsus hujjatlarda batafsil bayon etilgan, jumladan:

o 1959 yildagi Bolalar huquqlari deklaratsiyasi,

o 1989 yildagi Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya[4].

Ushbu hujjatlar bolalarning huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishning mustahkam huquqiy asosini shakllantirgan.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, bolalar huquqlarini xalqaro himoya qilishga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Bolalar huquqlarini xalqaro himoya qilish — bu bolalarning huquqlarini ta’minlash maqsadida xalqaro standartlarni ishlab chiqish va davlatlar tomonidan ushbu huquqlarga rioya etilishini nazorat qilish uchun maxsus mexanizmlarni yaratish orqali himoyani amalga oshiradigan xalqaro organlar va protseduralar tizimidir.

Voyaga etmaganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalariga asoslanadi. Ushbu sohadagi asosiy huquqiy hujjatlar qatoriga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (1989), va BMTning boshqa rezolyusiyalari kiradi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (BHK) voyaga etmaganlarning huquqlarini muhofaza qilishning eng muhim xalqaro hujjatidir. Konvensiya 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan va 1990 yilda kuchga kirgan. Unda bolalar huquqlari, shu jumladan, ularning hayoti, rivojlanishi, himoya va ishtirokiga doir qoidalar belgilangan. Konvensiyaning 2-moddasiga ko‘ra, bolalar irqi, jinsi, tili, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, bir xil huquqlarga ega. Konvensiyaning 3-moddasi esa bola manfaatlarini ustuvor qo‘yish tamoyilini mustahkamlaydi.

Olimlar Konvensiyaning qoidalarini keng ko‘lamda tahlil qilishgan. Masalan, T.M.Boyle bolalar huquqlarini himoya qilishda davlatlarning majburiyatlari va xalqaro jamoatchilikning rolini yuqori baholaydi. Uning fikriga ko‘ra, Konvensiya bolalarni himoya qilish bo‘yicha «eng keng qamrovli va universal hujjat»dir. Shu bilan birga, ba’zi olimlar, jumladan, N.X. Pille, Konvensiyaning ba’zi qoidalarini murakkab deb hisoblaydi va uni amaliyotda qo‘llashda muammolar yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Qator olimlar ta’kidlaganidek, inson huquqlarini xalqaro himoya qilish sohasiga «inson huquqlari bo‘yicha davlatlararo kelishuvlar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek, ularni amalga oshirishga ko‘maklashish»[5] kiradi.

A.P.Movchan, masalan, «xalqaro himoya» tushunchasini davlatlarning inson huquqlari va asosiy erkinliklarga umumiy hurmatni rag‘batlantirish va ularga rioya etishga ko‘maklashish bo‘yicha xalqaro hamkorligi deb tushunadi. U qayd etganidek, inson huquqlarini xalqaro himoya qilish faoliyati quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: inson huquqlari bo‘yicha umumiy tavsiyalarni ishlab chiqish; ushbu sohada xalqaro kelishuvlar tayyorlash; davlatlarning inson huquqlari bo‘yicha o‘z xalqaro majburiyatlarini bajarilishini tekshirish uchun maxsus mexanizm yaratish[6].

Belorus olim L.V.Pavlova ham ta’kidlaganidek, xalqaro huquqshunoslar orasida «xalqaro himoya» atamasining ta’rifini belgilash borasida yagona yondashuv mavjud emas[7].

Osipova T.V., Pochivalova J.G., Kolyada O.V. bolalar huquqlarini himoya qilish masalasini Rossiya va xalqaro darajada keng tahlil qilib, uning dolzarbligini ta’kidlaydilar. Mualliflar fikriga ko‘ra, bolalar har doim jamiyat va davlat tomonidan maxsus himoya va g‘amxo‘rlikka muhtoj bo‘lib, ularning huquqlarini himoya qilish nafaqat yuridik, balki ijtimoiy va pedagogik yondashuvni ham talab qiladi. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining ahamiyati alohida qayd etilgan bo‘lib, uning to‘rt asosiy tamoyili – bolalarning yashashi, rivojlanishi, himoya qilinishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi – bolalar huquqlarini ta’minlashda muhim hisoblanadi. Mualliflar bolalar huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy kontekstida qashshoqlik, ijtimoiy etimlik, zo‘ravonlik va bolalar mehnatining ekspluatatsiya qilinishi kabi muammolarni hal qilish zarurligini ta’kidlaydilar. Rossiyadagi tajribani tahlil qilar ekan, ular “Detstvo” dasturi, yuridik klinikalar faoliyati va jamiyat tashabbuslarining ahamiyatini ko‘rsatadilar. Shuningdek, bolalarni huquqiy ta’lim bilan ta’minlash orqali ularning huquqiy savodxonligini oshirish va qiyin vaziyatlarda o‘zini himoya qilish imkoniyatlarini kuchaytirish zarurligi aytiladi. Huquqiy savodxonlik bo‘yicha darslarni tashkil etish va o‘qituvchilarning huquqiy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan. Mualliflarning tadqiqoti bolalar huquqlarini himoya qilishda yuridik, ijtimoiy va pedagogik yondashuvlarni birlashtirish orqali samarali strategiyani ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bo‘lib, xalqaro huquqiy asoslar va milliy qonunchilik o‘rtasida o‘zaro aloqani mustahkamlashda muhim manba hisoblanadi[8].

O.V.Butko o‘z tadqiqotida bolalarning huquqiy maqomi va uni himoya qilish usullarini chuqur tahlil qilgan. Muallif bolalarning huquqiy maqomini muayyan yosh doirasida inson huquqlaridan kelib chiqib belgilaydi. U bolalar huquqlarining tabiati va murakkabligini ta’kidlab, har bir bola huquqi bir-biri bilan bog‘liq huquqiy vakolatlar tizimidan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilish mexanizmini muallif «ijtimoiy va huquqiy vositalarning o‘zaro ta’sir etuvchi tizimi» sifatida baholaydi, bu vositalar bolalarning huquqlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

O.V.Butko bolalar huquqlarining himoyasiga alohida e’tibor qaratadi, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarga, jumladan, ijtimoiy etimlar va nogiron bolalarga. Muallifning fikricha, bolalar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmini yaratish uchun milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash muhim. Shuningdek, bolalarning huquqiy bilimlarini oshirish va ularga o‘z huquqlarini amalda himoya qilish yo‘llarini o‘rgatish orqali huquqiy savodxonlikni kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

Muallif o‘z izlanishlarida bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha umumiy yondashuvlarni, shu jumladan, pedagogik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ham tahlil qilgan. Uning tadqiqoti bolalarning huquqiy maqomi va ularni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, milliy va xalqaro huquqni integratsiyalashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi[9].

V.I.Abramov o‘z tadqiqotlarida bolalar huquqlarini himoya qilishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tahlil qilgan. U bolalar huquqlarini himoya qilishni bolalarning sub’ektiv huquqlarini amalga oshirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida ta’riflaydi. Muallifning fikricha, bolalar huquqlarini himoya qilish mexanizmi ijtimoiy va huquqiy vositalarning o‘zaro ta’siriga asoslangan bo‘lib, uning asosiy vazifasi bolalarning huquqlari va manfaatlarini samarali himoya qilishni ta’minlashdir.

V.I.Abramov bolalarning huquqiy maqomi va ularning huquqlarini amalga oshirishda

milliy qonunchilik va xalqaro normalarning o‘zaro muvofiqligi muhimligini ta’kidlaydi. Muallif bolalarning asosiy shaxsiy huquqlari (yashash, ta’lim olish, himoya va rivojlanish huquqlari) barcha boshqa huquqlarning asosi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi. U bolalar huquqlarini himoya qilishda davlat organlari, jamiyat va oila o‘rtasida samarali hamkorlik zarurligini qayd etadi.

Shuningdek, V.I.Abramov bolalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bolalarga o‘z huquqlari va burchlarini o‘rgatish orqali ularning o‘zini himoya qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim ekanligi ko‘rsatilgan. Muallifning tadqiqoti bolalar huquqlarini himoya qilishning nazariy asoslarini takomillashtirishga va amaliy mexanizmlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, milliy va xalqaro huquqni muvofiqlashtirish masalasida muhim manba hisoblanadi[10].

S.A.Sorokina o‘z tadqiqotida bolalar huquqlarini himoya qilishning oilaviy qonunchilik va BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi asosidagi huquqiy jihatlarini chuqur o‘rgangan. Muallif bolalar huquqlarini himoya qilishni huquqiy va ijtimoiy vositalarning o‘zaro ta’siri sifatida baholaydi, oila bolalar huquqlarini ro‘yobga chiqarishda asosiy institut sifatida qayd etiladi.

S.A.Sorokina bolalar huquqlarining oiladagi ijrosi, shu jumladan, ta’lim olish, g‘amxo‘rlik ko‘rish, himoyalanish va shaxsiy rivojlanish huquqlariga alohida e’tibor qaratadi. U bolalarning shaxsiy huquqlari ularning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari uchun asos yaratishini ta’kidlaydi. Muallif, shuningdek, bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda ota-ona, vasiylar va davlat organlarining o‘zaro mas’uliyatini belgilaydi.

Muallif bolalar huquqlarini himoya qilishda qonunchilikning kamchiliklarini ko‘rsatib, ushbu sohani yaxshilash uchun aniq tavsiyalar beradi. Xususan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida ko‘zda tutilgan xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilishning ahamiyati ta’kidlangan. Shuningdek, bolalarning huquqiy savodxonligini oshirish va oilalarga qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari bo‘yicha takliflar berilgan.

S.A.Sorokinaning tadqiqoti bolalar huquqlarini himoya qilishning milliy va xalqaro qonunchilik o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashda, shuningdek, oila va jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Uning ishlari bolalar huquqlari himoyasiga doir nazariy va amaliy masalalarni hal etishga qaratilgan[11].

T.A.Titova o‘z tadqiqotida BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining xalqaro inson huquqlari tizimidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur o‘rgangan. Muallif Konvensiyaning asosiy vazifasi bolalarning huquqlari va manfaatlarini xalqaro miqyosda himoya qilishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu hujjatda bolalarning yashash, rivojlanish, himoyalanish va jamiyat hayotida ishtirok etish huquqlari birdek muhim deb belgilangan.

T.A.Titova o‘z ishida Konvensiyaning qo‘llanilishidagi xalqaro va milliy tajribalarni tahlil qiladi. U davlatlarning mazkur hujjatda qayd etilgan majburiyatlarini bajarishi, xususan, bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlarni qabul qilish va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha harakatlarini baholaydi. Muallif xalqaro hamjamiyatning zaif ijtimoiy guruhlar, jumladan, nogiron bolalar, ijtimoiy etimlar va muhojir bolalar huquqlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratayotganini ta’kidlaydi.

Muallif Konvensiyaning Rossiya qonunchiligiga ta’sirini o‘rganib, uni milliy qonunchilik bilan muvofiqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro standartlarni samarali amalga oshirish uchun monitoring tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

T.A.Titovaning tadqiqoti bolalar huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish masalalarida muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka joriy etish uchun asos yaratadi. Uning ishlari bolalarning huquqlarini ta’minlashdagi global yondoshuvni rivojlantirishga qaratilgan[12].

Suslova D.V. o‘z tadqiqotida zamonaviy dunyoda bolalarning huquqiy holati va ularning huquqlari buzilishiga oid masalalarni tahlil qilgan. Muallif bolalarning huquqlari doimo jiddiy tahdid ostida ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, katorj ishlar, bolalar mehnatining ekspluatatsiya qilinishi, qurolli mojarolar, ekologik ofatlar va oilalardagi zo‘ravonlik kabi holatlar

bolalarning huquqlarini toptayotganini ko‘rsatadi.

D.V.Suslova bolalar huquqlarini buzilishining eng ko‘p uchraydigan holatlarini tahlil qilib, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, davlatning samarasiz qonunchiligi va himoya mexanizmlarining etishmasligiga e’tibor qaratadi. Muallif bolalar huquqlarini himoya qilishda oilalar, jamoatchilik tashkilotlari va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, D.V.Suslova xalqaro hujjatlarda, xususan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida ko‘rsatilgan standartlarni amalga oshirishdagi muammolarga to‘xtalib o‘tadi. Bolalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini joriy etish va jamiyatda bolalarga nisbatan gumonsizlik va insoniy munosabatlarni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Muallif bolalar huquqlarini himoya qilishdagi asosiy vazifa xalqaro normalar va milliy qonunchilik o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashdan iborat deb hisoblaydi. D.V.Suslovaning tadqiqoti bolalar huquqlarini himoya qilish masalalarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy, huquqiy va ta’limiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha muhim manba hisoblanadi[13].

L.Yu.Golыsheva o‘z tadqiqotida bolalarning huquqiy maqomini tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilgan. Muallif bolalar huquqlarini rivojlantirishning tarixiy jarayonini o‘rganib, turli davrlarda bolalarning huquqiy maqomi va ularni himoya qilish mexanizmlarining o‘zgarishini tahlil qiladi. U bolalar huquqlarini himoya qilishda xalqaro hamjamiyatning roli va bu jarayonda qabul qilingan asosiy xalqaro hujjatlarning ahamiyatini ta’kidlaydi.

L.Yu.Golыsheva bolalar huquqlari bo‘yicha tarixiy manzarani aniq tasvirlab, bolalarning huquqiy maqomiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tahlil qiladi. Muallif bolalar huquqlarini himoya qilishda davlatlarning majburiyatlarini belgilashning ahamiyatiga e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, bolalar huquqlarini amalga oshirishda oila, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o‘rnini ko‘rsatib o‘tadi.

Muallif bolalar huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarning paydo bo‘lishi va ularning milliy qonunchilikka ta’sirini chuqur o‘rganadi. Uning fikricha, bolalar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmini shakllantirish uchun xalqaro va milliy huquqiy tizimlarni uyg‘unlashtirish muhimdir.

L.Yu.Golыshevaning tadqiqoti bolalar huquqlari sohasida tarixiy yondashuvni ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, bolalarning huquqiy maqomini rivojlantirishdagi asosiy tamoyillarni shakllantirishga yordam beradi. Uning ishlari bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish uchun tarixiy tajribadan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi[14].

Umuman olganda, barcha tadqiqotchilarning umumiy xulosasiga ko‘ra, bolalar huquqlarini himoya qilish milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash, bolalarning huquqiy savodxonligini oshirish va ularning huquqlarini amalda himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilishning samaradorligini oshirish uchun oila, jamiyat va davlat organlari o‘rtasida samarali hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ijtimoiy zaif guruhlar, jumladan, ijtimoiy etimlar, nogiron bolalar va muhojir bolalarning huquqlariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Bolalar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmi ijtimoiy va huquqiy vositalarning o‘zaro ta’siriga asoslangan bo‘lib, uning asosiy vazifasi bolalarning yashash, ta’lim, rivojlanish va himoyalanish huquqlarini ta’minlashdan iboratdir.

Shuningdek, bolalarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularga o‘z huquqlarini amalda himoya qilishni o‘rgatish va jamiyatda bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish bo‘yicha ishlar olib borish zarur.

Qisqacha aytganda, bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tadqiqotlar milliy va xalqaro huquqning integratsiyasini ta’minlash, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda global hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ular bolalar huquqlarini ta’minlashga qaratilgan siyosat va qonunchilikni takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. См.: Черниченко С. В. Теория международного права. Т. 2. М., 1999. С. 391—392.
2. См.: Черниченко С. В. Указ. соч. С. 392; Павлова Л. В. Международная защита прав человека и ее эволюция на современном этапе // Белорусский журнал международного права и международных отношений. 1996. № 1. С. 23.
3. О.М.Старовойтов. Международная защита прав ребенка как институт международного права. Белорусский журнал международного права и международных отношений 2002 — № 3. // https://evolutio.info/ru/journal-menu/2002-3/2002-3-starovoitov
4. См.: Старовойтов О. М. Указ. соч. С. 51—58.
5. Международное право: Учебник для вузов / Под ред. Г. В. Игнатенко, Д. Д. Остапенко. М., 1978. С. 197; Права человека и современный мир / Отв. ред. Н. К. Михайловский. Киев, 1980. С. 264—265.
6. Мовчан А. П. Права человека и международные отношения. М., 1982. С. 19—20.
7. См.: Павлова Л. В. Международная защита прав человека и ее эволюция на современном этапе // Белорусский журнал международного права и международных отношений. 1996. № 1. С. 24.
8. Осипова, Т. В. Актуальность проблемы прав ребенка и его защиты / Т. В. Осипова, Ж. Г. Почивалова, О. В. Коляда // Вестник ЮУрГУ. Серия «Образование. Педагогические науки». – 2018. – Т. 10, № 4. – С. 6–14. DOI: 10.14529/ped180401.
9. Бутько, О.В. Правовой статус ребенка: теоретико-правовой анализ: дис. ... канд. юрид. наук. – Краснодар, 2004. – 241 с.
10. Абрамов, В.И. Права ребенка и их защита в России: общетеоретический анализ доктор юридических наук. – Саратов, 2007. – 455 с.
11. Сорокина, С.А. Права детей в семье по семейному законодательству Российской Федерации и конвенции «О правах ребенка»: дис. ... канд. юрид. наук / С.А. Сорокина. – М., 2000. – 137 с.
12. Титова, Т.А. Конвенция о правах ребенка в системе общей регламентации прав человека / Т.А. Титова. – Екатеринбург, 2000. – 181 с.
13. Суслова, Д.В. Права ребенка в современном мире / Д.В. Суслова // Проблемы и перспективы развития образования: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Пермь, март 2014 г.). – Пермь: Меркурий, 2014. – С. 93–96. – https://moluch.ru/conf/ped/archive/ 101/5181/ (дата обращения: 19.08.2018).
14. Голышева, Л.Ю. Правовое положение детей в России (исторический аспект): дис. ... канд. юрид. наук. – Ставрополь: СГУ, 2003.

Kulliyev Ilxomjon Muradovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASINING HARBIY SOHADAGI XALQARO HAMKORLIK FAOLIYATINI O‘RGANISH ZARURATI

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida Milliy gvardiyasining bugungi kunda Qurolli kuchlar tizimida huquqni muhofaza qilish funksiyalariga ega mustaqil harbiy idora sifatida mamlakatimiz ichki xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘ringa egallaganligi aytilib, Milliy gvardiya faoliyatini yanada takomillashtirishda harbiy sohadagi xalqaro hamkorligi sohasini ilmiy jihatdan o‘rganishning zarurati va ehtiyojini yuzaga keltiradigan omillar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, harbiy, xalqaro hamkorlik, mudofaa, harbiy diplomatiya, xavfsizlik, xalqaro normalar, omillar.

В данной статье отмечается, что Национальная гвардия Республики Узбекистан в настоящее время занимает важное место в обеспечении внутренней безопасности страны как независимое военное ведомство с функциями правоохранительной деятельности в системе Вооруженных сил. Также исследуются факторы, обуславливающие необходимость и потребность научного изучения международного сотрудничества Национальной гвардии в военной сфере для дальнейшего совершенствования её деятельности.

Ключевые слова: Национальня гвардия, военный, международное сотруднчиество, оборона, военная дипломатия, безопасность, международные нормы, факторы.

This article highlights that the National Guard of the Republic of Uzbekistan currently plays a significant role in ensuring the country’s internal security as an independent military agency with law enforcement functions within the Armed Forces system. It also examines the factors necessitating and emphasizing the need for a scientific study of the National Guard’s international cooperation in the military sphere to further enhance its activities.

Keywords: National Guard, military, international cooperation, defense, military diplomacy, security, international norms, factors.



So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida milliy armiyamizning zamonaviy qiyofasi va salohiyati tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi. Dunyodagi armiyalarning harbiy salohiyatini baholab boruvchi “Global Firepower” tahliliy markazi mutaxassislarining fikriga ko‘ra, O‘zbekiston armiyasi MDH davlatlari orasida, xususan Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi salohiyatga ega qudratli kuch sifatida baholangan» [1].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, dunyoda yuzaga kelgan hozirgi murakkab vaziyatda mamlakatimiz tinchligi

va barqarorligining muhim kafolati bo‘lgan milliy armiyamizni isloh qilish, ayniqsa harbiy ta’lim va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida, milliy o‘zligimiz, ezgu qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda oliy harbiy ta’lim muassasalarida yangicha yondashuv va o‘quv uslublari joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi [2].

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida o‘z o‘rni va uzoq tarixiga ega bo‘lgan Milliy gvardiyaning faoliyatining turli yo‘nalishlarini chuqur o‘rganish, tegishli takliflar ishlab chiqish hamda ushbu o‘rganish natijalari asosida yosh avlod uchun zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab mamlakatimizda ichki xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishida muhim vazifalarni bajarib kelmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 30 avgust kuni qabul qilgan «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasida [3] mamlakatimizning Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga egaligi, suveren mamlakat hududida sobiq Sovet Ittifoqi Qurolli Kuchlarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini o‘zida saqlab qolish normasi belgilab qo‘yildi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini shakllantirish va takomillashtirish sohasida olib borilgan chora-tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 23 yanvardagi 29-son Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, fuqarolarning konstitutsion huquqlari va erkinliklarini va hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini 3408-harbiy qismi negizida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya brigadasi tuzildi [4] va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi (62814 harbiy qism) tasarrufiga o‘tkazildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida tuzilgan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya brigadasi turli yillarda Mudofaa va Ichki ishlar vazirligi tarkibidagi turli bo‘linmalar ko‘rinishida faoliyat yuritib keldi.

Mamlakatimizning mudofaa sohasidagi tadrijiy o‘zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy bosh qo‘mondonining 2017 yil avgustdagi tegishli Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligi va davlat suverenitetini himoya qilish, fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadida, mustaqil idora sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tuzildi.

2020 yil 18 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonuni [5] imzolandi.

Qonunning qabul qilinishi bilan Milliy gvardiyaning faoliyati huquqiy tartibga solindi va unda organning huquqiy maqomi hamda asosiy vazifalari belgilab berildi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turi hisoblanadi.

Ushbu Qonunning qabul qilinishi Milliy gvardiyaning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, mamlakat ichki xavfsizligini

ta’minlashda muhim rol o‘ynaydigan alohida idora sifatida to‘laqonli shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi davlatchiligimiz tarixida mamlakat ichki xavfsizlignini ta’minlash sohasidagi uzoq asrlik shonli tarixi davomida shakllangan an’ana va qadriyatlarini o‘zida jamlagan holda [6] davlatimiz tinchligi va barqarorligini ta’minlashda muhim vazifalarni bajarib kelayotgan mustaqil harbiy idora sifatida shakllandi deb aytish uchun barcha asoslar mavjud.

O‘tgan davr mobaynida Milliy gvardiyaning boshqa tarkibiy bo‘linmalari qatori Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan ham idoraning jangovar-xizmat faoliyatiga ilg‘or xorijiy tajribani tatbiq etish, Milliy gvardiya shaxsiy tarkibini yetakchi xalqaro standartlar asosida o‘qitish va malakasini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda Milliy gvardiyada xalqaro hamkorlik tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha muayyan tajriba to‘plandi, ushbu yo‘nalishdagi faoliyat ma’lum bir tizimga solindi.

Shu bilan birga, harbiy sohadagi xalqaro hamkorlik masalasiga bir idora faoliyatining bir yo‘nalishi sifatida qarash emas, balki xavsizlik sohasidagi davlat siyosatini bir ko‘zgusi sifatida yondashish zarur.

Zero, bugungi kunda harbiy sohada xalqaro hamkorlik tushunchasiga dunyo davlatlari tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, mazkur holat ushbu mavzuning siyosiy-diplomatik mazmunga ega nozik yo‘nalish ekanligini ko‘rsatuvchi jihatlardan biridir.

Harbiy sohada xalqaro hamkorlik “harbiy diplomatiya” yoki “mudofaa diplomatiyasi” so‘zi bilan ham tushuntiriladi.

Rossiyalik olim V.Vinokurovning talqiniga ko‘ra, harbiy diplomatiya bu - davlatning tashqi siyosatini amalga oshirishning tashkiliy harbiy-siyosiy instrumenti, harbiy-siyosiy maqsadlarga erishishning texnika va usullari majmui, suveren davlatlarning harbiy attashe, harbiy-dengiz va harbiy-havo attashelari bilan o‘zaro almashishni nazarda tutadigan Qurolli Kuchlari darajasidagi munosabatlarining o‘ziga xos mexanizmidir [7].

Uning fikriga ko‘ra, harbiy diplomatlar quyidagi uchta funksiyani bajaradi:

1. maslahat funksiyasi, bunda harbiy attashelar Elchiga harbiy-siyosiy masalalar bo‘yicha takliflarini taqdim etadi;

2. vakillik funksiyasi, bunda harbiy attashelar xorijiy mamlakatda o‘z davlatining Qurolli kuchlari va harbiy qo‘mondonligini taqdim etadi;

3. axborot-tahlil funksiyasi, bunda harbiy attashelar mamlakatining manfaatlaridan kelib chiqib, bo‘lib turgan xorijiy davlat to‘g‘risida tegishli ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va takliflar tayyorlaydi.

Boshqa bir rossiyalik olim F.Frolovning fikriga ko‘ra, harbiy diplomatiya ikki asosiy vazifani bajarish uchun mo‘ljallangan: qabul qiluvchi davlat bilan harbiy hamkorlikni rivojlantirish va axborot ta’minoti (razvedka). Agar birinchisi amalga oshirilmasa, ikkinchisiga urg‘u beriladi [8].

Germaniyaning sobiq tashqi ishlar vaziri Berndt fon Stadenning ta’rifiga ko‘ra, harbiy diplomatiya “harbiy missiyalar masalalariga, shuningdek, qurolsizlanish va qurollarni nazorat qilish bo‘yicha muzokaralarda harbiy vakillarning ishtirokiga taalluqlidir”. Umuman olganda, harbiy diplomatiya deganda faqat harbiy vakillar, harbiy attashelar yoki boshqa harbiy vakillar uchun tinchlikparvarlik missiyalari va operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida hamda xalqaro harbiy hamkorlik bo‘yicha muayyan vazifalar majmuasi tushunilishi mumkin.

Yoki, Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligi talqiniga ko‘ra, harbiy diplomatiya faqat harbiy attashening vazifalari va roliga taalluqlidir.

Shu bilan birga, G‘arb davlatlarida “harbiy diplomatiya” o‘rniga tobora “mudofaa diplomatiyasi” tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, polshalik olim Lex Drabning fikriga ko‘ra, “mudofaa diplomatiyasi” Ikkinchi jahon urushidan so‘ng dunyo davlatlarining Qurolli Kuchlar tomonidan bajariladigan yangi vazifalar va xalqaro funksiyalarini tushuntirish uchun yuzaga kegan ehtiyojlariga javoban shakllangan yangi termin hisoblanadi.

Olimning fikriga ko‘ra, mudofaa diplomatiyasining bosh maqsadi davlatning xavfsizlik siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, uning vazifasi esa - mudofaa sohasida uzoq muddatli va barqaror xalqaro aloqalarni yaratish hisoblanadi [9].

Mudofaa diplomatiyasi haqida birinchi marta 1998 yili Buyuk Britaniya Mudofaa

vazirligi tomonidan e’lon qilingan “Strategik mudofaa sharhi”da (Strategic Defence Review) aytib o‘tilgan. Muayyan maqsadga erishish uchun kuch yoki uni qo‘llash bilan tahdid qilishni nazarda tutadigan “harbiy diplomatiya”dan farqli o‘laroq “mudofaa diplomatiyasi” harbiy operatsiyalarni o‘z ichiga olmaydi hamda quyidagilarni nazarda tutadi:

- davlatlar o‘rtasidagi adovat va keskinlikni minimallashtirish hamda ishonchni mustahkamlashga yo‘naltirilgan;
- globallashuv davrida davlatlarning mintaqaviy va global miqyosda o‘zaro bog‘langanligini inobatga olib, harbiylardan tinch maqsadlarda foydalanish tadbirlari orqali mudofaa sohasida shaffof, barqaror va uzoq muddatli xalqaro hamkorlik muhitini yaratishga qaaratilgan;
- umummilliy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qila oladi hamda hamkorlar pozitsiyasining o‘zgarishiga ta’sir qilish uchun mo‘ljallangan;
- keng qamrovli xavfsizlik masalalarini huquqiy tartibga solish orqali hal etilishini qo‘llab-quvvatlaydi;
- mudofaa sohasida boshqa davlatlar bilan o‘zaro ishonch

va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan muloqot va xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi [10].

Ushbu maqsadlarga erishish uchun mudofaa diplomatiyasi quyidagi hamkorlik shakllaridan foydalanadi:

- oliy darajadagi harbiy mansabdorlarning o‘zaro tashriflari;
- mutaxassislarning ikki tomonlama uchrashuvlari va muloqotlar;
- o‘quv va amaliy mashg‘ulotlar;
- mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha mudofaa forumlari;
- harbiy yordam ko‘rsatish;
- o‘zaro ishonchni mustahkamlash choralari;
- yadroviy va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarni tarqatmaslik va boshqalar [11].

Bir so‘z bilan aytganda, “mudofaa diplomatiyasi” nizolarni minimallashtirish va o‘zaro ishonch choralarini qo‘lash orqali umumiy xavfsizlik va barqarorlik makonini yaratishga qaratilgan.

Mamlakatimizda harbiy (mudofaa) diplomatiyasi bo‘yicha alohida ilmiy izlanishlar olib borilganligi to‘g‘risida ochiq manbalarda ma’lumot uchramaydi.

O‘zbekistonlik olim G.Yuldasheva mamlakatimizdagi diplomatik xizmat, konsullik huquqi bo‘yicha alohida izlanishlar olib borgan, ushbu masalaga oid ilgari o‘rganilmagan tarixiy ma’lumotlar, diplomatik xizmatning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolari hamda ularni yechimi bo‘yicha bir qator asosli takliflarni ilgari surgan [12]. Biroq, u tomonidan harbiy diplomatiya bo‘yicha alohida ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Umuman olganda, xalqaro munosabatlar va xalqaro xavfsizlik sohasida ko‘plab nazariya va qarashlar mavjud bo‘lib, barcha yondashuvlarda ilgari surilayotgan g‘oyani asoslashga qaratilgan mantiqiy va asosli dalillar keltiriladi.

Shu bilan birga, mazkur mavzuni to‘liq ochib berish uchun kattta hajmda alohida ilmiy tadqiqot olib borish zarurligini hisobga olgan holda, yuqorida aytilganlardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Millliy gvardiyasining harbiy sohadagi xalqaro hamkorlik faoliyatini ilmiy jihatdan o‘rganish va tegishli takliflar ishlab chiqish zaruratini quyidagi omillar yuzaga keltirayotgani haqida xulosa qilish mumkin:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo‘mondoni tomonidan harbiy sohani ilmiy asoslangan takliflar asosida takomillashtirish, harbiy ta’limda yangicha yondashuv va o‘quv uslublarini joriy etish bo‘yicha qo‘ygan vazifalarni inobatga olgan holda shu paytgacha o‘rganilmagan Milliy gvardiya tizimidagi xalqaro hamkorlik faoliyati bo‘yicha maqsadli ilmiy izlanishlar olib borish zarurati;

ikkinchidan, Mamlakatimiz oliy harbiy qo‘mondonligi topshirig‘i asosida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida tashkil etilgan Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya fakulteti o‘quv jarayonida foydalanish uchun Milliy gvardiyaning harbiy sohadagi xalqaro hamkorlik faoliyati bo‘yicha maxsus o‘quv adabiyotlarini tayyorlash ehtiyoji;

uchinchidan, Milliy gvardiya xalqaro hamkorlik tadbirlariga jalb etilgan ayrim harbiy xizmatchilarning umume’tirof etilgan protokol va etiket talablari bo‘yicha yetarli darajada bilimga ega emasligi kuzatilayotganligi sababli, Milliy gvardiya shaxsiy tarkibini mazkur sohada bilimi va malakasini oshirish bo‘yicha o‘qitish zarurati;

to‘rtinchidan, Milliy gvardiya tizimidagi

xalqaro hamkorlik tadbirlarini sayyoz rejalashtirish va yakunlari bo‘yicha hisobot materiallarini past saviyada tayyorlash holatlari uchrayotganligi sababli mazkur yo‘nalishdagi asosiy kamchiliklarni belgilash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji.

Kattaqulov Murodillo Qurbonboyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi,

VOYAGA YETMAGANLARNING JINSIY ERKINLIGIGA QARSHI JINOYATLARNING OLDINI OLISHGA OID XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada voyaga yetmaganlarning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Xalqaro qonunchilik, profilaktika dasturlari va jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning roli o‘rganilgan. Muallif O‘zbekistonning jinoiy siyosatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurligini ta‘kidlaydi va samarali profilaktika mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Voyaga yetmaganlar, jinsiy erkinlik, xalqaro qonunchilik, profilaktika dasturlari, jinoiy siyosat, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar.

В статье проанализирован опыт иностранных государств по предупреждению преступлений против сексуальной свободы несовершеннолетних. Рассмотрены международное законодательство, профилактические программы и роль социально-правовых отношений в обществе. Автор подчеркивает необходимость приведения уголовной политики Узбекистана в соответствие с международными стандартами и предлагает рекомендации по внедрению эффективных профилактических механизмов.

Ключевые слова: Несовершеннолетние, сексуальная свобода, международное законодательство, профилактические программы, уголовная политика, социально-правовые отношения.

The article analyzes the experience of foreign countries in preventing crimes against the sexual freedom of minors. It examines international legislation, prevention programs, and the role of socio-legal relations in society. The author emphasizes the need to align Uzbekistan’s criminal policy with international standards and provides recommendations for implementing effective preventive mechanisms.

Keywords: Minors, sexual freedom, international legislation, prevention programs, criminal policy, socio-legal relations.



BMTning Bolalar fondi (YuNISEF) tomonidan o‘tkazilgan tahlil natijasiga ko‘ra, dunyoning 370 milliondan ortiq qizlari – har sakkizinchisi – 18 yoshgacha zo‘rlash yoki jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan. O‘g‘il bolalar orasida esa 240 milliondan 310 milliongacha yoshlar, taxminan har o‘n birinchi o‘g‘il bola shunday zo‘ravonlikka duch kelgan[1].

YuNISEFning ijrochi direktori Ketrin Rassel bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlikni bizning umumiy axloqiy vijdonimizga tushgan dog‘, deb ta’kidladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, bunday zo‘ravonlik bolalarga chuqur ruhiy zarar yetkazadi va ko‘pincha bola tanish va ishongan insonlar tomonidan, shuningdek, bola o‘zini xavfsiz his qilishi kerak bo‘lgan joylarda sodir etiladi[1].

Har to‘rt daqiqada dunyoda bir bola zo‘ravonlik qurboni bo‘lib hayotdan ko‘z yummoqda. Bu haqda BMT Bolalar jamg‘armasi bolalarga nisbatan qotillik va zo‘ravonlik qurbonlari bo‘lganlar to‘g‘risidagi maxsus hisobotida ma’lum qildi. Hisobot Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni tugatishga bag‘ishlangan Butunjahon vazirlar konferensiyasi munosabati bilan tayyorlangan. Konferensiya Kolumbiyaning Bogota shahrida o‘tkazilmoqda va unda dunyo yetakchilari, jamoat tashkilotlari, xayriyachilar, zo‘ravonlikdan jabrlanganlar va yoshlar vakillari ishtirok etmoqda. Bolalar jamg‘armasi dunyo bo‘ylab millionlab bolalarning hayotini yo‘q qiluvchi jinoyatlarga qarshi zudlik bilan choralar ko‘rishni talab qilmoqda.

Hisobotda har yili o‘rtacha 130 ming bolalar va o‘smirlar (20 yoshgacha bo‘lganlar) zo‘ravonlik tufayli halok bo‘lishi qayd etilgan. Hozirgi kunda 90 millionga yaqin bolalar jinsiy zo‘ravonlik qurbonlariga aylangan va sayyoramizdagi har beshinchi ayol bolaligida jinsiy zo‘ravonlikka duch kelgan.

Hisobotda aytilishicha, ayniqsa, xavfli vaziyatlarda qizlar va yosh ayollar orasida jinsiy zo‘ravonlik qurbonlari ulushi 25 foiz va undan ham yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkin.

Shuningdek, hisobotning boshqa muhim ko‘rsatkichlari ham shunday. O‘tgan yil mobaynida 15-19 yosh oralig‘idagi 50 milliondan ortiq qiz bolalar er yoki sheriklaridan jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan; taxminan 500 million erkak (hayotiy har yettinchi kishi) bolaligida jinsiy zo‘ravonlikka uchragan; 1,6 milliard bolalar – bu har uchta boladan ikkitasi – o‘z uyida muntazam ravishda og‘ir jismoniy jazoga duch keladi, yana ko‘pchiligi – psixologik zo‘ravonlikka; taxminan 550 million bolalar (har to‘rt boladan biri) sherigi tomonidan zo‘ravonlikka uchragan onasi bilan yashaydi[2].

«Biz bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning ko‘lami, sabablari va unga to‘lanadigan narxini to‘liq anglagan ilk avlodmiz va samarali yechimlarni qanday topishni bilgan ilk avlodmiz, – deb ta’kidladi Shima Sengupta, BMT Bolalar jamg‘armasining bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha direktori. – Profilaktikaga, tarbiyaga va qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlarga investitsiya kiritish orqali biz zo‘ravonlik zanjirini uzishimiz va bolalar uchun xavfsiz dunyoni barpo etishimiz mumkin»[2]. Bolalar jamg‘armasi bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, maktablarda xavfsiz muhit yaratish va barcha bolalarga kerakli yordam xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan loyihalarga moliyaviy mablag‘ sarflashning muhimligini ta’kidladi[3].

BMTning Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi, unga tegishli Fakultativ protokol (Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasi bilan bog‘liq masalalar), Yevropa Kengashining Bolalarni seksual ekspluatatsiya va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi, BMTning Odam savdosi va uchinchi shaxslar tomonidan fohishalikni ekspluatatsiya qilishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi, Vena deklaratsiyasi va harakatlar dasturi, shuningdek «Bolalar uchun yaroqli dunyo» deklaratsiyasi va harakatlar rejasi normalarini tahlil qilish amaldagi O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonliklarga qarshi kurash borasidagi xalqaro standartlarga mos kelishini ko‘rsatadi. Ushbu xalqaro hujjatlar O‘zbekistonning jinoiy siyosatini, ayniqsa jinsiy jinoyatlarga qarshi kurash sohasida shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatgan va ko‘rsatib kelmoqda.

Xalqaro huquq normalari va xorijiy davlatlarning jinoyat kodekslarini tahlil qilish respublikadagi jinoiy-huquqiy chora-tadbirlarning yetarli yoki yetarli emasligini baholashga imkon berish bilan birga, ushbu choralarning ba’zi hollarda kamchiliklarini aniqlab berish va shu orqali kelajakda

ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, jinoiy-huquqiy chora-tadbirlarni yanada samarali qilish yo‘llarini belgilash, xalqaro standartlarga mos ravishda huquqiy choralarni takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib, jinoiy-huquqiy tizimni takomillashtirish nafaqat mahalliy qonunchilik asosida, balki xalqaro amaliyotlarni inobatga olgan holda, keng ko‘lamda o‘rganishni maqsadga muvofiq. Shu tariqa, qonunchilik islohotlari jarayonida qonun normalarini qayta ko‘rib chiqish, ularning amaliy qo‘llanilishi va mazkur sohada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni minimallashtirish muhim hisoblanadi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasining 2011 yil 6 apreldagi «Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarga ma’muriy nazorat to‘g‘risida»gi qonuniga 2024 yilda qator qo‘shimchalar kiritildi, jumladan, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan, jazoni to‘liq o‘tab bo‘lmagan yoki sudlanganligi tugallanmagan shaxslar uchun majburiy ma’muriy cheklovlar ro‘yxati kengaytirildi. Bunday shaxslarga ta’lim muassasalari, tibbiyot va sanatoriy-kurort muassasalari, bolalarga mo‘ljallangan madaniyat muassasalari, bolalar dam olish va sog‘lomlashtirish muassasalari, bolalar maydonchalariga tashrif buyurish taqiqlandi[3].

AQSh bu borada eng faol kurashayotgan davlatlardan biri hisoblanadi: u yerda pedofillarga qarshi kurashish uchun ko‘p sonli maxsus tayyorlangan bo‘linmalar mavjud va ular eng zamonaviy va qattiq usullardan foydalanishadi. Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan bir qatorda, amerikalik pedofillar uchun kimyoviy kastratsiya, qamoqxonalarda «men pedofilman» degan yozuvli kiyimlarni majburiy kiyish, va jinoyatchining qaerda ekanligini politsiyaga xabar beradigan maxsus billurlar taqish kabi choralar ham qo‘llaniladi[4].

«Meter» nomli bolalarni jinsiy zo‘ravonliklardan himoya qilish bo‘yicha Italiyadagi nodavlat tashkilotining prezidenti va asoschisi, ruhoniy Fortunato DiNoto ta’kidlaganidek, bugungi kunda voyaga yetmaganlarning jinsiy ekspluatatsiyasi global muammoga aylanib ulgurgan. Birinchi navbatda, virtual pedofiliya butun Yevropani qamrab olgan: barcha veb-saytlarning 50 foizidan ortig‘i bolalar ishtirokida taqiqlangan materiallar bilan «zararlangan». Pedopornografiya bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda Rossiya turadi, ikkinchi o‘rinda Yaponiya va uchinchi o‘rinda Hindiston[5].

AQShda esa turli xil vaziyatga mos keluvchi profilaktika dasturlari amalga oshiriladi. Xususan, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarga nisbatan residivning oldini olishga qaratilgan maxsus dasturlar mavjud bo‘lib, ular jinoyatchilarga nisbatan qator cheklovlarni nazarda tutadi. Bu cheklovlar qatoriga mazkur shaxslarning ro‘yxatga olinishi, reestrlarning yaratilishi, global pozitsiyalash (GPS) tizimi orqali elektron monitoring (kuzatuv), yashash va harakatlanish joylarini cheklash, jamoatchilikka ma’lum qilish va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish kiradi[6].

AQShda «Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya, zo‘ravonlik jinoyatlaridan himoya qilish, ularni buzuqlikdan himoya qilish, bolalar pornografiyasini tarqatishga qarshi kurashish, Internetda bolalar xavfsizligini ta’minlash, Adam Uolsh va bolalarga qarshi jinoyat qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan» federal qonuni (Adam Uolsh himoya akti, Adam Walsh Protection Act, AWA) amal qiladi. Ushbu qonunning birinchi bo‘limi — «Jinsiy jinoyatchilarni ro‘yxatga olish va jamoatchilikka xabar berish to‘g‘risidagi qonun» (Sex Offender Registration and Notification Act, SORNA) — jinsiy jinoyat sodir etgan shaxslarni yashash, ishlash yoki o‘qish joyida majburiy ro‘yxatdan o‘tkazishni talab qiladi. Bundan tashqari, bunday shaxslar uchun maxsus reestr yaratilishi va unda ularning to‘liq shaxsiy ma’lumotlari va fotosuratlari joylashtirilishi belgilab qo‘yilgan[6].

SORNAning asosiy qoidalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin. Ro‘yxatga olingan jinsiy jinoyatchilar (sex offenders) jinoyatning og‘irligi va jabrlanuvchining yoshiga qarab uch darajali tizim bo‘yicha tasniflanadi:

1. Birinchi toifa jinsiy jinoyatchi (tier I sex offender) — bu shaxs, bir yil ozodlikdan mahrum etish yoki undan yengilroq jazo bilan jazolanadigan jinsiy asosdagi jinoyat sodir etgan shaxs.

2. Ikkinchi toifa jinsiy jinoyatchi (tier II sex offender) — bu shaxs uchinchi toifaga kiritilishi mumkin bo‘lmagan, lekin bir yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish bilan

jazolanadigan jinsiy jinoyat sodir etgan shaxs yoki birinchi toifaga kiruvchi shaxs bo‘lib, takroran shunday jinoyat sodir etgan shaxs.

3. Uchinchi toifa jinsiy jinoyatchi (tier III sex offender) — bu shaxs jinsiy erkinlikka qarshi zo‘ravonlik jinoyatini sodir etgan, yoki 13 yoshga to‘lmagan shaxsning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan, yoki ikkinchi toifaga kiruvchi shaxs bo‘lib, takroran shunday jinoyat sodir etgan shaxs[7].

Jinsiy jinoyatlarga qarshi kurashi ko‘plab davlatlarda turli rivojlanish bosqichlarida amalga oshirilib kelinmoqda. G‘arb mamlakatlarida jinsiy jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha ishlar quyidagi darajalarda olib boriladi:

1) milliy, davlat va mintaqaviy darajada;

2) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan turli jamoat tashkilotlari tashabbusi asosida;

3) mustaqil faoliyat yuritadigan va turli vazirliklar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan nodavlat tashkilotlar faoliyati asosida[8].

Bir qator davlatlarda jinsiy zo‘ravonlikning oldini olish davlat va mintaqaviy darajada mavjud ijtimoiy institutlar orqali amalga oshiriladi. Bu, avvalo, ijtimoiy ta’minot instituti, sog‘liqni saqlash instituti va huquqni muhofaza qilish organlari institutidir[9].

Xorijiy davlatlarda jinsiy zo‘ravonlikka qarshi profilaktik choralarni ishlab chiqish, odatda, muammoning turli jihatlarini va unga aloqador sub’ektlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlar professionallar tayyorlashga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda jinsiy zo‘ravonlik mavzusini o‘quv dasturlariga kiritishning muhimligi alohida ta’kidlangan.

Niderlandiyada tadqiqot loyihasi doirasida jinsiy zo‘ravonlik holatlari haqida ma’lumot yig‘ish uchun ikki markaz tashkil etilgan. Bu markazlarda zo‘ravonlik jabrdiydalarini ijtimoiy yordam bilan ta’minlash bo‘yicha maslahat materiallari ham ishlab chiqiladi[10].

2007 yilda Yevropada jinsiy jinoyatlarga huquqiy yondashuvlarning turli yo‘nalishlarini o‘rganish bo‘yicha birinchi urinish amalga oshirildi. Dafna III tadqiqot dasturi doirasida jinsiy zo‘ravonlik masalalari bo‘yicha maxsus guruh Yevropaning bir qator mamlakatlaridagi huquqiy vaziyatni o‘rganib, ma’lumot to‘pladi va tahlil qildi.

Dafna III dasturining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- nodavlat tashkilotlar va shu sohada faoliyat yurituvchi boshqa tashkilotlarga yordam ko‘rsatish va ularning faoliyatiga yordam berish;
- maqsadli axborot-ta’lim tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- zo‘ravonlik qurbonlarini tiklashga yordam beruvchi faoliyatni takomillashtirish va aniqlash;
- turli sohalarni qamrab olgan tarmoqlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash;
- bilimlar bazasini kengaytirish, axborot almashinuvi va jinsiy zo‘ravonlikka qarshi kurashda ilg‘or tajribalarni tarqatish;
- mavjud axborot-ta’lim materiallarini to‘ldirish va moslashtirish, yangi materiallarni yaratish va sinovdan o‘tkazish;
- zo‘ravonlik bilan bog‘liq hodisalarni va ularning oqibatlarini o‘rganish;
- qurbonlar va zo‘ravonlik xavfi ostida bo‘lgan shaxslarga qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, residiv jinoyatchiligining oldini olish dasturlarini yaratish[1].

G‘arb tajribasini tahlil qilish shunga ko‘rsatdiki, jinsiy jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha faoliyat turli davlatlarda samarali va yaxshi tashkil etilgan. Bu faoliyat quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

a) milliy, davlat va mintaqaviy darajalarda (Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada va AQSh);

b) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan turli jamoat tashkilotlari tashabbusi asosida (Braziliya, Norvegiya, Janubiy Afrika Respublikasi);

v) mustaqil ravishda faoliyat yuritadigan va turli vazirliklar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan nodavlat tashkilotlar faoliyati asosida (Fransiya, Germaniya, Italiya, Polsha, Yangi Zelandiya)[8].

Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya qonunchiligini tahlil qilish, yoshlarga nisbatan jinsiy daxlsizlik va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni tartibga solishda xorijiy tajribani o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi. Bu davlatlarda qabul qilingan qonunchilik yoshlarning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Shu munosabat bilan, jinsiy zo‘ravonlikning oldini olish va jinoyatchilarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish bo‘yicha

ularning samarali tajribalarini o‘rganish, qonunchilikka tegishli o‘zgartishlar kiritishga asos bo‘lishi mumkin.

Bu davlatlardagi amaliy tajribalar, yoshlarning jinsiy daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan qonuniy mexanizmlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy mexanizmlardan biri - xalqaro sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan mukammal chora-tadbirlar tizimidan iborat INSPIRE[12] strategiyalar to‘plamidir. Dasturining asosiy maqsadi bolalarga nisbatan har qanday shakldagi zo‘ravonlikni oldini olish va ularni himoya qilishga yo‘naltirilgan siyosat va qonunlarni joriy etish. Bu jamiyatda zo‘ravonlikni kamaytirish uchun qat’iy huquqiy tizimni yaratishni o‘z ichiga oladi. INSPIRE konsepsiyasi bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va uning salbiy oqibatlariga javob choralarini qo‘llashga qaratilgan kompleks strategik yondashuvdan iborat. Bu strategiyalar butun dunyodagi bolalarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

INSPIRE to‘plamini ishlab chiqish jarayonida uzoq yillik tajribaga ega bo‘lgan 10 ta tashkilot ishtirok etgan. Ularning vazifasi bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olishning izchil va faktik ma’lumotlarga asoslangan yondashuvini ommalashtirishdir. Hujjatda zo‘ravonlikning turli shakllari, jumladan, jismoniy, jinsiy, psixologik zo‘ravonlik hamda bolalarga befarq munosabat bilan bog‘liq holatlar aniq ko‘rsatilgan.

Mazkur strategiya bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqdir. Jumladan, SURning 16.2 maqsadi («Bolalarga nisbatan barcha turdagi zo‘ravonlikni tugatish»), 5.2 maqsadi («Har bir ayol va qiz bolaga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini bartaraf etish») va 16.1 maqsadi («Har qanday zo‘ravonlik turlarini keskin kamaytirish») shular jumlasidandir. Shuningdek, har bir strategiyaning amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlar va ularning samaradorligiga oid ma’lumotlar asoslangan.

INSPIRE to‘plami bolalarni himoya qilish va ularning huquqlarini ta’minlashga qaratilgan Qonunlar to‘g‘risidagi Konvensiyaga muvofiqdir. Unda ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minlash, moliya va huquq tartiboti sohalaridagi sa’y-harakatlarni uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlangan. Har bir strategiyada uni amalga oshirish maqsadlari, kutilayotgan samarasi, alohida choralar va ularning samaradorligiga oid ma’lumotlar batafsil bayon qilingan.

Shuningdek, INSPIRE dasturida barcha ishtirokchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish, har bir strategiya bo‘yicha monitoring va natijalarni baholashning ahamiyati qayd etilgan. INSPIRE to‘plami 2030 yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini, jumladan, 16.2 maqsadni («Bolalarga nisbatan barcha turdagi zo‘ravonlik va qiynoqlarni tugatish»), 5.2 maqsadni («Har bir ayol va qiz bolaga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini bartaraf etish») va 16.1 maqsadni («Har qanday zo‘ravonlik turlarini keskin kamaytirish va o‘lim ko‘rsatkichlarini pasaytirish») amalga oshirishga qaratilgan.

INSPIRE dasturi doirasidagi asosiy yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Qonunchilikni joriy etish va uning ijrosini ta’minlash.
2. Normalar va qadriyatlarni shakllantirish.
3. Xavfsiz muhit yaratish.
4. Ota-onalar va tarbiyachilarga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish.
5. Iqtisodiy barqarorlikni yaxshilash.
6. Salbiy holatlarga javob choralari va yordam ko‘rsatish.
7. Hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatish va ta’lim berish.

Yana bir xalqaro tajribalardan biri bu - Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha profilaktika dasturlari. Natijalar[13]. So‘nggi global ilmiy tadqiqotlar sharhlari ma’lumotlariga ko‘ra, bolalar jinsiy zo‘ravonlikka qarshi maktab dasturlarida qatnashganda, ular zo‘ravonlik holatlari haqida kattalarga xabar berish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. Bu turdagi ta’limiy dasturlarda qatnashmagan bolalarda esa xabar berish holatlari kamroq uchraydi.

Cochrane Database of Systematic Reviews’da e’lon qilingan ushbu sharh mavzuga oid barcha mavjud tadqiqotlarni o‘z ichiga olib, dunyo bo‘ylab boshlang‘ich va o‘rta sinf o‘quvchilarining taxminan 6000 nafaridan olingan ma’lumotlarni umumlashtiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jinsiy zo‘ravonlikka qarshi profilaktika

dasturlarini o‘rgangan bolalar orasida zo‘ravonlik holatlari haqida xabar berish holatlari har 1000 boladan taxminan 14 tasida kuzatilgan. Bunday ta’limdan o‘tmagan bolalarda esa bu ko‘rsatkich 1000 boladan 4 tasini tashkil etgan.

Sharhning yetakchi muallifi, Avstraliyaning Kvinslend universiteti dotsenti Kerriann Uolsh va uning hamkasblari ushbu natijalar “o‘rtacha” darajada ishonchli ekanini ta’kidlaydilar. Shu sababli, ushbu maktab dasturlarining aniq ta’sirini baholash uchun qo‘shimcha tadqiqotlarni o‘tkazish zarur.

Hozirgi baholarga ko‘ra, har o‘nta qiz va har yigirmata o‘g‘il boladan biri jinsiy zo‘ravonlikka uchraydi. Jinsiy zo‘ravonlikka duch kelgan bolalar, katta yoshga yetganida ham jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ular sog‘liq muammolari va ruhiy kasalliklar, jumladan, depressiya, suitsidga moyillik, oziq-ovqatni noto‘g‘ri iste’mol qilish, dori vositalari va alkogoldan foydalanish xavfiga duch keladilar.

1980-yillardan boshlab ba’zi mamlakatlarda maktab bazasida bolalarni jinsiy zo‘ravonlikni tanish, unga javob qaytarish va xabar berishga o‘rgatuvchi dasturlar ishlab chiqilgan va joriy qilingan.

Dastur 7 ta davlatda (AQSh, Kanada, Xitoy, Germaniya, Ispaniya, Tayvan va Turkiya) 24 ta tadqiqotdan olingan ma’lumotlarni o‘z ichiga oldi va 5802 nafar o‘quvchini qamrab oldi. Bu dasturlar bolalarga shaxsiy hududlarni tanish, jinsiy hududlarni aniqlash, turli his-tuyg‘ularni farqlash va turli sirlarni kimlarga aytish mumkinligini o‘rgatishga qaratilgan.

Tadqiqotda kino, videoroliklar, teatr sahnalari, multimedia, qo‘shiqlar, komikslar, rangli kitoblar, o‘yinlar va qo‘g‘irchoqlar kabi ko‘plab formatlar qo‘llanilgan. Bolalar rivojlantiruvchi ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ssenariylarda o‘zini himoya qilishga tayyor bo‘lgan.

Professor Uolsh va uning hamkasblari, dasturlar bolalarga jinsiy zo‘ravonlik to‘g‘risidagi bilimlarni oshirishga yordam beradigan dalillarni topdilar. Natijada, bolalar bu dastur tugaganidan keyin ham olti oy davomida o‘rgangan ma’lumotlarini eslab qolgan.

Natijalarga ko‘ra, bolalarga ushbu ta’limiy dasturlarning yomon ta’sir ko‘rsatgani yoki ularda xavotir uyg‘otgani haqida hech qanday holatlar kuzatilmagan. Shuningdek, bu dasturlardan yomon ta’sirlar qayd etilmagan.

Tadqiqotchilar ushbu dasturlarning real samaradorligini baholash qiyinligini aytishmoqda. Tadqiqotni yakunlar ekan, professor Uolsh bolalarda uzoq muddatli ta’sirlarni o‘rganish maqsadida ularga katta hayotlarida ham kuzatuv olib borish zarurligini ta’kidladi.

Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonliklarning oldini olishga qaratilgan keyingi dastur bu - Safe Touches© dasturi[14].

Safe Touches – bu kichik yoshdagi bolalarni jinsiy zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan, ilmiy asoslangan profilaktika dasturi bo‘lib, bog‘cha va boshlang‘ich (1–3) sinf bolalari uchun mo‘ljallangan. Sinfda 45 daqiqalik mashg‘ulot ko‘rinishida o‘tkaziladigan ushbu dastur bolalar uchun qiziqarli va jonli tarzda amalga oshiriladi. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan murabbiylar qug‘irchoqlar orqali bolalarga tananing xavfsizligi haqida tushuncha berishadi. Bolalar xavfsiz va xavfli teginishlar, tananing shaxsiy qismi haqida bilim olishadi va o‘zlarini xavfsiz saqlash uchun turli vositalarni o‘rganishadi.

Mashg‘ulot tugaganidan keyin har bir bolaga My Body Belongs to Me (Mening Tanam Menga Tegishli) faoliyatlar kitobchasi beriladi. Ushbu kitobcha bolalar va ularning ota-onalari yoki vasiylari birga to‘ldirishi uchun mo‘ljallangan mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi va ingliz va ispan tillarida mavjud. Kitobcha bolalarning tananing xavfsizligi haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlaydi va uyda kattalar bilan suhbatlar orqali ularni tushunishlariga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchilarga qug‘irchoq sahnasi yozib olingan videoni namoyish qilish tavsiya qilinadi va mashg‘ulotdan bir hafta o‘tib o‘quvchilar bilan bu mavzuda savol-javob o‘tkazish mumkin. Bu faoliyatlar orqali maktab va uydagi kattalarning bolalar xavfsizligi haqidagi o‘xshash xabarlari bolalarda ishonch paydo qiladi va ular xavf yoki noqulaylik sezganda yordam olishlari mumkin bo‘lgan ishonchli kattalar borligini tushunishadi.

Nyu-York bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish jamiyati (NYSPCC) Safe Touches dasturini Nyu-York shahrida joriy qiladi va 2007 yildan buyon 50,000 dan ortiq bolalarni qamrab olgan. Hozirgi vaqtda dastur Bronksdagi

maktablarga tekin taqdim etilmoqda. Safe Touches dasturi internet orqali ham o‘qitilishi mumkin va ushbu dasturni ispan tilida ham o‘tkazish mumkin.

2014 yilda NYSPCC Safe Touches dasturini ilmiy baholash uchun ikki yillik tadqiqot o‘tkazdi. Tadqiqot bolalarning jinsiy zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha bilimlari oshganini va bu bilimlarni vaqt o‘tgan sari saqlab qolganini ko‘rsatdi. 2018–2020 yillarda Pensilvaniya shtatining Pensilvaniya davlat universiteti bilan hamkorlikda 14,000 dan ortiq o‘quvchilarda tadqiqot o‘tkazilganda ham shunga o‘xshash natijalar olindi.

Autizm va o‘xshash buzilishlarga ega bolalar orasida jinsiy zo‘ravonlikka duch kelish ehtimoli yuqori bo‘lgani uchun, dastur Nyu-York universitetining Nest Support loyihasi mutaxassislari bilan hamkorlikda autizm va o‘xshash buzilishlar bilan yashayotgan bolalar uchun moslashtirilgan. 2023 yil bahorida Nyu-York shahridagi 12 ta maxsus ta’lim sinfida dastur sinovdan o‘tkazildi. Ta’limchilar, maslahatchilar va ijtimoiy xodimlar dasturni tavsiya qildilar va dastur davomida bolalarda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha yuqori samaradorlik qayd etildi.

Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonliklarning oldini olishga qaratilgan keyingi dastur bu - Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlikdan saqlanish bo‘yicha maktab profilaktika dasturi[15].

Baland maktab o‘quvchilariga kichik yoshdagi bolalar bilan munosabatda jinsiy zo‘ravonlik holatlarini oldini olishni o‘rgatishga mo‘ljallangan yangi maktabda o‘tkaziladigan profilaktika dasturi yosh o‘smirlarga jinsiy zo‘ravonlikni oldini olish uchun asosiy bilimlarni berishda umidli ko‘rinmoqda.

Jon Hopkins Blumberg Jamoat Sog‘lig‘i maktabi tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan sinov tadqiqoti “Yosh bolalar bilan mas’uliyatli munosabat” dasturini tugallagan o‘quvchilarning jinsiy zo‘ravonlik va uning oldini olish qoidalari bo‘yicha tushunchalari oshganini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda Merilenddagi to‘rtta urban maktabdan 123 nafar 6–7-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. Dasturda bolalar va o‘smirlar o‘rtasidagi rivojlanish farqlari, jinsiy rioya qilish qoidalari, “tengdoshlar o‘rtasidagi jinsiy ta’qib” va salbiy munosabatlarning oldini olish kabi mavzular yoritildi. Tadqiqot natijalari dasturda qatnashgan o‘quvchilarda jinsiy zo‘ravonlikdan saqlanish va uning oldini olish uchun zarur bo‘lgan bilimlar oshganini ko‘rsatdi.

Mualliflar yosh o‘smirlar 14 yoshga yetmasdan oldin ushbu dasturni o‘rganish kerakligini ta’kidlaydilar, chunki bu yoshda ularda jinsiy rivojlanishga qiziqish kuchayadi. Professor Elizabet J.Leturno yosh o‘smirlarga kichik yoshdagi bolalar bilan jinsiy munosabatlar zararli va noqonuniy ekanini tushuntirishning ahamiyatini ta’kidladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dasturda qatnashgan bolalar jinsiy zo‘ravonlikni oldini olish to‘g‘risida to‘g‘ri tushunchalarga ega bo‘lishgan va kichik yoshdagi bolalar bilan jinsiy munosabatdan saqlanish niyatiga ega bo‘lgan. Tadqiqot kelajakda kengroq ko‘lamli tadqiqot o‘tkazishni maqsad qilgan.

Bu tadqiqot yosh o‘smirlar uchun juda muhim qadam ekani ko‘rinib turibdi. Jinsiy zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan bunday dasturlar o‘smirlarga hayotda kerak bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda katta yordam beradi. Maktablarda shunday ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish bolalarning xavfsizligi va himoyasi uchun zarurdir. Jon Hopkins universiteti mutaxassislarining ishi yosh avlodni himoya qilish yo‘lida muhim hissa bo‘lib, kelajakda ushbu dasturni yanada kengroq qo‘llash orqali katta samaralarga erishish mumkin.

Umuman olganda, yuqoridagi tahlil quyidagicha xulosa qilish imkonini beradi:

Birinchidan, xalqaro standartlar ahamiyati. Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlikka qarshi qonunchilik ko‘plab davlatlarda xalqaro huquq normalariga asoslanadi. Deklaratsiya va Konvensiyalar bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning jismoniy va ruhiy daxlsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning jinoiy siyosati ham xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solinishi zarur.

Ikkinchidan, g‘arb tajribasining samaradorligi. G‘arb mamlakatlarida jinsiy zo‘ravonlikni oldini olish faoliyati samarali tashkil etilgan. Masalan, Germaniya, AQSh, Kanada va Buyuk Britaniyada qonunchilik va jamoat tashkilotlari hamkorlikda ishlab, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Uchinchidan, nodavlat tashkilotlarning

roli. Ko‘plab mamlakatlarda nodavlat tashkilotlar bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga muhim hissa qo‘shmoqda. Fransiya va Italiya kabi davlatlarda nodavlat tashkilotlar o‘z mustaqil faoliyati orqali jamiyatda zo‘ravonlikka qarshi ma’rifatni oshirmoqda.

To‘rtinchidan, profilaktika dasturlarining ahamiyati. Profilaktika dasturlari yosh bolalar va o‘smirlar uchun jinsiy zo‘ravonlikni oldini olishda samarali usul hisoblanadi. Masalan, AQShdagi «Safe Touches» va jon Hopkins universitetining «Yosh bolalar bilan mas’uliyatli munosabat» dasturlari bolalarning zo‘ravonlikdan himoyalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijobiy natijalar ko‘rsatgan.

Beshinchidan, qonunchilikni takomillashtirish zarurligi. O‘zbekistonda ham bolalarni jinsiy zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlarni yanada mustahkamlash lozim. Xalqaro tajribani o‘rganish orqali milliy qonunchilikka tegishli o‘zgartishlar kiritish zarur.

Oltinchidan, ijtimoiy va madaniy normalarni o‘zgartirish.

Zo‘ravonlikka qarshi kurashda jamiyatdagi ijtimoiy normalar va qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish muhimdir. Ota-onalar, tarbiyachilar va fuqarolarni zo‘ravonlikka qarshi tarbiya va ma’rifat orqali tayyorlash bolalarning xavfsizligini ta’minlashga yordam beradi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. https://news.un.org/ru/story/2024/10/1457236
2. Насилие над детьми: статистика, леденящая душу - https://www.vaticannews.va/ru/world/news/2024-11/nasilie-nad-detmi-statistika-ledenyashaya-dushu.html
3. Қаранг: РФнинг 2011 йил 6 апрелдаги “Озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод қилинган шахсларга маъмурий назорат тўғрисида”ги қонуни, 4-моддаси иккинчи банди //
4. Педоистерия: борьба с педофилами или новая волна мирового фашизма? [Электронный ресурс] –Режим доступа: http: // www.juliusex.ru/openion/op1_1.html. – Дата доступа: 31.08.2016.
5. Статистика: педофилы стали чаще искать жертв через интернет [Электронный ресурс]. – Режим до-ступа: http://katolik.ru/mir/113967-statistika-pedofily-stali-chashche-iskat-zhertv-cherez-internet.html. – Дата доступа: 07.09.2016.
6. Авдалян А.Я. Предупреждение преступлений против половой неприкосновенности несовершеннолетних: уголовно-правовой и криминологический аспекты (компаративистское исследование). Авто.канд.юрид.наук. - Томск-2015.стр.24 // https://www.dissercat.com/content/preduprezhdenie-prestuplenii-protiv-polovoi-neprikosnovennosti-nesovershennoletnikh-ugolovno
7. H.R.4905 (109th): Sex Offender Registration and Notification Act. URL://https://www.gpo.gov/fdsys/pkg/PLAW-109publ248/pdf/- PLAW-109publ248.pdf
8. Горбачев М.А. Сексуальная преступность в России: криминологическое исследование. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва – 2015. Стр.174
9. См.: Забелина Т.Ю., Исраелян Е.В., Шведова Н.А. Канада и проблема насилия в семье: двадцать лет борьбы // Вопросы ювенальной юстиции. - М.: Юрист, 2006, № 4 (9). - С. 15-18.
10. См.: Ярошенко А. Охрана безопасности жертв домашнего насилия: международный опыт // Агентство социальной информации: Информационно-аналитический бюллетень. 2001. - № 20. - С. 13-15.
11. The Daphne III Programme (2007-2013) to prevent and combat violence against children, young people and women and to protect victims and groups at risk. URL: http://ec.europa.eu/justice/funding/daphne3/awp_daphne3_2007_en.pdf (дата обращения: 20.06.015).
12. https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/Child-Victims/Executive_Summary-Russian.pdf
13. Программы профилактики сексуального насилия над детьми. Результаты ... - https://med-special.ru/news/1/26172/
14. Safe Touches Program | NYSPCC - https://nyspcc.org/what-we-do/training-institute/professional-trainings-and-resources/safe-touches/
15. Pilot Study Finds School-Based Prevention Program Shows Promise ... - https://publichealth.jhu.edu/2022/pilot-study-finds-school-based-prevention-program-shows-promise-educating-young-adolescents-about-avoiding-child-sexual-abuse-behaviors

Qodirov To‘lqin Tolibjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi yetakchi ilmiy xodimi

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH UCHUN DRONLARDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI MILLIY MANFAATLAR

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashda uchuvchisiz uchadigan apparatlardan (dronlardan) foydalanishning dolzarbligi, milliy manfaatlar, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, tizimi va unda ishtirok etuvchi sub’ektlar to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etiladi.
Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Uchuvchisiz uchadigan apparat, dron, jamoat xavfsizligi, dastur, ommaviy tartibsizlik, saqlash, jinoyatchilik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahdid, tadbir, jamoat joylari.
В данной статье представлена информация об актуальности применения беспилотных летательных аппаратов (дронов) в целях обеспечения общественной безопасности и поддержания общественного порядка, национальных интересах, основных направлениях государственной политики, системе и участвующих субъекты.
Ключевые слова: Узбекистан, беспилотный летательный аппарат, дрон, общественная безопасность, приложение, массовые беспорядки, хранение, преступность, информационные и коммуникационные технологии, угроза, событие, общественные места.
This article presents information on the relevance of the use of unmanned aerial vehicles (drones) in ensuring public safety and maintaining public order, national interests, the main directions of state policy, the system and the subjects involved in it.
Keywords: Uzbekistan, unmanned flying apparatus, drone, public safety, program, mass disorder, storage, Crime, Information and Communication Technology, Threat, event, public places.



Hozirgi kundagi texnologik taraqqiyot asrida harbiy va huquqni muhofaza qilish sohalarida xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal qilishda zamonaviy texnologiyalardan, ayniqsa uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etayotganligi nuqtai nazaridan harbiy xizmatchi va xodimlarning bu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularda zamonaviy jangovar harakatlar teatrida muvoffaqiyatga erishish hamda jamoat xavfsizligining ta'minlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lajak ofitserlar va xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchi va xodimlarning kompitetligini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Dunyoda ro'y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to'qnashuvlar tahlili Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo'llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda.

Bunday sharoitda, avvalo, jangovar harakatlarning samarali shakl va usullarini tadqiq va tatbiq etish, uchuvchisiz uchish apparatlari kompleksini takomillashtirish ishlari ham faoliyatimizning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi"[1] deb, aytib o'tgan so'zlari fikrimizning yorqin isbotidir.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan (keyingi o'rinlarda – dronlar) foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori xavfsizlik yo'nalishida dronlardan foydalanish samaradorligi rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan ma'lum. Shunday ekan yurtimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda dronlardan foydalanish hamda qo'llash bo'yicha mutaxassisilarni tayyorlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Chunki, zamonaviy jangovar harakatlar teatrida muvoffaqiyatga erishish hamda jamoat xavfsizligining mustahkam saqlash omillaridan biri dronlar ekanligi xech kimga sir emas.

Shunday ekan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda dronlarni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish orqali xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini mustahkam saqlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun dronlardan foydalanish milliy xavfsizlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning uchun avvalo jamoat xavfsizligini ta'minlash, uchuvchisiz uchadigan apparat, dron degan tushunchalar nima ekanligini angab olish zarur.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash — bu davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim hisoblanadi [2].

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar — bu uchuvchisiz parvozni amalga oshiradigan yoki to'liq boshqa joydan masofadan turib boshqariladigan yoxud dasturlashtirilgan va parvozda to'liq avtonom bo'lgan havo kemasi (havo kemalari modellari va o'yinchoq havo kemalari modellari bundan mustasno). Uchuvchisiz uchadigan apparat o'zida odatda yaxlit tizim sifatida foydalaniladigan uchuvchisiz va masofadan boshqariladigan havo kemalarini birlashtiradi [3].

Dron — uchuvchisiz uchadigan apparatga qaraganda keng qamrovli tushuncha, u nafaqat havoda uchadigan, balki yer yuzasida, suv tubi va ustida insonlar ishtirokisiz avtonom harakatlanadigan yoki masofadan boshqariladigan robotlardir.

"Dron" so'zi inglizcha. Uning kelib chiqish tarixi 1933 yilda britaniyaliklar eski Tiger Moth o'quv samolyotlariga masofadan boshqarish pultini o'rnatdilar va unga "qirolicha ari" (Queen Bee) deb nom beradi. Biroq, qurilma foydasiz va sekin harakatlanuvchi bo'lib chiqdi, shuning uchun unga "dron" laqabini berishdi [4].

Jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun dronlardan foydalanish sohasidagi milliy manfaatlar esa quyidagilar hisoblanadi:

– jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga dronlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

– jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlarni oldinidan ko'rish hamda bartaraf etish;

– jamoat tartibini saqlash faoliyatini

tashkil etish, jamoat joylarida aholining xavfsizligini ta’minlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;

– dunyoda doimiy ravishda kechayotgan o‘zgarishlar va ular bilan bog‘liq real hamda ehtimoliy tahdidlar sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ullar tomonidan dronlardan samarali foydalanish va boshqarish ko‘nikmalarini oshirish.

– ommaviy tadbrlar va jamoat joylari, odamlar to‘planadigan maskanlarni nazorat qilish, razvedka, kuzatuv ishlarini olib borish, tartibbuzar va jinoyatchini aniqlash hamda unga nisbatan qo‘shimcha kuchlarni yo‘naltirish;

– jismoniy va yuridik shaxslarning hayotini va sog‘lig‘ini tajovuzlardan himoya qilish, ularning mol-mulkini hamda ob’ektlarini qo‘riqlash, yuridik shaxslarning qo‘riqlanadigan ob’ektlarida ichki rejimlarini nazorat qilish;

– ommaviy tartibsizliklar paydo bo‘lish o‘choqlarini aniqlash va nazorat qilish, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish uchun kerakli vositalar (maxsus vosita, o‘q-dorilar, ovoz yetkazish, chaqiriq) ishlatish va yetkazish, o‘qotar, sovuq qurol yoki insonga jismoniy shikast yetkazish va uni hayotidan mahrum qilish uchun maxsus tayyorlangan yoxud moslashtirilgan boshqa moslamalarni aniqlash va bu haqida o‘z vaqtida ma’lumotlarni mas’ul shaxslarga yetkazish;

– inson, jamiyat hayoti uchun katta xavf tug‘diruvchi murakkab vazifalarni bajarishda dronlardan foydalanish orqali odamlar hayotini saqlab qolish hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

birinchi, jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta’minlash;

ikkinchi, dronlardan foydalanish orqali jamiyatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta’minlash, shu jumladan bunday tajovuzlarning barvaqt oldini olish, ularning asosiy omillarini aniqlash va bartaraf etish;

uchinchi, har qanday ko‘rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek qo‘yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o‘q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda dronlardan foydalanish;

to‘rtinchi, ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan turizm ob’ektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashda dronlardan foydalanish;

beshinchi, transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo‘l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o‘lim bilan bog‘liq holatlarning oldini olishda dronlardan foydalanish;

oltinchi, aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda aholining ko‘nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borishda dronlardan foydalanish;

yettinchi, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlarning dronlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini doimiy tayyorligini ta’minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning qo‘llaydigan shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Qurolli Kuchlar tizimlari, huquqni muhofaza qilish hamda nazorat organlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish o‘zaro izchillik va birlikka asoslanadi hamda bu boradagi faoliyatda sansalorlik va ziddiyatlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish tizimi va unda ishtirok etuvchi sub’ektlardan iborat.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish tizimi sub’ektlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa, Transport, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Prezident va Davlat xavfsizlik, Bojxona xizmati, Milliy gvardiya, Bosh prokuratura organlaridan iborat.

Raqamli texnologiyalar, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi sub’ektlardir.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish, jumladan jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlarni oldini olishda dronlardan foydalanishga qaratilgan kompleks maqsadli davlat dasturlari ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini nazorat qiladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish masalalari bo‘yicha barcha davlat organlari va tashkilotlari, jamoat birlashmalari, xalqaro tashkilotlar hamda fuqarolar bilan samarali hamkorligini, dronlardan foydalanuvchi bevosita sub’ektlarning moddiy-texnik ta’minotini, shuningdek, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi esa jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanishga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi hamda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlarda dronlardan foydalanadi.

Shuningdek, o‘ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlash uchun, vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e’lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanadi.

Shu qatori, terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazishda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlik qiladi, davlat ob’ektlarini, o‘ta muhim, toifalangan ob’ektlarni hamda boshqa ob’ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlashda dronlardan foydalanadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun dronlardan foydalanish natijasi jamoat xavfsizligini, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini samarali tatbiq etish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashning ishonchli va samarali mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Қуролли кучлари ташкил этилганининг 31 йиллиги муносабати билан байрам табриги. https://daryo.uz/k/2023/01/13

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son Farmoniga 1-ilova. O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi Konsepsiyasi.

3. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 noyabrdagi 658-son qaroriga 1-ilova “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va davlat aviatsiyasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish hamda ularni saqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi.

4. Vikipediya. Uchuvchisiz uchish apparati /https://uz. wikipedia. org/wiki/ Uchuvchisiz uchish apparati

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Davlat huquqiy fanlar va
inson huquqlari kafedra dotsenti
yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINING HUQUQIY HIMOYASINI IJTIMOIY ZARURATI

Mazkur maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasi, huquqiy himoyaning harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatidagi ahamiyati va tutgan o‘rni, harbiy xizmatchilarning xizmat majburiyatlarni boshqa xizmat turlaridan farqli jihatlari, muhofazalangan mehnat sharoitlarida faoliyat yuritishlari va ularning huquqiy himoyasining tartibga solinishi va bu boradagi milliy qonunchilikni amaldagi holati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, jamoat xavfsizligini ta’minlash, harbiy xizmatchi, huquqiy himoya, mehnat, xizmat, majburiyat, qonun, xizmat turi, qurolli kuchlar, ijtimoiy ta’minot.

В данной статье проанализированы правовая защита военнослужащих Национальной гвардии, значение и роль правовой защиты в служебной деятельности военнослужащих, отличия служебных обязанностей военнослужащих от других видов службы, функционирование в защищенных условиях труда и регулирование их правовой защиты, а также текущее состояние национального законодательства в этой области.

Ключевие слова: Национальная гвардия, служба общественной безопасности, военнослужащий, правовая защита, труд, служба обязанность, закон, вид службы, вооруженные силы, социальное обеспечение.

This article analyzes the legal protection of National Guard servicemen, the importance and role of legal protection in the service activities of military personnel, the differences between the duties of military personnel from other types of service, functioning in protected working conditions and regulation of their legal protection, as well as the current state of national legislation in this area.

Key words: National Guard, ensuring public safety, military personnel, legal protection, labor, service obligation, law, type of Service, Armed Forces, Social Security.



Hozirgi vaqtda butun jamiyatimizda, jumladan, Qurolli Kuchlarimiz tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarda «Inson qadri uchun» degan muhim tamoyil markaziy o‘ringa qo‘yilayotgani hammaga yaxshi ma’lum. Shu asosda milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan barcha harbiylar, muhtaram faxriylarimizning Vatan va xalq oldidagi xizmatlarini munosib qadrlash, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, kundalik hayotidagi muammolarini hal etishga ko‘maklashish, ularning oilasi va farzandlarini ijtimoiy himoya qilish borasidagi ishlarimiz yildan yilga yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik va mudofaani mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda “Harbiylar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish ham kuchaydi. Jumladan, 30 mingga yaqin oila uy-joy bilan ta’minlandi, o‘tgan yil davomida 2 mingdan ortiq harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozlar berildi” – deb ta’kidlagan edi[2].

Bu jihatlar birinchi navbatda harbiy huquqni uni manbalari bilan o‘rganish juda muhimligini ko‘rsatadi. Bunday manbalar ichida eng muhimi va eng yetakchisi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Uning harakterli jihati shundaki, u o‘zida qurolli kuchlar qurilishi sohasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yish normalarini ifoda etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majbur ekanliklari mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash hamda xavfsizlikni mustahkamlash borasida davlatimiz tashqi siyosiy prinsiplarining to‘g‘ri belgilanganligi, ularni amalga oshiradigan davlat faoliyat mexanizmlarining konstitutsiyaviy tartibi belgilab berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Konstitutsiyaning 152-moddasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi” va 153-moddasiga asosan esa “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega”ligi belgilangan[1].

Harbiy huquqni ta’minlashga umumiy harbiy nizomlar bilan bir qatorda yana bir qancha meyoriy hujjatlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, bular: harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi, ofitserlar tarkibining harbiy unvonlari haqida qonunchilikda belgilanganligidir. Harbiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda harbiy boshqaruv organlarini huquqiy aktlari yetakchi o‘rinni egallaydi.

Bizning fikrimizcha, har bir harbiy xizmatchi avvalo, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolaridir. Faqat xizmat shart-sharoiti belgilaydigan cheklovlar ularning fuqarolardan farqli ravishda huquq va erkinliklarini amalga oshirishni belgilaydi.

Ta’kidlash kerakki, zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Biz bilgan barcha sohalardagi yangilik va o‘zgarishlardan ommaviy axborot vositalari, mobil aloqa vositalari, gazeta, jurnallar va boshqa vositalar orqali xabardor bo‘lmoqdamiz.

Fikrimizcha, hozirgi davrda dunyo aholisiga erkin va farovon hayot kechirishlari uchun eng zarur narsa bu tinchlik. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda jamoat xavfsizligi o‘zi nima? U qachon paydo bo‘lgan? Uning huquqiy asoslari nimalardan iborat? degan savollarga to‘xtalib o’tishimiz maqsadga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmonida Jamoat xavfsizligi - jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi degan ta’rif berilgan[3].

Albatta, jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari mamlakatimizdagi ko‘plab qonun hujjatlari asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu

mavzuga tarixiy nazar tashlaydigan bo‘lsak, Buyuk bobokalonimiz Amir Temur saltanatida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasiga va jamoat xavfsizligini saqlash sohalariga qanchalik e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Tuzuklar” kitobida keltirilgan “Saltanatning ishlarini qonun-qoida va intizomga solib, saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim”[4] degan so‘zlari ham fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi.

Yuqoridagilardn kelib chiqib bizningcha, Amir Temur davlatida harakatda bo‘lgan asosiy huquq manbalarini quyidagicha guruhlash mumkin:

birinchidan, Amir Temur davlatida islom dini hukmron mavqega ega bo‘lganligi, uning tarkibiga kirgan xalqlarning asosan shu dinga e’tiqod qilganligi uchun ham huquqning asosiy manbai musulmon huquqi hisoblangan. Musulmon huquqi – musulmon dini va arab teokratik davlati tashkil topishi bilan O‘rta asrlarda vujudga kelgan, o‘zida diniy (kanonik) va dunyoviy huquq (fiqh) ni birlashtirgan huquqiy tizimdir. Amir Temur davlati doirasida ko‘proq islomning hanafiylik mazhabi keng tarqalgan, chunki bu huquqiy maktab asosan turkiy xalqlar ichida keng yoyilgan. Bu o‘rinda shuni ta’kidlashimiz lozimki, musulmon huquqi barcha musulmon davlatlarida, jumladan, Amir Temur davlatida ham o‘zgarishsiz, bir xilda amalda bo‘lgan degan fikrni qo‘llab-quvvatlay olmaymiz. Musulmon huquqi Amir Temur tuzuklari singari dunyoviy qonunchilik normalari bilan to‘ldirib borilgan.

ikkinchidan, bu davlat harbiy-monarxik davlat bo‘lganligi uchun hamda armiya va aholining xizmat qiluvchi tabaqasi ko‘proq turk va turk-mo‘g‘ul urug‘laridan kelib chiqqan kishilar bo‘lganligi tufayli qadimgi turk huquqiy odatlari (to‘ralar) huquqning ikkinchi manbaini tashkil qilgan. Ayniqsa, davlat boshlig‘ini saylash, armiya va uning tuzilishi haqidagi qoidalar, oila va nikohning ba’zi masalalari (masalan, esirlik), suvdan foydalanish borasida ko‘plab huquqiy odatlar mavjud bo‘lgan. Keyinchalik «Tuzuklar» yozilganda, bu odatlarning, ayniqsa, harbiy qurilishga oid masalalari yozma qonunchilik bilan mustahkamlangan.

uchinchidan, dunyoviy qonunchilik bu davlatda turk-chig‘atoy va fors tillarida bitilgan yakka tartibda, sub’ektiv huquqni vujudga keltiradigan farmon va tarxon yorliqlari bilan birga normativ (umumiy) Konstitutsiyaviy ahamiyatga molik aktlar – «Temur tuzuklari» ham qabul qilingan[4].

Yana shuni ham takidlab o‘tishimiz mumkinki, Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning “Tuzuklar” kitobi o‘sha davr uchun oliy qonun vazifasini ham bajargan. Hozirgi vaqtda Konstitutsiyani yuridik hujjat - huquqning asosiy manbai deb oladigan bo‘lsak, unda davlat xokimiyati boshqaruvi tuzilishi qonunchilikning asosiy tamoyillari asosida mustahkamlab qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Konstitutsiyada davlat hokimiyati va idora organlarining tuzilishi, vazifalari, sud faoliyati hamda moliya tizimlari tartibga solingan. Shundan kelib chiqishimiz mumkinki, “Tuzuklar” hech shubhasiz, konstitutsiyaviy hujjatdir.

Misol uchun, o‘sha davrda jamoat xavfsizligi masalalari Amir Temurning “Tuzuklar” kitobi asosida huquqiy tartibga solingan. Undagi huquqiy normalarni hozirgi zamon huquq tarmoqlari bo‘yicha guruhlantirganda quyidagicha holatni ko‘rish mumkin: a) davlat huquqiy normalari - davlat boshlig‘i, vazirlar, devonlar (tarmoq boshqaruv organlari), devonbegi, davlatni boshqarish prinsiplari (mashvarat, kengash, maslahat, tura va tuzukka asoslash), mahalliy boshqaruv, harbiy va fuqaro boshqaruvini amalga oshirish maqsadida chegara viloyatlarini suyurg‘ol qilib berish va hokazo; b) fuqarolik va moliya huquqi normalari - yer, mulkning shakllari: suyurg‘ol, iqto, tanho, ularni berish tartibi, bunday mulklarni olganlarning majburiyatlari, omonatlar, soliqlar, jangda yarador va halok bo‘lgan askarlar ta’minoti va boshqalar; v) jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi - jinoyatlarga jazo berish, qozixona - dorul-amorat tashkil qilish, qozi askar, ahdos va raiyat qozilari, ularni tayinlash, yolg‘on guvohlik uchun jazo tayinlash va boshqalar; g) harbiy huquqiy normalar - armiyani tuzish, uning qo‘mondon tarkibi va ta’minoti, harbiy xizmat va xizmatchilarni moddiy-ma’naviy rag‘batlantirish, harbiy guruhlar, to‘plar va bo‘limlarni tuzish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi[5].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Sohibqiron Amir Temur saltanati ravnaq topishida uning lashkarlariga bo‘lgan huquqiy va ijtimoiy himoyaning o‘rni beqiyosdir. Chunki, agar lashkar jangga majburlov asosida kiritilsa yoki uning jang

qilishida huquqiy ijtimoiy himoya bo‘lmasa u dushman uchun jonli devor bo‘lishdan boshqa narsaga yaramaydi. Xalqimizda “Bo‘sh qop tik turmaydi” degan maqol bor. Shunga nisbatan oladigan bo‘lsak, qo‘shin tarkibidagi har bir askarni ijtimoiy jihatdan to‘liq ta’minlash lozim. Unga oziq ovqat, ust bosh, qurol yarog‘ va uning oilasi tinch hayot kechirishi uchun turar joy. Har bir jangchi agar u jangda halok bo‘lgan taqdirda ham uning oilasi va yaqinlari o‘sha mamlakat tamonidan o‘z qaramog‘iga olinishini va uni o‘zgalarning farzandlaridan kam bo‘lmasdan voyaga yetishini his qilib jangga kirsa bunday qo‘shinni hech bir g‘anim yengish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T., 2023 32 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 21-fevraldagi Xavfsizlik va mudofaani mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan muhokama yig‘ilishidagi nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/7896.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni // www.lex.uz.
4. Raximov J. Temur tuzuklari Shodlik nashryoti – T., 2018 151 b.
5. Muqimov Z. O‘zbekiston huquqining tarixiy manbalari T., 1996 59-66-betlar.

Valiboyev Izzatbek To‘xtasin o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATLARINING JINOIY-HUQUQIY TAVSIFI

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan bezorilik jinoyatini sodir etilishiga sabab bo‘layotgan omillar, uni oldini olish choralari, bu bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar va jinoiy munosabatlarda voyaga yetmaganlarning ishtiroki uchun nazarda tutilgan javobgarlik masalalari to‘g‘risida muhokama qilingan.
Kalit so‘zlar: bezorilik, motiv, maqsad, xatti-harakat va risk.
В данной статье обсуждаются факторы, способствующие совершению преступления хулиганства несовершеннолетними, меры по его предотвращению, проведенные исследования по данному вопросу и вопросы ответственности за участие несовершеннолетних в преступных отношениях.
Ключевые слова: хулиганство, мотив, цель, поведение и риск.
This article discusses the factors contributing to the commission of hooliganism by minors, measures to prevent it, research conducted on it, and issues of liability for the involvement of minors in criminal relationships.
Keywords: bullying, motivation, purpose, behavior, and risk.



Kirish. Ma'lumki, yoshlar har bir davlatning ustuni hamda uni kelajakda rivojlantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. O'sib kelayotgan navqiron yosh avlodning mazmunli hayot kechirishlari uchun zarur imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib berish jamiyatdagi barchaning vazifasidir. Shuningdek, dunyoda sodir bo'layotgan ko'ngilsiz voqealar shak-shubhasiz har bir insonga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Xususan, razil kimsalarning foyda olishni ko'zlagan harakatlari natijasida dunyo ahlini to'xtovsiz urushlar xavotirga solayotgan bir paytda hali hayotning achchiq taftini totib ko'rmagan begunoh yoshlarning hayotdan erta ko'z yumishiga yoki ruhiy jihatdan zarar ko'rishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoning boshqa bir chetida texnologiyalar va ilm-fan gurkirab rivojlanmoqda, bu esa o'z navbatida insoniyatning cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Zamonaviy yutuqlarga ega rivojlangan mamlakatlarda jinoyatchilikning oshib borishi u yerdagi insonlarni jiddiy tashvishga solmoqda. Sivilizatsiya yutuqlaridan besamar, maqsadsiz foydalanish natijasida turli xil ko'ngilsiz hodisalar, ayniqsa jinoyatlar tobora ortib bormoqda. Mazkur salbiy hodisalarda voyaga yetmagan shaxslarning ham ishtiroki borligi dunyo hamjamiyatini xavotirga qo'ymoqda.. Jinoyatchilikka qarshi kurashish BMT doirasida dolzarb bo'lgan mavzulardan biri hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan BMT bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan tushunishimiz mumkinki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar asosan yosh avlodni sog'lom muhitda kamol toptirish, ularni turli xil yod g'oyalardan asrash va rivojlanishlari uchun barcha zamonaviy imkoniyatlardan foydalanishni tashkil etishdan iborat ekanligidan dalolat beradi. Ushbu anjumanda, yurtboshimiz tomonidan yoshlar siyosatiga oid quyidagi fikr-mulohaza va takliflar ilgari surilgan ya'ni "Aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo'lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Ayni paytda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish, boshqa mintaqalarning ilg'or tajriba va yutuqlarini o'rganishdan manfaatdormiz. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etishni taklif etaman. Uning doirasida "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030" dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir" [1]

Ta'kidlash joizki, Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning miqdori so'ngi vaqtlarda ortib borayotgani kishini taajjubga solmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda 3600 nafar voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir etgan. Mazkur ko'rsatkich, oldingi besh yil davomidagi sodir etilgan jinoyatlar ko'rsatkichidan 4.4 barobarga oshganini ko'rsatmoqda. Yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan tovlamachilik 70%, bezorilik 60%, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish 40%, nomusga tegish va odam o'ldirishga urinish jinoyatlari 20% ko'paygani aniqlangan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar eng ko'p 700 nafari Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan. Keyingi o'rinlarda, Toshkent shahri – 545, Namangan viloyati – 451, va Toshkent viloyati – 345 kishi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax – 54, Navoiy – 62, va Xorazm – 66 nafar voyaga yetmagan shaxs qayd etilgan.[2]

Muhokama va natijalar. Bezorilik jinoyati – jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat bo'lib, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik orqali sodir etiladigan harakat natijasida shaxsni urish-do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish va o'zga shaxsning mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish hamda nobud qilish bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Bezorilik jinoyatining asosiy bevosita obyekti sifatida jamoat tartibini ta'minlovchi munosabatlar hisoblanadi. Mazkur jinoyatning qo'shimcha bevosita obyekti shaxsning sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati shuningdek o'zganing mulk xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Obyektiv tomondan olib qaraganda bezorilik jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish natijasida ancha miqdorda zarar yetkazishda aks etadi. Shuningdek, bezorilik jinoyati obyektiv tomonining muqarrar belgisi jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzish orqali urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish va o'zganing mulkini

nobud qilish hamda shikast yetkazish o‘rtasidagi aloqa hisoblanadi.[3]

Shu bilan birga, subyektiv tomondan bezorilik to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladigan xatti-harakatdir. Bezorilik jinoyatini sodir etgan aybdor shaxs jamoat tartibini buzayotgani, ushbu hodisa natijasida o‘zga shaxsni yoki hokimiyat vakilini urib do‘pposlayotgani, badanga yengil shikast yetkazayotgani va o‘zganing mulkini nobud qilayotgani hamda shikast yetkazayotganini anglab yetadi yoki amalga oshirishni istagan bo‘ladi. Mazkur jinoyatning motivi bezorilik ya’ni jamiyatga ochiqdan-ochiq hurmatsizlik motivi tarzida ayblanuvchi o‘zini atrofdagilarga qarshi qo‘yishda, o‘zining alohida shaxsiyatini namoyon qilishda hamda dag‘al kuchni ko‘rsatishda aks etadi. Ushbu holatda jinoiy harakat qanday predmetga qaratilganligi va qaysi munosabatlar tizimida amalga oshirilayotganligi ahamiyatga ega emas hisoblanadi. Bezorilikning maqsadi dag‘al zo‘rlik ishlatish yo‘li bilan jabrlanuvchini esankiratib qo‘yish, uning irodasini sindirish va uni o‘z hukmiga o‘tkazish holatida yuzaga keladi. JKning 17-moddasiga muvofiq, o‘n olti yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs JK 277-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan bezorilik jinoyatining subyekti hisoblanishi hamda mazkur moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari bo‘yicha o‘n to‘rt yoshga to‘lgan shaxslar ham shunday subyekt sifatida e’tirof etilishi nazarda tutilgan.[4]

Bundan tashqari, bezorilik jinoyatini sodir etganlik uchun javobgarlik masalalari JKning 277-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib unga ko‘ra, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish natijasida ancha miqdorda zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lsa BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima, 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilangan. Mazkur moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar uchun ya’ni badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazib, bir guruh shaxslar tomonidan, sovuq qurol yoki kishining sog‘lig‘i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo‘lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo‘llash bilan qo‘rqitib yoxud qo‘llab, o‘z mazmuniga ko‘ra umum e’tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o‘taketgan behayolik, yosh bola, qariya, nogironligi bo‘lgan shaxs yoki ojiz ahvoldagi shaxslarni xo‘rlab va ko‘p miqdorda zarar yetkazib, birovning mulkini nobud qilib yoki unga shikast yetkazib sodir etilgan bo‘lsa 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan cheklash va uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Qolaversa, JK 277-modda uchinchi qismida ko‘rsatilgan xatti-harakatlar uchun (takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, o‘qotar qurolni namoyish qilib, uni qo‘llash bilan qo‘rqitib yoki qo‘llab, ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan vaqtda va jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko‘rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko‘rsatib sodir etilgan bo‘lsa uch yildan besh yilgacha ozodlikdan cheklash yoxud mazkur muddat holatida ozodlikdan mahrum qilish bilan javobgarlik belgilanishi mustahkamlangan.[5]

Shuningdek, JK 17-moddasiga asosan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan bezorilik jinoyatini sodir etganlik uchun JK 277-modda ikkinchi va uchinchi qismida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo‘llaniladi. Mazkur holatda voyaga yetmagan shaxslar tomonidan JK 277-moddasi ikkinchi va uchinchi qismida ko‘rsatilgan xatti-harakatlar sodir etilishi kerak bo‘ladi. Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan javobgarlik choralari voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. JKning 81-moddasiga muvofiq, 18 yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan asosiy jazodan tashqari qo‘shimcha jazo qo‘llanilmasligi nazarda tutilgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, voyaga yetmagan shaxslar JK 17-moddasida ko‘rsatilgan javobgarlik yoshiga nisbatan qo‘llaniladigan jazo choralariga muvofiq sodir etgan bir jinoyatlari uchun javobgarlikka tortiladilar.

Ta’kidlash joizki, voyaga yetmaganlarni bezorilik jinoyatini sodir etishga undayotgan sabablar keng doiradagi risklarga borib taqalmoqda. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi: psixiatrik muammolar ya’ni depressiya, xavotirlik, ijtimoiy zaiflik, ta’limdagi muvaffaqiyatsizlik, darslarda

passiv tarzda ishtirok etish va boshqa zo‘ravonlik ko‘rinishidagi xulq-atvorlar. Jismoniy mushtlashish ostidagi bezorilik asosan chekish, alkogol mahsulotlariga ruju qo‘yish va boshqa jinoyatlarda ishtiroki bilan asoslanadi. 2019-yilda AQSHda o‘tkazilgan yoshlar jinoyatchiligiga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash (the Youth Risk Behavior Survey) natijalariga muvofiq, 19.5 % maktab o‘quvchilari tomonidan bezorilik jinoyati sodir etilganligi aniqlangan.[6] O‘tgan yillik bilan mazkur ko‘rsatkich o‘rtasida deyarli farq yo‘qligi o‘rganilgan. Qolaversa, ushbu tadqiqotga ko‘ra, dunyo bo‘yicha eng ko‘p qaysi mamlakatning maktab o‘quvchilari bezorilik jinoyatini sodir etganligi va tengdoshlari tomonidan bezorilikdan jabr ko‘rgan o‘quvchi yoshlarning holati aks etgan statistik ma’lumotlar ko‘rsatilgan. Mazkur statistik ma’lumotlarga muvofiq, Litva davlatida 49%, Latviya 41%, Belgiya 40% va eng past ko‘rsatkich Italiya 8%, Islandiya 8% va Armaniston 6% bilan joy olgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, voyaga yetmagan shaxslar xususan maktab o‘quvchilari tomonidan bezorilik jinoyati sodir etilganligi yuqori ko‘rsatkich bilan Litva davlatida qayd etilgan.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar fuqarolar ayniqsa yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlari uchun zamonaviy imkoniyatlar yaratish hisoblanib bu bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu o‘z navbatida yoshlarga nisbatan qonunlarga rioya etish, taqdim etilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish va barcha sohalarda yuqori o‘rinlarni zabt etish talab etiladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar sonining ortib borishi jamiyatda barcha fuqarolar hamda davlat organlari birgalikda jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha harakat qilishligi taqozo etilmoqda. Qonunchiligimizda voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik mexanizmlari mustahkamlangan bo‘lib, jinoyat subyekti yoshiga to‘lgan shaxslarga hamda istisno holatlarida 18 yoshga to‘lmagan fuqarolarga ham tatbiq etilishi nazarda tutilgan. Bezorilik jinoyati jamoat tartibiga qaratilgan bo‘lib, buni sodir etilishi natijasida jamiyatga hamda fuqarolarga jiddiy zarar yetkazishga olib keladi. Shuningdek, mazkur jinoiy xatti-harakatlarni oldini olish maqsadida yoshlarning qonuniy vakillari tomonidan ularni muntazam ravishda nazorat qilishlari, ularning bo‘sh vaqtlari paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasliklari va har bir jinoyatning ortida muqarrar jazo borligi, buni oqibatida jamiyat va oila manfaatlariga zarar yetishi hamda mazmunli hayot kechirishning ijobiy tomonlari haqida ma’lumot berib borishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqoridagi tahlilimiz davomida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan bezorilik jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi, javobgarlik masalalari va dunyoda bezorilik jinoyatini sodir etishga undayotgan sabablar hamda bu bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini muhokama qilib o‘tdik.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси суд органларининг безориликка оид ишлар юзасидан суд амалиёти. – Тошкент: Судьялар Олий Кенгаши нашриёти, 2023.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. – Режим доступа: https://president.uz – Сана: 2024.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги. – Электрон манзил: info@stat.uz – Мурожаат қилинган сана: 2024.
5. Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи: Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2007. – 656 б. – ISBN 978-9943-332-24-9.

Shamsiddin Turdaliyev
mustqil izlanuchi

XALQ DEPUTATLARI VILOYAT, TUMAN, SHAHAR KENGASHLARI DEPUTATLARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Ushbu maqolada mahalliy vakillik organlari deputalarining Konstitutsiyaviy maqomi, ularning mahalliy ijro hokimyati ustidan nazorati, maxalliy vakillik organlari faoliyatini takomillishtirish masalalari muhokama qilinadi.
Kalit so'zlar: deputat, mahalliy vakillik organi, mahalliy ijro hokimyati, hokim, referendum.
В данной статье рассматривается конституционный статус депутатов местных представительных органов, их контроль над местной исполнительной властью, совершенствование деятельности местных представительных органов.
Ключевые слова: Депутат, местный представительный орган, местная исполнительная власть, хаким, референдум.
This article discusses the constitutional status of Deputies of local representative bodies, their control over the local executive authority, improvement of the activities of local representative bodies.
Key words: Deputy, local representative body, local executive authority, governor, referendum.



Dastlab, maxalliy kengashlar shakllanishining tarihiga nazar solsak, mazkur xolat asrlar davomida O‘zbekiston davlatchilik tarixida shakllangan davlat boshqaruv ishlarida xalq bilan maslahatlashuv, ularni davlat boshqaruvida ishtirok yetishini ta’minlash shaklining ming yillar davomida shakllangan ko‘rinishi xisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida hokimyatning vakillik organlarini shakllantirishda hokimyatni saylash va shakllantirishda xalq xohish irodasining erkin namoyon bo‘lishini ta’minlay olmasak, eng yetuk, yuksak demokratik tamoyillarga javob beradigan saylov tizimini markazda ham, joylarda ham joriy etmasak, bularning barchasi quruq gap bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimyat tizimi munosabatlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, bu munosabatlar mahalliy hokimyat tizimi organlari faoliyati bilan uzviy bog‘liq va shu organlar orqali amalga oshiriladi. Bu davlat hokimyatining yuqori va mahalliy organlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi munosabatlardir. Bunday munosabatlar natijasida tegishli hudud aholisi bevosita o‘z deputatlari korpusi orqali xalq deputatlari Kengashlarini, ya’ni mahalliy davlat hokimyatini amalga oshiruvchi organlarni tashkil yetadi. Deputat o‘ziga saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi, ularni hal yetish chora-tadbirlarini ko‘radi, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishi deputatning saylovchilar bilan olib boradigan ishlarining bir qismi hisoblanadi. [1]

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari faoliyatini sifat jixatdan yangi bosqichga olib chiqish, shuningdek mamlakatimizda mahalliy davlat hokimyati tizimida boshlangan islohotlarning xuquqiy asosi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Avvalo, mazkur yangi taxrirdagi Konstitutsiyaning 36-moddasida, “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok yetish huquqiga yega. Bunday ishtirok yetish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi” deb belgilab qo‘yilgan. Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari o‘zlarining siyosiy huquqlarini bevosita o‘zlari yoki o‘z saylab qo‘ygan vakillari orqali amalga oshiradilar. Fuqarolar o‘z siyosiy huquqlarini o‘z vakillari orqali amalga oshirishi deyilganda, ularning o‘z saylagan deputatlari orqali mamlakat siyosiy hayotida ishtirok yetishlarini tushunish munkin. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimyati oliy hamda mahalliy organlarga ajratiladi. O‘z navbatida maxalliy davlat hokimyati mahalliy ijro hamda vakillik organlariga bo‘linadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 120-moddasida: «Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlaridir» deb belgilab qo‘yilganligi, 121-moddasida yesa tegishli hududdagi ijro yetuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qilishi belgilab qo‘yilganligi, mahalliy hokimyatning ijro hamda vakillik organlariga bo‘linishini konstitutsiyaviy asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining eski taxrirdagi Konstitutsiyasining 99-moddasida quyidagilar, ya’ni: “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar” [2] deb belgilab qo‘yish orqali, maxalliy ijro hokimyati raxbarlariga, ya’ni viloyat, tuman va shahar hokimlariga tegshili mahalliy vakillik organlariga raxbarlik qilish huquqi berilgan edi. Natijada, hokimyatlarning bo‘linish prinsipi buzilib, ham ijro, ham vakillik organi raxbari sifatida joylarda hokimlar faoliyat yuritib kelagn edilar. Mazkur xolat maxalliy vakillik organlarining ish samaradorligi hamda sifatini tushirib kelmoqda edi. Mamlakatimizda o‘tkazilgan Konstitutsiyaviy isloxotlar natijasida, yangi taxrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasida quyidagilar, ya’ni: “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan

shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlaridir. Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas” [3] deb belgilab qo‘yildi. Mazkur moddaning ikkinchi qismida maxalliy vakillik organlari faoliyatiga mazkur deputatlar orasidan saylangan rais boshchilik qilishi, uchinchi qismida esa viloyat, tuman, shaxar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs boshchilik qila olmasligi qat’iy konstitutsiyaviy norma tariqasida kiritilishi bilan formal miqyosda tegishli hokimlar ham ijro, ham vakillik organlari raxbari bo‘lish amaliyoti to‘liq tugatildi. Natijada, maxalliy vakillik organlari o‘z faolyaitida yangi bosqichga ko‘tarilib, ular chinakam xalq vakillari sifatida, o‘z saylovchilarining xuquq va manfaatlarini hududiy miqyosda himoya qiluvchi vakillik organlariga aylanmoqda.

Bizningcha, maxalliy vakillik organlari faoliyatini yana ham samarali yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman:

birinchidan, bugungi kunda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi. Natijada deputatlar o‘z lavozim majburiyatlarini hamda deputatlik faoliyatini bir vaqtda amalga oshirib kelmoqdalar. Mazkur omil, mahalliy vakillik organlari deputalari ish faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga qiyinchilik tug‘dirmoqda. Mahalliy vakillik organlarida ham professional (doimiy) tarzda ishlovchi deputatlar korpusini shakllantirish orqali maxalliy vakillik organlarini xam ta’sirchan mexanizmga aylantirish, eng asosiysi hudulardagi muommolarni tezkorlik bilan xal qilish mexanizmini yaratish;

ikkinchidan, hudularda mahalliy vakillik organlari tomonidan ijro organlari faolyatini ta’sircha nazorat qilish maqsadida “Xalq deputatlari Kengashlari nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilish, hamda mazkur qonunda mahalliy deputatlar vakolatini kengaytirsh orqali, hududiy ijro organlari ustidan nazoratni kuchaytirish;

uchunchidan, tuman, shaxar hokimi lavozimiga nomzod ko‘rsatish tartibini qayta ko‘rib chiqish, bunda hokimlikka nomzod mahalliy kengashda hududni rivojlantirish bo‘yicha o‘z dasturini himoya qilib, lavozimga tasdiqlanish tartibini joriy qilish.

Xulosa qilib aytganda, Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bog‘inga aylantirish hamda mahalliy davlat hokimyati faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, bir so‘z bilan aytganda mahalliy davlat hokimyati vakillik organlarini xalqning chinakam ovoziga aylantirish bugungi kunda mahalliy davlat hokimyatitizimida amalga oshirilayotgan isloxotlarning pirovard maqsadi hisoblanadi.

◄ Iqtiboslar/Сноски/References

1. Дехқонов Н.Б. Ўзбекистонда махаллий давлат ҳокимяти вакиллик органларининг шаклланиш тарихи. Монография./-Т.: “Иқтисодиёт”, 2015. -156
2. «Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон;
3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон; https://lex.uz/docs/6445145

E.O.Xomidov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari, yu.f.b.f.d (PhD),
dotsent

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARINING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY ASOSLARINI NAZARIY TAHLILI

Maqolada oliy ta’lim tashkilotlarining tadbirkorlik faolityaini amalga oshirishdagi huquqiy asoslari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Ta’lim to‘g‘risidagi, tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari to‘g‘risidagi va Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunlarning muassasalar tadbirkorlik faoliyatiga oid normalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati, notijorat tashkilotlar, daromad, foyda olish, pullik ta’lim xizmatlari.

В статье исследуется правовая база организаций высшего образования при осуществлении предпринимательской деятельности. Изучаются Гражданский кодекс Республики Узбекистан, нормы законов “Об образовании”, “О свободе предпринимательской деятельности” и “О некоммерческих организациях”, касающиеся предпринимательской деятельности учебных заведений.

Ключевые слова: предпринимательская деятельность организаций высшего образования, некоммерческие организации, доход, извлечение прибыли, платные образовательные услуги.

The article explores the legal framework of higher education organizations in the implementation of entrepreneurial activism. The Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the norms of the laws on education, on the freedoms of entrepreneurial activity and on non-profit organizations regarding the entrepreneurial activity of institutions are studied.

Keywords: entrepreneurial activity of higher education organizations, non-profit organizations, income, profit making, paid educational services.



Bugungi kunda dunyo hamjamiyati shiddat bilan rivojlanib bormoqda va insoniyat oldiga yangidan-yangi muammolarni hal etish vazifasini qo‘ymoqda. Shu bois, insoniyat oldida turgan ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni hal qilish, davlat va jamiyatni har tomonlama taraqqiy ettirish uchun fuqarolik huquqi har bir sub’ektining munosib ishtirokini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ana shunday o‘zgarishlar natijasida oliy ta’lim muassasalari eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo‘lib, u o‘zining yuqori ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan kadrlari va tadbirkorlik faoliyatining istiqbolli ko‘rinishlariga ega bo‘lmoqda. Har bir sohada yuqori natijaga erishish uchun zamon talablariga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatishda, eng avvalo oliy ta’lim muassasalarining o‘rni muhim hisoblanadi.

Shu o‘rinda G‘arb iqtisodchi olimlarining “Iqtisodiytaraqqiyot-butadbirkoruniversitet muvaffaqiyatli faoliyatining natijasidir[1]”, degan fikriga qo‘shilamiz. Bugungi kunga kelib dunyoning yetakchi va nufuzli oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarning faoliyatini samarali amalga oshirishlari uchun tadbirkorlik infratuzilmasini barpo etishga e’tiborlarini qaratishgan.

Bu borada mamlakatimizda ham davlat oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab - quvvatlash, kelajakda bosqichma - bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirishga o‘tkazish borasida o‘ta muhim ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF – 5847-son Farmoni[2] shular jumlasidandir.

Davlat oliy ta’lim muassasalari tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident Farmon va Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining Qarorlari hisoblanadi.

Davlat oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy asoslar asosan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020 yil 23 sentyabrdagi 637-son, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi 1999 yil 14 aprel 763-I-son, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi 2012 yil 2 maydagi O‘RQ-328-son qonunlar hisoblanadi.

Garchand, mazkur qonunlar notijorat tashkilotlar sirasiga kiruvchi davlat oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatini cheklamasada, muassasalar tadbirkorlik faoliyatini cheklangan huquq layoqati doirasida amalga oshiradi.

Yuqoridagi qonun va qonun osti hujjatlar davlat oliy ta’lim muassasalarining istiqbolini belgilab beruvchi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati sub’ekti sifatidagi maqomini mustahkamlash, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va uni tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlar hisoblansa-da, lekin muassasalarning aynan tadbirkorlik faoliyatini maxsus tarzda tartibga solmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining 2-moddasi birinchi qismida muassasalar – notijorat tashkilotlar “... daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan”[3] tashkilot sanalishi belgilangan.

Fuqarolik qonunchiligimizda muassasalarga oid tushunchalarning turli xil tarzda qo‘llanilishi yoki terminlarning aniq qo‘llanilmasligi muassasalarning, OTTlarning ham tadbirkorlik faoliyatiga sun’iy to‘siqlar mavjudligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxslarni tijoratchi va tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga ajratilishini mantiqan noto‘g‘ri holat deb hisoblaymiz. Chunki, yuridik shaxslarni tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga ajratilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida muassasalarni o‘zining qobiliyatini to‘laqonli namoyon qilishga to‘sqinlik qiladi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi FKning 40-moddasida yuridik shaxslarning turlarini tijoratchi va tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga bo‘linishi ham biroz g‘alati holat bo‘lib, bu yuridik shaxslarning turlarini tor ma’noda talqin qilinishiga olib keladi. Shuningdek, mazkur normada tijoratchi va tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga savdo-sotiqni, oldi-sotdini amalga oshiruvchi va mana shunday faoliyatni amalga oshirmaydigan tashkilotlarga bo‘linishi davlatlarning hozirgi rivojlanish siyosatiga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki, davlat ichidagi tijoratchi bo‘lgan yuridik shaxslar

tijoratchilik bilan shug‘ullanadigan bo‘lsa, ishlab chiqarish, innovatsion yangilanish, raqobat, o‘sish, tavakkalchilik, yangi ish o‘rinlarini yaratish kabi omillarni cheklab qo‘ygan bo‘lamiz.

Shu bois, yuridik shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini erkin amalga oshirishi, davlatimizni iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlash va o‘zining mavjud imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi FKning 40-moddasidagi tijoratchi va notijorat tashkilotlar so‘zini quyidagi tahrirda “foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tadbirkorlik faoliyatini o‘zining asosiy maqsadi qilib olmagan) bayon qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Fuqarolik qonunchiligimizda tijorat, tadbirkorlik, daromad (foyda) kabi tushunchalarning huquqiy mohiyati yetarli darajada ochib berilmaganligi ba’zi noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, davlat oliy ta’lim muassasasining tadbirkorlik faoliyatidan ko‘ra daromad (foyda) olishi kengroq tushuncha sanaladiki bu tushuncha O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 mayda yangi tahrirda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda yetarlicha talqin qilinmagan. Shuningdek, davlat oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi qonunchiligimizda yetarli darajada o‘z aksini topmaganligi turli xil anglashilmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Davlat oliy ta’lim muassasasi jamiyatda davlatning oliy malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etilsa, bunday holatda u fuqarolik huquqining sub’ekti sanaladi. Chunki, OTTlar xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida etirof etilib, tadbirkorlik faoliyatining sub’ekti sanalmaydi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 40-moddasining to‘rtinchi qismi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 62-moddasi uchinchi qismi va “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasida OTTlarni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun huquqiy asoslar belgilanganligi ularni tadbirkorlik faoliyatining sub’ekti sifatida e’tirof etish uchun yetarli emas.

Oliy ta’lim muassasalari ham xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida, ham tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs sifatida huquqiy maqomga ega. Agar davlat oliy ta’lim muassasalari faqatgina ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilsa, bunday holda fuqarolik huquqining sub’ekti sifatida vujudga keladi. Shuningdek, davlat oliy ta’lim muassasasi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun davlat ro‘yxatidan o‘tadigan bo‘lsa, bunday holda tadbirkorlik huquqining sub’ekti sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri) 4-moddasiga asosan tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari (tadbirkorlik sub’ektlari) belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir[4], deb qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Nazarimizda, davlat oliy ta’lim muassasalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda uni jamiyatimiz va davlatimiz uchun salohiyatli kadrlarni tayyorlash imkoniyatlari mavjud yoki yo‘qligi, uning moddiy-texnik bazasi davlat talablariga javob bera olishi kabi holatlar inobatga olinib ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Fikrimizcha, aynan davlat oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega yoki yo‘qligini inobatga olib akkreditatsiyadan o‘tkazish amaliyoti mavjud emas.

Notijorat tashkilotlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi fuqarolik qonunchilik normalarini solishtiradigan bo‘lsak, muassasalarning tadbirkorlik faoliyatiga turli xil tarzda ruxsat berilganiga guvoh bo‘lamiz. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasida nodavlat notijorat tashkilotining tadbirkorlik faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq o‘z ustav maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin[5] degan huquqiy asosi belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 62-moddasi uchinchi qismida ta’lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishga haqli[6] ekanligi ko‘rsatilgan. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasida muassasalarning tadbirkorlik faoliyati erkinligi cheklab qo‘yilgan. Agar OTTlar o‘z

ustav maqsadlariga mos keladigan doirada tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishini belgilab qo‘yadigan bo‘lsak, muassasa faqat ta’lim berish, o‘qitish kabi ishlarni amalga oshirish orqali pulli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanishi kerak bo‘ladi. Masalan, davlat oliy ta’lim muassasasi notijorat tashkilot sanalsa-da, muassasaning tadbirkorlik faoliyati o‘z ustav vazifalariga muvofiq va ustaviga zid kelmagan tarzda tadbirkorlik faoliyati orqali amalga oshiriladi. Aynan mazkur tamoyil “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 62-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, muassasaning, shuningdek, davlat OTTning tadbirkorlik faoliyati quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi, deb hisoblaymiz:

birinchisi, asosiy faoliyat turi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan (tashkil etilish maqsadiga ko‘ra), (ta’lim berish (shartnoma asosida), malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ilmiy loyiha va konstruktorlik ishlarini bajarish, noshirlik ishlarini tashkil etish, korxonalar bilan xo‘jalik shartnomalarini imzolash, pullik huquqiy maslahatlar berish va xizmatlar ko‘rsatish);

ikkinchisi, asosiy faoliyat turi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan (qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tavakkalchilikka asoslangan va mulkiy javobgarligiga ko‘ra) (o‘z hududida avtotransport turargohlar tashkil etish, mol-mulklarni ijaraga berish, umumiy ovqatlanish shoxobchalarini tashkil etish, maishiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, laboratoriya xona va jihozlarini ijaraga berish, transport mashinalarini ijaraga berish, bosmaxonalar tashkil etish va x.k.

Davlat oliy ta’lim muassasalari birinchi faoliyat turiga ko‘ra quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

innovatsion faoliyatga asoslanganlik;

ilmiy tadbirkorlik g‘oyalarining mavjudligi;

iste’molchilarning ehtiyojlariga mos xizmat ko‘rsatish (ta’lim berish, kadrlar tayyorlash);

faoliyatini davlat buyurtmasi asosida emas, balki bozor ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish;

ta’lim xizmatlari bozorida yuksak raqobatbardoshlikni ta’minlash;

iste’molchilarning ehtiyojlariga asosan ilmiy tadqiqot, tajriba konstruktorlik va xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish.

Ikkinchi faoliyat turiga ko‘ra quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

tavakkalchilikka asoslanganlik;

xo‘jalik yuritish yo‘lini erkin tanlash;

yuksak darajada foydali va samarali xo‘jalik yuritishni ta’minlash;

xizmat ko‘rsatish faoliyatini bozor talablari asosida yo‘naltirish.

Shu bois, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 31 moddasini quyidagi tarzda tahrir etilishini taklif etamiz:

“Nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq o‘zining tashkil etilish maqsadlariga mos keladigan doiralarda, shuningdek o‘zining asosiy faoliyatidan chalg‘itmaydigan tarzda tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishga haqli”.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunda mazkur normaning kiritilishi davlatimizning rivojlanish istiqbollariga mos keladi. Shuningdek, muassasalarning ham o‘zini o‘zi moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida davlat oliy ta’lim muassasalarining pulli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishi uchun ruxsat berilganligi muassasalarning tashkiliy- huquqiy shakliga nisbatan noto‘g‘ri qarashlarni vujudga keltirmasligi lozim.

Z.B. Qo‘ziev “oliy ta’limda tadbirkorlik faoliyati deganda – oliy ta’lim muassasi tomonidan amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan tavakkal qilib ish ko‘radigan, o‘zining mulkiy javobgarligi asosida jamiyat, davlat va aholi ehtiyojlariga mos bilimlarni oshirishga qaratilgan va ma’lum darajada foyda olishni ta’minlaydigan faoliyat[7]”, tushunilishini ta’kidlaydi. Ta’kidlash joizki, OTTlarning pulli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishi ixtisoslashgan faoliyatga aylangandagina tadbirkorlik faoliyatining sub’ekti sifatida e’tirof etish mumkin bo‘ladi. Z.B.Qo‘zievning fikrlari oliy ta’limda tadbirkorlikni tor ma’noda talqin qilinishiga olib keladi. Chunki, OTTlarning tadbirkorlik faoliyati keng tushuncha sanaladiki, bunda nafaqat bilim berish, o‘zining asosiy faoliyatidan chalg‘itmaydigan boshqa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi ham mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarining daromad keltiruvchi faoliyati ular asosiy faoliyatining maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki, oliy ta’lim muassasalarining byudjetdan tashqari daromad (foyda) keltiruvchi faoliyatida muassasa tadbirkorlik faoliyatining sub’ekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan turib, bir martalik pulli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishi, bankda omonatga pul qo‘yishi, qimmatli qog‘ozlarni sotib olishidan tortib daromad (foyda) olishni ixtisoslashgan faoliyat turiga aylantirgan barcha faoliyati kiradi. Oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyati esa, doimiy foyda olishga qaratilgan bo‘ladi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarining daromad (foyda) keltiruvchi faoliyati tadbirkorlik faoliyatidan keng tushuncha sanaladi.

Oliy ta’lim muassasasi boshqaruvining asosiy rolini oshirish, oliy ta’lim muassasasining boshqa tadbirkorlik sub’ektlari bilan aloqalarini o‘rnatish, oliy ta’lim muassasasining moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, oliy ta’lim muassasasi kafedralarining tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, integratsiyalashgan tadbirkor madaniyatini oshirish haqida fikrlar mavjud[8].

Oliy ta’lim muassasasi notijorat tashkilot hisoblanib, mazkur holatda OTTlarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun qanday tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo‘lishi mumkin? – degan haqli savolni keltirib chiqaradi. Ammo qonunchiligimizda muassasalarning, jumladan, oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun turli tuzilmalarni tashkil qilish tartib - taomillari keltirilmagan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyada “Fuqarolik kodeksida ko‘p miqdordagi havolaki normalarning (80 ga yaqin) mavjudligi kodeksning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi hujjatga aylanishiga to‘sqinlik qilmoqda va uning fuqarolik - huquqiy munosabatlarni tartibga solish borasidagi maqomini pasaytirmoqda[9] ligi ta’kidlangan edi. Haqiqatdan ham FKda notijorat tashkilotlarning tadbirkorlik faoliyatini to‘g‘ridan – to‘g‘ri tartibga soluvchi norma mavjud emas. Bu esa, mazkur turdagi tashkilotlarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ba’zi anglashilmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga quyidagicha norma kiritilishi maqsadga muvofiq sanaladi:

781-modda. Tadbirkorlik faoliyatini o‘zining asosiy maqsadi qilib olmagan tashkilotlarning tadbirkorlik faoliyati.

Tadbirkorlik faoliyatini o‘zining asosiy maqsadi qilib olmagan tashkilotlar o‘z ish faoliyati jarayonini ta’minlash uchun, o‘zining ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq, asosiy faoliyatini amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydigan yoki asosiy faoliyat maqsadidan chalg‘itmaydigan tarzda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Bunda tadbirkorlik faoliyatini o‘zining asosiy maqsadi qilib olmagan tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini tizimli ravishda tashkil etishi va amalga oshirishi, mustaqil, daromad (foyda) olishga qaratishi lozim.

OTTlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirib borish o‘z-o‘zidan quyidagi ijobiy holatlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi:

birinchidan, OTTlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga olib keladi va buning natijasida ta’lim xizmatlari bozorida raqobat kuchayadi;

ikkinchidan, OTTlarda davlat byudjetidan moliyalashtirish darajasini pasaytirib, muassasaning qo‘shimcha ehtiyojlarini o‘z vaqtida, zarur paytlarda qanoatlantirish imkoniyati vujudga keladi;

uchinchidan, ta’lim oluvchilarning kelajakda o‘z ish o‘rinlarini tez topishlari uchun zamin yaratiladi;

to‘rtinchidan, xalqaro talablarga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi;

beshinchidan, OTTlarning tadbirkorlik faoliyatini boshqarish uslubini qabul qilishi, ichki va tashqi aloqalarni kuchaytirib qonuniy faoliyat bilan o‘z daromadlarini ko‘paytirish imkoniyatlari vujudga keladi.

Xulosa qilib aytganda, OTTlarning tadbirkorlik faoliyati deganda, ta’lim jarayonini ta’minlash uchun daromad olish maqsadida o‘zining ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida pulli ta’lim xizmatlari ko‘rsatishi, o‘zi tomonidan xavf - xatarni zimmasiga olgan holda, shuningdek, asosiy faoliyatini amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydigan yoki asosiy faoliyat maqsadidan

chalg‘itmaydigan hamda qonun hujjatlariga muvofiq tizimli ravishda tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan, mustaqil, daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir.

◄ **Iqtiboslar/Сноски/References**

1.Ropke J. “The Entrepreneurial University: Innovation, academic knowledge creation and regional development in a globalized economy”, N.Y., 1998. – P. 11.
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 2 майда қабул қилинган “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 18-сон, 201-модда.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й.,. – 5-сон, 115-модда.
6. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган Таълим тўғрисидаги ЎРҚ-637-сон Қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.
7. Қўзиев З.Б. Таълим тизимида хизматлар ва тадбиркорлик фаолияти самарадорлигини ошириш: Иқт. фан. бўйича фал. докт. (PhD) Дисс... автореф. - Самарқанд: 2020. – 12- б.
8. Clark Berton. Creating Enterpreneurial Universities: Organizational Pathways of Transormation. London and New York: International Association of Universities Press and Pergamon-Elsevier Science, 1998.
9. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2019 й., 08/19/5464/2891-сон.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
2022-yil 25-yanvar kunidagi №1507-sonli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining
Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Formati 60x84, 1/8. Segoe UI garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 3,6.